

# ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY TAЪLIM, FAN VA INNOVACIYALAR VAZIRLIGI



## «ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҶАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ VA КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА РАҚАМЛИ ҲАМДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФойДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

## МАТЕРИАЛЛАРИ

(III ҚИСМ)

2023 йил 20-22 май кунлари

САМАРҚАНД – 2023

“Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришда рақамли ҳамда инновацион технологиялардан фойдаланиш имкониятлари” ХИАК материаллари

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР  
ВАЗИРЛИГИ**

**САМАРҚАНД ИҚТИСОДИЁТ ВА СЕРВИС ИНСТИТУТИ**

**ТАМБОВ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТОМСК ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИНГ ИҚТИСОДИЁТ ВА МЕНЕЖМЕНТ  
ИНСТИТУТИ**

**ШИМОЛИЙ КАВКАЗ ФЕДЕРАЛ УНИВЕРСИТЕТИ**

**САНКТ-ПЕТЕРБУРГ ПОЛИТЕХНИКА УНИВЕРСИТЕТИ**

**ОЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ МАКТАБИ**

**ҚАРШИ МУХАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ**

**«ИПАК ЙЎЛИ» ТУРИЗМ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ХАЛҚАРО УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ САМАРҚАНД  
ФИЛИАЛИ**

**«ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ  
ҚИСҚАРТИРИШДА РАҚАМЛИ ҲАМДА  
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН  
ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ»  
(III ҚИСМ)**

**2023 йил 20-22 май кунлари**

**САМАРҚАНД – 2023**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА**

**ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И МЕНЕДЖМЕНТА ТОМСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**СЕВЕРО-КАВКАЗСКИЙ ФЕДЕРАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САНКТ-ПЕТЕРБУРГСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ «ВЫСШАЯ  
ШКОЛА ЭКОНОМИКИ» РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ**

**КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

**САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**“ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ  
ИННОВАЦИОННЫХ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ  
В РАЗВИТИИ СФЕРЫ УСЛУГ И СОКРАЩЕНИИ  
БЕДНОСТИ”  
(ЧАСТЬ III)**

**(20-22 мая 2023 г.)**

**САМАРКАНД– 2023**

Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришда рақамли ҳамда инновацион технологиялардан фойдаланиш имкониятлари. / Халқаро илмий-амалий конференцияси материаллари (II қисм). 2023 йил 20-22 май кунлари. Самарқанд, СамИСИ, 2023. – 256 бет.

**Нашр учун масъул:**

**М.Қ.Пардаев** – иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раҳбари:**

**М.Э.Пўлатов** – иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши аъзолари:**

**М.М.Мухаммедов** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**Ж.Р.Зайналов** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**И.С.Тухлиев** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**О.Муртазаев** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**Р.Х.Эргашев** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**В.И.Абдукаримов** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**Н.А.Ибрагимов** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**К.Б.Уразов** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**Қ.Ж.Мирзаев** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**А.Эшгаев** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**С.Н.Ташназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор,

**А.Н.Холиқулов** – иқтисод фанлари номзоди, доцент,

**Д.Ҳ.Холмаматов** – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

**Саҳифаловчи: Фирдавс Ўроқов**

Анъанавий илмий-амалий конференция материалларида рақамли ҳамда инновацион технологиялардан фойдаланиш шароитида хизмат кўрсатиш ва таълим хизматлари соҳаларини ривожлантириш муаммолари ва уларнинг ечимлари, соҳанинг алоҳида тармоқлари самарадорлигини ошириш истиқболларига оид масалалар ёритилган. Унда инновацион иқтисодиётни шакллантириш шароитида соҳанинг назарий ва методологик муаммолари ва уларни ҳал қилишнинг стратегик йўналишлари, хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги, фаровонлиги, яшаш сифати ва даражасини ошириш масалалари, туризм соҳаси самарадорлигини ошириш механизмлари, ривожлантириш тенденциялари ва истиқболлари, менежмент ва маркетингни, инвестицияларнинг ўрни ва молиявий муносабатларни, бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил, аудит ва статистика фанларини такомиллаштириш масалалари, рақобатбардош кадрларни тайёрлашни такомиллаштириш муаммоларини ҳал қилишга қаратилган илмий-назарий ва амалий тавсияларга бой мақола ва тезислар ўрин олган.

Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари профессор-ўқитувчилари, талабалари, магистрлар, таянч докторантлар, докторантурада таҳсил олувчилар, мустақил изланувчилар ва соҳа мутахассисларига мўлжалланган.

**Мақолалар муаллифлар таҳририда босилмоқда. Уларда келтирилган рақамлар, фактлар, хулоса ва тавсияларга муаллифлар масъул. Уларнинг айрим фикрлари ташкилий гуруҳ қарашларига тўғри келмаслиги мумкин.**

## **I ШЎЪБА. ИННОВАЦИОН ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**U.Xudoyberdiyev –SamISI dotsenti, i.f.n.**

### **SHOGIRDLAR BERGAN UNVON MUBORAK (Institutda 65 yildan ko'proq ilmiy-pedagogik faoliyat olib borayotgan professor R.Abdullayev haqida)**

Samarqand kooperativ instituti 1931 yilda tashkil topgan bo'lib, ittifoq Sentrosoyuziga qarashli bo'lib, institutga professor-o'qituvchilar asosan Maskva shaharidan va Rossiyaning boshqa shaharlaridan kelganlar. Institutda mutaxassis fanlar shu jumladan “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi bo'yicha ham fanlar rus tilida o'qitilar edi, mahalliy millat talabalari fanlarni o'zlashtirishga ancha qiynalishar, ayrim qoidalarni ma'nosiga tushunishmasa ham yodlab olishar edi. Yillar o'tib, asta-sekinlik bilan mahalliy millat vakillaridan institutda yaxshi o'qib, o'z mutaxassisligini yaxshi o'zlashtirgan talabalar institutga o'qituvchilikka jalb qilina boshlandi. Shulardan “Buxgalteriya hisobi” bo'yicha birinchilardan professor R.Abdullayevdir. Ustoz Rajab Abdullayev institutning “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligiga 1952-yilda o'qishga kirib, 1956-yili bu mutaxassislik bo'yicha imtiyozli diplom olib bitirgan, 1958-1961-yillarda G.V.Plexanov nomli Moskva xalq xo'jaligi institutining maqsadli aspiranturasida o'qidi va 1962-yil 25-mayda shu institutning ixtisoslashgan kengashida “Совершенство бухгалтерского учета овешехранилиш” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Rajab Abdullayev institutda kafedra muduri, fakultet dekani muvoni, dekan lavozimlarida ishladi, jamoat ishlarida faol qatnashdi. R. Abdullayev dars berish bilan bir vaqtda ilmiy faoliyat bilan ham mashg'ul bo'ldi. Ustoz R. Abdullayev boshqalar bilan hamkorlikda birinchi bor o'zbek tilida “Matlubot kooperatsiyasida buxgalteriya uchyoti” T.: “O'qituvchi” 1969-yil, 1982 yilda “Бухгалтерский учет в общественном питанин” (Москва “Экономика”) 1990 yilda “Iqtisodiy axborotlarni EHMda ishlashni avtomatlashtirish” kabi o'quv qo'llanmalarni chop ettirdi. R. Abdullayev ko'pgina yoshlarga ilmiy ish sirlarini o'rgatdi, o'qituvchilik faoliyatlarida ustozlik qildi. Institut U kishining o'quv va ilmiy ishlaridagi erishgan muvaffaqiyatini, jamoat ishlaridagi faolligini hisobga olib, R.abdullayevga 1989 yilda professor unvoni berildi. Professor R.Abdullayev hozirda SamISI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida faoliyat olib bormoqda. Professor R.Abdullayev hayoti va faoliyati yoshlar uchun namuna – ibrat maktabidir.

Professor R.Abdullayev – 60 yildan ko'proq davrda talabalarga “Buxgalteriya hisobi” fanidan dars berib kelmoqda. U kishining shogirdlari Markaziy Osiyo davlatlarida turli lavozimlarda ishlab kelmoqda. Hozirda I.F.A,

professorlar bo'lgan Ibragimov N.A, Pardayev M.K, Isroilov B, Zaynalov J.R, Urazov K.B shu jumladan maqola muallifiga ham dars bergansiz (ustoz doim minnatdorman) va boshqa juda ko'p ilmiy va o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan insonlarga dars bergan, ilm va hayotdan saboq o'rgatgan. Shogirdlarining ko'pi talabalarga dars berib, ilm o'rgatib, ustozlik maqomiga erishgan. Shuning uchun ham professor R.Abdullayev ustozlar ustози deb ulug'lanadi. Sharaflı unvoningiz muborak bo'lsin ustozlar ustози!

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

**Обид Мамаюнович Пардаев** - ЎзР Иқтисодиёт ва Молия вазирлиги бўлим бошлиғи, PhD.

## **ХЎЖАЛИК МЕХАНИЗМИ ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЖАМИЯТНИ РИВОЖЛАНИРИШДАГИ РОЛИ**

**Аннотация:** мақолада хўжалик механизми тушунчасининг назарий масала-лари ва уларнинг жамиятни ривожланиришдаги роли очиб берилган. Унда хўжалик механизмининг мазмунига атрофлича тўхталиб ушбу тушунчанинг таърифи ишлаб чиқилган. Шунингдек, хўжалик механизмга нималар кириши ҳамда унинг аҳоли фаровонлигини оширишдаги ўрни ҳам кўрсатиб берилган.

**Калит сўзлар:** хўжалик, механизм, хўжалик механизми, бошқарув усуллари, пул-кредит сиёсати, молия, кенгайтирилган ишлаб чиқариш, бизнес режа, рағбатлантириш, иш ҳақи.

**Abstract:** the article reveals the theoretical issues of the concept of economic mechanism and their role in the development of society. In it, the definition of this concept was elaborated, focusing on the content of the economic mechanism. It also shows what goes into the economic mechanism and its role in improving the welfare of the population.

**Key words:** economy, mechanism, economic mechanism, management methods, monetary policy, finance, expanded production, business plan, incentives, wages.

**Аннотация:** в статье раскрываются теоретические вопросы концепции экономического механизма и их роль в развитии общества. В ней была разработана дефиниция этого понятия с акцентом на содержание хозяйственного механизма. Он также показывает, что входит в экономический механизм и его роль в повышении благосостояния населения.

**Ключевые слова:** экономика, механизм, экономический механизм, методы управления, денежно-кредитная политика, финансы, расширенное производство, бизнес-план, стимулы, заработная плата.

**Кириш.** Мавзунинг долзарблиғи. Мамлакатимизниг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлаш, аҳолининг фаровонлиғи, яшаш даражаси ва сифатини ошириш масаласи бугунги кунда ўта долзарб

масаллардан бири сифатида баҳоланмоқда. Ушбу ҳолат айниқса бугунги пандемия шароитида янада долзарб аҳамият касб этмоқда. Ушбу мақсадга эришишнинг бир қанча йўллари ва омиллари мавжуд. Булардан бири мамлакатимизда хўжалик механизмини тўғри йўлга қўйиш билан боғлиқдир.

**Таҳлил ва натижалар.** “Хўжалик механизми” илмий атама сифатида иқтисодий адабиётларга ХХ-асрнинг иккинчи ярмларида кириб келди. Ушбу тушунчанинг моҳиятини очиб бериш учун, унинг сўз бирикмасидан ташкил топганлигига эътиборни қаратиш лозим. Ушбу сўзнинг биринчи қисми “Хўжалик”, бўлса, иккинчи қисми “Механизм” сўзларидан таркиб топган.

“Хўжалик” сўзига “Ўзбек тилининг 5 жилдлик изоҳли луғати”да қуйидагича изоҳ берилган. “1 *икт.* Жамият ишлаб чиқариш кучларининг тегишли тараққиёт босқичига мувофиқ келувчи ишлаб чиқариш муносабатлари мажмуи; ижтимоий ишлаб чиқариш усули.

2 Ишлаб чиқаришни ташкил этадиган, уни юзага келтирадиган омиллар; ишлаб чиқариш мажмуи; ишлаб чиқариш.

3 Ишлаб чиқаришнинг бирор соҳаси тармоғи.

4 Бирор кимса, ташкилот ёки халқ ихтиёридаг барча моддий бойлик, мулк-ашё, ер-сув, уй-жой, асбоб-ускуна ва жиҳозлар.

5 Қишлоқ хўжалигидаги ва умуман ўз ер сувига, мулкига, ишлаб чиқариш воситаларига эга бўлган ҳар бир алоҳида ишлаб чиқариш бирлиги, корхона.

6 Алоҳида уй-жойга эга бўлган ҳар бир оила, хонадон”<sup>1</sup>. Кўриниб турибдики, хўжалик сўзи асосан иқтисодиёт соҳасига хос атама бўлиб, у ўз мулкига эга бўлган, мустақил фаолият юритадиган субъект сифатида намоён бўлмоқда.

Энди “механизм” сўзига аҳамият берадиган бўлсак, кўпинча техникани ҳаракатга келтирувчи бир қанча қисмлардан иборат, бир-бири билан узвий боғлиқ ҳолда ҳаракатлантирувчи воситалар тизими тушунилади. Ушбу сўзга юқоридаги “Ўзбек тилининг 5 жилдлик изоҳли луғати”да қуйидагича изоҳ берилган. “Механизм *юнонча mechane*” сўзидан олинган бўлиб, “қурол, машина”<sup>2</sup> маъноларини англатиши қайд этилган. Ушбу атамага ҳам мос равишда бир қанча изоҳлар берилган. “1 Машина, асбоб, аппарат ва ш. к.нинг ички, ишга солувчи қисмлари, ички тузулиши.

2 Бирор ишни бажарувчи мураккаб машина.

3 Ички тузулиш система.

4. Бирор нарсанинг ўзаро боғлиқ бўлган ва яхлитликни ташкил этувчи қисмлари”<sup>3</sup>. Ушбу “Хўжалик” ва “Механизм” сўзларнинг бирикмаси

<sup>1</sup> «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.ИУ. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДИН, 2008. – 435-436 бетлар.

<sup>2</sup> «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.И. Е-М. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДИН, 2006. – 584 бет.

<sup>3</sup> Ўша жойда. – 584 бет.

“Хўжалик механизми” сўзига “Ўзбек тилининг 5 жилдлик луғати”да изоҳ берилмаган. Ушбу атама нафақат ўзбек тилидаги, балки рус тилидаги луғатларда ҳам ўз аксини топмаган. Буларнинг ҳаммаси ушбу атаманинг илмий адабиётларга янгидан кириб келганлигидан далолатдир. Бунга яна бир исбот “Хўжалик механизми” атамасига 7000дан зиёд атамалар ва тушунчалар жамланган “Большая экономическая энциклопедия”да<sup>4</sup> ҳам 1980 йилда Москванинг “Советская энциклопедия” нашриётида 1600 бетдан иборат “Советский энциклопедический словарь”<sup>5</sup> номли энциклопедик луғотда ҳам ўз аксини топмаган. Шу сингари бошқа бир қанча луғотларга, хусусан “Русча-ўзбекча луғотда”<sup>6</sup> ҳам, ўзида 44 мингдан ортиқ сўзни жамлаган “Ўзбек тилининг крилл ва лотин алифболаридаги имло луғати”да<sup>7</sup> ҳам хўжалик механизми атамаси киритилган. Бевосита мамлакатимиз олимлари Б.Эргашев, Е.В.Голишева, Н.В.Ивонина, И.С.Тухлиев, А.П.Темирходжаев, Х.М.Маматкулов кабилар томонидан тайёрланиб, нашр қилинган. иқтисодиётга оид луғатларда ҳам ушбу атамага изоҳ берилмаган<sup>8</sup>. Булардан ҳам кўриниб турибдики, ушбу атама мамлакатимизнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида хўжалик механизми янги атама бўлиб ҳисобланади.

Аmmo бошқа луғатларда унинг мазмуни қисман қайд этилган. Жумладан, С.И.Ожеговнинг “Словар русского языка” луғотида фақат “Хўжаликка оид” сўзига изоҳ берган. Унда “1 иқтисодий, ишлаб чиқариш нуқтаи назаридан хўжалик юритиш”<sup>9</sup>, деган маънони англатиши қайд этилган. Шунингдек, яна куйидаги изоҳлар берилган “2 хўжаликни юритишда зарур бўладиган хўжалик жиҳозлари. 3 тежамкорликка амал қилувчи, ҳисоб-китобли” (таржима бизники – М.П.) маъноларини англатиши қайд этилган. Мазкур луғотда “Хўжалик” атамасига 6 та изоҳ келтирилган. “1 У ёки бу жамиятнинг ишлаб чиқариш усуллари мажмуи, ишлаб чиқариш усули. 2 ишлаб чиқариш, иқтисодиёт. 3 бирорта ишлаб чиқаришнинг жиҳозлари. 4 яшаш учун зарур бўлган жиҳозлар мажмуи. 5 қишлоқ хўжалигига оид ишлаб чиқариш бирлиги. 6 уй хўжалиги, оилада яшаш учун бажарилишга қаратилган уй ишлари”<sup>10</sup> (таржима бизники – М.П.).

<sup>4</sup> Большая экономическая энциклопедия. – М.: Эксмо, 2007. – С. 816.

<sup>5</sup> Советский энциклопедический словарь. – М.: “Советская энциклопедия”, 1979. 1600 с.

<sup>6</sup> Русско-узбекский словарь. В 2-х томах. – Т.: “Главная редакция УзЭ”, 1983. (1-томида 808 бет. 34650 та сўз, 2-томида 800 бет. 32170 та сўз.).

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг крилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. 14 мингдан ортиқ сўз. – Т.: “Sharq”, 2012. 432 бет.

<sup>8</sup> Словарь современных терминов в сфере туризма: Справочни-методическое пособие. / Авт.сост. Е.В.Голишева, Н.В.Ивонина, И.С.Тухлиев, А.П.Темирходжаев. Самарыанд, «Зарафшон», 2018, - 416 с., ва Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2010. – 398 бет., Маркетинг терминлари изоҳли луғати: асосий тушунчалар ва истилоҳлар. / Масъул муҳаррир: Баходир Эргашев. – Т.: “Шарқ”, 2012. – 512 б. ҳ.к.

<sup>9</sup> Ожегов С.И. Словарь русского языка. 57 000 слов. М.: «Русский язык», 1984. - С. 752.


<sup>10</sup> Щша жойда. – 752 бет.

Луғотларда берилган изоҳлардан хулоса қилинадиган бўлса, “Хўжалик механизми” хўжаликларни ҳаракатга келтирувчи турли воситалар мажмуи ҳисобланади. Энди хўжаликлар ҳақида гап кетадиган бўлса, бунинг кўлами жуда кенг. Макро даража, мезо ва микро даражадаги хўжаликлар ҳақида гап кетмоқда. Ушбу ҳолатдан келиб чиқиб, ушбу тушунчанинг таърифини ишлаб чиқиш мумкин. Хўжалик механизмига бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда қарайдиган бўлсак, унга қуйидагича таъриф бериш мумкин, деган хулосага келинди.

**Хўжалик механизми деганда, кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш жараёнини ҳаракатга келтирувчи турли воситалар ва усуллар мажмуи тушунилади.** Ушбу таъриф ушбу тушунчанинг макроиктисодиёт даражасига мос келади. Кенгайтирилган ишлаб чиқариш, ишлаб чиқариш, тақсимот, айрибошлаш ва истеъмолни ўз ичига олади. Жамиятнинг барча жабҳаларида айнан ушбу воситалар ва усуллар иштирок этади. Шу жиҳатдан, хўжалик механизми мазмун жиҳатидан кенг ва мураккаб тушунчадир. Агар унга микро иқтисодиёт даражасида қараладиган бўлса, бироз ўзгаради. Чунки, кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришнинг ҳар бир бўғини ҳам бир қанча хўжалик юритувчи субъектлардан иборат.

Иқтисодиётнинг бир маъромда ишлашини таъминлаш учун хўжалик механизм шундай бўлиш керакки, у ҳам ўзининг мунтазам, узлуксиз ишлашни таъминалши лозим. Бунда инсон омили (бошқарув механизмлари) билан бирга барча дастаклар (техника, технология) ўзаро муносабатда бир маъромда ҳаракат қиладиган бўлиши керак. Чунки соат механизми бир-бирига боғланган ҳолда мунтазам ишлаганлиги туфайли ўзгармасдан ишлашда, вақтни аниқ кўрсатишда давом этади. Иқтисодиётда ҳам хўжалик механизми соат механизмлари сингари ишлаши лозим. Шундагина иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлайди. Кўриниб турибдики, иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлашда хўжалик механизми муҳим омил ҳисобланар экан.

Оддий сўз билан айтганда микроиктисодиёт даражасида хўжалик механизмининг таркибий тузилишига нималар киришига аниқлик киритиб олишни тақозо қилади. Бу қуйидаги расмда ўз ифодасини топган (1-расм).



**1-расм. Иқтисодиёт субъектларида амал қиладиган хўжалик механизмининг таркиби**


Хўжалик механизмининг самарали ишлаши учун ишлаб чиқариш муносабатлари ишлаб чиқариш кучларига мос келиши лозим. Булар бирига мувофиқ бўлмаган жойда самарали хўжалик механизми ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Хўжалик механизми жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётида соат сингари аниқ ва мунтазам ишлаши лозим. Ишлаб чиқариш муносабатларининг такомиллашуви хўжалик механизмининг ҳам такомилла-шувига олиб келади ва тескараси, хўжалик механизмининг такомиллашуви ишлаб чиқариш муносабатларини ҳам такомиллаштиради. Шунга мос равишда ишлаб чиқариш кучлари ҳам узлуксиз такомиллашиб боришлари лозим.

Хўжалик механизмининг такомиллашиб бориши бошқаришни ҳам такомиллаштиради, унинг демократик принципларга таянган ҳолда такомиллашувига олиб келади. Бундай ҳолат ҳозирги иқтисодиётни либераллаштириш, давлат аралашувини кескин қисқартираётган даврда ўта муҳимдир. Хўжалик механизми такомиллашган сари ҳар бир хўжалик юритувчи субъект ўзини-ўзи бошқариш принципига ўтиб боради. Бу хусусий мулкка асосланган тадбиркорлик субъектлари учун ўта зарур жараёндр.

Хўжалик механизмининг ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, у техникага нисбатан ўта мураккабдир. Техникада ҳаракатга келтирувчи воситалар бирданига ишлаши оқибатида уни манзилга ўз вақтида олиб бориши мумкин. Аммо хўжаликларни ҳаракатга келтирадиган воситаларда кишиларнинг иштироки мавжуд. Шу туфайли, хўжаликларни ҳаракатга келтирувчи кучдан самарали фойдаланиш одамларнинг иштироки бўлганлиги туфайли жуда мураккаб. Бу эса, иқтисодиётда инсоний

муносабатларни ўрнига қўйиш хўжалик механизмларини такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга. Шу нуқтаи назардан хўжалик механизмининг таркибига нималар киритилиши ҳам муҳим ҳисобланади.

Тадқиқотларимиз кўрсатдики, хўжалик механизми бевосита ишлаб чиқариш муносабатлари ва ишлаб чиқариш кучлари билан ҳамоҳанг. Уларнинг бир-бирига мувофиқ келиши хўжалик механизмининг барқарорлигини таъминлайди. Бунда инсоннинг иштироки ҳам муҳим аҳамиятга эга. Шу туфайли инсон омили ҳамisha юқоридаги воситалар билан бир-бирига мувофиқ келиши лозим. Буларнинг такомиллашуви бевосита мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий жараёнларнинг ривожланишига олиб келади. Пировардида ҳаммаси аҳолининг яшаш даражаси ва сифатининг оширилиши учун муҳим омиллардан бўлиб ҳисобланади. Буларнинг ўзаро боғлиқлиги ушбу расмда келтирилган (2-расм).



**2-расм. Хўжалик механизмининг таркибий тузилиши ва аҳоли фаровонлигини ривожлантиришдаги ўрни**

Расмдан кўриниб турибдики, ишлаб чиқариш муносабатлари ва ишлаб чиқариш кучлари бир-бири билан ва иккаласи ҳам хўжалик механизми билан ўзаро боғлиқ. Хўжалик механизмининг барқарорлигида инсонлар иштироки ҳам мавжуд. Шунингдек, инсоннинг ушбу жараёнга иштирок этадиган барча унсурлар билан узвий боғлиқлигини кўриш мумкин. Демак, инсон, унинг илмий ва малакавий салоҳияти жамиятнинг

ҳамма унсурларига мос ҳолда узлуксиз такомиллашиб боришлигини тақозо қилади. Буларнинг ҳаммаси ижтимоий-иқтисодий жараёнлар ва ҳодисаларда иштирок этади ва уларни тезлаштириш, такомиллаштириш орқали юқори самарадорлигини таъминлайди. Барча ишларнинг пировард мақсади аҳоли фаровонлиги, яшаш даражаси ва сифатини оширишга хизмат қилади.

**Хулоса қилиб айтганда**, хўжалик механизмини такомиллаштириш мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг муҳим омили сифатида, унинг яхлит бир маромда ишлашини таъминлаш лозим экан. Шу билан бирга хўжалик механизмларининг ҳар бир элементи мамлакатимизнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига мос ҳолда такомиллашиб боришини ҳам тақозо қилади. Шундагина хўжалик механизмидан кўзланган мақсадга эришиш мумкин бўлади.

#### **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.ИУ. Тартибот-Шукр. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” ДИН, 2008. – 584 бет.
2. Большая экономическая энциклопедия. – М.: Эксмо, 2007. – С. 816.
3. Советский энциклопедический словарь. – М.: “Советская энциклопедия”, 1979. 1600 с.
4. Русско-узбекский словарь. В 2-х томах. – Т.: “Главная редакция УзЭ”, 1983. (1-томида 808 бет. 34650 та сўз, 2-томида 800 бет. 32170 та сўз,).
5. Ўзбек тилининг крилл ва лотин алифболаридаги имло луғати. 14 мингдан ортиқ сўз. – Т.: “Sharq”, 2012. 432 бет.
6. Словарь современных терминов в сфере туризма: Справочни-методическое пособие. / Авт.сост. Е.В.Голишева, Н.В.Ивонина, И.С.Тухлиев, А.П.Темирходжаев. Самарыанд, «Зарафшон», 2018, - 416 с.,
7. Маматкулов Х.М. Хизмат кўрсатиш соҳасига оид атамалар ва иборалар изоҳли луғати. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2010. – 398 бет.,
8. Маркетинг терминлари изоҳли луғати: асосий тушунчалар ва истилоҳлар. / Масъул муҳаррир: Баҳодир Эргашев. – Т.: “Шарк”, 2012. – 512 б. ҳ.к.
9. Ожегов С.И. Словарь русского языка. 57 000 слов. М.: «Русский язык», 1984. - С. 752.

**Маткаримов И.Б.** - УрДУ ўқитувчиси,  
**Досчанов А.Т.** - УрДУ доценти в.б. PhD ўқитувчи

## МИНТАҚАДА ЗАМОНАВИЙ АГРОБИОКИМЁВИЙ ХИЗМАТЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ МИҚДОРИЙ УСУЛЛАР БИЛАН АНИҚЛАШ

**Аннотация:** Ушбу мақолада минтақада замонавий агробιοοκιμёвий хизматлар самарадорлигини миқдорий усуллар билан аниқлаш ёрдамида ҳозирги кунда вилоятда кўрсатилаётган агробιοοκιμёвий хизмат ҳолати ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Агробιοοκιμё хизматлар, SWOT ва PEST таҳлили, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, технологик, экологик, ҳуқуқий, респондент

**Аннотация:** В данной статье освещается состояние агробιοοκιμёческой службы, оказываемой в регионе, с использованием количественных методов определения эффективности современной агробιοοκιμёческой службы в регионе.

**Ключевые слова:** Агробιοοκιμёческие услуги, анализ SWOT и PEST, политический, экономический, социальный, технологический, экологический, юридический, респондент.

**Abstract:** This article highlights the state of the agrobιοοκιμё service provided in the region, using quantitative methods to determine the effectiveness of modern agrobιοοκιμё service in the region.

**Keywords:** Agrobιοοκιμё services, SWOT and PEST analysis, political, economic, social, technological, environmental, legal, respondent.

Хоразм вилоятида агробιοοκιμё хизматларини ривожланишининг ҳозирги ҳолати таҳлили ва уни баҳолаш статистик маълумотлар асосида амалга оширилди. Бундай хизматлар ижтимоий-иқтисодий самарадорлиги эса SWOT ва PEST таҳлили ёрдамида ўрганилиб, улар вилоят агробιοοκιμё хизматларини кўрсатиш даражаси ва сифатини аниқлаштиришда анкеталаштириш усули асосида баҳоланди.

Дастлаб SWOT таҳлил усулида агротехнологиялар тизимидаги агробιοοκιμё воситалари ва хизматларнинг ўрнини ҳудуднинг табиий-агροκιμёвий ва биохилма-хиллик хусусиятлари, агротехника хизматларининг бой тарихий маданий даражаси салоҳияти, ҳудуд ўсимлик ва ҳайвонот оламини ҳимоялашда маҳаллий ўзига хос усуллари мавжудлиги ҳамда ҳудуд инновацион агробιοοκιμё хизматлари инфратузилмаси орқали сифат таҳлилинини ўтказдик. Бу таҳлил қоидасига асосан уларнинг кучли ва заиф томонлари, шунингдек, агробιοοκιμё хизматлар тизимининг имкониятлари ва унга бўлган тўсиқларни ҳудуд тупроқ зоналари ва қишлоқ хўжалиги экинлари кесимида таҳлил қилиш асосида амалга оширилди.


Биз PEST таҳлилинини эса комплекс миқдорий усул сифатида агробιοοκιμёвий хизматларнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, технологик, экологик ва ҳуқуқий омиллар таъсирини тадқиқот объекти таҳлилида қўлланиш ўрганилди. Бу ёндашувларга асосланиб қишлоқ хўжалигини

экологизациялаш мақсадларига эришиш йўлида агробιοοкимё хизматларини тизимли тадқиқи асосида юқоридаги бир қанча муҳим компонентларни алоҳида ажратишга ёрдам беради.

Кейин SWOT ва PEST сифат таҳлиллари мезонларини аниқлаштириш асосида ҳудуд агробιοοкимё воситаларини қўллаш ва хизматларини самарали тадқиқ қилиш анкета сўровномаси 6 гуруҳда аниқлаштирилди, яъни агробιοοкимёнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, технологик, экологик ва ҳуқуқий кўрсаткичларини шакллантирди.[1,2]

Бу сўровнома асосида вилоятда агрокимё, агробιοοкимё хизматларини кўрсатувчи ва улардан фойдаланувчи субъектлар фаолияти бўйича 220 респондентларнинг таклиф, фикрлари асосида маълумот ва натижалар умумлаштирилди. SWOT ва PEST таҳлилинини биргаликда қўлланиши минтақада агробιοοкимё хизматлари ривожланишининг жорий ҳолатини таҳлил қилиш ва мавжуд вазиятни ўрганишга хизмат қилиш билан бирга агробιοοкимё воситалари ва хизматларнинг истиқболдаги ривожини таъминлашда қандай омилларга эътибор қаратиш лозимлигини асослаб беради.

Натижада “Хоразм вилоятини инновацион ривожланиш шароитида агробιοοкимё хизматларининг ҳуқуқий-ташқилий, иқтисодий-экологик механизмини такомиллаштиришга бағишланган” анкета сўровномаси ўтказилди. Жами 220 та респондент билан ўтказилган сўровноманинг 196 таси тўлиқ ва белгиланган талаблар даражасида тўлдирилганлиги аниқланди. Унга кўра кўрсатилган биοοкимё хизматларини маҳсулот сифатига таъсирини 6,1 фоиз респондент паст, яхши ва ўртача даражада деб баҳолаганлар улушлари мос равишда 40,8, 44,9 фоизни ташкил қилган (1-расм).




**1-расм. Агробιοοкимёвий хизматлари самарадорлигини баҳолаш натижалари<sup>11</sup>**

<sup>11</sup> Манба: муаллиф ишланмаси

Ҳозирги кунда мавжуд биокимё лаборатория хизматлари фаолиятини паст ва ўртача деб баҳолаган респондентлар улушлари мос равишда 5,6, 51,5 фоизни ташкил қилган. Агробиокимё хизматларини хўжаликларнинг мавжуд талабларига жавоб бериши нуқтаи назаридан қарайдиган бўлсак, 64 фоиз респондент яхши ва 16 фоизигина аъло деган жавобни белгилашган (2-расм).

Яъни, вилоятда агробиокимёвий хизматларини ташкил қилиш даражасини қониқарли дейиш мумкин. Агробиокимё хизматларини фақат 37 фоизигина респондент хусусий маблағлар эвазига молиялаштирмоқда. Шунингдек, 58,2 фоиз респондент банк кредитлари ва бюджет маблағларидан фойдаланган. 45,9 фоиз респондент эса марказий ва ҳудудий агробиокимё хизмат ташкилотлари ёрдамидан фойдаланган, 51 фоиз респондент эса кам ва жуда кам фойдаланганлигини, 3,1 фоизи умуман фойдаланмаслигини таъкидлаганлиги юқорида келтирилган таҳлил натижаларини ҳаққонийлигини асослайди.



**2-расм. “Агробиокимёвий хизмат ташкилоти сизнинг хўжалигингиз талабларини қандай бажармоқда?” деган саволга респондентлар жавоблари<sup>12</sup>**

Замонавий агробиокимё хизматларидан кенг фойдаланилмаслигининг асосий сабаблари сифатида уларнинг қимматлиги (17,9 фоиз), қиммат ва сифатсизлиги (25,5 фоиз), керакли муддатда тезкор хизмат кўрсатилмаслиги (25,5 фоиз) таъкидланган. Шунингдек, 31,1 фоиз респондент вазиятга қараб имконияти доирасида агробиокимё хизматларини амалга оширишга мажбурлигини айтишган. Респондентларнинг 35,7 фоизи агробиокимёвий хизматларни ташкиллаштиришнинг бевосита турларини ўзининг хўжалиги учун самарали деб ўйлашини таъкидлашган бўлса, 52,6 фоизи билвосита шаклини мақбул деб топган. 11,7 фоизи билмайман деб жавоб бериши эса бу соҳа раҳбарларнинг иқтисодий билим ва малакалари пастлигини кўрсатади.

<sup>12</sup> Манба: муаллифлар ишланмаси

Агробиокимё хизматлар сифати самарадорлигини яхшилаш учун қайси турларини устувор ривожлантириш бўйича респондентлар фикрларини қараб чиқадиган бўлсак, уларнинг 29,1 фоизи агробиокимё хизматларини устувор йўналиш сифатида кўрсатган бўлса, 41,3 фоизи интеграллашган биокимё хизматларни ташкиллаштириш лозимлигини таъкидлашган. Анъанавий халқона экологик хизматларни устувор йўналиш сифатида 16,8 фоиз респондент кўрсатган бўлса, қолган 12,8 фоизи бу усулларни ўзаро мувофиқ уйғунлаштириш лозимлигини таъкидлашган.

Фикримизча, агрохизматларнинг бозор механизмлари такомиллашувида агробиокимёвий хизматлар самарали шакли сифатида нисбатан бу хизматлар буюртмачиси бўлган фермер, деҳқон хўжаликлари ва қишлоқ хўжалик корхоналари кўплиги, лекин агробиокимёвий хизматлар кўрсатувчи соҳа таъминот корхоналарининг эса нисбатан камлиги бу хизматлар кўрсатиш бозори мукамал рақобат бозори тизимига, яъни, эркин рақобатчилик шаклига яқинлиги билан характерланади. Хизматлар бозорининг яна бир характерли хусусияти, бизнингча давлат, нодавлат ва давлат-хусусий шерикчилик савдо-таъминот шакллари ривожланиши ва улар ўртасида эркин рақобатни кучайтириш зарурлиги ҳисобланади. Турли шаклдаги бундай хизматлар субъектлар кўпайиши улар ўртасида рақобатни кучайтириб хизматлар нархини пасайтиради ва бу хизматларидан фойдаланувчилари сафини кенгайтиради. Яна бир асосий хусусияти сифатида кейинги даврда қишлоқ хўжалиги билан агробиокимё саноат маҳсулотлари нархлари ўртасида кучайиб бораётган паритетдаги номувофиқликни ҳам эътиборга олиб қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларга иқтисодий босим кучаётганлиги, шу сабабли агробиохимикатларнинг катта қисми экспортга йўналтирилаётганлигини ҳам эътиборга олиш зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Досчанов А.Т., Маткаримов И.Б. Иқтисодий-экологик барқарор ривожланишни таъминлашда инновацион агробиокимё хизматлари-нинг ўрни ва аҳамияти «Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида таркибий ўзгаришларни амалга ошириш: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги республика анъанавий илмий-амалий конференцияси. 2021 йил 15 май. САМАРҚАНД 2021.39-42 бетлар.
2. Досчанов Т., Маткаримов И.Б. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва озик-овқат хавфсизлигини таъминлашда агробиокимёвий хизматларни такомиллаштириш. “Mintaqada innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini takomillashtirish” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2023 yil 28 mart. Urganch 2023.

**Сатторов Алишер** - Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси, доцент. PhD.

## **ЕВРОПАНИНГ РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРИДА АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАЖРИБАСИ**

**Аннотация:** Мазкур мақолада европанинг ривожланган мамлакатларининг аудиторлик фаолияти, аудиторлик фаолиятини тактибга солувчи органлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилиб берилган. Хусусан, Буюк Британия, Франция, Италия, Белгия давлатларида аудиторлик фаолиятининг ҳуқуқий асослари, мажрубий аудитнинг асосий мезонлари ва аудиторларга қўйиладиган талаблар таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** аудиторлик фаолияти, аудитор, аудиторлик ташкилотлари, турдош хизматлар, назорат қилувчи органлар, аудит жамоат бирлашмалари.

**Аннотация:** В данной статье описывается аудиторская деятельность развитых европейских стран, органы, содействующие аудиторской деятельности, и их особенности. В частности, в Великобритании, Франции, Италии и Бельгии были проанализированы правовые основы аудиторской деятельности, основные критерии обязательного аудита и требования к аудиторам.

**Ключевые слова:** аудиторская деятельность, аудитор, аудиторские организации, сопутствующие услуги, надзорные органы, аудиторские общественные объединения.

**Abstract:** This article describes the auditing activities of developed European countries, the bodies that facilitate auditing activities, and their features. In particular, in the UK, Italy and Belgium, the legal framework for auditing, the main criteria for a statutory audit and requirements for auditors were analyzed.

**Keywords:** audit activity, auditor, audit organizations, related services, supervisory authorities, audit public associations.

Иқтисодий ривожланган Европа мамлакатларида аудиторлик фаолияти кўп асрлик тажрибага эга. Бозор муносабатларини ўрнатиш жараёнида капитал бозори унсурларининг пайдо бўлиши, кредит муносабатларининг ривожланиши ва бу каби жараёнлар иқтисодий омиллар билан боғлиқ ҳолда аудит ривожланишига янги туртки берди. Ҳисобот маълумотларининг ҳаққонийлигини текшириш аудитнинг асосий таркибига айланди.

Рақобат шароитида халқаро аудит шаклланган ҳамда ўсишга эришган бўлиб, бу аудитнинг кучли халқаро меъёрий-ҳуқуқий базасини яратишга, аудитни ташкил этиш шаклини батфасил ишлаб чиқишга хизмат қилди.

Профессионал аудитнинг ватани Буюк Британия ҳисобланади — 1862 йилда Компаниялар тўғрисидаги қонун қабул қилинди, унга мувофиқ, акциядорлик жамиятларини мажбурий аудитдан ўтказиш тартиб-таомили киритилди. Шотландияда эса, олий тоифали дипломга эга бухгалтерлар ташкилотлари тузилди. Хусусан: 1867 йилда вужудга келган Абердиндаги Бухгалтерлар жамияти, 1854 йилда Қироллик Хартияси асосида тузилган

Эдинбургдаги Бухгалтерлар жамияти ҳамда Глазгодаги Бухгалтерлар ва актуарийлар институти<sup>13</sup>.

Ҳозирги пайтда аудиторлик назоратини амалга ошириш жуда мураккаб жараён дир, шунинг учун юқори даражали тайёргарлик талаб этилади. Кириш ва жорий имтиҳонлар энди анча қийинлашган. Англо-Саксон давлатларида аудит назорати алоҳида шахслар ёки фирмалар томонидан амалга оширилади. Баъзи фирмаларнинг юзлаб ҳамкорлари ва минглаб тўлиқ штатдаги ишчи-ходимлари мажуд. Ҳар қандай ҳолатда аудит ҳар доим тегишли профессионал ташкилотлардан бирининг аъзосининг “якуний” жавобгарлигини таъминлайди.

Буюк Британияда бир неча жамоат бирлашмалари ва бухгалтерия институтилари ташкил этилган. Ҳозирги вақтда Буюк Британияда сертификатланган жамоат бухгалтерларини бирлаштирувчи 6 та асосий профессионал жамоат ташкилотлари мавжуд (1-расм).



### **1-расм. Буюк Британиянинг асосий бухгалтерия ва аудитлик фаолиятини назоратини олиб борувчи жамоатчилик ташкилотлари<sup>14</sup>**

Аудитнинг асосий мақсади компаниянинг директорлари молиявий ҳисоботларни тўғри ва ҳолисона тайёрлаганликлари тўғрисида ҳулоса беришдир. Одатда, аудиторлар қарздорларнинг ҳақиқатан ҳам мавжудлигини текшириш учун танлаб, ёзма сўров ўтказадилар. Аудиторларнинг малакаси бухгалтерия органлари маслаҳат кўмитасининг олтига институтидан бирига аъзо бўлиш билан тасдиқланиши керак.

Аудитнинг мақсади аудиторларга компаниянинг молиявий ҳисоботи тўғрисида фикр ҳосил қилишлари учун имкон беришдан иборат. Аудиторлик ҳулосасига келиш учун, улар аудиторлик далилларини олиш мақсадида маълум тартиб-таомилларни амалга оширишлари лозим, чунки молиявий ҳисоботда жиддий хатоликлар мавжуд эмаслигига ишонч ҳосил қилишлари керак, шунингдек, молиявий ҳисобот амалдаги қонунчилик ва бухгалтерия ҳисоби стандартларига мувофиқ тайёрланганлиги ҳақидаги фикр таъминланиши лозим.

Хорижий компаниялар аудити ўзида компаниянинг молиявий фаолияти, ташкилот ҳисоб ва ҳисоботи текширувини амалга оширади.

<sup>13</sup> Кучеров А.В. Особенности аудита за рубежом / А.В. Кучеров, Я.М. Козичева // Молодой ученый. — 2013. — № 5. — С. 339–343.

<sup>14</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Йўналишларига қараб, аудит бухгалтерия аудити, кадрлар аудити, юридик аудит, солиқ аудити ва молиявий аудитга бўлинади. Аудит қуйидаги мақсадларда амалга оширилади.




## 2-расм. Буюк Британияда аудит текширувларини асосий мақсадлари<sup>15</sup>.

Аудит компания ичида атайин содир этилган ёки қасддан қилинмаган ҳар қандай турдаги ўзига хос муҳофаза ҳисобланади. Шунингдек, аудит текширувчининг хатони топиш ва унинг кетидан жазолашдан иборат бўлган мажбуриятини кўзда тутмайди, аксинча, аудитнинг асосий вазифаси – хатоларни топиш ва уларни тўғрилаш учун ёрдам беришдан иборат.

Барча компаниялар ҳам ўз ҳисоботини аудитдан ўтказиши шарт эмас ва айрим компаниялар, масалан ишламаётган ёки кичикроқ компаниялар аудитдан озод бўлишга даъво қилиши мумкин.

Бугунги кунда аудитдан озод қилиш учун қўлланиладиган малака мезонлари шуни кўрсатадики, компания қуйидаги талабларнинг иккитасига жавоб бериши шарт (3-расм).



## 3-расм. Буюк Британияда мажбурий аудиторлик текширувлари асосий мезонлари<sup>16</sup>.

Тадқиқотлар шуни тасдиқладики, Буюк Британияда аудиторлик фаолияти, асосан, кредиторлар, инвесторлар ва хўжалик юритувчи субъектларнинг манфаатларини қондиришга йўналтирилган. Бу мамлакатда аудиторлик фаолияти, асосан, жамоат бирлашмалари ва институтлар томонидан тартибга солинади. Шундай бўлса-да, ушбу жамоат бирлашмаларининг фаолият кўрсатиши аудиторлик фаолиятида давлат томонидан ҳеч қандай функция бажармайди, деган маънони келтириб чиқармайди. Ҳукумат қошида ташкил этилган Миллий аудиторлик кенгаши Бош аудитор томонидан бошқарилади. Миллий аудиторлик кенгаши ва аудиторлик институтлари доимо ҳамкорликда иш олиб боради. Аудиторлик фаолиятининг асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини мустақил

<sup>15</sup> Муаллиф томонидан тузилган

<sup>16</sup> Муаллиф томонидан тузилган

аудиторлик институтлари ишлаб чиқади ва амалиётга татбиқ қилади.

Фикримизча, бизнинг юртимизда ҳам Буюк Британияда бўлгани сингари мустақил аудиторлик институтларини кўпайтириш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Буюк Британиядаги воқеалар Ғарбий Европанинг бошқа мамлакатларида ҳам аудитнинг ривожланишига туртки бўлди. Германияда аудитни киритишга илк қадам 1870 йилда қўйилди, бу вақтда Акциядорлик жамиятлари тўғрисидаги қонунга киритилган қўшимчалар ушбу жамиятлар кузатув кенгашларини баланс, фойда тақсимоли тўғрисидаги ҳисобот текширувини ўтказиш ва текширув натижаларини акциядорлар умумий йиғилишларида эълон қилишга мажбур этарди. Кейинчалик, 1884 йилда Германияда Бухгалтер-тафтишчилар институти пайдо бўлди, унинг мақсади ҳужжатлар тафтишини ўтказишнинг муайян усулларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш, шунингдек, янги касб эгаларига талабларни шакллантиришдан иборат<sup>17</sup>. Бухгалтер-тафтишчиларни трайгендерлар деб аталган. Айни шу даврда бу каби институтлар Осло, Вена, Будапешт, Цюрих, Рига, Гельсингфорсда ҳам немис анъаналари таъсири остида ташкил топган. Францияда 1867 йил 24 июлда Ширкатлар тўғрисидаги қонун қабул қилиниши билан, акциядорлик жамиятларининг баланслари текширув ва баҳоловга мажбур қилинди, шунингдек, “ҳисоблар бўйича комиссар” лавозими юзага келди. Уларнинг фаолияти ҳукумат органлари томонидан қатъий тартибга солинган, чунки уларга бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан назоратни амалга ошириш юкланганди. Францияда 2 та ташкилот аудиторлик фаолияти билан шуғулланади, булар: Эксперт-бухгалтерлар палатаси ва Ҳисоблар бўйича комиссарлар миллий компанияси. Улар ўртасидаги асосий фарқ шундан иборат эдики, биринчилари — тақлиф этиларди, иккинчилари эса — тайинланарди. Ҳисоблар бўйича комиссарлар энг масъулиятли текширувларни олиб боради, эксперт-бухгалтерлар фаолияти ҳукумат органлари томонидан унчалик қаттиқ тартибга солинмайди<sup>18</sup>.

Италияда Ҳукуматнинг 1992 йилдаги қарорига мувофиқ қонуний аудиторлик фаолияти билан фақат мамлакат Адлия вазирлиги томонидан назорат қилинадиган махсус реестрга киритилган шахсларгина шуғулланишлари мумкин. Аудиторлар икки хил тоифага бўлинади: “доттори коммерчиалисти” (итал. *dottori commercialisti* — дипломга эга бухгалтерлар), улар молиявий ҳисоботни текширади ва тасдиқлайди; ва, “раджионьери”, улар бухгалтерия ҳисобини тузиш ҳамда ҳисоб ишлари бўйича жорий маслаҳатни амалга оширади. Замонавий халқаро аудит шу билан тавсифланадики, дунёнинг деярли барча ривожланган мамлакатларида ўзининг ҳуқуқий ва ташкилий инфратузилмасига эга

<sup>17</sup> Ножкина Т.В. Международный аудит: Учебное пособие / Т.В. Ножкина. — Петропавловск-Камчатский: КамчатГТУ, 2007. — 127 с.

<sup>18</sup> Ножкина Т.В. Международный аудит: Учебное пособие / Т.В. Ножкина. — Петропавловск-Камчатский: КамчатГТУ, 2007. — 127 с.

Профессионал аудит жамоатчилик институтлари мавжуд. Лекин аудиторлик фаолиятини давлат томонидан назорат қилишда фарқлар ҳам бор. Буюк Британиянинг аудиторлик фирмалари аудиторларни тайёрлаш, уларга малака бериш, уларнинг ўз касбий мажбуриятларини бажаришлари сифатини назорат қилиш масалалари бўйича катта мустақилликка эгаллиги билан тавсифланади. Европа қитъаси мамлакатларида аудиторлик фаолияти давлат томонидан қатъий тартибга солинади. Европа Иттифоқи мамлакатларида аудит ҳукумат тузилмалари томонидан қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинади. Бу мамлакатларда бухгалтерия ҳисоботлари ва балансларининг текшируви билан шуғулланувчи аудиторлар билан бирга, солиққа тортиш масалалари бўйича махсус аудитор-маслаҳатчилар тоифалари ҳам ажратилади<sup>19</sup>. 2002 йилга қадар жаҳон аудиторлар ҳамжамияти асосан ўзини ўзи бошқарадиган бўлган, яъни унинг касбий ташкилотлари аудит стандартларини ишлаб чиқиб, жорий этган, ўз аъзоларига нисбатан интизомий чораларни қўллаган, жамоатчилик аудитининг сифатини тарғиб этиш ва афзалликларини кўрсатиш билан шуғулланган.

Бельгияда бухгалтерия ҳисоби ва аудит учун қонуний асос сифатида 1999 йилги Жамоатчилик кодекси (БЕ — Belgian Company Code); 2001 йилги Қирол фармони билан тўлдирилган 2003 йил 4 декабрдаги Қирол фармони; 2013 йилда қабул қилинган Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун; ЕИнинг 2013/34/ЕС ва 2006/43/ЕС директивалари, бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартларининг қўлланиши бўйича қабул қилинган 1606/2002-сон регламенти ва молиявий ҳисоботни тайёрлаш бўйича 2013/34/ЕС директивалари хизмат қилади. Жамоатчилик кодекси ва Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун Бельгия қиролининг 2001 йил 30 январдаги фармонида белгиланганидек, компаниялардан умумэтироф этилган Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС) ёки Бухгалтерия ҳисобининг умумқабул қилинган тамойиллари (GAAP)ни қўллашларини талаб этади. Бельгиянинг барча ўрта ва йирик компаниялари бухгалтерия ҳисоботларини текшириш учун аудитор тайинлашлари шарт, кичикроқ компаниялар эса, аудит текширувидан озод қилинишга даъво қилишлари мумкин. Бельгияда ЕИга аъзо бошқа давлатлар каби аудитор 1 йилдан фарқли бўлган иштирок даврига тайинланади. Ҳозирги вақтда Бельгияда 3 йиллик, Францияда — 6 йиллик, Италияда — 9 йиллик мандат талаб этилади. Бельгияда фақат махсус ҳолатлардагина муддатидан олдин озод этилиши мумкин. Бу ҳақда компания ва аудитор “Nogе Raad voor de Economische Veroepen”да хабар берадилар, у эса текширувни бошлайди. Шунингдек, ЕИга аъзо давлатлар бошланишига энг юқори муддати 10 йилдан кам бўлган даврга аудиторлик бўйича ўзаро ҳамкорликни танлаш имкониятига эга.

<sup>19</sup> Кучеров А.В. Особенности аудита за рубежом / А.В. Кучеров, Я.М. Козичева // Молодой ученый. — 2013. — № 5. — С. 339–343.

Фикримизча, ҳар бир мамлакатда профессионал ташкилотлар ва аудиторларнинг фаолияти миллий қонунчилик, Европа Иттифоқи Директивалари ва Халқаро аудит стандартлари билан тартибга солинади. ЕИга аъзо давлатлар аудит соҳасида Европа Парламенти ва Кенгаши томонидан қабул қилинган қонунларни жорий қилинади. ЕИ мамлакатларида аудиторлик фаолиятининг ривожланиши нафақат Европа Иттифоқининг махсус директивалари билан, балки муайян мамлакатнинг тарихий, маданий ва ижтимоий-иқтисодий хусусиятларини ҳисобга оладиган аудитни такомиллаштириш миллий дастурлари билан ҳам белгиланади.

**О‘роқов Firdavs Ortiqniyoz o‘g‘li** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiy tahlil va statistika kafedراسи assistenti

## **“INVESTITSIYA” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA UNING NAZARIY JIHATLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda ko‘p ishlatiladigan “investitsiya” atamasining nazariy jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu atamaga xorijlik olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar ham keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, jahon iqtisodiyoti, moliya bozori, real iqtisodiyot, tadbirkorlik, kapital qo‘silma, chet el investitsiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi.

**Abstract:** This article covers the theoretical aspects of the term "investment" which is widely used today. Also, the opinions expressed by foreign scientists on this term are cited.

**Key words:** investment, world economy, financial market, real economy, entrepreneurship, capital addition, foreign investment, socio-economic development strategy.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические аспекты термина «инвестиции», который широко используется сегодня. Также приводятся мнения, высказанные зарубежными учеными по этому термину.

**Ключевые слова:** инвестиции, мировая экономика, финансовый рынок, реальная экономика, предпринимательство, прирост капитала, иностранные инвестиции, стратегия социально-экономического развития.

Jahon miqyosida davlatlar iqtisodiyotining turli sohalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish, ulardan maqsadli foydalanish real iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida investitsiyalarni, xususan chet el investitsiyalarini, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakldagi investitsiyalarni

iqtisodiyotga kengroq jalb etishni ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Sababi, xorijiy investitsiyalar davlatimizda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, byudjetga soliq tushumlarini ko‘paytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash jarayonlarini faollashtiradi. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag‘larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga e‘tibor qaratishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida “... investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”<sup>20</sup>, deb ta‘kidladi. Davlatimiz rahbarining bu fikrlari milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va taraqqiy etishida investitsiyaning naqadar muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlab turibdi.

Jahon iqtisodiyotiga 2016 yilda qariyb 2 trln. dollarga yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kiritilgan bo‘lib, 2010 yilga nisbatan uning o‘sish sur‘ati 30,1 foizni tashkil etgan. Xalqaro statistika ma‘lumotlariga ko‘ra, mintaqalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Osiyoning rivojlanayotgan mamlakat-laridagi umumiy investitsiya-larning 31,3 foizni, Yevropa davlatlarida 29,1 foiz, Shimoliy Amerika davlatlarida 24,8 foizni tashkil etadi<sup>21</sup>.

Mamlakatimizda qabul qilingan ochiq iqtisodiy munosabatlarga asoslangan investitsiya siyosatining tamoyillariga to‘liq rioya qilish, u bilan bog‘liq chora-tadbirlarni izchil amalga oshirib borish hamda jozibali investitsiya muhiti – mamlakatimiz iqtisodiyotiga turli moliyalashtirish manbalaridan asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi ko‘payib borishiga olib kelmoqda. O‘zbekistonda 2016 yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 48083,1 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017 yilda 68423,9 mlrd. so‘mga yetib 142,3 foizga, chet el investitsiyalari esa 2016 yil (10611,4 mlrd. so‘m)ga nisbatan 2017 yil (17146,5 mlrd. so‘m)da 161,6 foizga oshgan<sup>22</sup>.

Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari va kreditlari hajmining oshib borishi, O‘zbekistondagi investitsiya siyosatining rag‘batlantiruvchi omillari xorijiy sarmoyadorlar uchun qulayligi

<sup>20</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

<sup>21</sup> Division on Investment and Enterprise United Nations Conference on Trade and Development, www.unctad.org, 2016 .

<sup>22</sup> Ўзбекистон рақамларда (статистик тўплам). - Тошкент. 2018, 24 бет.

hamda korxonalarining iqtisodiy jihatdan jozibadorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishni ta’minlash va mavjud resurslardan samarali foydalanishda investitsion faoliyatni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Investitsion faoliyatning eng muhim elementi esa «investitsiya» hisoblanadi. Shunday ekan dastlab investitsiya tushunchasining mazmun va mohiyatini aniqlash lozim.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma’nosini beradi. Keng ma’noda investitsiya mablag‘ni ko‘paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 3-moddasida: “**investitsiyalar** - qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar”<sup>23</sup> deb ta’rif berilgan.

AQShlik iqtisodchi Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati U.F.Sharp investitsiyalarga quyidagicha ta’rif beradi: «Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog‘ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o‘shishiga sababchi bo‘ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchidir”<sup>24</sup> deb ta’rif bergan bo‘lsa, Rossiyalik iqtisodchi olim V.V.Bocharov ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif bergan: “Investitsiya bu - tadbirkorlik va boshqa ko‘rinishdagi faoliyat ob’ektlariga qo‘yilgan barcha turdagi mulkiy va intellektual qimmatliklar bo‘lib, natijada foyda (daromad) yuzaga keladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi”<sup>25</sup>”.

---

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрири). Тошкент ш., 2014 йил 9 декабрь, ЎРҚ-380-сон. <http://www.lex.uz>.

<sup>24</sup> Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер.с англ. М: ИНФРА-М, 1997. 1-бет.

<sup>25</sup> В.В.Бочаров. Инвестиции. Издательство: Питер, 2008 г. Стр-6.

**А.Д.Равшанов** - ҚарМИИ “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н.

**А. Худоёров** - ҚарМИИ магистранти

## **ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ТАРМОҚЛАРИНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ**

**Аннотация:** Мақолада реал сектор корхоналарида хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантириш тушунчаси, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳадаги аҳамияти ҳозирги кунда мамлакат ялпи ички маҳсулотдаги улушларининг ўзгариши, хизмат кўрсатиш тармоқларини ривожлантириш бўйича таклиф ва тавсиялар баён этилган.

**Калит сўзлар:** иқтисодиётни диверсификациялаш, модернизациялаш, тараққиёт стратегияси, рақамли иқтисодиёт, стратегия, хизматлар бозори, ахборотлаштириш ва рақамлаштириш жараёни.

**Аннотация:** В статье описывается концепция развития сферы услуг на предприятиях реального сектора, ее значение в экономической и социальной сферах, изменение доли страны в ВВП, предложения и рекомендации по развитию сферы услуг

**Ключевые слова:** диверсификация экономики, модернизация, стратегия развития, цифровая экономика, стратегия, информационный рынок и цифровизация рынка услуг

**Annotation:** The article describes the concept of service sector development in real sector enterprises, its importance in the economic and social spheres, changes in the country's share in GDP, proposals and recommendations for the development of service sector

**Keywords:** economic diversification, modernization, development strategy, digital economy, strategy, information market and digitalization of services market

Ҳозирги кунда мамлақтимизда хизматлар соҳаси аҳолининг барча қатламларини қамраб олади ва жамиятда содир бўлаётган деярли барча ижтимоий-иқтисодий жараёнларга ўз таъсир кўрсатади бу эса мазкур масаланинг қанчалик муҳим ва аҳамиятли эканлигини кўрсатиб беради.

Ҳар қандай мамлақат тараққиётга эришиши учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини жорий этиши зарур ва шарт. Бу юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради.

Иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификациялаш шароитида мамлақат аҳолисининг бандлигини, даромадларини ва турмуш сифатини оширишнинг муҳим йўналишлари ва омилларидан бири сифатида хизматлар соҳасини жадал ривожлантириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Бундан ташқари, иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлашда мазкур соҳа муҳим ўринни эгалламоқда.

Бу борада Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли Фармонида асосан

“Худудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш ҳамда ушбу йўналишда жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш” дастурини ишлаб чиқиш вазифасини белгилаб бердилар<sup>26</sup>. Ушбу соҳа тараққиётини янада ривожланишини таъминлашга ва бу соҳада олиб борилаётган ислохотларни янада кучайтирилишига олиб келади.

Реал сектор корхоналарида хизмат кўрсатиш тармоқларининг шаклланиши ва тараққий этишида ҳамда уларнинг юқори самарадорлик билан ишлашини таъминлашда айрим муаммоларга ҳам дуч келинмоқда. Ушбу муаммоларни бартараф қилиш, унинг нафақат амалий, балки бир қатор назарий масалаларини ҳам ҳал этиш лозимлиги мазкур хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш эвазига мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёт ва барқарор ривожланишига олиб келмоқда. Натижада реал сектор корхоналарида рақамли технологияларнинг қўлланилиши нафақат маҳсулот ва хизматлар сифатини оширади, балки ортиқча харажатларни ҳам камайтиради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4699 сонли қарорига асосан 2023 йилга келиб рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотигаги улушини 2 бараварга кўпайтиришни назарда тутилган<sup>27</sup>.

Реал сектор корхоналарида хизмат кўрсатиш бир вақтнинг ўзида ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий соҳадир. Чунки, барча жабҳаларда жумладан, иқтисодий, ижтимоий ва ҳаттоки, сиёсий соҳаларда ҳам хизмат кўрсатиш тармоғи фаолиятдан фойдаланилади. Хизматларнинг иқтисодий соҳалиги шунда намоён бўладики, ушбу соҳада мамлакат ялпи ички маҳсулотининг бир қисми яратилади. Унинг ижтимоий соҳалиги шундаки, унинг аксарият қисми инсонлар ҳаётини яхшилашга, яшашини қулайлаштиришга қаратилгандир.

Хулоса қилиб айтганда, ривожланган мамлакатлар тажрибаси кўрсатмоқдаки, реал сектор корхоналар ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг барча жабҳаларида барқарорликни таъминловчи асосий омиллардан биридир. Ушбу соҳанинг ривожланиши мамлакат аҳолиси бойишига, иқтисодиёт ривожланишига, истеъмол бозори тўйинишига, давлат бюджети тушумлари кўпайишига, ишсизлик камайишига олиб келади.

**Xudoyberdiyev Umar - SamISI Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,**

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 сонли Фармони

<sup>27</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4699 сонли Қарори

**Shukurova Maftuna Salimovna** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Bank-Moliya xizmatlari fakulteti talabasi

## **O'ZBEKISTONDA ELEKTRENERGIYA ISHLAB CHIQRISH VA FOYDALANISH MUAMMOLARI, HAMDA ULARNING YECHIMI**

**Anotatsiya:** Maqolada mamlakatda elektroenergiya ishlab chiqarishning holati, elektroenergiya bilan iste'molchilarni ta'minlashdagi muammolar, bu muammolarni hal qilish yo'llari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Elektroenergiya, issiqlik elektrostansiyalari, iste'molchilar, muammolar, quyosh elektrostansiyalari, tabiiy gaz, Angren IES, suv kollektorlari, investitsiyalar, yashil energiya.

**Аннотация:** В статье описывается состояние производства электроэнергии в стране, проблемы в обеспечении потребителей электроэнергией и пути решения этих проблем.

**Ключевые слова:** Электроэнергия, тепловые электростанции, потребители, проблемы, солнечные электростанции, природный газ, Ангренская ОЭС, водосборники, инвестиции, зеленая энергетика.

**Annotation:** The article describes the state of electricity production in the country, problems in supplying consumers with electricity, and ways to solve these issues.

**Keywords:** Electricity, thermal power plants, consumers, problems, solar power plants, natural gas, Angren IES, water collectors, investments, green energy.

Elektroenergiya hozirgi ustivor yo'nalishlarni biri bo'lib tadbirkorlar, iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar, jamoat tashkilotlari, aholining eng zarur va kerakli ne'matlaridan bo'lib kelmoqda. Unga bo'lgan foydalanuvchilarning ehtiyojlari muntazam ravishda oshib borishi sir emas. Iqtisodiy faoliyat yurituvchilar (korxonalar, tashkilotlar, firmalar va boshqa shu kabilar) soni 2017 yil 285.3 mingta (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), 2022 yilga kelib ularning soni 557, 8 mingga yetgan, ya'ni 2 barobar - deyarli 196% ko'paygan. Aholi soni ham 2007 yil boshiga 32.120,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 35.271,3 ming kishi bo'lgan. Aniqrog'i 3150,8 ming kishiga 110,0% ga ko'paygan. Bu ko'rsatkichlar shuni ta'kidlaydiki, elektroenergiyaga bo'lgan talab ortib borishi natijasida uning taqchiligiga olib kelishi mumkin.

Bizga ayonki, taxminan 85% elektr energiyani mamlakatimiz gaz orqali ishlab chiqaradi. Oxirgi yillarning ichida gazning keskin kamayib ketishi elektr energiyaga ta'sir qilishi ham ko'zda tutilib kelmoqda.

Bu jadvalda keltirilgan statistic kuzatuvlar barcha turdagi elektroenergiya ishlab chiqarish 117,4 % ga ko'paygan. Bu asosan issiqlik elektroenergiyasi oshib ketishi sababli yuzaga kelgan, lekin shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaning 81,0 % (2021 yil

(57,8 : 71,4 ) \* 100 ) issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Hozirgi Sirdaryo, Talimarjon, Navoiy TPЭС lar o'z faoliyatlarini davom ettirmoqdalar. Issiqlik elektrostansiyalari Toshkent, Taxiatosh, Shirin kabi TPЭС lardir. Ularda asosan qimmatbaho bo'lgan tabiiy gaz orqali elektroenergiya ishlab chiqariladi. Bu TPЭС lar o'tgan asrning 60 – 70 yillarida qurilgan bo'lib, gazni ko'p ishlatadi, texnikalar ma'nan eskirgan. Bularga ko'p yillar mobaynida investitsiya kiritilmagani, elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilinmaganiayni haqiqat. Oqibatda bular katta yo'qotishlarni olib kelib, mamlakatda elektroenergiyaga salbiy ta'sir qiluvchi bir aspekt ko'rinishida qarashimiz mumkin. Masalan, bunga misol qilib Angren IES ( issiqlik elektr stansiyasi )ni keltirishimiz mumkin. U 2023 yilning yanvar oyida ishonchli boshqaruvdan chiqarildi. Oxirgi 3 yil mobaynida u ko'p mlrd. so'mlik zarar ko'rdi. Vaholanki, u avval foyda keltiruvchi korxonaga bo'lgan. Angren IES O'zbekistonning energetika tizimining bir qismi deb aytsak adashmagan bo'lardik. U Toshkent va boshqa tumanlarni elektr bilan ta'minlab turuvchi issiqlik manbayi bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yakuni bo'yicha Angren IES davlat ulushiga ega bo'lgan korxonalar orasida zarar ko'rish bo'yicha oltinchi o'rinni egallagan – 87,6 mlrd. so'm 2022 yilning sentyabr ya'ni 9 oy to'liq statistik kuzatuvlarga binoan 169 mlrd. so'm talofot bilan yakunlagan. Jamiyat o'zining 440 mlrd. kapitalini yeb tugatgan. Oxirgi 3 yil mobaynida 15 trln. so'mlik zarar jamlagan.

### ***O'zbekistonda 2017-2021 yillarda elektroenergiya ishlab chiqarish dinamikasi***

	2017	2019	2020	2021	2021 y. 2017 y. nisbati %
Elektroenergiya ishlab chiqarish mlrd.kvt.soat	60,8	63,5	66,5	71,4	117,4
shu jumladan A)issiqlik elektrostansiyalarida	51,1	55,1	54,4	57,8	113,1
B) gidroelektrostansiyalarida	7,9	6,5	5,0	5,0	63,3

2022 – 2023 yil qish mavsumining o'rtalarida anomal sovuq kelishi, xonadonlarda ayniqsa ko'p qavatli uylarda issiqlikning yetishmasligi yoki issiqlik bilan ta'minlanmaganligi sababli, elektroenergiyadan isitish uchun konditsionerlar va shu kabi elektropechlarlarga aholi ko'proq moyilligi bo'lgani sababli, elektroenergiyada uzilishlar bo'ldi. Elektroenergiyadan ko'p iste'mol qiladigan korxonalar vaqtincha faoliyati faoliyati to'xtatildi. Bu esa ishlab chiqarishning to'xtalishiga sabab bo'lib iqtisodiyotga zarar, ishchi xodimlarga esa mehnat haqi olmaganligi sababli, daromadlarning kamayishiga olib keldi.

Elektroenergiyadan foydalanishni nazor qilish bo'yicha tuzilgan huquqiy komissiyani hududlarda noqonuniy elektroenergiyadan foydalanayotgan obyektlar aniqlanganligi ham mavjud bo'ldi. Misol uchun, issiqxonalar sovuqdan zarar ko'rib muzlab qolmasligi uchun, noqonuniy yo'llar orqali issiqlik manbalaridan foydalanishgan.

**Muammolarni hal qilish yo'llari va takliflar:**

-Iqtisodiyotni barqaror holatga keltirish uchun energetika sohasiga investorlarni jalb etib, xususiy investitsiya kiritish kerak. Bundan tashqari, ko'p iqtisodchilar yana bir yechimi bo'lmish energetika sohasida erkin bozorga o'tishni taklif etmoqdalar.

-Elektroenergiyadan noqonuniy foydalanuvchilarni tugatish lozim. Ularga qat'iy jazo ko'rib iloji boricha salbiy oqibatlarni oldini olish kerak.

-Tugatilmaydigan, arzon, tabiatga zarar yetkazmaydigan zamonaviy yechimlardan, quyosh va shamoldan foydalanib elektroenergiya ishlab chiqarishni targ'ib etishni yo'lga qo'yish kerak. O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan bo'lib, issiq o'lka hisoblanadi. 1 yil (365 kun) mobaynida uning 315 kuni yoruqlikdan iboratligi aniq fakt hisoblanadi. Shuboisdan quyosh orqali energiyani olish uchun yanada ko'proq kirishsak, muammoni qisman hal qilgan bo'lardik.

-Suvdan olinadigan gidroenergiya stansiyalarni ko'paytirish kerak.

-Elektroenergiyani uzatishdagi yo'qotishlarni kamaytirish darkor.

-Uy, ishxona, bog'cha, maktab va ko'chalarda odamlarimizga energiyani qadriga yetish va tejashni o'rgatish kerak. Qonunkarimizda ham bu masalalarni mustahkamlash zarur.

-Gaz zaxiralarini ko'paytirish maqsadida geologiya qidiruv ishlari bo'yicha strategic yo'llar orqali, yangi texnologiyalarni joriy etib, chuqur qatlamlarda gaz qazib chiqarish ishlarini yo'lga qo'yish kerak.

**Masalalarni yechishda qilinayotgan say harakatlar:**

-Kelgusi 3 yilda barqaror davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatilish yo'lga qo'yilishi rejalashtirildi. Ushbu maqsadlarda 2 milliard dollar miqdorida investitsiya jalb qilindi. Buni hisobidan ularning 60% elektr va gaz iste'moli “yashil energiya”ga o'tkaziladi.

-So'nggi 3 yilda, sohaga 8 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etildi. Jumladan, 2022 yil dekabr oyining o'rtalarida Buxoro, Namangan va Xorazmda quvvati 500 megavattli yana 3 ta quyosh stansiyasini qurish bo'yicha tanlov yakunlandi. Deputat va senatorlar tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar buning uchun huquqiy asos bo'ladi.

-2022 yil boshidan quvvati, 1,5 ming megavattli 7 ta elektr stansiyasi ishga tushirildi.

-Kelgusi yilda yana 4,5 megavattli 11 ta yirik loyihani yakuniga yetkazish ko'zda tutilgan. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida barpo etiladigan quyosh va shamol elektr

stansiyalari hisobidan qo‘shimcha 14 milliard kilovatt elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali xonadonlarga beriladigan elektr energiyasi 50%ga ko‘payadi.

-Samarqand viloyati Nurobod tumanida “Yashil energiya” quyosh panellari orqali elektr energiya olish 2022 yilda qurib bitkazildi va u hozircha o‘z faoliyatini ilgari surmoqda.

-“2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda “Yashil energiya”dan foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlanadi. Bu maqsadlarga 15,4 mlrd. AQSH dollari yo‘naltiriladi. Shu bilan birga, tegishli vazirlik va idoralarga 1 iyulga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish loyihalariga xalqaro moliya tashkilotlaridan 2 milliard dollar miqdorida mablag‘ jalb etish bo‘yicha topshiriq berildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomas. 2022 yil 20 dekabr;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;
3. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/04/angren-tes/> ;
4. Zarafshon gazetasi 2022-yil 22-dekabr, payshanba 151, (23.316)-son;
5. <https://uznews.uz/uz/posts/62492> .

**Bozorov Berdimurod Ulug‘murodovich** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslarini boshqarish fakulteti kafedراسи dotsenti

**Tursunboyev Abdulbositxon G‘anixon o‘g‘li** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi

## **INNOVATSION IQTISODIYOTDA KORXONALARDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA MAZMUNI**

**Annatsatsiya:** Ushbu maqolada inovatsion iqtisodiyotda korxonalarda mehnat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, iqtisodiyotda ishlab chiqarish munosabatlari, mehnatni tashkil etish, samaradorlik tushunchasi to‘g‘risidagi fikrlarni o‘rganib chiqish asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:**Inovatsion faoliyat, tamoyillar, texnologiyalar, samaradorlik, kategoriy, mehnat samaradorligi.

**Аннотация:** В данной статье разработаны выводы и предложения на основе изучения социально-экономического значения повышения производительности труда на предприятиях в условиях инновационной экономики, производственных отношений в экономике, организации труда и понятия эффективности.

**Ключевые слова:** Инновационная деятельность, принципы, технологии, эффективность, категориальность, производительность труда.

**Annatsation:** In this article, conclusions and proposals were developed based on the study of the socio-economic importance of increasing labor efficiency in factories in the innovative economy, production relations in the economy, labor organization, and the concept of efficiency.

**Key words:** Innovative activity, principles, technologies, efficiency, categorical, labor efficiency.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish tizimiga o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan eng ustuvor vazifalaridan biri sifatida “tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish”<sup>28</sup> lozimligini alohida ta’kidlaganliklari, aynan bu innovatsion rivojlanish sari olg‘a qadam bosayotganligimizdan dalolat beradi.

Darhaqiqat, shu bugungi kun talablariga javob beradigan tovar va xizmatlarni yaratish orqali mamlakat raqobatbardoshligini oshirish mumkinligi, yangiliklarni amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqarishni rivojlantirishda har doim katta ahamiyat kasb etgan. Iqtisodiyotning hozirgi bosqichida rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotiga innovatsion faoliyat orqali erishish alohida alohida ahamiyatga ega. Birgina, innovatsion axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanib borishi natijasida jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning qariyb 5,5 foizi aynan shu faoliyat xissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida sezilarli salmoqqa ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin, masalan, Koreya Respublikasida 11,8 foizdan ziyodni, Shvesiyada 7 foizni, AQShda esa 6,8 foizni tashkil etadi. Shuni qayd etish lozimki, zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli yanada oshadi, ular borgan sari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi.

Innovatsion faoliyat iqtisodiyotda ishlab chiqarish munosabatlari, xo‘jalik yuritish mexanizmi, shakllari va mehnatni tashkil etish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bir tekisda davom etmasdan, balki qo‘yidan yuqoriga, oddilikdan murakkablik tomon yuksalish tamoyillariga asoslanadi. Bu esa taraqqiyotning universal qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Har bir zamon iqtisodiyoti o‘zining

siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy to‘zilmasiga asoslanadi. Boshqa tomondan esa, bu iqtisodiyot ishlab chiqarish vositalari, innovatsion texnika va texnologiyalarga ega bo‘ladi. Aynan mazkur ikki jihat har bir davrning iqtisodiy rivojlanishida o‘zining izini qoldiradi va rivojlanish darajasini belgilab beradi. Mazkur ziddiyatlarning mazmuni iste‘mol bilan ishlab chiqarishning vaqt nuqtai nazaridan mos kelmasligida, ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish usulidan oldinda yurish kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, bu holat iqtisodiy transformasiya jarayonlarini vujudga keltiradi, ya‘ni rivojlanishning bir bosqichidan keyingi takomillashgan bosqichiga o‘tishiga moddiy hamda texnik-texnologik asos yaratadi. Shuningdek, iqtisodiy transformasiya natijasida sifat, texnik-texnologik jihatdan oldingi tizimga nisbatan innovatsion iqtisodiyot vujudga keladi. Innovatsiya bu shunday bir tizimki, bu tizim orqali yangilik kiritishimiz, ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar jalb qilishimiz va biz ishlayotgan tizimni tubdan yangilashimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida fan-texnika taraqqiyoti orqali uning namoyon bo‘lish shakli innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalar sohasidagi innovatsion faoliyat hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o‘shining 70 foizdan 85 foizgacha yangi texnologiya, asbob-uskuna, yangi bilim yoki yechimlarga ega bo‘lgan innovatsion mahsulotlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Bu esa mamlakat hayotidagi innovatsion iqtisodiyotning naqadar muhimligini belgilab beradi. Innovatsion iqtisodiyot – jamiyat taraqqiyoti uchun foydali bo‘lgan har qanday innovatsiyalarni tezkorlik bilan tadbiiq etishga qodir iqtisodiyotdir. Innovatsion iqtisodiyotda asosiy e‘tibor mehnat resurslarining intellektual salohiyatini, fan va texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarish jarayoniga samarali joriy etish asosida zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratiladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bunday holat iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan ishlab chiqarish sohasini kengroq rivojlanishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “...mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari, xususan, neft-kimyoy, kimyoy, avtomobilsozlik sanoati, qishloq xo‘jaligi va temir yo‘l mashinasozligi, farmasevtika, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa sohalar izchil rivojlanmoqda”<sup>29</sup> deb ta’kidlangan.

“Samaradorlik” tushunchasi keng ko‘lamli, umummilliy kategoriya sifatida talqin qilinib, o‘z ichiga ilmiy, texnik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa natijalarni qamrab oladi. Samaradorlik tushunchasi murakkab tushuncha ekanligini e‘tirof etib, ilmiy adabiyotlarda (efficiency – inglizcha) (efficientia – lotincha) bir nechta tarjimaviy talqinga ega, bir muncha keng tarqalgan “efficiency” iborasini “samaradorlik, mahsuldorlik, harakatchanlik qobiliyati va operativlik”<sup>30</sup> kabi tushunchalar bilan izohlash mumkin.

Samaradorlik masalalari bo'yicha uzoq xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan turli ilmiy izlanishlar olib borilib, ular o'zlarining qarashlarini bayon qilganlar. V.V.Novojilov tomonidan samaradorlikga quyidagicha ta'rif berilgan: "...samaradorlikni umumiy tarzda foydali samarani (natijadorlikni) uni olish uchun sarflarga nisbatida ifodalanadi. Samaradorlik ko'rsatkichi quyidagi hollarda teskari shaklda, ya'ni sarflarni samaradorlikka nisbatida ifodalanadi"<sup>31</sup>. L.M.Chistov tomonidan: "samaradorlik – bu vaqt birligida ishlatiladigan resurslar birligi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot ko'rinishida foydali xossalarni konsentratsiyasidir"<sup>32</sup>, deb ta'rif beriladi. U samaradorlikning bir xil mazmunga ega bo'lgan bir necha ko'rsatkichlarini: resurs qaytimi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning intensiv amal qilishi va yalpi resurslardan foydalanish sifati ko'rsatkichlarini ko'rsatgan. U resurs qaytimi ko'rsatkichini yalpi foydalanilayotgan resurslar obyektlari quvvati birligini o'rtacha yalpi yillik foydalanilayotgan resurslar qaytimi birligiga bo'lish orqali aniqlashni ilgari suradi.

Hozirgi zamon g'arb iqtisodchilari D.L.Gibson, D.M.Ivansevich va D.X.Donnelli tomonidan "samaradorlik tushunchasini uch yo'nalishda: birinchidan, korxonalariga erishish darajasi sifatida, ikkinchidan, qiziqishlar kelishuvi darajasi sifatida, uchinchidan, tashqi muhitda yashab ketish, ko'nikish, egiluvchanlik darajasi"<sup>33</sup> sifatida tahlil qilganlar. Vilfred Pareto: "samaradorlik – bu ishlab chiqarish tizimida biron-bir jarayonga putur (zarar) yetkazmagan holda yuqori natijadorlikka erishishdir"<sup>34</sup> deb e'tirof etadi.

Mamlakatimizning yetuk olimlari ham samaradorlik masalasi bo'yicha o'zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Xususan, akademik Q.X.Abdurahmonov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: "samaradorlik tushunchasi nihoyatda keng tushunchadir, u olingan samaraning sarflarga nisbatini aks ettiradi"<sup>35</sup>, A.O'lmasov, A.Vahobov tomonidan: "samaradorlik resurs sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi, ya'ni, bu nima sarflab nimaga erishganligini ko'rsatadi"<sup>36</sup>, Q.J.Mirzayev, M.Q.Pardayev tomonidan: "mulk shaklidan qat'iy nazar, barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish va xarajatlarning tejamkorligini ta'minlash evaziga jamiyat, davlat, mulkdor, korxonalar, ishchi kuchi sohibi kabi subyektlarning manfaatlari mushtarakligini ta'minlashga qaratilgan ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui"<sup>37</sup>, deb ta'rif beriladi. B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev tomonidan esa: "samaradorlik – bu sodir bo'layotgan biror iqtisodiy jarayonning qanday natija bilan yakunlanganini ifodalaydi"<sup>38</sup> deb izoh beradilar. Ushbu berilgan ta'rifda samaradorlik tushunchasiga iqtisodiy nuqtai nazardan yondashilib, samaradorlik

faqat biror-bir iqtisodiy jarayonda vujudga keladi, degan fikrni ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, samaradorlik nafaqat iqtisodiy jarayonning yakunidagi holati, balki ijtimoiy natijaning erishilgan darajasi hamdir.

Mehnat samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida mohiyati va mazmunini uch yo‘nalishda tahlil qilish mumkin: birinchi yo‘nalish, o‘rganish predmeti bo‘yicha mehnat yoki ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligining o‘zi hisoblanadi. Bu kategoriyaning iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni katta e‘tiborga ega, mehnat samaradorligining obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy qonunlar bilan o‘zaro aloqasi tadqiq qilinadi, shuningdek ko‘pgina olimlarni bu kategoriya ishlab chiqarishning turli shakllarida o‘ziga xosligi bilan qiziqtiradi; ikkinchi yo‘nalish, bu mehnat samaradorligi mezonlari va uning miqdoriy me‘yorlarini, shuningdek iqtisodiyotning turli darajalarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini izlash, samaradorlik dinamikasini o‘rganish bilan bog‘liq; uchinchi yo‘nalish esa, alohida ta‘sir qiluvchi omillar, oshirish yo‘llari va zahiralarini tadqiq qilish bilan bog‘liq. Ushbu 3 ta yo‘nalish ham bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ularning asosiy maqsadi mehnat samaradorligi mohiyatini nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir. Mehnat samaradorligining mohiyatini o‘rganishni eng avvalo uning qaysi sohaga tegishli ekanligini aniqlashdan boshlash lozim: moddiy ishlab chiqarish sohasidami yoki nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga tegishlimi?. Ko‘pchilik olimlar mehnat samaradorligini moddiy ishlab chiqarish sohasiga tegishli, deb e‘tirof etishadi, chunki bu sohada kilingan sarf-xarajatlar yaqin davr ichida o‘z natijasini berishi bilan farqlanadi. Boshqa bir guruh olimlar esa mehnat samaradorligi noishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) sohasiga tegishli, deb fikr yuritishadi, chunki bu sohada qilingan sarf-xarajatlar uzoq muddat o‘z natijasini bermasa ham, lekin vaqti kelganda shunday natija beradiki, buni hych kandy mikdoriy va sifatiy o‘lchovlar bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Mehnat samaradorligining umumiy tasnifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, u mohiyatan mehnat unumdorligi kabi olingan natijalarning sarflarga nisbati orqali xarakterlanadi, ya‘ni bu ikki ijtimoiy va iqtisodiy kategoriya mehnat sarflariga nisbatan tushumni aks ettiradi, ammo ular turli darajada, turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuini ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, mehnat samaradorligining mohiyati o‘zida quyidagilarni mujassam etadi: mehnat resurslaridan foydalanish darajasini, sarflangan vaqt, mehnat sifati, shuningdek bir ishchi uchun sarflangan mehnat sarfi hisobini.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

<sup>1</sup>Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat‘iy davom ettiramiz. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).

<sup>1</sup> Мюллер Д.К. “Англо-русский словарь”. М.: “Русский язык”, 1992. – с. 233-234.

<sup>1</sup> Новожилов В.В. “Проблемы измерения затрат и результатов при оптимальном планирования” // – М.: “Наука”, 1972. – с. 58.

<sup>1</sup> Чистов Л.М. “Теория эффективного управления социально-экономическими системами”. Учебник. – СПб.: “Астерион”, 2009. – с. 575.

<sup>1</sup> Кузнецов Б.Л., Кузнецова С.Б., Андреева Ф.И. “Эффективность корпоративного развития” // Экономическая синергетика: Ответы на вызовы и угрозы XXI века: сб. науч. тр. // Под ред. д.т.н., проф. Б.Л.Кузнецова. – Набережные Челны: Изд-во Камской гос. нж.-экон. акад., 2005. – с. 119.

<sup>1</sup> Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti”. Т.: “Mehnat”, 2004. - 398 b.

<sup>1</sup> O’lmasov A., Vahobov A. “Iqtisodiyot nazariyasi” (Darslik) (to’ldirilgan va qayta ishlangan nashri). Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – 41 b.

<sup>1</sup> Mirzayev Q.J., Pardayev M.Q. “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O’quv qo’llanma. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. –112 b.

**Турдибеков Юсуф Ибрагимович – СамДАҚУ катта ўқитувчиси**

## **ШАҲАР ЖАМОАТ АВТОТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР**

**Аннотация:** Ушбу мақолада шаҳар жамоат автотранспорти хизматларининг самарадорлигини баҳолашнинг ўзига хос томонлари ҳамда мавжуд муаммоларни ўрганилди ва уларнинг ечимлари бўйича таклифлар такдим қилинди.

**Калит сўзлар:** автотранспорт хизматлари; шаҳар жамоат автотранспорти; автотранспорт воситаси; автобус; хизматлар самарадорлигини баҳолаш; бозор қиймати.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются специфические аспекты оценки эффективности работы городского общественного транспорта, а также существующие проблемы и предлагаются предложения по их решению.

**Ключевые слова:** автотранспортные услуги; городской общественный транспорт; автомобиль; автобус; оценка эффективности обслуживания; рыночная стоимость.

**Abstract:** This article examines the specific aspects of the evaluation of the efficiency of urban public transport services, as well as the existing problems and offers suggestions for their solutions.

**Keywords:** motor transport services; city public transport; motor vehicle; bus; assessment of service efficiency; market value.

Жаҳоннинг кўпгина давлатларида, хусусан мамлакатимизда шаҳар жамоат транспорти хизматлари аҳолининг кенг қатламига жамоат транспорти (автобуслар) орқали бир манзилдан иккинчисига етиб олиш хизматларини кўрсатади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.

Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида бу соҳада амалга оширилиши кўзда тутилаётган ишлар ҳақида куйидагиларни айтиб ўтди: “... жамоат транспортидаги вазият мутлақо ўзгаради. Тошкент шаҳри учун қўшимча равишда 1 мингта замонавий автобус сотиб олинади, 7 та ер усти метро бекати ишга туширилади. Буларнинг ҳисобидан ҳар куни 500 мингдан зиёд пойтахт аҳолиси ва меҳмонларига қўшимча қулайликлар яратилади. Худудларда ҳам йўловчи ташиш сифатини яхшилаш мақсадида яна 1 мингта автобус ҳаракати йўлга қўйилади. Бу орқали жамоат транспорти бўйича аҳвол оғир бўлган 300 та маҳалладаги 1 миллион аҳолининг узоғи яқин қилинади”<sup>39</sup>.

Шаҳар жамоат автотранспорт хизматлари бутун бир тизимни қамраб олади. Унинг таркибига жамоат автотранспорти корхоналари, бекатлар, шаҳар жамоат автотранспорт воситалари қатнайдиган кўча ва йўллар киради. Кўча ва йўллар ҳамда бекатлар маҳаллий давлат ҳокимияти органларига қарашли бўлиб, уларни қуриш, таъмирлаш ва сақлаш харажатлари маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан амалга оширилади. Шаҳар жамоат автотранспорти корхоналари шаҳар аҳолисига йўловчи ташиш хизматларини кўрсатади ҳамда шу фаолият орқали даромад олади. Бутун дунёда, хусусан Ўзбекистон шароитида шаҳар жамоат автотранспорти хизматларини кўрсатишдан фойда жуда кам миқдорда олинади ёки зарар кўриш ҳам мумкин. Шаҳар жамоат автотранспорт хизматлари самарадорлигини баҳолаш ва таҳлили орқали автотранспорт корхоналарининг фаолиятининг ҳақиқий ҳолати тўғрисида маълум бир фикрга келанади ва шу асосда бошқарув қарорлари қабул қилинади.

Бозор муносабатларининг янги босқичи – рақамли иқтисодиётнинг шаклланиши шароитида шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигини баҳолаш услубиятини такомиллаштириш ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади ҳисобланади ва ушбу мақсадга эришишда куйидаги вазифаларни амалга ошириш белгилаб олинди:

- шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигини баҳолаш услубиятини ишлаб чиқиш;
- шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигини баҳолашда фойдаланиладиган иқтисодий кўрсаткичлар тизимини ишлаб чиқиш;
- шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигини баҳолаш ва таҳлилининг такомиллаштириш бўйича таклифлаш ишлаб чиқиш.

Иқтисодий самарадорлик – бу хўжалик фаолияти натижалари билан ресурслар харажатлари ўртасидаги нисбатни акс эттирувчи кўрсаткич. Иқтисодий самарадорлик иқтисодий самарага, шунингдек шу самарани юзага келтирган харажатлар ва ресурсларга боғлиқ. Шундай қилиб,

<sup>39</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

иқтисодий самарадорлик – самарани харажатлар ва ресурслар билан қиёслаш натижасида олинадиган нисбий кўрсаткич [6]:

$$\text{Иқтисодий самарадорлик} = \frac{\text{Иқтисодий самара}}{\text{Ресурслар ёки харажатлар}}$$

Иқтисодий самарадорликни баҳолаш ва таҳлил қилиш масаласи билан жаҳоннинг етакчи мамлакатлар олимлари шуғулланиб келишмоқда, лекин маълум соҳалар бўйича, масалан шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш етарли даражада ўрганилмаган, бу унинг ўзига хос жиҳатлари билан боғлиқ.

**Шаҳар жамоат автотранспорти хизмати** – бу шаҳар жамоат автотранспорт воситалари (автобус ва микроавтобуслар) ёрдамида шаҳар аҳолисига бир манзилдан иккинчисига етиб олиш бўйича кўрсатиладиган хизмат тури<sup>40</sup>.

**Шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлиги** – бу бир бирлик шаҳар жамоат автотранспорти хизмати (бир йўловчи, бир йўловчи-километрга) тўғри келадиган якуний иқтисодий самара (кўрсатилган хизматлар ҳажми, фойда) миқдори билан ифодаланидиган иқтисодий кўрсаткич<sup>41</sup>. Шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлиги маълум иқтисодий кўрсаткичлар орқали ифодаланди. Бу кўрсаткичларга қуйидагиларни киритиш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

**Шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари самарадорлигининг махсус кўрсаткичлари тизими<sup>42</sup>**

Т/р	Кўрсаткичлар номи	Ҳисоблаш формуласи	Мазмуни
<b>Ҳаракатдаги таркибидан фойдаланиш самарадорлиги</b>			
1	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган АТХ миқдори (A <sub>АТВ</sub> )	$A_{АТВ} = \frac{АТХ}{АТВ}$ АТХ – АТХ ҳажми; АТВ – автомобилларнинг рўйхатдаги сони.	Бир бирлик АТВга қанча АТХнинг тўғри келишини кўрсатади
2	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган фойда (A <sub>ф</sub> )	$A_{ф} = \frac{СФ}{АТВ}$	Бир бирлик АТВга неча сўмлик фойданинг тўғри келишини кўрсатади

<sup>40</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

<sup>41</sup> Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

<sup>42</sup> Тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

3	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган ишлаб чиқариш харажатлари ( $A_x$ )	$A_x = \frac{ИЧХ}{АТВ}$ ИЧХ – ишлаб чиқариш харажатлари, сўм.	Бир бирлик АТВга неча сўмлик ишлаб чиқариш харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
4	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган иш ҳақи харажатлари ( $A_{иx}$ )	$A_{иx} = \frac{ИХ}{АТВ}$ ИХ – иш ҳақи харажатлари, сўм.	Бир бирлик АТВга неча сўмлик иш ҳақи харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
5	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган материал харажатлари ( $A_m$ )	$A_m = \frac{M}{АТВ}$ M – материал харажатлари, сўм.	Бир бирлик АТВга неча сўмлик материал харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
6	Бир бирлик АТВга тўғри келадиган ЁММ харажатлари ( $A_{ёмм}$ )	$A_{ёмм} = \frac{ЁММ}{АТВ}$ ЁММ – ёқилғи-мойлаш материаллари харажатлари, сўм.	Бир бирлик АТВга неча сўмлик ёқилғи-мойлаш материаллари харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
<b>Ҳайдовчилардан фойдаланиш самарадорлиги</b>			
7	Бир ҳайдовчига тўғри келадиган автотранспорт хизматлари ҳажми ( $X_{АТХ}$ )	$X_{АТХ} = \frac{АТХ}{ҲС}$ ҲС – ҳайдовчилар сони.	Бир ҳайдовчига неча сўмлик АТХнинг тўғри келишини кўрсатади
8	Бир ҳайдовчига тўғри келадиган фойда миқдори ( $X_{ф}$ )	$X_{ф} = \frac{СФ}{ҲС}$	Бир ҳайдовчига неча сўмлик фойданинг тўғри келишини кўрсатади
9	Бир ҳайдовчига тўғри келадиган иш ҳақи харажатлари ( $X_{иx}$ )	$X_{иx} = \frac{ИХ}{ҲС}$	Бир ҳайдовчига неча сўмлик иш ҳақи харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
<b>Автотранспорт хизматларини кўрсатиш самарадорлиги</b>			

10	Бир бирлик АТХга тўғри келадиган фойда ( $X_{\phi}$ )	$X_{\phi} = \frac{C\Phi}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик фойданинг тўғри келишини кўрсатади
11	Бир бирлик АТХнинг таннархи ( $X_T$ )	$X_m = \frac{ИЧХ}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик ишлаб чиқариш харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
12	Бир бирлик АТХга тўғри келадиган иш ҳақи харажатлари ( $X_{иш}$ )	$X_{иш} = \frac{ИХ}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик иш ҳақи харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
13	Бир бирлик АТХга тўғри келадиган меҳнат харажатлари ( $X_{мх}$ )	$X_{мх} = \frac{МХ}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик меҳнат харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
14	Бир бирлик АТХга тўғри келадиган материал харажатлари ( $X_M$ )	$X_M = \frac{M}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик материал харажатларининг тўғри келишини кўрсатади
15	Бир бирлик АТХга тўғри келадиган ЁММ харажатлари ( $X_{\epsilon MM}$ )	$X_{\epsilon MM} = \frac{\dot{E}MM}{ATX}$	Бир бирлик АТХга неча сўмлик ёқилғи-мойлаш материаллари харажатларининг тўғри келишини кўрсатади

**Хулоса ва таклифлар.** Хулоса қилиб айтиш мумкинки, шаҳар жамоат автотранспорт хизматлари самарадорлигини баҳолаш кам ўрганилган. Бу соҳа асосий шаҳар инфратузилмаси ҳисобланади ва шаҳар хўжалигининг барқарор ривожланиши ушбу соҳага бевосита боғлиқ. Шаҳар жамоат автотранспорти хизматларининг бугунги ҳолати ҳақида тасаввурга эга бўлиш учун ушбу хизматларнинг самарадорлигини баҳолаш лозим бўлади ва бунда маълум кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш талаб

қилинади. Биз таклиф қилаётган кўрсаткичлар тизими ушбу муаммога ечим сифатида келтирилмоқда. Ўйлайманки, биз таклиф қилаётган кўрсаткичлар тизими нафақат шаҳар жамоат автотранспорти хизматлари, балки автотранспорт хизматларининг бошқа турлари самарадорлигини баҳолашда ҳам кенг фойдаланса бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Канторович Л.В. Проблемы эффективного использования и развития транспорта / Л.В. Канторович. – М.:Наука, 1989. – 304 с.
2. Васильев Н.М. Автомобильный транспорт: организация и эффективность / Н.М. Васильев. – М.: Транспорт, 1985. – 208 с.
3. Пеньшин Н.В. Эффективность и качество как фактор конкурентоспособности услуг на автомобильном транспорте : монография / Н.В. Пеньшин; под науч. ред. В.П. Бычкова. – Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2008. – 224 с.
4. Грибов В.Д., Грузинов В.П., Кузьменко В.А. Экономика организации (предприятия): учебник. – М.: КноРус, 2016. – 407 с.
5. Turdibekov, K., & Ibragimovich, Y. T. (2015). Rates of tourism competitiveness under the categorical apparatus of tourism industry through strategic fundamentals of formation, analyses of Uzbekistan. Journal of Management Value & Ethics 5 (4), 62 – 79.

**Behzod Jo'rayev** – TDIU Samarqand filiali o'qituvchisi

**Aslbek O'tkirov** – TDIU Samarqand filiali talabasi

### **SOLIQ IMTIYOZLARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA TUTGAN O'RNINI**

**Аннотация:** Мақоллада солиқ имтиязларининг mohiyati va ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri to'g'risida fikr yuritilgan, soliқ imtiyozlari borasida xorijiy va mamlakatimiz olimlarining fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Shuningdek, Soliқ imtiyozlari iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi ta'sirini kengaytirishning yo'nalishlari keltirib o'tilgan.

**Калит so'zlar:** soliқ imtiyozlari, soliқ bazasi, soliқ stavkasi, soliқ chegirmalari, soliқ solish obyektі.

**Аннотация:** В статье рассматриваются сущность и значение налоговых кредитов, их влияние на социально-экономическое развитие, анализируются взгляды и взгляды зарубежных и отечественных ученых на налоговые кредиты. Также были отмечены направления расширения влияния налоговых льгот на экономическое и социальное развитие.

**Ключевые слова:** налоговые льготы, налоговая база, налоговая ставка, налоговые вычеты, объект налогообложения.

**Abstract:** The article discusses the essence and significance of tax credits, their impact on socio-economic development, analyzes the views and views of foreign and domestic scientists on tax credits. Directions for expanding the impact of tax incentives on economic and social development were also noted.

**Key words:** tax benefits, tax base, tax rate, tax deductions, object of taxation.

Soliq mexanizimining asosiy elementlaridan biri – bu soliq imtiyozlaridir. Oqilona ishlab chiqilgan soliq tizimida iste'molga yo'naltirilgan mablag'larni soliqqa tortish muhimdir, bunda ishlab chiqarishning rivojlantirilishiga yo'naltirilgan mablag'lar to'liq (yoki qisman) soliqdan ozod qilinishi mumkin. Shu bois, soliq siyosatining asosiy vazifasi bo'lib iste'molchilar talabining o'sishiga salbiy ta'sir qilmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va unga asosan soliq yukini ishlab chiqarishdan iste'molga ko'chirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda davlat soliq stavkalarini o'zgartirish orqali iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin. Soliq stavkalarini o'zgartirish hisobidan moliyaviy oqimlar va tovar oqimlarining ayrim sohalari uchun qo'shimcha rag'batlar yaratiladi.

Shu boisdan ham, soliq imtiyozlari vositasida korxonalar iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni sifat jihatdan rivojlantirish, investitsion salohiyatni oshirish raqobat muhitini shakllanishini tartibga solish mexanizmini ishlab yaratilishi talab etiladi.

Ch. Tiboning fikricha, soliq imtiyozlarini kiritish hisobiga soliq tushumlarini kamaytirish jamiyatga tovarlarni taqdim etishda xavflar tug'dirishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, soliq siyosati jamiyat farovonligiga xizmat qilishi hamda byudjet tushumlarini kamaytirilmasligiga xizmat qilmog'i lozim.[1]

Soliqlar va yig'imlar bo'yicha ko'p miqdorda imtiyozlar mavjudligi to'lovchilarni tengsiz holatga keltirib, ba'zi kam daromad oladigan tadbirkorlik subyektlariga imtiyozlar berishga majbur qiladi hamda davlat zararlarini qoplash soliq stavkalarini oshiradi. Ko'rsatilgan soliq elementining tashqi jozibasi ham davlat, ham tadbirkorlik subyektlari uchun ham jiddiy muammolarni ko'rinmas qilib qo'ymoqda.[2]

O'zbekistonda amal qilayotgan soliq imtiyozlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilgan, biroq ayrim iqtisodchi olimlar soliq imtiyozlarining salbiy jihatlari mavjudligini ham ta'kidlashadi. Shundan kelib chiqadiki, soliqlarga imtiyoz berish tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, tadbirkorlarni soliqdan qochib qolish yo'llarini ham ochishi, shuningdek, soliq imtiyozlarini xizmat ko'rsatuvchilarni loqaydlikka, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. [3-4]

Prof. Q.Yahyoyev soliq imtiyozlarini quyidagicha ta'riflaydi: “Soliq to'lovchilarni soliqdan ozod qilish, ular to'laydigan soliq miqdorini (soliq

bazasini) kamaytirish yoki soliq to‘lash shartini yengillashtirish soliq imtiyozidir”.[5]

Iqtisodchi olim Sh. Gataulinning fikricha, "Soliq imtiyozlari amaldagi qonunlarga muvofiq soliqlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish (chegirmalar, chegirmalar va boshqalar)".[6]

Prof.T.S. Malikovning so‘zlariga ko‘ra, soliq imtiyozlari deganda soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini to‘liq yoki qisman kamaytirish, to‘lov muddatini kechiktirish yoki orqaga surish tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish ob'ektini o'zgartirish, soliqqa tortish bazasining kamayishi (qisqartirish), soliq stavkalarini kamaytirish va boshqalarda ifodalanadi. Soliq solinmaydigan obyektning minimal miqdori, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliqqa tortishdan ozod qilish, soliq solish obyektidan ayrim elementlarni chiqarib tashlash, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarni undirishni kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko‘rinishlari (turlari) hisoblanadi [7].

Soliqlarning mavjudligi va ularning imtiyozlari doimo davlatning vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Buyuk Sohibqiron Amir Temur farmonlarida ta‘kidlanganidek, “Soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo‘lishidir” [8]. Bundan ko‘rinib turibdiki, soliq imtiyozlari davlatning (xazinaning) iqtisodiy qudratiga bevosita bog‘liq bo‘lib, unda soliq imtiyozlari va byudjet (xazina) daromadlarini shakllantirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi.

Temur tuzuklaridalarida berilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlasak, ularning asosini ham soliqqa tortishda berilgan imtiyozlar tashkil etadi. Unga ko‘ra, soliq to‘lovchilardan aralashli soliq undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. “Temur tuzuklari”da aytilishicha, “Kimki cho‘lni obod qilsa, dehqonchilik qilsa, bog‘ barpo qilsa yoki har qanday bo‘sh yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar va uchinchi yilda esa (soliq) qonun-qoidalarga muvofiq xiroj yig‘ilsin” [8].

Iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasida faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy qilish, tadbirkorlik subyektlarining himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini, soliq va bojxona siyosatini, bank-moliya sohasini yanada takomillashtirish, agrar sektorni isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga imtiyozlar taqdim qilgan holda individual imtiyozlar berishdan voz kechish, hududlarni faol rivojlantirish.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati **soliq imtiyozlari** deb e‘tirof etiladi. Ayrim soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlari,

qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig‘i yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqdan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘idan va foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig‘idan tashqari, ushbu moddaning oltinchi qismi qoidalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko‘pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin [9].

Soliq imtiyozlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish orqali ham o‘rganish muhimdir:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar;
- iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan imtiyozlar.

Birinchi guruhga aholi bandligi muammosini hal etishga imkon beruvchi, aholi turmush darajasining o‘shishiga yo‘naltirilgan hamda aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalash maqsadlarida berilgan imtiyozlarni kiritish mumkin. Ushbu guruhga shuningdek, resurslardan moliyaviy, xomashyo va resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlarni ham kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhga korxonalar ixtisoslashuviga, muayyan sharoitda davlat uchun ahamiyatliligi hamda moddiy-texnik ta‘minoti sharoitlariga qarab berilgan imtiyozlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Soliq qonunchiligi shakllanishining ikkinchi bosqichida soliqlarning rag‘batlantiruvchilik roliga alohida ahamiyat beriladi. Bu bosqichda soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi fiskal o‘rini egallab borishiga ahamiyat berilmoqda. Ya‘ni, iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, soliqlarning iqtisodiyotni boshqarish roliga katta e‘tibor qaratilganligini kuzatamiz.

Tadbirkorlik sub‘ektlarining soliqqa tortish sohasida barcha korxonalar (tashkilot) bir xil sharoitga ega bo‘ldilar, ularning soliqqa oid huquqlari va majburiyatlari o‘zaro teng bo‘ldi. Belgilangan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarning undirilishi, mamlakatda soliq siyosatini amalga oshirish bevosita iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solishni nazarda tutadi. Ushbu chora-tadbirlarning natijasi o‘laroq jamiyatni ijtimoiy kafolatlash, moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik sub‘ektlari faoliyatini tartibga solish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish va atrof-muhitni muhofaza etish kabi bir qancha ijobiy natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

### 1-jadval

#### 2022-yilda soliqlar kesimida taqdim etilgan imtiyozlar tarkibi<sup>43</sup>, mlrd so‘m

N	Soliq turi	Imtiyozlar miqdori
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	8 446,65 (93,5%)

<sup>43</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari

2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	146,6 (1,6%)
3	Foyda solig'i	146,2 (1,6%)
4	Yer solig'i	121,1 (1,3%)
5	Ijtimoiy soliq	90,0 (1%)
6	Mol-mulk solig'i	54,5 (0,6%)
7	Aylanmadan olinadigan soliq	30,8 (0,3%)
Jami		9 035,90

Soliq imtiyozlari ichida eng ko'p qo'llanilgan turi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanib, undan 16 565 ta yoki 37,7% xo'jalik yurituvchi subyekt foydalangan. Eng kam imtiyoz qo'llanilgan soliq turi esa foyda solig'i hisoblanib, ushbu imtiyozdan 772 ta yoki 1,7% tadbirkorlik subyekti foydalangan. Sohalar kesimida bo'yicha tog'-kon sanoati, neft-gaz qazib chiqarish, tibbiyot, qurilish, bank, transport, farmatsevtika, kommunal xizmat ko'rsatish, energetika, sug'urta, dam olish va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritgan korxonalar imtiyozlardan foydalangan [10].

Soliq imtiyozlari iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda soliq imtiyozlaridan asosan ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, ilmiy-tadqiqot, investitsiyalarni rag'batlantirish va tartibga solishda keng foydalaniladi. Mamlakatimizda yuritilayotgan soliq siyosatida soliq imtiyozlari investitsion faoliyatni rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni yangi texnologik asbob-uskunalar bilan qayta modernizatsiya qilish hisobiga korxonalar moliyaviy faoliyatini yaxshilash, mamlakatimiz eksport salohiyatini ko'paytirishga qaratilgandir. Soliq imtiyozlaridan foydalanish hisobiga xo'jalik subyektlari ixtiyorida har yili o'rtacha **YAIMning 5-8%**idagi mablag'lar o'z hisobida qolmoqda [11].

Soliq imtiyozlari iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishidagi ta'sirini kengaytirishning yo'nalishlari sifatida quyidagilarni e'tirof etamiz:

- ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish;
- kapital quyilmalar xarakatini kengaytirish;
- ishchi xizmatchilarni yashash darajasini oshirish;
- mavjud resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish;
- investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish;
- aholi turmush darajasini o'sishini ta'minlash.

Soliq imtiyozlarini qo'llashdan yana bir maqsad ayrim soliq to'lovchilarni soliqlardan to'liq yoki vaqtinchalik ozod qilish yoxud soliqlarni kamaytirish bilan ifodalanibgina qolmasdan, balki korxonalar ixtiyorida imtiyoz evaziga qoladigan mablag'lardan ham oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

Soliq munosabatlarida imtiyozlar muddatining davomiyligi masalasida ham jiddiy muammolar mavjud. Jumladan, soliq imtiyozining korxonalar tomonidan o'z vaqtida qo'llanilmasligi ularning muayyan miqdordagi mablag'larining byudjet hisobiga o'tkazilib yuborilishiga va bu o'z navbatida, ushbu

mablag'lardan samarali foydalanilmasligiga olib kelishini ko'rsatmoqda. Umuman soliq imtiyozlarining amal qilish mexanizmida aniqlangan mavjud muammolar ushbu mexanizmning hali to'liq takomillashmaganligidan dalolat bermoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tiebout C. M. A pure theory of local expenditures //Journal of political economy. – 1956. – Т. 64. – №. 5. – С. 416-424.
2. Горский И. В. О налоговом регулировании, налоговых льготах и функциях (историко-методологический аспект) // Экономика. Налоги. Право. Изд. Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации. 2014, № 3. p. 17-22.
3. Кузиева Н. Ўзбекистон иқтисодиётини тартибга солишда солиқ имтиёзлари таъсирининг таҳлили // Архив научных исследований. – 2020. – №. 24.
4. Маликов Т. Солиқ юкининг оғирлигини кескин камайтириш керакми? – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. 32-б.
5. Yahyoev Q. Soliq. T. “Mehnat”. 1997-yil. 20-bet.
6. Gataullin Sh. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent. 1996. 74-bet.
7. T. Malikov Soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Toshkent 2000 yil. 276-bet.
8. Temur tuzuklari. Toshkent. 1993-yil. 98-bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 75-modda. 76-77 bet.
10. [www.Gazeta.uz](http://www.Gazeta.uz) Soliq imtiyozlari taqdim etilgan korxonalar. 2022-yil.
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) Soliq imtiyozlarining iqtisodiyotga ta'siri. 2022-yil.

**Тураев Алижон Акмал ўғли** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, Инвестиция ва инновациялар кафедраси ассистенти

#### **КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВИНИ ЎТКАЗИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**Аннотация:** Ушбу мақолада хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини солиқ қонунчилги асосида давлат бюджетига тўланадиган мажбурий тўловларни тўғри ҳисобланиши орқали бюджет даромадлари қисмини оширишда камерал текширувнинг ахамияти муҳимдир. Мақолада камерал солиқ текширувнинг унинг ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган. Муаллиф томонидан таҳлиллар натижаси асосида тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** субъект, назорат, текширув, камерал текширув, бюджет, солиқ, солиқ назорати.

**Annatation:** In this article, the importance of in-house control of the activities of business entities in increasing the share of budget revenues due to the correct calculation of mandatory payments to the state budget on the basis of tax legislation is important. The article analyzes the features of a cameral tax audit. Recommendations are given by the author based on the results of the analysis.

**Key word:** subject, control, check, cameral check, budget, tax, tax control.

**Аннотация:** В данной статье важно значение камерального контроля деятельности субъектов хозяйствования в увеличении доли доходов бюджета за счет правильного исчисления обязательных платежей в государственный бюджет на основании налогового законодательства. В статье анализируются особенности камеральной налоговой проверки. Рекомендации даны автором по результатам анализа.

**Ключевые слова:** предмет, контроль, проверка, камеральная проверка, бюджет, налог, налоговый контроль.


Бугунги кунда тадбиркорлик субъектларининг эркин фаолият юритишлари учун қулай ва зарурий шарт-шароитлар яратиш давлат иқтисодий-молиявий сиёсатининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятига давлат органлари ноқонуний текширувлари ва асосиз тадбиркорлик фаолиятига аралашувлар корхона молиявий-ҳўжалик фаолиятига салбий таъсир кўрсатади ҳамда улар ривожланишига тўсиқ бўладиган омиллардан бири ҳисобланади.

Хусусан, мамлакатимизда солиқ юкини пасайтириш бўйича амалга оширилаётган ислохотларга қарамасдан Самарқанд вилояти бўйича 2021 йил 11 ойи мобайнида ўтказилган солиқ назорати тадбирлари давомида жами 6745 та ҳолатда солиқ қонунчилигини бузиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар аниқланган. Ушбу ўтказилган текширувларда тадбиркорлик субъектларига нисбатан аниқланган солиқ ҳуқуқбузарликлари бўйича 442,8 млрд. сўм қўшимча солиқлар ҳисобланган<sup>44</sup>. Ушбу ҳолатлар солиқ ҳуқуқбузарликлари келиб чиқиш сабабларини илмий жиҳатдан ўрганиш ва уни бартараф этиш йўлларини ишлаб чиқиш зарур долзарб масалалардан эканлигини кўрсатмоқда.

Хусусан, Самарқанд вилояти бўйича 2021 йилда жамт ўтказилган солиқ текширувлари асосида қуйидаги кўрсаткичларни намоён этмоқда (1-расм).

---

<sup>44</sup> Самарқанд вилоят Давлат солиқ бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



1-расм. 2021 йилда Самарқанд вилоятида ўтказилган солиқ текширувлари сони<sup>45</sup>

Яъни 2021 йилда Самарқанд вилояти бўйича ўтказилган солиқ назорати тадбирлари давомида барча ҳудудлар кесимида камерал солиқ текширувлари сони 6647та ташкил этган бўлса, сайёр солиқ текширувлари эса 1208та ҳамда солиқ аудити текширувлари сони 1032 тани ташкил этган ҳолда жами 6745 та солиқ текширувлари ўтказилганлигини гувоҳи бўлдик.

Таҳлилларимиз шуни кўрсатмоқдаки, ушбу солиқ текширувлари орасида камерал солиқ текширувларини ўтказиш бўйича чиқарилган буйруқлар сон жihatдан устунлик қилаётганини кўришимиз мумкин. Бу эса камерал солиқ текширувлари жараёнида хали ҳам мавжуд муаммоларборлигини кўрсатмоқда.

**Камерал солиқ текшируви** – солиқ тўловчилар(солиқ агентлари) томонидан солиқлар ва йиғимлар тўғри ҳисобланишини, ўз вақтида ва тўлиқ бюджет тизимига тўланишини текшириш мақсадида солиқ тўловчи, солиқ агентлари томонидан тақдим этилган солиқ ҳисоботларини ва (ёки) солиқ органида мавжуд бўлган солиқ тўловчининг фаолияти тўғрисидаги бошқа маълумотларни ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида солиқ органи томонидан ўтказиладиган текширув ҳисобланади.

Ҳусусан, мамлакатимизда солиқ назоратини тартибга солишда 2021 йил 7 январда “Солиқ хавфини бошқариш, солиқ хавфи мавжуд солиқ тўловчиларни (солиқ агентларини) аниқлаш ва солиқ текширувларини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида” Низом кучга кирди<sup>46</sup>.

**Ушбу низомга асосан камерал солиқ текширувини ўтказиш тартиби қуйдагича амалга оширилиши белгиланди:**

<sup>45</sup> Самарқанд вилоят Давлат солиқ бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди

<sup>46</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Солиқ хавфини бошқариш, солиқ хавфи мавжуд солиқ тўловчиларни (солиқ агентларини) аниқлаш ва уларни солиқ хавфи даражаси бўйича тоифалаш тартиби тўғрисида” Қарори: 2021 йил 7 январ № 1

- Камерал солиқ текшируви солиқ органи раҳбарининг (раҳбар ўринбосарининг) расмийлаштириладиган буйруғи асосида ўтказилади;
- Камерал солиқ текширувини ўтказиш тўғрисидаги буйруқ асосида фақат битта солиқ тўловчи текширувдан ўтказилади;
- Камерал солиқ текширувини тайинлаш тўғрисидаги буйруқда солиқ тўловчининг номи ва унинг идентификация рақами, текширувчи шахснинг фамилияси, исми, отасининг исми ва лавозими, камерал солиқ текширувини ўтказиш муддатлари, текшириладиган давр кўрсатилади;
- Камерал солиқ текширувида солиқ органининг икки ва ундан ортиқ текширувчи мансабдор шахслари қатнашганда, текшириш жараёнини бошқариш ва натижаларини умумлаштиришга буйруқда фамилияси биринчи кўрсатилган текширувчи жавобгар шахс ҳисобланади;
- Камерал солиқ текширувини ўтказиш муддати камерал солиқ текширувини тайинлаш тўғрисидаги буйруқда кўрсатилган санадан бошланади;
- Камерал солиқ текширувининг умумий муддати олтмиш кундан ошиши мумкин эмаслиги;
- Камерал солиқ текшируви давомида солиқ органи низомда белгиланган шаклда расмийлаштирилган сўровнома асосида солиқ тўловчидан солиқларни ҳисоблаб чиқариш учун асос бўлган бирламчи ҳужжатларни, бухгалтерия ҳисоби регистрларини ҳамда бошқа ҳисоб ҳужжатларини, тақдим этилган солиқ ҳисоботи ва ҳисоб ҳужжатларига доир тушунтиришларни, солиқларни ҳисоблаб чиқариш ва тўлаш билан боғлиқ бошқа ахборотни талаб қилиб олишга ҳақли эканлиги;
- Сўровномада кўрсатилган ҳужжатлар ва тушунтиришлар солиқ тўловчи томонидан солиқ органига сўровнома олинган кундан эътиборан беш кун ичида тақдим этилиши кераклиги;
- Камерал солиқ текширувини ўтказиш учун солиқ тўловчи томонидан ҳужжатлар тасдиқланган кўчирма нусха шаклида тақдим этилади. Зарурат бўлган ҳолларда солиқ органи ҳужжатларнинг асл нусхалари билан танишишга ҳақли;
- Камерал солиқ текшируви натижалари бўйича текширувни ўтказувчи мансабдор шахс Низомга мувофиқ шаклда ҳулоса тузиб, камерал солиқ текширувини бошлаш ташаббуси учун асос бўлиб хизмат қилган маълумотлар кўрсатилиб, солиққа оид ҳуқуқбузарликларнинг аниқланганлиги ёки аниқланмаганлиги, қисман тасдиғини топганлиги ёки топмаганлиги, солиқ ҳисоботларидаги тафовутлар ёки хатолар баён этилади;

➤ Камерал солиқ текшируви юзасидан тузилган хулоса солиқ органи раҳбари (раҳбар ўринбосари) томонидан икки кун ичида кўриб чиқилади ва тасдиқланади;

➤ Камерал солиқ текшируви материаллари, шу жумладан, солиққа оид ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги далолатнома, текшириш яқунларига кўра тафовутлар аниқланганлиги ёки солиқ тўғрисидаги қонун ҳужжатлари бузилиши мавжуд эмаслиги тўғрисида тузилган хулоса Солиқ кодексининг 135-моддаси олтинчи қисмига мувофиқ солиқ органида рўйхатдан ўтказилиши керак.

Юқорида кўрсатиб ўтилган камерал солиқ текширувини ўтказиш тартиби батавсил кўрсатилган бўлиб, бунда бажарилиши лозим бўлган тартибларга амал қилиш ва солиқ тўловчи ва солиқ текширувини олиб бораётган солиқ органи ўртасида маълумотлаш алмашишда қулай солиқ иқлимини яратиш муҳим омил булиб ҳисобланади. Чунки ҳар иккала томон ҳам қандай натижага эришишидан қатъий назар солиқ қонунчилиги доирасида белгиланган вазифаларни тўлиқ бажаришлари шарт ҳисобланади. Солиқ органи томонидан солиқ текшируви натижалари бўйича талабномани юбориш энг асосий бажарилган ишлардан биридир.

**Хулоса ва таклифлар.** Юқорида айтиб ўтилган барча маълумотлардан келиб чиққан ҳолда қўйидаги ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб топдик. Айтиш лозимки, ушбу айтиладиган фикр ва мулоҳазаларимиз ўз навбатида солиқ текширувларини ҳолисона амалга оширишда самарадорликка эришишга олиб келади:

**Биринчидан,** солиқ хизмати органи доимий назоратни амалга оширишда тижорат банклари билан ҳамкорликда хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий маълумотларидан фойдаланиш имкониятини кенгайтириш лозим.

**Иккинчидан,** хўжалик юритувчи субъектларимиз фаолиятида камерал солиқ текшируви ўтказилган давр учун қайта камерал солиқ текшируви ўтказилмаслик кераклиги.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати органларида оқилона солиқ назорат тизими тўғри йўлга қўйилиши, солиқ тизими қонунчилигига тўлиқ риоя этилишида хуфиёна иқтисодиётга барҳам бериш асосий вазифамиз бўлиб хизмат қилади. Солиқ тизимидаги иқтисодий ислохотларни янада такомиллаштириш ва уларни амалга ошириш, солиқ назоратини тартибга солишда хўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий хўжалик фаолиятини солиқ қонунчилигига риоя этиш устидан ҳуқуқий ва ташкилий тарзда назоратни кучайтириш, кичик бизнес субъектлар фаолиятини ривожлантириш ва унинг иқтисодиётда тутган ўрнини янада мустаҳкамлашда солиқ назоратининг ташкилиш ҳамда услубий жиҳатларини ишлаб чиқишдан иборатдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабр Олий Мажлисга Мурожаатномаси. / Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь. Мирзиёев Ш.М. 2018 йил 29 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг Солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепсияси тўғрисида” ги ПФ-5468-сонли фармон// Халқ сўзи 2018 йил 30 июн.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзаро ҳисоб-китоблар тизимида электрон шаклдаги ҳисобварақ-фактуралардан фойдаланишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 25 июндаги 522-сон қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. – Тошкент Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2020. – 640 б.

### **Интернет сайтлар:**

1. <http://ww.soliq.uz>
2. <http://www.stat.uz>
3. <http://www.mf.uz>
4. <http://www.lex.uz>
5. <http://www.gov.uz>

**Abduraimov Bunyot Muratovich** - SamDU mustaqil izlanuvchi,  
**Turdibekov Yusuf Ibragimovich** - SamDAQU “Qiyamat injiniringi va ko'chmas mulk ekspertizasi” kafedrasida katta o'qituvchisi

## **RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA XIZMATLAR SAMARADORLIGI VA SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Аннотасија.** Мақоллада О‘збекистонда рақамли иқтисодийотнинг ривожланishi шароитида хизмат кўрсатувчи корхоналарда кўрсатиладиган хизматларнинг самарадорлиги ва сифати та‘сир кўрсатувчи омиллар тадқиқ қилинган ва хизматлар сифати ва самарадорлигини ошириш бо‘йича таклифлар берилган.

**Калит со‘злар:** рақамли иқтисодийот, автoматлаштириш, самарадорлик омиллари, хизматлар сифати, трансформасија.

**Аннотация.** В статье в условиях развития цифровой экономики в Узбекистане были изучены факторы, влияющие на эффективность и качество услуг, оказываемых сервисными предприятиями, и внесены предложения по повышению качества и эффективности услуг.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, автоматизация, факторы эффективности, качество услуг, трансформация.

**Abstract.** In the article, the factors affecting the efficiency and quality of services provided by service enterprises in the context of the development of the digital economy in Uzbekistan were studied, and proposals were made to

improve the quality and efficiency of services.

**Keywords:** digital economy, automation, efficiency factors, service quality, transformation.

Bilamizki, xizmat samaradorligini oshirishga ta'sir qiladigan turli omillar mavjud. Biroq, bu omillarning hammasi ham xizmat sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikning tushishi odatda sifatning yomonlashishiga olib keladi yoki aksincha. Mayami universitetining Marketing kafedrasida professori A.Parasuraman xizmat ko'rsatish samaradorligining ikki turini belgilaydi<sup>47</sup>:

- **mijoz nuqtai nazaridan:** erishilgan natija bu - mijozga ko'rsatilgan xizmat sifati va mijozning ushbu xizmatdan qay darajada qoniqishni, ushbu xizmatni necha baxoga baxolashini; qilingan xarajatlar deganda esa - sarflarning vaqt davomida ijobiy samara bilan qaytishini sabrlik bilan kutish va muvoffaqitsizlikka uchraganda esa ushbu noxushlikka emotsional-ruxiy jixatdan tayyor turishlik tushiniladi.

- **korxonalar nuqtai nazaridan:** erishilgan natija bu – xizmatlarni realizatsiya qilish, realizatsiyadan tushgan foyda va xizmatlarning bozordagi ulushi; qilingan xarajatlar deganda esa – xizmatlarni ko'rsatishga sarflangan mehnat resurslari va foydalanilgan uskuna-texnologiyalar tushiniladi – deb ta'kidlaydi.

Ushbu berilgan ikkita tushunchaga asoslanib, qo'yidagi fikrga kelishimiz mumkin: “Korxonalar nuqtai nazaridan me'yordan ortiq yuqori samaradorlikka erishish natijada unumdorlikning tushishiga va moliyaviy axvolning yomonlashishiga olib keladi”.

Mijoz nuqtai nazaridan – me'yordan ortiq samaradorlikka erishish natijada o'z ustida ishlash qobiliyatini pasayishiga, o'ziga ortiqcha baho berishga, oqibatda qiymatning sezilarli tushishiga olib keladi. Binobarin, bir sohadagi yaxshilanish, ijobiy ko'rsatkichlarning o'sishi o'z navbatida har doim soxadagi boshqa ijobiy ko'rsatkichlarning tushishi va samaradorlikning yomonlashishiga olib kelishini xamma biladi (va) xizmat ko'rsatish soxasi menejerlari samaradorlikni oshirishga faqat mijozlar nuqtai nazari bilan yondashmasdan boshqa yondashuvlarga xam e'tibor qaratsalar, ijobiy yutuqlari ko'payadi chunki bir xil yondashuv doimo samara keltirmaydi.

Shunday qilib, samaradorlik va sifat bir-biridan mustaqil tushunchalardir. Samaradorlik omili ma'lum bir xarajat evaziga iloji boricha ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi, sifat omili esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmat natijasida yuqori sifatli maxsuldorlikka erishish va mijozlarni bu xizmatlardan qoniqishi tushiniladi. Chetdan qaraganda bu natijaga, unumdorlik va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga erishish bir vaqtning o'zida qiyinday ko'rinadi. So'nggi adabiyotlar va yangilaiklardan foydalangan xolda,

---

<sup>47</sup> Grönroos, C. (2007), 'Service Management and Marketing: Customer Management in Service Competition', John Wiley & Sons

ushbu maqolamizda bir vaqtning o‘zida xam samaradorlikni, ham xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash mumkin bo‘lgan omillar haqida fikr yuritamiz.

**Xizmat samaradorligini oshiradigan omillar.** Xizmat samaradorligini oshirishning muximligi yuqori baholansa-da, o‘rganilayotgan tadqiqot sohasini mohiyatini ochib beradigan konseptual modellarning etishmasligi tufayli soxada bo‘layotgan o‘zgarishlar qisman yoritilgan, buning natijasida ilmiy yangiliklar to‘g‘risida olingan ma‘lumotlar bazasi xaligacha kamlik qiladi. SHunday qilib, xizmat samaradorligini oshirish va xizmat samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillarni o‘rganishimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki bu tadqiqotlar empirik xarakterdan ko‘ra ko‘proq konseptual xarakterga molikdir. Xizmat samaradorligini oshirish uchun hozirgacha o‘rganilgan bir qancha omillar mavjud. Ularning har biri xizmat sifatiga qanday ta‘sir qilishini tushunish uchun ularning har biri bilan batafsil tanishib chiqishimiz kerak.

**1. Tashkiliy madaniyat omili,** boshqaruvchilik me‘zonlariga asoslangan xolda o‘rganilsa: bunda etibor resurslar qanday taqsimlanishiga va ularni qanday boshqarilishiga qaratiladi, xodimlar o‘zlari faoliyat yuritadigan tashkilotlari nimani muhim va haqiqatan ham qadrlil deb bilishini qanday tushunishadi, shuningdek, ularning ishi va munosabati mijozlarning xizmat sifatini idrok etishiga qanday ta‘sir qiladi. SHu kabi savollar tashkiliy ma‘daniyat va boshqaruvchilik me‘zonini o‘rganish va uni taxlil qilish orqali o‘z javobini topadi. Binobarin, tashkiliy madaniyat va boshqaruvchilik me‘zoni aytish mumkinki ham mahsuldorlikka, ham sifatga ta‘sir qiladi.

**2. Xizmatlarni standartlashtirish omili:** Standartlashtirish orqali korxonalar xarajatlarni kamaytirishi mumkin, bu omil hosildorlikni oshiradi va narxlarni pasaytiradi, bu esa o‘z navbatida raqobatbardosh ustunlikka olib keladi.

Biroq, iste‘molchilar talabining xilma-xilligi, ko‘p sonli “personal”-shaxsiy individual xizmatlar va nozik tabli mijozlarning ishtiroki, xizmatlarni standartlashtirishda samaradorlikni oshirishi bilan birgalikda, ko‘p sonli mijozlarga ko‘rsatilgan xizmatlar sifatining tushishiga xam olib keladi. Masalan, oliy ta‘lim sohasida talayualarga bilim berish jarayonini oladigan bo‘lsak, ko‘p sonli talabalarning katta auditoriyalarda taxsil olishi unumdorlikni oshirsa, talabalarni xar biri bilan individual ishlash imkoniyatining mavjud emasligi ulardagi sifat ko‘rsatkichini tushishiga olib keladi yoki avtomobilsozlikda zavod qancha ko‘p mashina ishlab chiqarsa, ayrim detallarga ortiqcha etibor berilmasligi oqibatida undagi sifat ko‘rsatkichini tushishiga olib keladi. Standartlashtirish va xizmat ko‘rsatish sifati talab va extiyojlar xilma-xilligi kichik bo‘lgan va xizmatlar takrorlanadigan soxalarda ko‘proq mos keladi, masalan, tez ovqatlanish, bank, sug‘urta, avtomobil ijarasi, ximchistka sohasida.

**3. Avtomatizatsiya (kompyuterlashtirish)/yangi texnologiyalar omili:** yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishdan maqsad samaradorlikni oshirishdir, chunki u inson mehnatiga bo‘lgan talabni yangi texnologiyalar xisobiga almashtirishga yordam beradi. Avtomatizatsiya xodimlarga tezroq va yuqori sifatli ishlashga sharoit yaratishi bilan birga samaradorlikni oshirishga xam

imkon beradi. Texnologiyalarning qo‘llanilishi xarajat va zararlarni kamaytirish bilan xizmat sifatini oshirishga olib keladi. Biroq, bu mijozlar segmentlariga va xizmat ko‘rsatish korxonalariga turiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oldingi tadqiqotlarda, ishchi kuchini texnologiya bilan almashtirish insonlar bilan bevosita aloqa kontakti kam bo‘lgan soxalarda ko‘proq ko‘l kelishi kuzatildi, masalan, bank soxasida. Boshqa tomondan, texnologik taraqqiyot savdo yoki mehmonxona biznesida kam foyda keltiradi. Buning sababi shundaki, u samaradorlikni oshirishi mumkin, lekin, xizmat sifatini saqlab turolmaydi, chunki mijozlar texnikadan ko‘ra ko‘proq odamlarga murojyat qilishni ko‘rishadi.

**4. Xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarining bilim va kasbiy tayyorgarligi omili:** inson kapitali hosildorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buning sababi shundaki, aksariyat xizmatlar odamlar tomonidan ishlab chiqariladi va shuning uchun "xizmatlarning sifati va samaradorligi ko‘p jihatdan odamlarga bog‘liq". Biroq, tezroq ishlab ishni tezroq bitirish ko‘p xollarda muvoffaqiyat olib kelmaydi chunki, u xatolarga yoki qoniqarsiz natijaga olib kelishi, buning natijasida ishni qaytadan bajarishga olib kelishi mumkin. Bir vaqtning o‘zida samaradorlik va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun xodimlar bilan qattiq ishlash xodimlarning samaradorligi va samaradorligiga e‘tiborni talab qiladi. Xodimlarning texnik malakasini oshirish (samaradorlik) xodimlarning mehnat unumdorligini, shuningdek ularning ish sifatini oshirishni anglatadi. Xodimlarda texnik ko‘nikmalarning etishmasligi, ishlash qobiliyatini pasayishiga va o‘z ustida ishlab kamchiliklarni tuzatishga sarflagan vaqti xisobiga soxadagi unumdorlik kamayadi. Xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlarining munosabati va xulq-atvori (samaradorlik) xizmat ko‘rsatish sifatiga va unumdorlikka ta‘sir qiladi, chunki norozi mijozlar qo‘shimcha ish yukini yaratishi va xodimlarning ushbu shikoyatlar bilan shug‘ullanishi, unumdorlikni kamaytirishi mumkin. Olingan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mehmonxonada samarali faoliyat ko‘rsatayotgan xodim xizmat ko‘rsatishning yuqori sifatiga erishishi mumkin, shuningdek, samarali faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar esa ko‘proq xizmatlarni ishlab chiqarishga moyildirlar, bu borada xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning bilimi va kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**5. Rag‘batlantirish va e‘tirof etish omili:** olingan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, agar back-office tushunchasi orqali tushuntirilsa ishda rag‘batlantirish mijozlar bilan kam aloqada bo‘lgan xizmatlar uchun juda mos keladi, lekin boshqa tomondan, front-office tushunchasi orqali tushuntirilganda mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yuqori darajasida rag‘batlantirish unumdorlikning pasayishiga olib keladi, chunki xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar mijozlarga ko‘proq vaqt va kuch sarflashadi, bu xizmat sifatini yaxshilashi mumkin, lekin samaradorlikni emas. SHunday qilib, rag‘bat va etirofning tan olinishi sifatni, xamda mijozlar bilan inson omili kam bo‘lgan xolatlarda xizmatlar samaradorligini xam oshirishi mumkin. Chunki bunda xodimning asosiy vaqti ko‘proq ish xajmini bajarishga sarflanadi.

**6. Xodimlarning qoniqish omili:** yuqorida ta’kidlaganimizdek xodimlarning o‘z mexnatidan qoniqishi va samaradorlik ko‘rsatkichi o‘rtasidagi tushunchalarga izox berishga harakat qildik. Xodimlar o‘zlari qilayotgan mexnatlaridan mamnun va faoliyat yuritayotgan korxonasiga sodiq bo‘lsalargina, shunda yanada samarali ishlaydi, bu esa o‘z navbatida samaradorlikni oshiradi. Haqiqatan xam qoniqish mahsuldorlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, xodimlar o‘z mexnatlaridan qoniqmasa, ular kamroq unumdor bo‘lishga moyil bo‘ladi. Qoniqmaslik, kadrlar almashinuvining uch baravar ko‘payishiga olib keladi va kadrlar almashinuvi - bu samaradorlikni tushishiga va mijozlar ehtiyojini qondirishning pasayishi olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarning qoniqishi mijozlar ehtiyojini qondirish bilan ham bog‘liq. Qoniqish xodimlarni ko‘proq ishlashga, mijozlar ehtiyojlarini qondirishda ijobiy natijalarga erishishga va yaxshi xizmat ko‘rsatishga undaydi, xodimlar qanchalik o‘z faoliyatidan qoniqsalar, mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shunday qilib, xodimlarning o‘z mexnatidan qoniqishi ham mahsuldorlikka, ham sifatga ta’sir qiladi.

**7. Talab va taklifni muvofiqlashtirish omili:** xizmatlar asosan bir vaqtning o‘zida ishlab chiqariladi va iste’mol qilinadi, bu real vaqtda ishlab chiqarish talab va taklifni muvofiqlashtirish muhimligini bildiradi, bunday xolatlar ayniqsa aviakompaniyalar, mehmonxonalar xizmatlarida kuzatiladi. Masalan, mavsum boshlanganda, talab mavjud imkoniyatdan oshib ketadi, quvvat to‘liq ishlatiladi va shuning evaziga samaradorlik maksimal darajaga ko‘tariladi, ammo bunda xizmat sifati zarar ko‘rishi mumkin, chunki bu xolat mijozlarning navbat kutib ortiqcha vaqt sarflashiga olib keladi yoki mijozlarning ko‘pligi xisobiga ularga kamroq e’tibor berilishi mumkin. Boshqa tomondan, mavsum tugaganda esa yuqoridagi xolatlarining aksini kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, talabni prognozlash mavjud resurslarni qondirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun juda muhimdir. Talab to‘g‘ri prognozlash orqali mavsum yoki mavsumdan tashqari davrlarda yarim kunlik xodimlardan foydalanish yoki pudrat shartnomasi bo‘yicha xizmatlarning bir qismini boshqa yordamchi tashkilotlarni jalb qilib ularga taqdim etish orqali muvozanatlash mumkin. Yetarli tayyorgarlik va malakaga ega bo‘lgan smenada ishlayotgan xodimlar xizmat sifatini saqlab qolishga yordam beradi. Binobarin, bir vaqtning o‘zida samaradorlik va sifatni yaxshilash uchun talab va taklifni bir xil muvofiqlashtirish kerak bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirgan maqolaning asosiy xulosalari shundan iboratki, bir vaqtning o‘zida samaradorlik va sifatni oshiradigan omillar xizmat ko‘rsatish sohasining turiga qarab farq qiladi. Shuning uchun, sifatli xizmat ko‘rsatishga zarurat ko‘payishi hisobiga raqamli transformatsiyani amalga tadbiiq qilish maqsadida, sohada faoliyat yuritayotgan manfaatdor tashkilotlar va korxonalar bilan faol hamkorlikni kuchaytirish, xizmat ko‘rsatish sohasida qabul qilingan ta’lim standartlari va ishchi o’quv dasturlarini rivojlantirish va

muvoqilashtirish uchun ixtisoslashgan (sohada ilmiy malaka va tajribaga ega) oliy o'quv yurtlari bilan faol hamkorlik qilish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduraimov, B. M. Improving the service sector in the context of the development of the digital economy. JournalNX ISSN: 2581-4230; Impact Factor: 7.232; Volume7, issue 7, july-2021.

2. Abduraimov, B. M. Improving the quality of services in the context of the development of the digital economy. International Journal of Progressive Sciences and Technologies Impact Factor: ICV=80.38; SJIF=6.662; IFSIJ=7.625; Volume: 29, №01 october-2021.

3. Турдибеков, Ю.И., & Абдураимов, Б.М. (2022). ВМ-технологияси – қурилиш тармоғининг келажаги. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions, 825–828. Retrieved from <https://openconference.us/index.php/conf/article/view/433>

4. Turdibekov, K., & Ibragimovich, Y. T. (2015). Rates of tourism competitiveness under the categorical apparatus of tourism industry through strategic fundamentals of formation, analyses of Uzbekistan. Journal of Management Value & Ethics 5 (4), 62 – 79.

**O.Sh.Valiev** - Lecturer of Social and Economic studies department, TICT Shakhrisabz branch,

**J.N.Nuriddinov**- bachelor's degree student

## **KEY CHALLENGES AND OPPORTUNITIES OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN**

**Abstract:** The digital economy is rapidly expanding across the world, driven by advances in technology and the increasing availability of high-speed internet access. Uzbekistan, like many other developing countries, is seeking to leverage the potential of the digital economy to drive economic growth and development. However, the country faces a range of challenges in developing its digital economy, including limited access to digital infrastructure, a shortage of skilled workers, and a lack of supportive policies and regulations. At the same time, there are also significant opportunities for Uzbekistan to grow and develop its digital economy, including abundant natural resources, a large and growing population, and a strategic location at the crossroads of Asia. This paper provides an overview of the key challenges and opportunities of developing the digital economy in Uzbekistan, and discusses strategies for overcoming the challenges and realizing the opportunities.

**Keywords:** digital economy, Uzbekistan, challenges, opportunities, infrastructure, policy, education, entrepreneurship.

**Аннотация:** Цифровая экономика быстро распространяется по всему миру благодаря достижениям в области технологий и растущей доступности высокоскоростного доступа в Интернет. Узбекистан, как и многие другие

развивающиеся страны, стремятся использовать потенциал цифровой экономики для стимулирования экономического роста и развития. Однако страна сталкивается с рядом проблем в развитии своей цифровой экономики, включая ограниченный доступ к цифровой инфраструктуре, нехватку квалифицированных рабочих и отсутствие поддерживающих политик и правил. В то же время у Узбекистана также есть значительные возможности для роста и развития своей цифровой экономики, включая богатые природные ресурсы, большое и растущее население и стратегическое расположение на перекрестке Азии. В этом документе представлен обзор основных проблем и возможностей развития цифровой экономики в Узбекистане, а также обсуждаются стратегии преодоления проблем и реализации возможностей.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, Узбекистан, вызовы, возможности, инфраструктура, политика, образование, предпринимательство.

**Annotatsiya:** Raqamli iqtisodiyot butun dunyo bo'ylab tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda, bu texnologiya taraqqiyoti va yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoniyatlarining ortishi bilan bog'liq. O'zbekiston, boshqa ko'plab rivojlanayotgan davlatlar qatori, iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun raqamli iqtisodiyot salohiyatidan foydalanishga intilmoqda. Biroq, mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan, raqamli infratuzilmaga kirishning cheklanganligi, malakali ishchilar yetishmasligi, qo'llab-quvvatlovchi siyosat va qoidalarning yo'qligi. Shu bilan birga, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini, jumladan, mo'l-ko'l tabiiy resurslari, ko'p va o'sib borayotgan aholisi, Osiyo chorrahasida joylashgan strategik joylashuvini o'sishi va rivojlantirishi uchun ham katta imkoniyatlar mavjud. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy muammolari va imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan hamda qiyinchiliklarni yengish va imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish strategiyalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, O'zbekiston, muammolar, imkoniyatlar, infratuzilma, siyosat, ta'lim, tadbirkorlik.

#### Introduction:


The digital economy presents significant opportunities for economic growth and development, particularly for developing countries like Uzbekistan. However, developing a robust and sustainable digital economy requires overcoming a range of challenges, including limited access to digital infrastructure, a shortage of skilled workers, and a lack of supportive policies and regulations. At the same time, there are also significant opportunities for Uzbekistan to grow and develop its digital economy, including abundant natural resources, a large and growing population, and a strategic location at the crossroads of Asia. This paper provides an overview of the key challenges and opportunities of developing the digital economy in Uzbekistan, and discusses strategies for overcoming the challenges and realizing the opportunities.

#### Current State of the Digital Economy in Uzbekistan:

Uzbekistan has made significant progress in recent years to develop its digital infrastructure. The country has invested in the expansion of high-speed

internet access and the development of digital platforms and services. However, there are still significant challenges that must be addressed. For example, access to high-speed internet is limited in many parts of the country, particularly in rural areas. This limits the ability of individuals and businesses to take advantage of digital opportunities. Additionally, there is a lack of digital skills and education, particularly in rural areas, which limits the ability of individuals and businesses to fully engage in the digital economy. In terms of regulation, Uzbekistan has made some progress in recent years to create a favorable business environment for the digital economy. However, there are still significant regulatory barriers that must be addressed, particularly in terms of data privacy and protection. Additionally, there is a lack of clarity in the regulatory environment, which can create uncertainty for businesses and investors.

**Figure 1**  
**Individuals using the Internet (% of population) in Uzbekistan from 2010 to 2020<sup>48</sup>**



### Challenges:

One of the key challenges facing Uzbekistan in developing its digital economy is limited access to digital infrastructure. According to the International Telecommunication Union, only 46.8% of the population had access to the internet in 2020. This is significantly lower than the global average of 59.5%, indicating that there is significant room for improvement in expanding internet access in Uzbekistan. Additionally, the country faces challenges in developing the necessary digital infrastructure, including high costs, limited technical expertise, and a lack of investment.

Another challenge is a shortage of skilled workers. Uzbekistan has a young and growing population, but the education system is not yet fully equipped to provide the skills and training necessary to support the development of a

<sup>48</sup> World Bank, Individuals using the Internet (% of population), <https://data.worldbank.org/indicator/IT.NET.USER.ZS>

digital economy. Additionally, there is a lack of entrepreneurship culture and opportunities for startups, which can hinder the growth of the digital economy.

Finally, there is a lack of supportive policies and regulations to promote the development of the digital economy. For example, the legal framework for e-commerce and online payments is underdeveloped, which can create barriers for businesses and consumers alike. Additionally, there is a lack of clear regulations and guidelines for data protection and cybersecurity, which can undermine trust in digital technologies and hinder their adoption.

#### Opportunities:

Despite these challenges, Uzbekistan also has significant opportunities for developing its digital economy. The country has abundant natural resources, including gas and minerals, which can be leveraged to support the development of a digital infrastructure. Additionally, Uzbekistan's strategic location at the crossroads of Asia makes it an attractive destination for regional and global investment.

Uzbekistan also has a large and growing population, which provides a significant market for digital goods and services. The country's young and tech-savvy population is increasingly connected to the internet, and there is significant potential for the development of innovative digital services and platforms.

There are opportunities to develop supportive policies and regulations to promote the growth of the digital economy. The government has already taken steps to promote digital transformation, including the creation of a Digital Development Agency, which is responsible for developing and implementing policies to support the digital economy. Additionally, the government has established a number of programs to support entrepreneurship and innovation.

One area of opportunity for Uzbekistan is e-commerce. The growth of e-commerce has been a major trend in the digital economy in recent years, and Uzbekistan has the potential to become a hub for e-commerce in Central Asia. However, there are significant challenges that must be addressed, including the lack of a robust payment infrastructure and logistical challenges associated with the delivery of goods.

Another area of opportunity for Uzbekistan is the development of digital government services. The country has made some progress in this area, but there is still significant room for improvement. Digital government services can improve access to information and services for citizens and businesses, and can also improve the efficiency and transparency of government operations.

#### Conclusion and Recommendations:

In conclusion, the digital economy presents significant challenges and opportunities for Uzbekistan. To fully realize the potential of the digital economy, policymakers and stakeholders must work together to address the challenges facing the country and capitalize on the opportunities. Recommendations for policymakers and stakeholders include investing in digital infrastructure and education, creating a favorable regulatory environment.

## Reference

1. Arzymbetova, A., & Azimov, N. (2021). Digitalization and the Labor Market in Uzbekistan. Social Science Research Network
  2. Elena Sadovskaya and Mukhammadjon Khodjaev. (2021). "Digitalisation in Uzbekistan: Opportunities and Challenge". Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity.
  3. Yusupov, S., Isakov, S., & Yusupov, K. (2019). Digital Transformation of the Banking Industry in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. International Journal of Economics, Commerce and Management, 7(9), 26-39.
  4. KPMG. (2018). Digitalizing Uzbekistan: Unlocking the Potential. KPMG International Cooperative.
  5. World Bank. (2020). Uzbekistan Digital Transformation Assessment Report. World Bank Group.
- Ashurov, S., Karimov, S., & Zaynutdinova, M. (2020). The Digital Economy and its Impact on the Development of Small and Medium-Sized Enterprises in Uzbekistan.

**Мияссаров Даврон Абдурашид ўғли** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Инвестиция ва инновациялар” кафедраси ассистенти

## **ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ИНВЕСТИЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Аннотация:** Ушбу мақолада “инвестиция” атамасининг маъноси, чет эл олимларнинг фикри, ушбу сўзнинг моҳияти, унинг келиб чиқиши ва шу кабилар тўғрисида сўз боради.

**Калит сўзлар:** инвестиция, инвестиция ресурслари, инновацион инвестициялар, узоқ муддатли молиявий қўйилмалар, ахборот ресурслари, интеллектуал ресурслар, пул маблағлари, даромад.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение термина «инвестиции», мнение зарубежных ученых, сущность этого слова, его происхождение и др.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционные ресурсы, инновационные инвестиции, долгосрочные финансовые вложения, информационные ресурсы, интеллектуальные ресурсы, деньги, доход.

**Abstract:** This article discusses the meaning of the term "investment", the opinion of foreign scientists, the essence of this word, its origin, etc.

**Key words:** investment, investment resources, innovative investments, long-term financial investments, information resources, intellectual resources, money, income.

Иқтисодчи олим Ф.С.Тумусовнинг фикрича: «инвестиция пул маблағлари сарфи, даромад қисми сифатида, жорий истеъмолда эмас, балки такроп ишлаб чиқаришдаги барча ижтимоий ва индивидуал капиталдан

фойдаланишни ва натижада пировард мақсад бўлиб янги, бир мунча юқори даромад олиш ёки келажакда ижтимоий самарага эришишни ифодалайди»<sup>49</sup>.

Ушбу таърифда муаллиф фақат ресурс, балки сарфлар ёндашувида бирга қўшишга ҳаракат қилиб, инвестицияни бир томонда ишлаб чиқариш фаолиятининг натижаси, иккинчи томондан, маълум вақтга истемолда фойдаланилмайдиган даромад қисми сифатида тушинтиради.

Макроиктисодий ёндашувда инвестициялаш мақсадлари аниқ бир хўжалик субъекти нуқтаи назаридан эмас, балки бутун бир иктисодиёт (капитал, товарлар ва хизматлар ҳамда ишлаб чиқариш омиллари бозорлари узвий боғлиқликда бўлган ягона тизим) нуқтаи назаридан кўриб чиқилади. Ушбу ёндашувга кўра, инвестициялар иктисодий тизимда фаолият юритаётган капитал ҳажмини оширишга йўналтирилиши лозим бўлиб, бунда аввал фойдаланилган (қисман эскирган) активларни харид қилиниши инвестициялар деб ҳисобланмайди, балки, фақатгина «активларнинг бир ҳисоб рақамидан бошқасига ўтказилишини» ифодалайди<sup>50</sup>. Бундай ёндашувнинг тарафдорлари бўлиб аксарият изланишларида макроиктисодий муаммоларни тадқиқ этишга ихтисослашган ғарб иктисодчи олимларидан Э.Д.Долан, Д.Линдсей, К.Кэмпбеллар ҳисобланишади.

Дж.Кейнс фикрича, инвестиция ушбу даврга даромадлар яъни эҳтиёж учун фойдаланилмайдиган қисмини ўзида ифодалайди. Бу «алоҳида шахс ёки корпорациянинг қандайдир эски ёки янги мол-мулк харидини, қайсики янги инвестициялар даромад ҳисобига турли кўринишдаги капитал мол-мулк харидини» ифодалайди.<sup>51</sup>

Дж.Кейнс назариясида инвестиция ва жамғариш ўртасидаги алоқадорлик битта ҳодисанинг икки томони сифатида аниқ кўрсатиб берилган.

Дж.Кейнс назарияси бўйича инвестициялаш мазмуни бўйича шундай хулоса чиқариш мумкинки, ривожланган иктисодий тизимда инвестициялаш ва жамғариш категориялари алоҳида функциялари билан ажралиб туради. Жамғарманинг муайян қисмини бевосита инвестициялаш мумкин, бу асосий жамғарма кичик ва хусусий корхоналар, фермер хўжаликлари маблағлари-нинг қолган қисми келажакдаги сарфлар (истемол ва инвестицион) учун иктисодий муносабат субъектларида сақланади.

Дж.Кейнс одамларнинг жамғаришга бўлган мойиллигининг ортиб боришини уларнинг истемолга бўлган мойиллигининг камайишида деб билади. Унумли истемол молларига бўлган талабнинг пастлигига сабаб эса инвестицияларни рағбатлантиришнинг етарли эмаслигида деб билади.

<sup>49</sup> Ф.С.Тумусов. Стратегия формирования и реализации инвестиционного потенциала региона: Автореф. дисс. на соискания учебной степени канд. эк. наук 08.00.05-М:1995

<sup>50</sup> Э.Дж.Долан, Б.И.Домненко. Экономикс: Англо-русский словарь-справочник. М.: Лазурь, 1994, 183-184.

<sup>51</sup> Коваленко Н.Я. Экономика сельского хозяйства. С основами аграрных рынков. Курс лекций. –М.: Ассоциация авторов и издателей. ТАНДЕМ: Изд. ЭКМОС, 1998.-448 с.

Унинг талқинидаги самарали талаб ҳажмининг етарли эмаслиги муқаррар равишда инвестиция жараёнининг сустиги билан изоҳланади, бунга сабаб тадқиқотларнинг капитал қўймаларга камроқ қизиқишидир.

Инвестицияларнинг бошқача бир таърифи П.Хейнс томонидан келтирилган бўлиб, у инвестициялар деганда даромад олиш мақсадида маҳсулотлар (неъматлар) хариди учун қилинган турли хилдаги харажатларни тушунади. Лекин, бунда корхоналар ва жисмоний шахсларни инвестициялаш ўрта-сида фарққа тўхталиб ўтмаган, яъни биринчиси ишлаб чиқариш қувватини ривожлантиришга қаратилган аниқ ҳаракатлар мажмуи ҳисобланса, иккинчиси тўғри маънода спекулятив характер касб этган ҳолда ҳеч қандай ижтимоий-иқтисодий самара бермаслиги мумкин<sup>52</sup>. Шу нуқтаи назардан, «неъмат (буюм, маҳсулот)» тушунчасини аниқлаштириш зарурати туғилади, чунки бу тушунча орқали кенг қўламдаги объектлар, яъни янги ёки эскирган-лари ўрнига олинаётган асосий капитал қисмлари, ишлаб чиқариш захира-лари, қайта сотиш учун товарлар, молиявий активлар, номоддий активлар, таълим хизматлари ва ўзининг эгасига бевосита ёки билвосита даромад келтириш қобилиятига эга бўлган бошқа объектлар қаралиши мумкин.

Юқорида келтирилган таърифга етарли даражада яқин, лекин таркибий қисмларининг мазмуни нуқтаи назаридан анча аниқ бўлган инвестициялар-нинг таърифи иқтисодчи олим А.Кузнецов томонидан келтирилган бўлиб, унга кўра «инвестициялар» деганда моддий бойликлар ва номоддий ижтимоий қимматликларга молиявий маблағлар, инновацион ва ижтимоий соҳа орқали бевосита ёки билвосита киритилаётган молиявий ресурслар тушунилади<sup>53</sup>.

---

<sup>52</sup> Хейнс П. Экономический образ мышления. - М., 1993.

<sup>53</sup> Кузнецов А. Модель привлечения массовых инвестиций. // Рынок ценных бумаг. 1995. № 17. С 17-21.

## **II ШЎЪБА. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ ИННОВАЦИОН ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА РИВОЖЛАНТИРИШ, КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ, АҲОЛИ БАНДЛИГИ, ФАРОВОНЛИГИ, ЯШАШ СИФАТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

**Мирзобек Улуғбекович Болтабоев** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти магистранти

### **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОНГА ЭЪТИБОРНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**Аннотация:** мақолада Янги Ўзбекистонда инсонга эътиборнинг асосий йўналишларидан 10 та ижтимоий йўналишлари қараб чиқилган. Бу йўналишлар янгича ёндошувлар бўлиб, мажбуриятларни асосан давлат ўз зиммасига олган. Буларнинг мазмуни алоҳида ҳар бир йўналиш бўйича қисқача изоҳланган. 2023 йилда белгиланган давлат сиёсати асосида шаклланган “Инсонга эътибор модели” иштирокчиларининг ўзаро боғлиқликлари ҳам келтирилган.

**Калит сўзлар:** Янги Ўзбекистон, инсон, инсонга эътибор, камбағаллик даражаси, ишга жойлаштириш.

**Аннотация:** в статье рассматриваются 10 социальных направлений из основных направлений человеческого внимания в Южном Узбекистане. Эти направления являются новыми подходами, и обязательства в основном берет на себя государство. Их содержание кратко поясняется по каждому направлению отдельно. Также представлена взаимозависимость участников «Модели фокусирования на человеке», сформированной на основе государственной политики, установленной в 2023 году.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, люди, внимание к людям, уровень бедности, занятость.

**Abstract:** the article examines 10 social directions from the main directions of human attention in Southern Uzbekistan. These directions are new approaches, and the obligations are mainly assumed by the state. The content of these is briefly explained in each direction separately. The interdependence of the participants of the "Human Focus Model" formed on the basis of the state policy established in 2023 is also presented.

**Key words:** New Uzbekistan, people, attention to people, level of poverty, employment.

**Кириш. Мавзунинг долзарблиги.** Мамлакатимиз Президентининг 28.02.2023 йилдаги Фармонида биноан 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тасдиқланди. Бу дастур ўз ичига 7 та соҳани қамраб олган. Буларга давлат хизматлари орқали инсонга эътибор, ижтимоий соҳа ва уй-жойлар билан таъминлаш, таълим хизматлари сифати ва самарадорлигини ошириш, соғлиқни сақлаш

соҳасини такомиллаштириш, тадбиркорлар ҳуқуқларини уларнинг барча фаолиятларида ҳимоя қилиш, энг долзарб масалалардан бири бўлган сувни тежаш, қонун ижодкорлиги каби тадбирлар киради.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг таъкидлашича, аҳолидан 20 мингга яқин таклифлар муҳокама қилинган. «Одамларимиз таълим, соғлиқни сақлаш, иқтисодиёт йўналишларидаги аниқ-аниқ масалаларни кўтариб, улар бўйича тизимли ечимларни ҳам таклиф қилган», Давлат раҳбари уларни «ҳозирги вақтда одамларни қийнаётган ва эртанги кунимизга, ўзгаришимизга, тараққиётимизга тўғри замин яратиш бўйича таклифлар» деб атади. Гапида давом этиб: «Мен бу фикрларни ўрганиб, бир нарсага амин бўлдим. Аҳолимиз биздан мактаб, боғча ва шифохоналар кўпайтириш, таълим ва тиббиёт сифати ошириш; маҳаллада йўл, сув, электр, транспорт муаммолари ҳал қилиш; иш ўринларини кўпайтириш, тадбиркорликка янги имкониятлар яратишни; адолат таъминлаш, оворагарчилик, бюрократия, энг асосийси, коррупцияни йўқ қилишни кутмоқда. Кўтарилган масалалар аниқ ва ўринлидир. Қанчалик қийин бўлмасин, биз бу муаммоларни ечишимиз шарт», деб таъкидлади. Кўриниб турибдики, Янги Ўзбекистонда инсонга эътиборнинг асосий йўналишлари моҳияти жиҳатидан ҳам ўта долзарб ҳисобланади.

2. Karpova, S. K. Sfera uslug kak ob’ekt investitsionnoy deyatelnosti / S. K. Karpova // Izvestiya Rossiyskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. A. I. Gersena. – 2008. – № 73-1. – S. 232–235.

3. Корытина, YU. A. Vliyanie funktsionalnykh osobennostey sfery uslug na razvitie sovremennogo predprinimatelstva / YU. A. Korytina, N. V. Kozlovskix // Ekonomika i predprinimatelstvo. – 2015. – № 5(ch. 2). – S. 1096–1099.

**К.В.Аблақулов** – TATU Qarshi filiali o‘qituvchisi

## **XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA ISHCHI KUCHI SIFATI VA TARKIBINI TAKOMILLASHTIRILISHI**

**Аннотация.** Ushbu maqolada ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hamma ishchi kuchi qolaversa barcha omillar ishchi kuchi yordamida harakatga kelishi nazarda tutilgan. Xizmat ko‘rsatish orqali ishchi kuchi yordamida yangi mahsulot yangi qiymat va ularning tarkibiy qismi bo‘lgan qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqariladi, bu qo‘shimcha mahsulotning qiymat tarafini faqat jonli mehnat yaratadi. Shu sababli maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida ishchi kuchi bozorini o‘rganish haqida bayon etilgan.

**Калит so‘zlar.** Ishchi kuchi, xizmat ko‘rsatish, qo‘shimcha mahsulot, qiymat, naflilik, ishchi kuchi bozori, ishchi kuchi sifati, bandlik, mehnat, ishchi kuchi sifati.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, что производство и обслуживание, кроме всей рабочей силы, все факторы будут действовать с помощью рабочей силы. Оказывая услуги с помощью труда производится новый продукт, новая стоимость и прибавочный продукт, являющийся их составной частью, стоимостная сторона этого прибавочного продукта создается только

живым трудом. Поэтому в статье описано исследование рынка труда в сфере услуг.

**Ключевые слова.** Рабочая сила, услуга, прибавочный продукт, стоимость, доходность, рынок труда, качество рабочей силы, занятость, рабочая сила, качество рабочей силы.

**Abstract.** In this article, it is assumed that production and service, in addition to all labor force, all factors will act with the help of labor force. By providing services, with the help of labor, a new product is produced, a new value and a by-product that is their component, the value side of this by-product is created only by live labor. Therefore, the article describes the study of the labor market in the service sector.

**Key words.** Labor force, service, additional product, value, profitability, labor market, quality of labor force, employment, labor, quality of labor force.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida, shuningdek, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma fazalarida ishchi kuchi eng faol omil hisoblanadi. Chunki, boshqa hamma omillar ishchi kuchi yordamida harakatga keltiriladi, ularning qiymatlari saqlab qolinib, yangi mahsulotga o'tkaziladi, yangi mahsulot yangi qiymat va ularning tarkibiy qismi bo'lgan qo'shimcha mahsulot shu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishchi kuchi tomonidan yaratiladi. Umuman mahsulot, xususan qo'shimcha mahsulot yaratish albatta tabiiy omillardan ishlab chiqarish vositalaridan foydalaniladi, ular mahsulotning naflliligini yaratishda ishtirok etadi, lekin qo'shimcha mahsulotning qiymat tarafini faqat jonli mehnat yaratadi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishchi kuchining mazmuni, tarkibi, ulardan foydalanish darajasini va ishchi kuchi bozorini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Ishchi kuchi – bu insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida faqatgina ishlab chiqarishning moddiy- ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili, ya'ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda, eng avvalo ishchining mehnat qobiliyatini qayta tiklashi, ya'ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, ishchi va xizmatchilarning hozirgi avlodi ma'lum vaqt o'tishi bilan qariydi. Ularning o'rinlarini bosadigan o'rinbosarlar ham tayyorlanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ishchining oilasi, farzandlari bo'lishi lozim, ularning o'sib-ulg'ayishi, o'qishi, zamon talabiga javob beradigan ishchi kuchi sifatida kamol topishi uchun ham shart-sharoit bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 27-maydagi “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to'g'risida”gi 106-sonli qaroriga asosan ish bilan bandlar quyidagi turlarga bo'linadi: iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan bandlar; iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan bandlar; respublikadan

tashqariga ishlash maqsadida ketgan fuqarolar.

1-jadval.

Iqtisodiy faol bo‘lmagan ishchi kuchi tarkibiga mehnat bilan band ishsiz deb hisoblanmaydigan shaxslar [1]

	Iqtisodiy faol bo‘lmagan ishchi kuchi tarkibiga mehnat bilan band ishsiz deb hisoblanmaydigan shaxslar
.	Uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan ishlamayotgan ayollar;
.	Ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta‘lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar va talabalar;
.	Ishlamayotgan uchinchi guruh nogironlari;
.	Ko‘char va ko‘chmas mulkdan daromad olayotgan ishlamayotgan shaxslar;
.	Ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo‘lmagan shaxslar

Mamlakatlarda mehnatda bandlik va ishsizlikni ko‘p yillik o‘rganish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mehnatga yaroqli aholining 94-95 % mehnatda band bo‘lsa, iqtisodiyot me‘yorida rivojlanayotgan hisoblanadi.

2-jadval.

Ish bilan ta‘minlanganlar [2]


	Ish bilan ta‘minlanganlar
.	Yollanib ishlayotgan, shu jumladan, ishni to‘liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan kasanachilik bilan shug‘ullanayotgan, shuningdek haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan, vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan fuqarolar
.	Betobligi, mehnat ta‘tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to‘xtatib qo‘yilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo‘lmaganda xodimning ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo‘lmagan fuqarolar
.	O‘zini ish bilan mustaqil ta‘minlayotgan fuqarolar, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a‘zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila azolari
.	Qurolli Kuchlarda, Milliy Xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo‘shinlarida xizmatni o‘tayotgan, shuningdek muqobil xizmatni o‘tayotgan fuqarolar.

.	Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;
.	Qonun hujjatlariga muvofiq, faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko‘rsatkich va indikatorlar 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘shishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, respublikada 2030-yilga kelib, aholi soni 2020-yilga nisbatan 20,7 % yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9 % yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16 % yoki 2125,5 kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20 % ga tushishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o‘rtacha 1,15 % dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o‘rtacha 5 % ga kamayishi natijasida ro‘y beradi (1-rasm) [3].

Yangilanayotgan O‘zbekistonning istiqbolini belgilab beruvchi hujjatlarda raqamli va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini hamda aholining samarali ish bilan bandligini, aholi va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni, jumladan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutadi [4-5].



1-rasm: O‘zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlikning 2021-2030 yillardagi maqsadli prognoz parametrlari (ming kishi)

Men yuqorida mavjud ishchilar va ularning ish bilan yoki ta'lim-tarbiya bilan band bo‘lganlarning sonini hamda ulardan malakali kadrlar tayyorlash jarayonini tahlil qildim.

Shu narsani ta'kidlash joizki, ishchi kuchi sonining ko‘payishi bilan o‘zidan o‘zi

mahsulot yoki qo‘shimcha mahsulot ko‘payib qolmaydi, balki ishchi kuchi resurslaridan o‘z o‘rnida samarali foydalansagina qo‘shimcha mahsulot ko‘payadi. Oddiy ko‘rinib turgan misol 2021-yilda 19,1 mln ishchi bo‘lgan bo‘lsa, shundan 1,6 mln kishi umuman ish bilan band bo‘lmagan. Bu ishchilar hech qanday mahsulot, jumladan qo‘shimcha mahsulot yaratmagan. Shuning uchun hozirgi davrda ishga yaroqli ishchilarni ish bilan ta‘minlash o‘ta muhim va dolzarb masaladir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 27-maydagi “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hisobga olish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 106-sonli qarori // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami” 2007-yil 21-son 216-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida” gi 616-I-son qonuni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3. <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

4. К.Б. Аблакулов “Использование трудовых ресурсов для наращивания дополнительной производственной продукции и повышения их качества и состава” // «Экономика и предпринимательство», № 5, 2022 г. 1072-1077 с.

5. Ablaqulov K.B., Oripova Sh.K. Qo‘shimcha mahsulot to‘g‘risida turli xil nazariy qarashlar «Экономика и социум» №2(93)-1 2022 С. 6-13 <https://cyberleninka.ru/article/n/qo-shimcha-mahsulot-to-g-risida-turli-xil-nazariy-qarashlar>

**I.Xabibullayev** – professor, texnika fanlari doktori, Toshkent moliya instituti,  
**F.O.Raxmatova** – Toshkent moliya instituti magistranti

## **O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA ISHSIZLIK DARAJASINI O‘ZGARISH JARAYONLARINI STATISTIK TAHLILI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston respublikasida kambag‘allikni qisqartirishda ishsizlik darajasini o‘zgarish jarayonlari o‘rganishning statistik tahlili va ekonometrik modellashtirish hamda prognozlashtirishga yondoshuvlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ARIMA, iqtisodiyot, strategiya, sikllik, bandlik, statistika, ekonometrika, kambag‘allik, ishsizlik, model, prognoz.

**Аннотация:** В статье освещена статистические и эконометрические подходы анализа а также прогнозирования процесса изменения уровня безработиц в республика при сокращении бедности.

**Ключевые слова:** ARIMA, экономика, стратегия, цикличность, занятость, статистика, эконометрика, бедность, безработица, модель, прогноз.

**Annotation:** this article covers statistical analysis and econometric modeling and forecasting approaches to the study of processes of changing the unemployment rate in poverty reduction in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** ARIMA, economy, strategy, cyclicity, Employment, Statistics, Econometrics, poverty, unemployment, model, forecast.

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan bir qancha hukumatning qaror va farmonlari qabul qilingan. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.05.2020 yildagi "Tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4716-sonli qarori; 11.08.2020 yildagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-sonli qarori; 20.04.2021 yildagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-sonli Farmoni.

Ularni ijrosini ta'minlash maqsadida qator amaliy va ilmiy ishlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish o'rinlarini ko'paytirish va kambag'allikni qisqartirishdir. Bu boradagi manzilli ishlar natijasida o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi. 1 million aholi kasb-hunarga o'qitilib, ish boshlashiga ko'maklashib, kambag'allikdan olib chiqildi<sup>63</sup>. Amaliy ishlar bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda[4,5,6].

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonida aholi bandligini ta'minlash kambag'allikni qisqartirish muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyutsion qarashlari va konseptual yondashuvlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Tadqiqotchilar iqtisodiy o'sish sur'ati, bandlik va mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka asoslangan holda sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini rag'batlantirish siyosatida bir qancha modellarini ajratishadi[6].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda kambag'allikni qisqartirishda muhim omil bo'lgan ishsizlik va uning darajasining dinamikasini o'rganish hamda uni prognozlash masalalari o'ta muhim hisoblanadi. Shu sababli Respublikamizda ishsizlik darajasini statistik tahlilini amalga oshirish va uning kelajakdagi holatini baholash uchun ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanish kutilayotgan natijalarga erishish imkonini beradi.

---

<sup>63</sup> O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2010-2020 yillik ma'lumotlari.

Respublikada ishsizlik darajasini tahlili Davlat statistika agentligining 2000-2021yillardagi ma’lumotlari asosida amalga oshirildi (1-jadval)<sup>64</sup>. Avvalo olingan ma’lumotlar statistika nazariyasining dinamika qatorlari sifatida tasavvur qilinib, jarayonning o’zgarishini anqlashda dinamika qatori ko’rsatkichlaridan foydalanilgan[3].

### 1-jadval.

#### O’zbekiston respublikasida ishsizlik darajasi o’zgarish jarayoni

Yillar	Ishsizlik darajasi,%						
2000	0,4	2006	0,2	2012	4,9	2018	9,3
2001	0,4	2007	0,5	2013	4,9	2019	9,0
2002	0,4	2008	4,9	2014	5,1	2020	10,5
2003	0,3	2009	5,0	2015	5,2	2021	9,6
2004	0,4	2010	5,4	2016	5,2		
2005	0,3	2011	5,0	2017	5,8		

Jadval ma’lumotlariga asoslanib o’rganilayotgan vaqt oralig’ini 3 ta davrga bo’lish mumkin: 1-davr, 2000-2007 yillar, bu davrda ishsizlik darajasining o’sish sur’ati yillar bo’yicha o’rtacha 0,4 foizni; 2-davr, 2008-2017 yillarda o’rtacha 5,1 foizni; 3-davr, 2018-2021 yillarda 9,6 foizni tashkil etgan. 2000-2021 yillarda esa o’rtacha o’sish sur’ati 5,1 foizni tashkil etadi<sup>65</sup>.


Berilgan ma’lumotlar asosida Respublikada ishsizlik darajasini ekonometrik tahlilini amalga oshirish va prognozlash uchun ma’lumotlarni vaqtli qatori tuzilib, tadqiqot ekonometrikaning ARIMA metodi yordamida amalga oshirildi[1,2,3].

ARIMA metodi orqali ma’lumotlarni tahlil qilish va prognozlashda vaqtli qatorlarda mavjud trend, mavsumiylik (sikllik), tasodifiylik unsurlari inobatga olindi [3].

ARIMA metodi orqali tadqiqotni amalga oshirish uchun “Stata” dasturidan foydalanildi va unda ishsizlik darajasining o’zgarishi bo’yicha vaqtli qatorni grafik usulida statsionarlikka tekshiriladi, bunda vaqtli qatorida trend, tasodifiylik, mavsumiylik unsurlari mavjud emasligi namoyon bo’ladi (1-rasm):

<sup>64</sup> O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Statistik byuleteni 2010-2021 yillar. Davlat statistika qo’mitasi.

<sup>65</sup> O’zgarish sabablari mualliflar tomonidan o’rganilmagan.



1-rasm. Statsionarlikni grafik usulida aniqlash

Vaqtli qator statsionarligiga to'liq ishonch hosil qilish uchun Dickey-Fuller testi hisoblandi va vaqtli qator dastlabki bosqichning o'zida statsionar emasligi aniqlandi[2].

ARIMA metodining **Identifikatsiya** bosqichida vaqtli qator bo'yicha avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlandi.

ARIMA metodi uchun zarur bo'lgan  $p$ ,  $d$ ,  $q$  ko'rsatkichlarining qiymatlari aniqlanib, ular bo'yicha kombinatsiyalarni quyidagi ketma-ketlikda yozib chiqildi:

ARIMA =  $(p, d, q) = (2, 1, 0)$ ; ARIMA =  $(p, d, q) = (1, 1, 0)$ ;

ARIMA =  $(p, d, q) = (1, 1, 1)$ ; ARIMA =  $(p, d, q) = (2, 1, 1)$ ;

ARIMA =  $(p, d, q) = (2, 1, 2)$ ; ARIMA =  $(p, d, q) = (1, 1, 2)$ ;

ARIMA =  $(p, d, q) = (0, 1, 2)$ .

ARIMA metodining **Estimatsiya** bosqichida yuqorida tanlab olingan modellarning ahamiyatliligi quyidagi 5 xil mezon bo'yicha baholandi va eng yaxshisi tanlab olindi.

2-jadval

### Modellarni baholash mezonlari

Mezonlar	Me'yoriy talablar
<b>Parametrlar</b>	$P < 0,05$ shartli ehtimollik darajasi miqdorining ustuvorligi
<b>Sigma</b>	Qaysi modelda kichik bo'lsa shu model yaxshiroq bo'ladi.
<b>Log likelihood</b>	Qaysi modelda katta bo'lsa, shu model yaxshiroq bo'ladi.
<b>Akaike</b>	Qaysi modelda kichik bo'lsa, shu model yaxshiroq bo'ladi
<b>Bayeseian</b>	Qaysi modelda kichik bo'lsa, shu model yaxshiroq bo'ladi.

Biz tuzilgan modellar orasidan sinov tariqasida ARIMA(1,1,2); ARIMA (2,1,0); ARIMA (1,1,1) larni tanlab oldik va har biri bo'yicha yuqoridagi mezonlarga javob berish imkoniyatini o'rganib chiqdik (3-jadval).

3-jadval

### Modellarni baholash natijalari

Mezonlar	A ARIMA(1,1,2)	B ARIMA(2,1,0)	C ARIMA(1,1,1)	Optimal variant
Parametrlar	4/1	3/0	3/1	A/C
Sigma	1,07	1,21	1,08	A
Log likelihood	-32,31	-33,89	-32,38	A
Akaike	74,63	75,78	72,77	C
Bayeseian	79,86	79,96	76,95	C

Baholash natijalariga ko'ra, tanlab olingan modellar ichida ARIMA(2,1,0) boshqa modellarga nisbatan optimal hisoblanadi va ushbu modeldan ishsizlik darajasini o'zgarishini prognoz qilishda eng maqbul variant sifatida foydalanish mumkin.

Tanlab olingan ARMA (2,1,0) modeli bo'yicha hisoblangan 5 yillik prognoz natijalarini pessimistik va optimistik nuqtai nazaridan talqin qilsak, yakuniy 4-jadvaldan ko'rish mumkinki, ishsizlik darajasini o'zgarish jarayoni 2021 yilda haqiqatda 9.6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yildan 2026 yilgacha

4-jadval.

### ARIMA metodida olingan ishsizlik darajasini o'zgarish jarayonlarini prognoz ko'rsatkichlari

Yillar	Pessimistik	O'rtacha	Optimistik
Haqiqatda			
2021	9.6		
Prognoz ssenariysi			
2022	8.86	11.28	13.42
2023	9.31	11.73	13.87
2024	9.76	12.18	14.32
2025	10.2	12.62	14.76
2026	10.56	13.07	15.21

bo'lgan davrda o'rtacha 12% atrofida o'zgaradi. Agar pessimistik tanqidiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, bu o'zgarish sur'ati 11% ni ham tashkil qilmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki O'zbekistonda ishsizlik darajasini mavjud ma'lumotlar asosida o'sish darajasi tahlil natijalariga ko'ra 2000-2021yillarda yillik o'rtacha 5,1 foizni, oxirgi to'rt yillikda esa 9,6 foizni tashkil etgan. ARIMA usulini qo'llagan holda ishsizlik darajasini o'zgarish jarayonlarini ekonometrik modelida olingan 2022-2026 yillar uchun prognoz natijali 2000-2021 yillar ma'lumotlari bo'yicha bo'lganligi sababli yuqori darajada bo'ldi. So'ngi yillarda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida ishsizlik darajasi ko'rsatkichini pasayishiga ishonchimiz komil. Aytish joizki, barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jumladan kambag'lik ham yakka holda sodir bo'lmasligini hisobga oladigan bo'lsak, uni nafaqat ishsizlik darajasini o'zgarish jarayoni, balki boshqa ko'rsatkichlar bilan ham bog'liq holda regression tahlilini amalga oshirib prognoz qilish maqsadga muvofiq. Bunday yondoshuv bizning kelajakdagi tadqiqotimiz bo'lib, unda kambag'allir va ishsizlik darajasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мангус Я.Р. и др. Эконометрика. Начальный курс.-М.: Дело, 1997.-247с.
2. Елисеева И.И. Эконометрика. Учебник для бакалавриата и магистратуры. –Санкт-Петербург, 2017. -449 с.
3. Habibullayev I. Ekonometrika-2: Ekonometrik modellashtirish. Darslik. –Т.: “Taxririyy Nashriyot”, 2022. -250b.
4. Raxmatova F.O, Xabibullayev.I, O'zbekistonda ishsizlik va bandlikni o'zgarish jarayonlarini o'rganish / “Science and Education” Scientific journal.January 2022.
5. Ulugmuradova N.B., Miyassarova M. “Yoshlar bandligini ta'minlashda muammo va yechimlar ” / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. 2018.
6. Qodirova R. A. va boshqalar. “Aholi bandligini ta'minlash modellari va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari” / Scientific Journal Impact Factor. Progress 2022.

**L.Sh.Kuldoshev** – Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali “biznesni boshqarish” kafedrasini o’qituvchisi

**S.Ashurov** – Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali bank ishi va auditi yo’nalishi 1-bosqich talabasi

## **MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING O’RNI**

**Аннотация:** Мақоллада Тadbirkorlik va kichik biznes faoliyatining jamiyatdagi amaliy ahamiyati hamda so’ngi yillarda sohadagi o’zgarishlar, yaratilgan sharoitlar tadbirkorlik va kichik biznes faoliyati haqida so’z boradi.

**Аннотация:** В статье говорится о практическом значении предпринимательства и деятельности малого бизнеса в обществе, а также об изменениях в этой сфере за последние годы, о созданных условиях для предпринимательства и деятельности малого бизнеса.

**Annotation:** The article talks about the practical importance of entrepreneurship and small business activity in society, as well as changes in the field in recent years, the created conditions for entrepreneurship and small business activity.

**Kalit so’zlar:** Tadbirkorlik, kichik biznes, korxonalar, fabrika, maxsulot, kapital, ish o’rni, bozor, import, eksport.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, малый бизнес, предприятие, фабрика, продукт, капитал, рабочее место, рынок, импорт, экспорт.

**Key words:** Entrepreneurship, small business, enterprise, factory, product, capital, workplace, market, import, export.

Tadbirkorlik tushunchasi bugungi kunda mamlakatimiz fuqorolari tamonidan ko’p ishlatadigan jumlagi aylanib ulgurdi. Respublikamizda so’ngi yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanmoqchi bolgan insonlar uchun har qachongidan ham ko’p etibor qaratilmoqda. O’zbekiston tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish uchun chinakkam imkoniyat yaratib, bugungi kunda ushbu sohada ko’plab yutuqlarga erishilmoqda.

Tadbirkorlik yoki biznes inglizcha so’zdan olingan bo’lib, business bandlik degan ma’noni anglatib, qonun doirasidagi tijoriy faoliyatga aytiladi. Tadbirkor tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxsdir. Kapiatlistik iqtisodiyot asosini xususiy tadbirkorlik tashkil etadi. Agar tadbirkorlik faoliyati bilan hukumat, jamiyat yoki ishchilar kasaba uyushmalari shug’ullansa bunday iqtisodiyotni sotsialistik iqtisodiyot deyiladi. Tadbirkorlik, tadbirkor deganda ish, korxonalar, fabrika tushuniladi va uning ortida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan ishlab chiqarish-xo’jalik yuritish tizimi tushiniladi.

1. Tadbirkorlik sohasini xo’jalik yuritish ko’lamiga ko’ra 3 ga bo’lamiz. Bular yirik-500 dan ortiq kishini ishlab chiqarish jarayonida band bo’lishi, o’rta-

20tadan 500kishigacha bo'lgan kishini band qilgan ishlab chiqarish va kichik tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonida 10-20 yoki undan kam kishini o'zida band qilgan tadbirkorlik turlariga bo'lamiz. Yirik ishlab chiqarish, keng turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, mehanizatsiyalashgan va avtomatlashgan yo'nalishlarda yirik va o'rta tadbirkorlik subektlari faoliyat olib boradi. Kichik tadbirkorlikka esa asosan xizmat ko'rsatish yo'nalishlari yoki qishloq xo'jaligi sohalarini qamrab oladi. Umuman olganga kichik tadbirkorlik sohalari keng tarqalgan. Chunki ushbu turdagi tadbirkorlik turlari sharoitga tez moslashadi va shu jihatdan katta va o'rta tadbirkorlik turlaridan keskin farq qiladi. Tadbirkorlik mulkchilik subektlarining foyda olish maqsadida tavakkal va mulkiy javobgarligi asosida, amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir. Tadbirkorlik yer, mehnat, kapital, axborotlar bilan birga ishlab chiqarish va iqtisodiyotning bosh omillaridandir. Biznesni tarkibiga bevosita tadbirkorlik kiradi, lekin hamma biznes ham Tadbirkorlik bo'lavermaydi. Tadbirkorlik faoliyati qachon yuzaga keladi? Biznesda tovar hamda xizmatlarni yuzaga keltirib, bozordagi talab va extiyojlar qondirilganda ushbu jarayon yuzaga keladi.

Tarixan tadbirkorlik uzoq o'tmishga ega ammo tadbirkorlik tushunchasi XVII asrda vujudga kelgan va ko'p holatlarda“ mulkdor “ iborasi bilan bir ma'no-mazmun kasb etadi. Xususan, A. Smit Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish yurutuvchi mulkdor deb tariflaydi. Hozirgi davr G'arb adabiyotida ham Tadbirkorlik foyda olish maqsadida xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik va tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavf-xatarga doim tayyor turish kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Xalq farovonligini yuksaltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan “Xarakatlar stretegiyasi” ni qabul qilinishi shu bilan birga 2018-yil “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash” yili deb e'lon qilinganligi yurtimmizda tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan etiborning yuksak namunasidir. Shuningdek mamlakatimmizda Tadbirkorlik faoliyati rivojlantirish uchun bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Hususan, 2016-yil 5-oktyabrda PF-4848-son Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni taminlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi va 2017-yil 7-fevraldagi PF 5106-son, “Yoshlarga doir davlat siyosati samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab- quvvatlash to'g'risida”gi farmonlari shuningdek 2018-yil 7-iyuldagi PQ 3777-son, “Xar bir oila tadbirkor dasturini amalga oshirish to'g'risida”gi farmon-u qarorlar tadbirkorlik rivojiga kata xissa qo'shmoqda.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil vazifasini tadbirkorlik faoliyati tashkil etadi. Bugungi kunga kelib bizning davlatimmizda ham tadbirkorlik yoinki kichik biznes tushunchalari

yildan yilga keng ildiz otib bormoqda. Xususiyl tadbirkorlik va kichik biznes yurtimiz iqtisodiyotining asosiy yoʻnalishi sifatida belgilangan. Ohirgi besh yilda ushbu yoʻnalishni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan 2000 ga yaqin qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtirib, muddatlari oʻrtacha 2 barabarga qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xom ashyo boʻyicha koʻplab cheklolarga barham berildi.

Ichki va tashqi bozorda oʻz nufuzi va brendiga ega tadbirkorlar sinfi paydo boʻla boshladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan muloqoti jarayonida tadbirkorlik va kichik biznesni rivoji uchun toʻsiq boʻlayotgan, tadbirkorlarni qiynayotgan muommalarni yechimi sifatida

7 ta yoʻnalishni koʻrsatib oʻtdi. Xususan birinchi yoʻnalish-biznesni moliyalashtirish, ikkinchisi-soliq tizimini takomillashtirish hamda tadbirkorga soliq yukini kamaytirish, uchinchisi-yer ajratish, toʻrtinchisi-infratuzilma, beshinchisi-ekspartyor korxonalarini qoʻllab quvvatlash, oltinchisi-transport-logistika, yettinchisi-sohadagi tartib tamoyillarni soddalashtirish masalalariga bagʻishlandi va davlatimiz rahbari har bir yoʻnalish boʻyicha dolzarb vazifalarni koʻrsatib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Oʻzbekistonda Tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, tashabbuskorlikni ragʻbatlantirish, ularga keng imkoniyatlar yaratib berish, tadbirkorlik sohasida katta-katta marralarga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining rivojlantirishning 5 ta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar stretegiyasida “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl mulk xuquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik rivojini ragʻbatlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohatlarni davom ettirish” boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Buning natijasida mamlakatimizda ishonchli tadbirkorlik muhiti shakllanmoqda.

Rivojlangan Sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi yurtimizda ham yakka tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda. Singapur, Malayziya kabi mamlakatlar aholisining deyarli 80 foizi kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sektorida faoliyat olib boradi. Kichik biznes AQSh, Germaniya, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Italiya kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda kata ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Kichik biznes kengashi (ICSB) malumotlariga koʻra kichik biznes subektlari barcha korxonalarining 90 foizidan ortigʻini, ish bilan band boʻlganlarning 60-70 foizini, yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etadi. 10 2017-yil kichik biznes va hususiyl tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53.3 foizni yoki 119301 mlrd soʻmni tashkil etdi. (Germaniyada – 54 foiz, AQShda – 52 foiz, Yaponiyada – 55 foiz, Rossiyada – 20 foiz, Qozogʻistonda – 25.6 foiz). Kichik biznesni sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2000-yilda 12.9 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2017-yilda ushbu koʻrsatkich 39.6 foizga yetdi, qishloq hoʻjaligida – 99

foizni, chakana savdo aylanmasida – 88.4 foizni, qurilish sohasida – 65.1 foizni tashkil etdi. Kichik biznesning mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 27 foizni, importda – 50 foizni, investitsiyada esa – 32 foizni tashkil etdi. Yuqoridagi statistic malumotlardan shu malum bo’ladiki kundan kunga kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz nafaqat mamlakatimiz dunyoning barcha davlatlarida rivojlanmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi muommolarni hal qilishda hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivoj topishida tadbirkorlikning o’rni katta. Tadbirkor ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish yo’nalishlarida yangi ish o’rinlari yaratishadi. Bu jarayonni aholini ish bilan band qilinishi va ishsizlikni kamaytirishda ro’li beqiyosdir. Natijada, tadbirkorlik faoliyati aholini ish bilan taminlanishi, mehnat va iqtisodiy faolligining ortishi, buning oqibatida aholining daromadlarini yuksalishiga o’z hissasini qo’shadi. Bu jarayonning ikki oqibatiga etibor qaratish lozim: bir tomondan, aholining moddiy va ma’naviy zaruratlarining ortishi, kengayishi bo’lsa, ikkinchi tomondan, bu zaruratlarini qondirish imkoniyatlarini paydo bo’lishidir. Natijada ushbu jarayonlar aholi hayotini tubdan yaxshilash, turmush darajasini ko’tarish, farovonligini oshirishni taminlaydi.

Kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ham tadbirkorlik subyektlari ishtirok etadilar. Shuningdek tadbirkorlar doimo izlanishda, yurtimizdagi va horijdagi hamkasblari, hamkorlar, shu bilan birga turli soha vakillari bilan muloqatda bo’lishadi. Tajriba ortirishadi va o’zlarining kasbiy, ma’daniy-ma’naviy ko’nikmalarini o’stirishadi. Inson qobiliyatini ro’yobga chiqarishga yahshi imkoniyatlar yaratishda hamda rag’batlantirishda tadbirkorlikni o’rni beqiyosdir. Shunday qilib, insonlarning dunyoqarashini kengaytirishga hamda o’zliklarini anglashda tadbirkorlik faoliyati yordam beradi. Ularni o’zgartiradi va natijada jamiyatning ijtimoiy-madaniylashish jarayonini ortishiga olib keladi. Tadbirkorlikni rivoj topishi natijasida qishloqlarda, mahallalarda ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, savdo va boshqa xizmat ko’rsatish korxonalarini bunyod etib, qishloq infratuzilmasini rivojlantirishadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik ijtimoiy sohada ham keng o’rin egallab bormoqda: xususiy yoki boshqa tashkiliyhuquqiy ko’rinishdagi bolalar bog’chalari, muruvat uylari, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inventerlar ishlab chiqarish hamda ularga xizmat ko’rsatish, o’quv va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini tashkil etish va ularni rivojlantirish, sog’liqni saqlash va sog’lomlashtirish, bino va inshoatlar qurish va ularnga tamiriy xizmatlar ko’rsatish ishlari bilan bevosita shug’ullanib, mavjud bo’lgan ijtimoiy muommolarni yechishga ulkan hissa qo’shadi. Xayriya ishlari, ijtimoiy soha muassasalari, imkoniyati cheklanganlar, kam taminlangan oilalar, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj insonlarga yordam ko’rsatishda ham tadbirkorlik subyektlarining o’rni beqiyos. Tadbirkorlar mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yaratib, ichki bozorni to’ldiradilar va bozorda taklif miqdor, sifat, turli hillik jihatidan ijobiylashadi, xaridorlar uchun talabni qondirish va tanlash imkoniyatlari kengaytiradi. Ushbu yo’nalishda tadbirkorlik muvofiqlashtirish vazifasini bajarish, narxlarni barqarorlashtirish,

taklif va talab o'zoro moslashtirish, bozorda muvozanat o'rnatish hamda ushbu muvozanatni saqlab turish, extiyojni kengaytirish va extiyojni to'laqonli qondirishga xizmat qiladi.

Yurtimizda tadbirkorlik subyektlarining hissasini hisobiga importni qisqartirish va eksportni kengaytirish imkoniyatlari rivojlanmoqda. Ular birinchidan, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarib, valyutani chetga chiqib ketishini kamaytirish va mamlakat iqtisodiy-moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash, ikkinchidan esa eksportbob mahsulotlar chiqarish, ularni tashqi bozorlarda sotib, mamlakat eksport salohiyatini ko'tarish va valyutadan keladigan daromadlarni oshirishda ham keng o'rin egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki, Ozbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach hamma sohada bo'lgani kabi tadbirkorlik va kichik biznes sohasida katta muvaffaqiyatlar qozondi va qozonib kelmoqda. Istiqlol yillari davlatimmiz tomonidan Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan insonlarga barcha sharoitlar yaratib berildi. Malumki O'zbekiston hududida qadimdan hunarmandchilikning turli sohalari shakllangan va istiqloq davrida hunarmandchilik sohasi bilan shug'ullanib kelayotga fuqorolarga ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi asosida katta-katta tadbirkorlik subektlari paydo bo'ldi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O'zbekiston 2017 y. 488b.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2022 y.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretegiyasi to'g'risida” gi PF-4947-sonli Farmoni 1- ilovasi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar stretegiyasi. Lex.uz

5. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida» qonunidan

**А.Р.Латипов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти

### **ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛИШ ПРИНЦИПИДАН ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ**

**Аннотация:** мақолада Ўзбекистонда аҳоли бандлигига қаратилган чора-тадбирлар ва унда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўрни, ҳамда, аҳолининг ўзини ўзи

банд қилишга қаратилган касбларга муаллиф томонидан яна бир нечта касбларни қўшишни таклиф сифатида келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** инновация, хизматлар соҳаси, ўзини ўзи банд қилиш, аҳоли, бандлик, тадбиркорлик.

**Аннотация:** в статье рассматриваются меры, направленные на занятость населения в Узбекистане и роль сферы услуг в ней, а также автор предлагает добавить еще несколько профессий, направленных на самозанятость населения.

**Ключевые слова:** инновация, сфера услуг, самозанятость, население, занятость, предпринимательство.

**Abstract:** the article discusses measures aimed at employment in Uzbekistan and the role of the service sector in it, and the author proposes to add a few more professions aimed at self-employment of the population.

**Key words:** innovation, service sector, self-employment, population, employment, entrepreneurship.

**Кириш. Мавзунинг долзарблиги.** Ҳозирги пайтда хизмат кўрсатиш соҳасида ўзини ўзи банд қилиш имкониятларидан самарали фойдаланиш масаласига алоҳида аҳамият берилмоқда. Мазкур масала юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг бир қанча фармон ва қарорлари қабул қилинди. Жумладан, 2022 йил 27 январдаги “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-104-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 23 декабрдаги “Ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида фаолиятни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 806-сон қарори, 2021-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид дастурлари қабул қилинди. Бундай эътибор натижасида 2021 йилда хизматлар кўрсатиш ҳажми қарийб 20 фоизга ўсди [1]. Шу билан бирга, хизматлар соҳасини ривожлантиришга янгича ёндашувларни, жумладан, ўзини ўзи банд қилишни жорий этиш орқали бозор хизматлари ҳажмини 2023 йилда 1,5 бараварга ошириш ҳамда қўшимча янги иш ўринларини яратиш имкониятлари мавжуд.

Хизмат кўрсатиш соҳаси ҳозирги пайтда жаҳон миқёсида жадаллик билан ривожланиб бораётган соҳа эканлигини ҳисобга олсак ўзини ўзи банд қилишда янги иш ўринларини яратишда катта маблағлар шарт эмаслиги соҳанинг йилдан-йилга ривожланишига замин яратмоқда. Иқтисодиётнинг кишлок, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги, саноат ва хизматлар соҳаси барқарор ўсиши натижасида мамлакат ЯИМ ҳажми ҳам муттасил ўсиб бормоқда. Ушбу макроиқтисодий кўрсаткичда соҳаларнинг улуши бўйича хизматлар соҳаси энг юқори кўрсаткичларга эга эканлиги бундан далолат беради. Жаҳон иқтисодиёти миқёсида олиб қарайдиган бўлсак, хизматлар соҳасининг жаҳон ЯИМдаги улуши охириги 25 йилда 54,2% дан 65,0%га етган. Бунда кўрсатилган хизматларнинг ҳажми 3,1 баробарга ошган. Худди шу давр учун саноатнинг ЯИМдаги улуши 31,9% дан 24,8% га, кишлок, ўрмон ва балиқчилик хўжалигиники эса 7,6% дан 3,5% га қисқарган. Худди

шу давр мобайнида хизмат кўрсатиш соҳасида банд аҳолининг улуши 38,0% дан 50,6% га етган [2]. Ушбу маълумотлар жаҳонда хизматлар соҳасининг иқтисодиётдаги улуши мунтазам ошиб бораётганлигини кузamoқда. Булардан ҳам кўриниб турибдики, мазкур соҳани ривожлантириш мамлакатимиз иқтисодий-ижтимоий ҳаётида муҳим аҳамият касб этмоқда. Шу туфайли ушбу соҳани тадқиқ қилиш, бугунги кунда объектив заруриятга ва мос равишда, долзарб мавзулардан бирига айланди.

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Хизмат кўрсатиш соҳасида ўзини ўзи банд қилиш имкониятларидан самарали фойдаланиш масаласи дунё иқтисодчи олимлари томонидан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Ҳозирда рақамли технологияларни қўллаш орқали янги касбларга эҳтиёжлар ошишини ва аҳолини ўзини ўзи банд қилиш йўллари тадқиқ этиш масаласи янада жадаллашмоқда. Ушбу масала билан хусусан, А.Смит, Д.Рикардо аҳоли бандлигини ўз-ўзини бошқарувчи жараён сифатида талқин этган бўлсалар, бундай нуқтаиназарни А.Пигу, А.Маршалл, Дж.Б.Кларк, М.Фридманлар ҳам қўллаб қувватлашади. МДХ олимларидан М.Р Самитов (2020) Россия Федерациясида аҳолига ўзини ўзи банд қилишда қандай имкониятлар давлат томонидан тақдим қилинаётгани, талаб юқори бўлган касбларга аҳолини қизиқтиришга қаратилган фикрларни илгари суради. Бундан ташқари мақолада ўзини ўзи банд қилган фуқароларга меҳнат стажи кўшилмаслигини (Ўзбекистондан фарқли ўларoқ), агар меҳнат стажига эга бўлишни истаса пенсия фондига кўшимча солиқ тўлаш орқали меҳнат стажига эга бўлишни такидлаб ўтган [3].

И.И. Мухина ва Д.Г. Миракян (2021) ўзларининг мақолаларида Россия Федерациясида ўзини ўзи банд қилишда АҚШ ва Германия тажрибларини тақослаган. Эътиборлик жиҳати шундаки Россия Федерациясида 30 июнь 2020 йилда ўзини ўзи банд қилганлар 702 493 минг кишини ташкил қилган бўлса, 31 март 2021 йилга келиб ўзини ўзи банд қилганлар 1 920 385 (бир миллион тўққиз юз йигирма минг уч юз саксон беш) млн. кишини ёки мос равишда 2,7 мартга. ошганини келтириб ўтади [4]. Бундан ташқари Россия Федерацияси пандемиядан сўнг ўзини ўзи банд қилган фуқароларни қўллаб-қувватлаш мақсадида микроқарзларни имтиёзли давр билан кичик фоизларда беришни, бундан ташқари жаҳон бозорларида онлайн (online) платформаларда фуқароларнинг маҳсулотларини реклама қилишга, уларни оммалаштиришга кўмаклашишга, ижарага офис майдонлар олганда ижаранинг бир қисмини қоплашга қаратилган чора-тадбирлари ишлаб чиқилгани ёритилган.

Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт, рақамли технологиялар хизмат кўрсатиш соҳаларини назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ этиш, аҳолининг иш билан бандлик даражасини ошириш ва камбағалликнинг турли масалалари ва камбағалликни қисқартириш бўйича Қ.Х.Абдурахмонов, М.Қ.Пардаев, М.М.Муҳаммедов, Н.К.Зокирова, Ш.Р.Холмўминов, Д.А.Артиқова, З.Я.Худойбердиев, К.З.Хомитов, Г.Қ.Абдурахмонова,

Н.У.Арабов [5] шуғулланиб келмоқдалар. Аммо ўзини ўзи банд қилиш орқали камбағалликни камайтиришга қаратилган илмий ишлар етарли даражада тадқиқ этилмагани мавзунинг ўта долзарб ҳисобланади.

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқот ишини бажаришда кузатиш, маълумотларни тўплаш, умумлаштириш, гуруҳлаш, таққослаш, маҳаллий ва хорижий олимларининг хизматлар соҳасининг камбағалликни қисқартиришдаги роли, бандликни тامينлашда муаммо ва ечимларга бағишланган тадқиқотлари, соҳасни тартибга солувчи қонунлар, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш асосида мамлакатимизда камбағаллик муаммо ва уларнинг ечимларига қаратилган хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилган.

**Таҳлил ва натижалар.** О.М.Пардаева (2018) ўзларининг мақолаларида Ўзбекистонда биринчилардан бўлиб ўзини ўзи банд қилишнинг бошқа йўналишларга нисбатан ўзига хос беш афзалликларига: “...-шахсий қониқиш; - мустақилликка интилиш; - фойда олиш; - бандлик кафолати; - шахсий мавқе” [6] атрофлича тўхталиб ўтганлар.

Иқтисодиётнинг ривожланиши иш билан бандлик замонавий ностандарт шакллари пайдо бўлишига олиб келмоқда, яъни:

- норасмий иш билан бандлик;
- виртуал иш билан бандлик;
- тўлиқсиз иш билан бандлик;
- ўзини ўзи иш билан банд қилиш.

Мамлакатимизда аҳолини иш билан таъминлашнинг инновацион шакллари оммалаштириш ҳамда шарт-шароитларни яратиш муҳим аҳамият касб этади. Ривожланган мамлакатлар тажрибасини ўрганган ҳолда таъкидлашимиз мумкинки, аҳолини иш ўринлари билан таъминлашнинг замонавий ҳамда истиқболли шаклларида бири – бу **ўзини ўзи банд қилиш ҳисобланади**. Жумладан, “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чоратадбирлари тўғрисида” Президент қарори қабул қилиниши ўшбу соҳада фаолият турларини 27 тадан 78 тагача оширилди (хусусан, 68-фаолият турига ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида ҳамширалик иши фаолиятини ҳамда 69-фаолият турига жисмоний шахсларга ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида ўз хонадонидан балиқ етиштиришни йўлга қўйишга рухсат берилди 2022 йил 1 февраль ойдан) 2022 йил 1 ноябрдан эса қуйидаги 10 та фаолият тури ўзини ўзи банд қилган шахслар шуғулланиши мумкин бўлган фаолият турлари рўйхатига киритилди:

- уй ҳайвонлари (қорамол, қўй, эчки, от ва бошқалар) бозорларида воситачилик хизмати;
- автомобиль бозорларида воситачилик хизмати;
- риэлторлик хизматини кўрсатиш (ижарага уй топиб бериш, уй сотиб олиш ва сотишга кўмаклашиш);
- уйда сут ва сут маҳсулотларини қайта ишлаш ва сотиш хизмати;

- маиший буюмларни ижарага бериш хизмати (стол-стул, идиш-товуқ, асбоб-ускуна ва бошқалар);

- гипс ва ганчдан буюмлар ясаш (уй жиҳозлари, эртақ қаҳрамонлари ҳайкаллари ясаш);

- тош ва тош маҳсулотларидан ёдгорлик, сувенир ва декоратив буюмлар тайёрлаш;

- ёғоч маҳсулотларидан сават, нон маҳсулотлари учун махсус идиш ва бошқа буюмларни тўқиш;

- уй шароитида пилла етиштириш, шахсий томорқа ер участкасида тут меvasи, ниҳоли ва кўчатини етиштириш, уйда ипак мато, ипак гилам тўқиш ва сотиш;

- кулолчилик.

2023 йил 1 январдан ўзининг шахсий томорқа ер участкасида қуйидаги фаолият турлари билан шуғулланаётган фуқаролар томонидан йилига БХМ камида 1 баравари миқдорида ижтимоий солиқ тўланган тақдирда, улар расмий банд бўлган аҳоли тоифасига киритилади ва ушбу давр уларнинг меҳнат стажига қўшилади:

- чорвачилик (қорамол, қўй, эчки, от ва бошқалар); гулчилик;

- иссиқхона; паррандачилик (бедана, курка, ғоз, ўрдак);

- қуёнчилик; асаларичилик; балиқчилик; боғдорчилик; лимончилик.

Ўтган 2022 йил 1 июнь ҳолати бўйича Ўзбекистонда ўзини ўзи банд қилган фуқаролар сони 1 720 423 нафарга етди [6]. Ўзини ўзи банд қилиш фаолиятнинг жорий қилиниши унинг фаолият турларининг кенгайтирилиши давлатимиз томонидан аҳолининг бандлигини таъминлашга, яширин иқтисодиётни камайитиришга қаратилган стратегик тараққиётни англаш мумкин албатта. Шундан келиб чиқиб бизнинг фикримизча ўзини ўзи банд қилишга қуйидаги фаолият турларини қўшишлик мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- Автомашиналарни ижарага бериш билан шуғулланиш;

- Аҳолига тўқув ипларида кийим-кечак тўқиш билан шуғулланиш;

- Қулупнайчилик билан шуғулланиш;

- Қўзиқоринчилик билан шуғулланиш;

- Соатсозлик билан шуғулланиш;

- Телефон тузатувчилар ва уларга ҳар хил хизмат кўрсатиш хизмати билан шуғулланиш;

- Жисмоний шахсларни кўриклаш (ёки жисмоний шахсларнинг уйларини ёки бинони куриклаш хизмати) билан шуғулланиш;

- Ҳайвонларни эмлаш, груминг хизмати (ҳайвонлар тукларини қирқиш хизмати) билан шуғулланиш;

- Массаж хизматлари билан шуғулланиш;

- Психолог хизматлари билан шуғулланиш;

- Қишлоқ жойларда хоммом ташкил қилиб фойдаланиш хизматлари билан шуғулланиш;

Агар юқоридаги касбларда (улар 11 та) ўзини ўзи банд қилишда ўзимизнинг фаразимизни илгари сурадиган бўлсак республикада жами 9255 та маҳалла (2021 йил 1 сентябр ҳолатига) [7] мавжуд бўлиб агарда ҳар бир касбдан 3 ёки 4 кишининг бандлигини таъминланса мос равишда 27765 ( $9255 \cdot 3 = 27765$ ) киши ёки 37020 ( $9255 \cdot 4 = 37020$ ) кишининг бандлиги таъминланади. Тўғри балки бу катта рақамлар эмасдир, аммо аҳолини бандлигига кўмаклаиш ва ўшбу соҳаларда яширинча ишлаб юрганларга ижтимоий ёрдам бериш мақсадида уларга ёшга доир пенсияларни кейинчалик жорий қилиниши учун давлат томонидан ўшбу касбларни ўзини ўзи банд қиливчилар рўйхатиغا киритилса мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

**Хулоса ва тавсиялар.** Юқорида келтириб ўтилган маълумотлар ва фирмалардан келиб чиқиб, ҳамда, бугунги шиддат билан ривожланишини инобатга олиб бир қанча тавсияларни ишлаб чиқдик.

Биринчидан, ҳозирги даврда аҳолини янги технологиялар орқали замон талабидан келиб чиққан ҳолда касбларга йўналтириш, касб-ҳунар коллеж ва техникумларда, ОТМларда “ўзини ўзи банд қилиш” фанини жорий қилиш мақсадга мувофиқ.

Иккинчидан, ўзини ўзи банд қилган фуқароларнинг хизматларини, айниқса миллий қадриятларимизни тараннум этувчи маҳсулотларини бренд ҳолига олиб чиқишда давлатимиз қўллаб-қувватлаб хизматлар ва маҳсулот брендларини жаҳон бозорига танитишда кўмаклашиш ва бунинг учун ҳалқаро даражада ярмаркалар ташкил этиш тадбирларини янада кўпайтириш ҳам мақсадга мувофиқ.

Учинчидан, ҳар йили республикада ўзини ўзи банд қилган фуқароларнинг фаолиятини таҳлил қилиш натижасида қайси хизмат ва маҳсулотга талаб ошганлигидан келиб чиққан ҳолда ўсиб келаётган ёш авлодни захирасини шунга мослаштирган ҳолда тизимли равишда тайёрлаб бориш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Хулоса қилиб айтганда, биз ишлаб чиққан тавсияларни амалиётга жорий қилиш Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққийт стратегиясининг аҳолини иш билан таъминлаш, бандликни ошириш ва камбағалликни қисқартириш эвазига аҳоли фаровонлигини оширишга эришиш имкониятини яратади.

### **Адабиётлар рўйхати:**

1. <https://xs.uz/uzkr/post/khizmatlar-sohasini-rivozhlantirish-bojicha-ustuvor-jonalishlar-belgilandi>

2. Исхакова Сарвар Аюбовна “Хизмат кўрсатиш соҳасидаги тадбиркорлик фаолиятининг хусусиятлари”// Иқтисод ва молия. 2021,2(138)

3. Самитов Марат Рустэмович. “Самозанятые” // “Оценка инвестиций” экономический научный журнал (46-56 стр). № 1 (15) 2020 г.

4. Мухина И.И., Миракян Д.Г. Самозанятость в России: современные тенденции и перспективы развития. Социально-трудовые исследования. 2021;44(3):21-31. DOI: 10.34022/2658-3712-2021-44-3-21-31.

5. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: FAN. 2019; Абдурахманов К.Х., Зокирова Н.К. Человеческое развитие: учебник.-Т.: ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова», 2014. - 320 с.; Холмўминов Ш.Р. Қишлоқ меҳнат бозорининг шаклланиши ва ривожланиши ҳамда уларни моделлаштириш (монография). – Т.: Fan va texnologiya, 2014; Холмўминов Ш.Р. ва бошқалар Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг назарий ва амалий асослари (монография). – Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2018; Артыкова Д.А. Проблемы достижения равновесия на рынке труда в условиях углубления рыночных реформ.- Т.: ТГЭУ. 2006; Худойбердиев З.Я. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўқув қўлланма. ILMZIYO, 2016.; Хомитов К.З. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ меҳнат бозорининг самарали ривожланиши муаммолари. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ЎзР ФА Иқтисодиёт институти, 2012, Абдурахманова Г.Қ. Кичик бизнестда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ, 2016, Арабов Н.У. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самарадорлигини ошириш. Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018.

6. О.М.Пардаева “Иш билан таъминланишнинг янги йўналиши – ўзини ўзи банд қилишнинг афзалликлари”// Сервис (Илмий амалий журнал), СамИСИ, 2018 йил 2-сон.

7. <https://sputniknews.uz/20220602/ozini-oziband-qilganlar-soni-17-milliondan-oshdi--24955105.html>

8. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-nechta-mahalla-bor>

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори,и.ф.д.

## АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИНИ ОШИРИШ ОРҚАЛИ КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**Аннотация:**Мақолада аҳоли даромадларини оширишда оилавий бизнес ва таморқа хўжалигидан самарали фойдаланиш йўли билан камбағалликни қисқартириш йўналишлари очиқ берилган.

**Калит сўзлар:**камбағаллик, аҳоли даромади, оилавий бизнес,таморқа хўжалиги.

**Аннотация:** В статье раскрываются пути снижения бедности за счет эффективного использования семейного бизнеса и подсобный земельный участка для увеличения доходов населения.

**Ключевые слова:** бедность, доходы населения, семейный бизнес, подсобный земельный участка.

**Abstract:** The article reveals ways to reduce poverty through the effective use of family businesses and ancillary land to increase the income of the population.

**Key words:** poverty, income of the population, family business, ancillary land plot.

Дунёнинг кўплаб мамлакатларида камбағаллик даражасини қисқартиришнинг замонавий йўллари ишлаб чиқиш ҳамда мавжуд турларини кўпайтириш тенденцияси кун сайин ортиб бормоқда. Жаҳон банки ҳисоб-китобларига кўра, «2030 йилга бориб қашшоқликни 3 фоиздан юқори даражага қисқартиришни мақсад қилган бўлсада, жаҳон хўжалигидаги иқтисодий таҳдидлар туфайли 2022 йилда 75-95 миллионгача кўшимча одам ўта қашшоқликда яшашига тўғри келиб, камбағаллик даражаси тўғрисидаги прогноз 9,4% ёки 736 млн кишига ўзгартирилди»<sup>66</sup>. Аҳоли камбағаллиги даражасини қисқартиришда учта йўналиш, жумладан, биринчидан, кўшимча меҳнат ресурслари билан иқтисодий ўсишга эришиш, иккинчидан, инсон капиталига боғлиқ бўлмаган ҳолатлар туфайли муҳим хизматлардан фойдалана олмайдиган инсонларга сармоя киритиш, учинчидан, камбағал ва заиф қатламларни иқлим, пандемия, озиқ-овқат нархларининг ўзгарувчанлиги ва иқтисодий инқироз оқибатлари каби қашшоқликка олиб келиши мумкин бўлган таҳдидлардан ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш зарурдир.

Бугунги кунда камбағалликка қарши кураш мамлакатимизда ўта долзарб масалалар сирасига киради. Мамлакатимиз раҳбарининг кўрсатмаларига биноан камбағалликни қисқартиришнинг аниқ дастак ва механизмларини ишлаб чиқиш, хорижий тажрибани инобатга олган ҳолда камбағаллик даражасини аниқлаш мезонлари ва баҳолаш услуби, ижтимоий таъминотнинг минимал стандартлари ва меъёрий асосларини пухта ишлаб

---

<sup>66</sup> Бедность-обзор. Стратегия. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/topic/poverty/overview#3>, 2022.

чиқиш мақсадида қисқа муддатларда Жаҳон банки, БМТ Тараққиёт дастури, Осиё тараққиёт банки каби халқаро ташкилотларининг экспертлари жалб қилинган.

Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш шароитида «...халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш...»<sup>67</sup> масалалари устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланганлигига қарамасдан “COVID-19” пандемияси аҳолининг камбағал қатламига салбий таъсир кўрсатиб, камбағаллик даражаси 8,7-10 фоизга ўсган. Камбағаллик даражасига тушиб қолган янги фуқаролар сони 450 мингдан 880 минг нафаргача»<sup>68</sup> кўтарилиши ортидан аҳоли даромадларини янада ошириш ва камбағалликни қисқартириш масаласи иқтисодий ислоҳотларнинг энг долзарб муаммоларидан бири сифатида қаралмоқда. Ўзбекистон Республикасида «...2017 йилда кам таъминланган 500 минг оила ижтимоий ёрдам олган бўлса, бугунга келиб 2 миллиондан ортиқ оилаларга кўмак берилмоқда. Ажратилаётган маблағлар эса, 7 баробар кўпайтирилиб, йилига 11 триллион сўмга етди»<sup>69</sup>.

Ўзбекистон Республикасининг минтақаларида аҳоли даромадларини ошириш ва камбағалликни қисқартиришда оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг имкониятлари жуда катта аҳамиятга эгадир. Айни вақтда оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ўндан ортиқ шакллари мавжуд бўлиб, миллий иқтисодиётда катта улушга эга. Биринчидан, у аҳоли учун зарур бўлган озиқ-овқат маҳсулотлапри ва хизматларини ташкил этади, иккинчидан, оиладаги барча ишчи кучини меҳнат билан бандлигини таъминлайди ва оилага ўзини-ўзи даромад билан таъминлаш имконияти яратилади. оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг бир қатор афзалликлари мавжудки, булар уни рақобатбардошлигини таъминлайди:

1. Оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик кичик бўлгани сабабли катта капитал талаб қилмайди, уни бизнесни бошлаш учун пул топиш енгил бўлади.

2. Оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик оиланинг ихтиёридаги кўчмас мулкка таянади, оила уйида юритилгани учун капитал курилиш ёки жойни ижарага олишни талаб этмайди.

3. Оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик оммавий истеъмол учун эмас, балки маҳаллий бозорларга ишлайди. Унинг бозори кичик бўлгани учун рақобатга кам чалинади.

<sup>67</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>68</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>

<sup>69</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>, 2022, 21.12.

4. Оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик кўпроқ қўл меҳнатини талаб қилувчи маҳсулот ва хизматларни арзон ишлаб чиқаришга мосланади.

Шу сабабдан давлатимиз томонидан оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорликни имтиёзли кредитлар бериш орқали улар фаолиятини рағбатлантириб борилади. Хусусан, имтиёзли кредитларни оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик, даромад топишга қаратилган муайян меҳнат фаолияти билан шуғулланиш ва фаолият турини кенгайтириш истагини билдирган аҳоли ҳамда тадбиркорлик субъектларига йиллик 8 фоиз ставкада 3–6 ойгача бўлган имтиёзли давр билан 3 йилдан кўп бўлмаган муддатга.<sup>70</sup> Оилавий бизнес ва хусусий тадбиркорлик оиладаги бекор турган меҳнат ресурсларига таянади, яъни бекалар, болалар ва қариялар кўмагида юритилади, натижада ишчи кучи ёллаш зарурияти камаяди. Бундан ташқари бугунги кунда оилаларни асосий қисми қишлоқ жойларида истиқомат қилади. Уларни бандлигини таъминлашда, оила даромадларни оширишда томорқа фаолияти муҳим ўрин тутади.

Кўпчилик оилалар томорқа ер участкаларида бевосита ўзи ишлаб чиқариш билан шуғулланади. Томорқа ер участкаларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ҳам эркин савдо учун, ҳам оила эҳтиёжлари учун етиштириш (қайта ишлаш) билан боғлиқ меҳнат фаолиятидир. Томорқа ер участкаларида тадбиркорлик фаолияти ҳисобланмайди ва томорқа ер участкаларини давлат рўйхатидан ўтказиш талаб этилмайди. Томорқа ер участкаларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш (қайта ишлаш) бўйича шахсий меҳнати билан иштирок этишга асосланган фаолиятни мустақил равишда амалга оширувчи шахс аҳоли бандлиги тўғрисидаги қонунчиликда белгиланган тартибда ўзини ўзи банд қилган шахс мақомини олиши мумкин<sup>71</sup>.

Томорқа — оила хўжалигининг кенг тарқалган анъанавий шакли бўлиб, мамлакатимизда 5 миллион оиладан 4,8 млн.га яқини томорқа билан шуғулланади. Бу борада Қашқадарё вилоятида катта тажриба тўпланган. Вилоятда 1030 маҳалла фуқаролар йиғинлари мавжуд бўлиб, 868 маҳаллада 453,4 минг хонадонларнинг жами 25,8 минг гектар томорқа ер майдонлари мавжуд. Мазкур аҳоли томорқа ер майдонларининг 13,0 минг гектарига 53,7 фоизига 2022 йил якуни билан ҳар хил экинлар, 12,8 минг гектарига эртаки ҳамда 11,6 минг гектар кечки экинлар экилди.

Қашқадарё вилоятида 2022 йилда 67 та маҳаллалар “Бир маҳалла-бир маҳсулот” тамойили асосида сабзавотчилик, кўкатлар, гулчилик, кўчатчилик ва иссиқхона йўналишлари бўйича ихтисослаштирилиб,

<sup>70</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Худудларда аҳолини тадбиркорликка кенг жалб қилиш ва оилавий тадбиркорликни ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2019 йил 7 март, ПҚ-4231-сон.

<sup>71</sup> “Томорқа хўжалиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 2021 йил 1 апрель, ЎРҚ-681-сон. 4-модда

маҳсулот етиштиришни йўлга қўйилди. Шу билан бирга, 2022 йилдан 2026 йилгача томорқа ер эгалари билан кооперация асосида иш ташкил этган тадбиркорлик субъектларига ускуналар хариди учун 150 млн сўмгача бўлган ҳажмда субсидиялар бериш<sup>72</sup> бошланди. Шунингдек, 2021 йилда Фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси томонидан жами 565 нафар фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларига ҳамда “Томорқа хизмати” МЧЖларга 20,5 млрд. сўм имтиёзли кредитлар ажратилди<sup>73</sup>.

Кам таъминланган томорқа ер эгаларига экин экиш юзасидан амалий ёрдам бериш чоралари белгиланганлиги (маҳаллий бюджет ҳисобидан сабзавот уруғлари ва мевали дарахт кўчатлари учун маблағлар ажратиш, уларга салоҳиятли фермер хўжалиklarини бириктириш) юзасидан вилоят ҳокимининг жорий йил 6 февралдаги 80-Ф-сон фармойишига асосан маҳаллий бюджетнинг заҳира ҳисобидан 24 млн. сўм маблағ ажратилган.

Пандемия шароитида тижорат банклари билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг асосий ставкасида уч ой имтиёзли давр билан бир йил муддатга 4 фоиз банк маржасини ҳисобга олган ҳолда аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланиш йўналишида 2 миллион сўмгача Оилавий тадбиркорлик маркази хулосасисиз On-line тарзда томорқа ер эгаларига микрокредитлар ажратиш механизмини жорий этилиши<sup>74</sup> кам даромадли, камбағал томорқа хўжалиklarига катта ёрдам бўлди. Бироқ бу имкониятдан камбағал оилалар хабардор бўлиб, самарали фойдаланмоқда деб бўлмайти.

Томорқа ер участкалари оиладан моддий пул ва меҳнат сарфини талаб қилади. Оила ушбу сарфларни ўз ихтиёри билан қилади, чунки бу яхши даромад келтиради. Томорқа қўл меҳнатига асосланганидан бу ердаги моддий сарфлар асосан уруғлик, ем-ҳашак, кўчат ва ўғитлар сарфидан иборат. Томорқа соҳибларининг моддий сарфи маҳсулот қийматининг тахминан 8 фоизига тўғри келади. Томорқа табиатан бозор иқтисоди талабларига мос тушади, шу боис у бозор ислохотлари талабларига тез мослашиб қисқа муддатда ўзига сингдира олади. Ўтган асрнинг охириги ўн йиллигида собиқ иттифоқ инқирозга учраши натижасида янги мустақил 15 та республика ўртасида ўзаро иқтисодий алоқаларни узилиши муносабати билан мамлакатлар иқтисодий таназулга учрадилар. Аҳолининг турмуш тарзи кескин пасайиб, аҳоли ўртасида камбағаллар сонининг ортишига сабаб бўлди.

<sup>72</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 декабрдаги ПҚ-54-сон «Томорқадан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, шунингдек, аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Қарори. <https://lex.uz/docs/5777393>

<sup>73</sup> Наманган вилояти статистика бошқармаси маълумотлари асосида тайёрланди.

<sup>74</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли томорқаларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2020 йил 30 июнь, ПҚ-4767-сон

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

**Мамаюнусова Мехрангиз Олимовна** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таянч докторанти

## ОИЛА ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ХУЛҚ-АТВОРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

**Аннотация:** мақолада оила иқтисодиётининг хулқ-атворини тартибга солиш масалаларининг қисқача мазмуни қараб чиқилган. Унда оиланинг бир ойлик даромади ва унинг йўналишларга тақсимоли қараб чиқилган. Харажатларга оиланинг ейиш-ичишга кетадиган харажатлари, яшашга кетадиган харажатлар, коммунал хизматлар учун тўловлар, тўланадиган солиқлар билан бирга оиланинг жамғармаси ҳам инобатга олинган. Шунингдек, оила иқтисодиётининг хулқ-атвори яхшиланган ва талабга жавоб берадиган даражада бўлишлигига ҳам эътибор қаратилган.

**Калит сўзлар:** оиланинг бир ойлик даромади, оиланинг ейиш-ичишга харажати, яшашга кетадиган харажат, коммунал хизматга тўловлар, тўланадиган солиқлар, оиланинг жамғармаси.

**Аннотация:** в статье рассматривается обобщение вопросов регулирования поведения семейного хозяйства. В нем учитывался ежемесячный доход семьи и его распределение по направлениям. Расходы включают расходы семьи на еду и напитки, расходы на проживание, счета за коммунальные услуги и уплаченные налоги, а также сбережения семьи. Он также фокусируется на улучшении поведения семейной экономики и повышении ее восприимчивости к спросу.

**Ключевые слова:** ежемесячный доход семьи, расходы на питание и питье семьи, прожиточный минимум, коммунальные платежи, уплаченные налоги, сбережения семьи.

**Abstract:** in the article, a summary of the issues of regulating the behavior of the family economy is considered. In it, the monthly income of the family and its distribution to the directions were considered. Expenses include the family's food and drink expenses, living expenses, utility bills, and taxes paid, as well as the family's savings. It also focuses on improving the behavior of the family economy and making it more responsive to demand.

**Key words:** monthly income of the family, expenditure on food and drink of the family, cost of living, utility bills, taxes paid, savings of the family.

**Кириш. Мавзунинг долзарблиги.** Мамлакатимиз Президенти иқтисодиётнинг эркинлашувига, бунда алоҳида тартиб бўлишига катта аҳамият бериб келмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 2022 йил 20 декабрдаги Мурожаатномасида: “Вазирлар ҳам, ҳокимлар ҳам бир ҳақиқатни яхши тушуниб олиши керак: *Ўзбекистонда мулк ва инвестициянинг ҳимоячиси қайсидир ҳоким ёки вазир эмас, фақат Конституция, қонун ва суд*

*бўлади”*<sup>75</sup>. Бу вазифа бемалол иқтисодитнинг ҳулқ-атворини тўғрилаш имконини беради. Аммо таъкидлаш жоизки, иқтисодиётнинг ҳулқ-атвори масаласи мамлакатимизда деярли ўрганилган эмас. Аммо ушбу масала бугунги кунда ўрганилиши лозим бўлган фанлар қаторидан жой олмоқда. Ушбу ном билан ҳозирги кунда ўқитиш жорий қилинди. Буларнинг барчаси мазкур мавзунинг долзарблиги белгилайди.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи.** Бугунги кунда мазкур масала иқтисодий адабиётларда жуда кам ёритилган. Ушбу мавзунинг у ёки бу жиҳатлари Ричард Талер [1] Пардаев М.Қ. [2, 3, 4], Пардаев О.М. [2, 3], Холикулов А.Н. [2,3], Бабаназарова С.А. [3] кабиларнинг асарларида қисман ёритилган. Аммо “Иқтисодиётнинг ҳулқ-атвор” ўқув адабиёти сифатида шакллантирилган эмас.

**Тадқиқот методологияси.** Тадқиқот жараёнида оила иқтисодиётининг ҳулқ-атворини тартибга солиш масалалари бўйича айрим тавсияларни ишлаб чиқишда мантиқий, қиёсий ва солиштирма таҳлил, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, макон ва замон усулларидан фойдаланилган.

**Таҳлил ва натижалар.** Ҳозирги пайтда “Ҳулқ-атвор иқтисодиёти”, деган ном билан янги фан ўқув режасига киритилган. Ушбу фаннинг номини мантиқан қарайдиган бўлсак, ҳулқ-атвор иқтисодиёти бўлиши мумкин эмас. Чунки ҳулқ атворни ишлаб чиқариб, айрибошлаб, тақсимлаб ва истеъмол қилиб бўлмайди. Бу талабларга жавоб бермайдиган тушунчани иқтисодиёт деб ҳам атаб бўлмайди. Биз мантиқий таҳлилдан келиб чиқиб, ушбу фаннинг номини “Иқтисодиёт ҳулқ-атвори”, деб аташни тавсия қиламиз. Чунки иқтисодиёт маълум даврда, маълум ҳудудда ёки бутун мамлакат миқёсида макро даражада бўлса ҳам маълум тартиб-қоидага амал қилиб фаолият олиб боради. Бу тартибни рамзий маънода “Ҳулқ-атвор” деб номлайдиган бўлсак, фаннинг номини “Ҳулқ-атвор иқтисодиёти” эмас, балки “Иқтисодиёт ҳулқ-атвори”, деб номлашни тавсия қиламиз. Бу номда фикримизча мантиқ ҳам, мазмун ҳам бор.

Умуман иқтисодиётда, шу жумладан оила иқтисодиётида, унинг ками-кўстини тартибга солиб боришда пул асосий ўринни эгаллайди. Бунинг одоби ҳам, йўналиши ҳам, ақли ҳам йўқ. Шу жиҳатдан унинг келиши ҳам, кетиши ҳам инсонга боғлиқ. Пулни қаерга сарфласангиз ўша жойга кетаверади. Агар сарфламасангиз тураверади. Оила нонсиз ва бошқа неъматларсиз қолаверади. Ш у туфайли пулни маълум тартиб билан мақсадга мувофиқ ишлатиш лозим. Шу туфайли пулни сарфлашда оиладаги харажатларни тўғри аниқлаб олиш ва шуларга мос тўғри йўналтириш керак. Масалан, оилада ҳар ойда коммунал хизматларга тўловлар бор. Уларни инкор қилиб бўлмайди. Агар ҳар ойда тўланадиган солиқдан ҳам қочиб қутилиб бўлмайди. Учинчиси, ҳар ойда ушбу оиланинг ейиш-ичишига ва

<sup>75</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 2022 йил 20 декабрдаги Мурожаатномаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

яшаш учун бошқа харажатларга ҳам ўрта ҳисобда қанча кетишининг аниқ ҳисоб-китоби қилинган бўлиши лозим. Булар асосий харажатлардир. Шу бир ойда топган маблағимиз шу бир ойлик харажатларни қоплаш даражаси қандай бўлиши ҳам жуда муҳим. Шу туфайли ушбк мувозанатни таъминлашга қаратилган аниқ ҳисоб-китоб бўлишлиги лозим. Буни куйидаги расмда кўриш мумкин (1-расм).

Бир ойлик даромад	=	Ейиш-ичиш ва яшашга	+	Коммунал хизматга	+	Тўланадиган солиқлар	+	Оиланинг жамғармаси
6 000 000	=	4 000 000	+	400 000	+	600 000	+	1 000 000
100,0 %		66,7		6,7		10,0		16,6

**1-расм. Оила даромадининг сарфланишида амал қилиши лозим бўлган тақсимот тартиби**

Бундан кўриниб турибдики, оила иқтисодиётининг хулқ-атвори қаттиқ интизомни талаб қилади. Агар даромадга яраша харажатлар бўлмаса, албатта эртага қийналиб қолиш мумкин. Шу туфайли тақсимотга қатъий амал қилиш лозим бўлади. Бир ойлик даромад оиланинг ейиш-ичиш ва яшашга, коммунал хизматга, тўланадиган солиқларга ва оиланинг жамғармасига етиши лозим. Тахминий ҳисоб-китобга кўра оила даромадининг 66,7 % ейиш ичишга ва яшашга сарфланар экан. Коммунал хизматга 6,7 % даромади сарфланса, солиқларга 10,0 даромади кетар экан. Бир ойлик жамғармаси мазкур оиланинг 16,6 % жамғармаси йўналтирилмоқда. Ушбу кўрсаткичлар даврлар ўтиши билан таҳлил қилиб борилса, оила даромади ва харажатларининг бир-бирига мувофиқлиги, оила иқтисодиётининг хулқ атворидаги ўзгаришларни кузатиб бориш мумкин.

Оилада ейиш ичишликни, яъни яшашга харажатларни кўпайтириш ва оила жамғармасини мунтазам равишда сақлаб қолиш учун оила даромадни кўпайтириш йўллари ахтариш керак бўлади. Ходимнинг топган бир ойлик даромади фақат иш ҳақи бўлган бўлиши мумкин. Энди у даромадни кўпайтириш учун яна кўшимча бирорта фаолият билан шуғулланиши лозим. Агар оила жамғармасини ҳар ойда ршириб бориш керак бўлса ҳам оила даромадини ошириш ва харажатларни камайтиришга тўғри келади. Бу ерда қайсида имконият бўлса, ўшани ишга солиш керак.

Оила жамғармасини кўпайтираман деб кўр-кўрона иш қилиб бўлмайди. Бунинг учун биринчи галда оила даромадларни кўпайтириш керак бўлади, агар унинг имкони бўлмаса, ейиш ичишлик ва яшашга сарфланадиган харажатларни бироз камайтиришга тўғри келади. Бу ерда

аниқ ҳисоб-китоблар олиб борилиб, бунга тўлиқ амал қилиниб борилиши лозим. Шундагина оила иқтисодиётининг хулқ-атвори яхшиланган ва талабга жавоб берадиган даражада бўлади.

Оила иқтисодиётининг хулқ-атвори нафақат оиладаги муҳитга, балки ташқи омилларга ҳам жуда катта боғлиқлиги бор. Мисол тариқасида оила ҳар куни истеъмол қиладиган нонни оладиган бўлсак, у дуярли ҳар куни бир хил ҳажмда истеъмол қилинади. Бироқ унинг нархи турли ҳолатларга олиб келиши мумкин. Агар унинг нархи бир хил даражада сақланиб турилса, оила белгиланган меъёрдан чиқмаслиги, нонга кетадиган харажат ўзгармаслиги мумкин. Аммо бирор бошқа товар, масалан ҳар куни истеъмол қилинадиган картошқанинг нархининг ўзгариши ҳам оила иқтисодиётига сезиларли даражада таъсир қилади. Қимматлашса харажатлар асоссиз равишда кўпайиши ва мос равишда, унинг нархи орзанлашса камайса мумкин. Шу туфайли ҳар бир субъект иқтисодиётининг хулқ-атвори нафақат ички, балки ташқи омилларга ҳам бевосита боғлиқ бўлади. Буларнинг ўзaro боғлиқлиги қуйидаги расмда келтирилган (2-расм).

Ички омиллар	Оила иқтисодиётидаги хулқ-атвор ўзгаришлари	Ташқи омиллар
Оила истеъмолнинг турларидаги ўзгармасдан қолади		Бозордаги нархларнинг ва таърифларнинг ўзгариши
Оила истеъмолнинг турларидаги ўзгаришлар	Барча омиллар оила жамғармасига таъсир қилади	Харажатлар камайиши ва кўпайиши рўй беради

**2-расм. Оила иқтисодиётининг хулқ-атворини белгиловчи унсурларнинг ўзарo боғлиқликлари**

Мазкур расмдан кўриниб турибдики, оила иқтисодиётидаги хулқ-атвор ўзгаришларига таъсир қилувчи ички омиллар ҳам иккига бўлинар экан. Биринчиси, оила истеъмолининг турлари ўзгармасдан қолади. Агар нарх ўзгармаса истеъмолга белгиланган маблағлар ўзгармайди ва оила иқтисодиётида барқарорлик таъминланади. Иккинчидан, агар истеъмол

қилинадиган неъматларнинг турлари ва таркиби кўпайса ёки камайса, нарх ўзгармаган тақдирда ҳам харажатлар ўзгариб боради. Агар ташқи омилларга назар ташлайдиган бўлсак, бунинг ҳам сони жуда кўп. Биз фақат тез ва ҳамиша таъсири сезилиб турадиган омиллардан бири – нарх билан боғлиқлигини инобатга олиб, айнан шу нархнинг ўзгаришини олдик. Оила иқтисодиётининг хулқ-атворида нарх масаласи муҳим роль ўйнайди. Дармад бир хил, истеъмол қилинадиган маҳсулотлар бир маромда бўлсада, нархнинг ўзгариши билан оилаларда ортиқчалик ёки етишмаслик рўй бериши мумкин. Шу туфайли нархнинг ўзгаришига ҳамиша эътиборни қаратиш лозим бўлади. Шу иккала омил ҳам (ички ва ташқи) оила жамғармасига таъсир қилади. Шу туфайли оила иқтисодиётининг хулқ-атворини қаттиқ назорат қилиб боришга тўғри келади. Ҳамиша белгиланган даромад, харажат ва жамғармалар меъёр даражасида бўлиши лозим экан.

### **Хулоса ва таклифлар**

Мақолада оила иқтисодиётининг хулқ-атворини тартибга солиш масалаларини тадқиқ қилиб, бир қанча хулосаларга келинди.

Биринчидан, ҳозирги пайтда ўқув режасига “Хулқ-атвор иқтисодиёти” номли ўқув курси киритилган. Тадқиқотларимиз кўрсатдики, бунинг номи “Иқтисодиёт хулқ-атвори”, деб аташ мақсадга мувофиқ, деган хулосага келинди.

Иккинчидан, иқтисодиётининг хулқ-атвори тушунчаси янги тушунча эканлигини инобатга олиб, уни энг оммавий бўлган “Оила иқтисодиёти хулқ-атвори” мисолида ёртишга ҳаракат қилинди.

Учинчидан, оила иқтисодиёти хулқ-атворида оила даромадларининг ўрнини инобатга олиб, оила даромадларининг сарфланишида амал қилиши лозим бўлган ҳолатининг тақсмоти тартибига оид масалаларга методологик ёндошув ишлаб чиқилди.

Тўртинчидан, оила иқтисодиётининг хулқ-атворини белгиловчи унсурларнинг ўзаро боғлиқликлари ҳам қараб чиқилиб, уларнинг ўзаро бири-бирига таъсири бўйича ҳам таҳлил қилиш тартиби кўрсатиб берилди.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур мақолада ишлаб чиқилган илмий тавсияларнинг амалиётга жорий қилиниши мамлакатимизда янги “Иқтисодиёт хулқ-атвори” фанининг такомиллашувига, турли бўғиндаги иқтисодиёт субъектларида ушбу фанни қўллаш бўйича аниқ йўналишларнинг шаклланишига хизмат қилади.

### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Ричард Талер. Новая поведенческая экономика: почему люди нарушают правил традиционной экономики и как на этом заработать. – М.: Эксмо, 2022. – 384 с.

2. Пардаев М.Қ., Пардаева О.М., Пардаев О.М. Иқтисодиётни стратегик ривожлантиришнинг инновацион моделлари. Монография. / – Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 228 бет.

3. Пардаев М.Қ., Пардаев О.М., Холикулов А.Н., Бабаназарова С.А. Рақобатбардошликни мустаҳкамлашда кластер ва синергетик самарадорлик таҳлили. Ўқув-услубий кўлланма. – Самарқанд, СамИСИ, 2021. – 196 бет.

4. Пардаев М.Қ. Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари. – Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. – 148 бет.

**Турсунов Ғайрат Атабаевич** – “Ўзбекбирлашув” нодавлат нотижорат ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар уюшмаси раҳбари

### **“ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ САҚЛАШ, ҚАЙТА ИШЛАШ, ТАШҚИ ВА ИЧКИ ИСТЕЪМОЛЧИЛАРГА ЕТКАЗИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ - ДАВР ТАЛАБИ”**

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳамда мамлакатимиздаги деҳқон хўжалиги ва томорқа ер эгалари, фермер хўжаликлари етиштирган полиз, сабзавот, меваларни нобуд қилмасдан харид қилиш, сақлаш, қайта ишлаш ҳамда ташқи ва ички бозорларда сотишнинг матлубот кооперацияси афзалликларидан фойдаланган ва янги технологияларга асосланган ҳолда янгича тизим яратиш таклифи киритилган. Бу тизимнинг афзалликлари асослаб берилган.

**Калит сўзлар.** Озиқ-овқат хавфсизлиги, деҳқон хўжалиги, томорқа ер эгалари, фермер хўжаликлари, полиз экинлари, сабзавотлар, мевалар, қайта ишлаш, ташқи ва ички бозорларда сотиш, матлубот кооперацияси.

**Аннотация.** В данной статье цель обеспечения продовольственной безопасности в Узбекистане, а так же преимущества сотрудничества в закупке, хранении, переработке и реализации овощей, фруктов и овощей, выращенных фермерами и приусадебными землевладельцами в нашей стране без потери, и реализации их на внешнем и внутреннем рынках, а также на основе новых технологий представлено предложение по созданию системы. Обоснованы преимущества этой системы

**Ключевые слова.** Продовольственная безопасность, сельское хозяйство, приусадебные хозяйства, фермерские хозяйства, товарные культуры, овощи, фрукты, переработка, реализация на внешнем и внутреннем рынках, сотрудничество в области продовольствия.

**Abstract.** In this article, the purpose of ensuring food safety in Uzbekistan, as well as the advantages of cooperation in the purchase, storage, processing and sale of vegetables, fruits and vegetables grown by farmers and homestead landowners in our country without perishing, and selling them in foreign and domestic markets, and based on new technologies, is presented. a proposal to create a system is included. The advantages of this system are justified.

**Keywords.** Food security, agriculture, homestead landowners, farms, cash crops, vegetables, fruits, processing, sales in foreign and domestic markets, cooperation in the field of food.

**Кириш.** Озиқ-овқат хавфсизлиги масаласи барча давлатлар қатори Ўзбекистоннинг ҳам мустақиллиги, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий барқарорлигини таъминлаш гарови ҳисобланади. Юртимизда бу муаммо ҳамон ўз долзарблигини йўқотмаган. Зеро, айти пайтда озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талаб ошяпти, аҳоли ўсиши асносида жон бошига истеъмол кўпаймоқда.

Биобарин, мамлакатимизда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини ва экспорт салоҳиятини оширишга бўлган ёндошув мутлақо ўзгарди. Давлат сиёсатининг устувор йуналишига айлантирилди.

Давлатимиз раҳбарининг 2018 йил 16 январдаги ПФ-5303-сон "Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони ва унинг асосида ишлаб чиқилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 январдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни 2021 йилда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5009-сонли қарори ва ҳозиргача қабул қилинган шу каби норматив ҳужжатларни мисол келтириш мумкин.

Бундан мақсад, Президентимиз таъкидланганидек, «Халқимиз саломатлигини мустаҳкамлаш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, биз учун ҳаётини муҳим масаладир».

Маълумки, ҳозирда барча соҳаларда, жумладан қишлоқ хўжалигидаги ислохотлардан мақсад - иқтисодий фойда кўриш билан бирга, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, халқ фаровонлигини оширишдан иборат. Бу борада олиб борилаётган ўлкан ва самарали ислохий ишлар натижасида катта муваффақиятларга эришилмоқда ҳамда айрим муаммолар ва кўшимча имкониятлар ҳам борлиги маълум бўлмоқда. Жумладан, бизнинг назаримизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини (сабзаот, полиз, мевалар) тайёрлаш, қайта ишлаш, экспорт қилиш, логистика марказлари фаолиятлари тизимлаштирилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

### **Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш, ташқи ва ички истеъмолчиларга етказиш ҳолати ва уни такомиллаштириш имкониятлари**

Бугунги кунда республикаимизда 5 512 749 та деҳқон хўжалиги ва томорқа ер эгалари ҳамда 34 781 та сабзаот, полиз, боғдорчиликка ихтисослаштирилган фермер хўжаликлари мавжуд бўлиб, улар томонидан 2022 йилда полиз, сабзаот, мевалар, узум ва шу кабилардан 22,5 млн. тонна етиштирилган. Шундан, 1,74 млн. тоннаси (7,7%) экспорт қилинган.

Кўриниб турибдики, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, экспорт борасида ўлкан имкониятларимиз ва қиладиган ишларимиз бор. Шулардан бири, юқорида қайд этилганидек, республика даражасида тизимга эга бўлган уюшма ва унинг вилоятларда, туманларда ташкилотлари бўлиши ва

қишлоқлардаги деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари билан мавжуд ер майдонларидан фойдаланишни мониторинг қилиш ва улар томонидан қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотларини етиштиришни ва ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чораларини кўриш зарур. Логистика, ташиш, совутгич, сабзаот омборларига, савдо расталарига, қайта ишловчи цехларига, саралаш, кадоклаш, харидоргир қилиб жойлаш, ўраш имкониятларига эга бўлган, етиштирувчилар билан истеъмолчиларни боғловчи замонавий тайёрлов идораларини республикадаги ҳар бир туман негизида манзилли ташкиллаштириш ҳозирги замон талаби бўлиб турибди ва ҳар бир туманнинг деҳқон бозори билан боғлаш яъни тайёрлов идораларини бириктириш мақсадга мувофиқдир.

Аҳоли етиштирган маҳсулотлар стихияли равишда эмас, тизимли равишда аҳолига қулай бўлган тартибда қабул қилиниб олиниши зарур. Қишлоқ аҳолиси томорқасида етиштирган сабзаот, полиз маҳсулотларини ва меваларини қаерга олиб бориб топширишини (сотишини) қатъий равишда билиши ва бунинг учун аҳоли зич, гавжум бўлган қишлоқ ва маҳаллаларда кичкина қабул қилиш пунктлари, кўчма қабул пунктлари барпо этилиши зарур.

Ҳар бир туманда тизимли равишда қурилган замонавий моддий-техника базасига эга бўлган тайёрлов идоралари (заготконторалар) бугунги кун талабида совутгичи билан жорий этилиши, улар орқали ташқи ва ички бозор учун маҳсулот етказиб бериш масаласи ва ҳар бир туман учун асосий маҳсулотлар захирасини яратишни ҳал этиш, ҳамда экспорт қилинган маҳсулотлар ҳисобидан асосий тақчил бўлган озуқа маҳсулотларини ички бозор учун олиб келиш имконини беради.

Республикада етиштирилган полиз, сабзаот, меваларни ташқи ва ички бозор истеъмолчиларига ўз вақтида етказиш, бунда маҳсулотларни саралаш (калибровка), кадоклаш, харидоргирлиги ва рақобатбардошлигини ошириш, логистикасини ташкил этиш, узоқ муддатли ҳамкорлик асосида ишлаш масалалари муҳим аҳамият касб этади.

Шу каби ва бошқа муаммоларни бартараф этиш, экспорт салоҳиятини янада ошириш, ҳар бир туманда стабил озиқ-овқат захирасини яратиш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, янги иш ўринларини ташкил этиш, туманлараги деҳқон хўжалиги ва томорқа ер эгалари етиштирган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қабул қилиб (сотиб) олишда уларга қулайлик яратиш, улар билан фючерс шартномалари тузиш, уларнинг боғдорчилиги учун уруғ, уғит, ҳашаратларга қарши турли химикатларни етказиб бериш хизматларини ташкил қилиш каби вазифалар ва имкониятлар мавжуд.

Буларнинг ҳаммасини ташкил этиш ва тизимга солиш учун матлубот кооперациясини ҳар бир туман, вилоят негизида ташкил этиш ўзини ижобий натижаларини беришига ишончимиз комил. Чунки, республика матлубот кооперацияси «Ўзбекбирлашув» тизими кўп тармоқли фаолиятга эга бўлиб, асосий фаолиятларидан бири бўлиб қишлоқ хўжалиги

маҳсулотларини республиканинг барча туманларидаги ўзининг тайёрлов идоралари (заготконторалари) орқали сабзавот, полиз, меваларни тайёрлаган, қайта ишлаган, МДХ ва бошқа хорижий давлатларга экспорт қилган.

«Ўзбекбирлашув» тизимидаги тайёрлов идоралари ҳар йили қишга картошка, пиёз, сабзи, ковун-тарвуз, узум, ковоқ ва бошқа маҳсулотларни ғамлаб, аҳоли учун арзон нархларда сотувга чиқарган. МДХ ва бошқа хорижий давлатлардан бир неча юзлаб вакиллар Тошкентга «Ўзбекбирлашув» ташкиллаштирган Халқаро Ярмаркага қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига шартнома – контрактация қилиш учун ҳар йили ноябрь ойида келган ва бу ўзини иқтисодий самарасини берган.

Эслашдан мақсад - бу соҳада етарли тажриба борлигини ҳамда тегишли кадрлар, муайян моддий техника базаси мавжудлигини қайд этишдир.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур масала Президент ёки Ҳукумат қарори билан давлат шерикчилик масаласини ҳал этиб тизимга вилоятларда, туманларда матлубот кооперациясининг замонавий тайёрлов идоралари ташкиллаштирилиб, амалий ёрдам ва тегишли ваколатлар берилса, ушбу масала тизимга тушиб ўз самарасини беради.

Шу билан бирга, Халқаро Кооператив Альянс ҳамда МДХ ва бошқа хорижий давлатлардаги матлубот кооперациялари уюшмалари билан иқтисодий, савдо-сотиқ, экспорт, инвестиция борасидаги ва бошқа кўплаб фойдали масалалар буйича ҳамкорлик эшиклари кенг очилган бўлар эди. Бундан давлатимизга ҳам, қишлоқ халқига ҳам фақат фойда бўларди.

#### **Хулоса ва таклифлар.**

Бу тизимни қайтадан янги асосда тиклаш бир қатор афзалликларга эга.

1. Ҳозирги пайтда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари (полиз, сабзавот, мевалар) ни тайёрлаш, ички ва ташқи бозор учун қайта ишлаш, экспорт қилиш тизимли равишда ташкил этилмаган. «Ўзбекбирлашув» тизими фаолиятини республика буйича йўлга қўйиш ва ривожлантириш бу соҳадаги ТИЗИМНИ барпо этади.

2. Республикаимизнинг 130 та сабзавот, полиз, мева етиштирувчи қишлоқ туманларининг ҳар бирида шу маҳсулотларни тайёрловчи, қайта ишловчи, экспорт қилувчи замонавий тайёрлов идораси (заготконтора) ва унинг қишлоқлардаги маҳаллаларда қабул қилувчи пунктлари ва кўчма қабул пунктлари автолавкалар ташкил топади. Бу туманларнинг ҳар биридаги замонавий тайёрлов идораларида ўрта ҳисобда 60 тадан, жами 10 мингга яқин янги иш ўринлари қишлоқларда яратилади. У ерда маҳсулотлар харидор учун саралаш, қадоқлаш ва жойлаш, ўраш ишлари олиб борилади.

4. Республикаимизда етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилиш, логистика хизматларини йўлга қўйиш, хорижий мамлакатларда савдо уйлари, яъни кичик омборлар ва савдо майдончалари очиш, кўшма корхоналар ташкил қилиш,

инвестициялар жалб этиш, илғор технологиялар олиб келиш, хорижий валюталар киримини ошириш имконияти пайдо булади.

5. Тизим тўғри ташкил этилса, республика ва маҳаллий бюджетларга солиқлар тўланади, банклардан кредитлар олиниб, улар фаолиятига ижобий таъсир кўрсатилади. Тизим ичида молиявий хизмат кўрсатувчи банк ва кредит, суғурта уюшмалари ташкил топади ҳамда тизимдаги ташкилотлар кредитланиб, молиявий ёрдам кўрсатилади. Бунинг учун пайчилар бадаллари жалб қилиниб, ички инвестиция ривожлантирилади.

6. Республика миқёсида рақобат муҳити кучаяди. Қишлоқ аҳолиси учун асосий озуқа таъминоти яхшиланиб, янада маданиятли хизмат кўрсатилади, қишлоқ инфратузилмаларини яхшиланишига ёрдам беради. Бориш қийин бўлган узок тоғли ва тоғ олди қишлоқларида, чўл ҳудудларида яшаётган аҳолини ва чўпонларни зарур бўлган озиқ-овқат ва ноозиқ-овқат товарлар билан доимий тарзда таъминлаш, айниқса, қиш мавсуми учун олдиндан захира лаш амалга оширилади.

7. Тайёрлов идоралари (заготконтора) қиш мавсумига аҳоли учун асосий захира манбаи бўлади яъни картошка, пиёз, сабзи, ва мева маҳсулотларини тайёрлайди, сақлайди. Қиш мавсумида улар билан аҳолини таъминлайди, бозорлардаги нархларни пасайишига ва стабил туришига доимий таъсир ўтказади.

8. «Ўзбекбирлашув» нинг вилоятлардаги қишлоқ туманларидаги матлубот кооперация тизими яъни тайёрлов идоралари (заготконторалар) қишлоқлардаги 4,5 млн. томорқа ер эгалари, 510 мингга яқин деҳқон хўжаликлари ва 34 мингга полиз, боғдорчиликка ихтисослашган фермер хўжаликлари томонидан етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини нобуд қилмасдан тайёрлашда, қайта ишлашда, экспорт қилишда, қишки мавсумга захира тайёрлашда ўз самарасини кўрсатиб, қишлоқ жойларидаги ижтимоий ҳолатни янада яхшиланишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшар эди. Қишлоқ аҳолисини ўз томорқасида етиштирган сабзавот, меваларини ўз маҳалласида қабул пунктларига қулай тарзда топшириши ва уларнинг даромадлари ошиши учун шароитлар яратилган бўлар эди.

9. Бу яратилган тизимга туман марказларидаги бозорларни боғлаш, яъни керакли озуқа маҳсулотларини – экспортга чиқарилган маҳсулотлар ҳисобига келтирилган озуқа моллари билан тўлдириш имконини беради.

#### **Фойдаланилган манбалар:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 14 июндаги "КООПЕРАЦИЯ ТЎҒРИСИДА" 295-ХП-сон Қонуни

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги "Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5303-сонли Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 январдаги "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020 — 2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни 2021 йилда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5009-сонли қарори

**Raxmonova Aziza Tolibovna** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktranti

## **XIZMATLAR SOHASIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI**

**Annotatsiya.** O`zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida xotin-qizlarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularda tadbirkorlik ko`nikmalarini shakillantirish, kasbga o`qitish va bandligini ta`minlashda Samarqand viloyati “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi”ning tutgan o`rni. Markazda tashkil etilgan qisqa muddatli motivatsion darslarni tashkil qilish tartiblari. Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo`lga qo`yish uchun imtiyozli kreditlar ajratish.

**Аннотация.** На современном этапе социально-экономического развития Узбекистана роль «Центра женского предпринимательства» Самаркандской области в улучшении экономического положения женщин, формировании у них предпринимательских навыков, обеспечении профессиональной подготовки и трудоустройства. Процедуры организации краткосрочных мотивационных занятий, организованных в центре. Предоставление льготных кредитов женщинам для открытия бизнеса.

**Annotation.** At the current stage of socio-economic development in Uzbekistan, the role of the "Women's Entrepreneurship Center" of Samarkand region in improving the economic situation of women, forming entrepreneurial skills in them, providing vocational training and employment. Procedures for organizing short-term motivational classes organized in the center. Provision of preferential loans to women for starting a business.

**Kalit so'zlar.** Tadbirkorlik, tashabbuskorlik, bandlik, biznes, kasb, korxonona, realizatsiya, motivatsiya, loiha, soliq, mahalla, g'oya, markaz.

**Key words.** Entrepreneurship, initiative, employment, business, profession, enterprise, implementation, motivation, project, tax, neighborhood, idea, center.

**Ключевые слова.** Предпринимательство, инициатива, занятость, бизнес, профессия, предприятие, реализация, мотивация, проект, налог, соседство, идея, центр.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son [Farmoni](#) ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand viloyati “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi”da bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7- martdagi “Xotin-qizlarinig mehnat huquqlari kafolatlarni yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4235 sonli qaroriga muvofiq Samarqand viloyati Xotin-qizlar qo‘mitasi ta’sisligida Samarqand viloyati “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi” tuzilib 2019 yil avgust oyida o‘z faoliyatini boshladi.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi:

- ❖ Xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;
- ❖ Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash;
- ❖ Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlardagi ishtirokini yanada faollashtirish;
- ❖ Xotin-qizlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat;

Markaz biznes-inkubator shaklida xotin-qizlarning tadbirkorlik, xunarmandchilik faoliyatini, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida tashkil etildi. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazining asosiy vazifalati:

- ✚ Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish;
- ✚ Ayollarning o‘z biznesini tashkil etish va yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, biznes g‘oyalarini tayyorlashda konsultativ yordam berish, shu jumladan, loyiha biznes-rejasini tayyorlash, soliqqa tortishning turli rejimlarini tanlash va qo‘llash, buxgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyasidan foydalanish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish;
- ✚ Tadbirkor ayollarga va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga o‘z biznesini tashkil etishda zarur maslahatlar berish va amaliy yordam ko‘rsatish, shu jumladan, ishonchli xamkorlarni topish, minitexnologiyalar va uskunalar sotib olishda ko‘maklashish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiya kilinishiga ko‘maklashish;
- ✚ Faoliyatini boshlayotgan tadbirkor xotin-qizlarga mahallalardagi bo‘sh turgan binolardan joy ajratilishiga ko‘maklashish.

Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi quyidagi yo‘nalishlarda qisqa muddatli mativatsion darslar tashkil qiladi.

1. Biznes ko`nikmalari
2. Tikuvchilik.
3. Pazandachilik.
4. Issiqxona ishi.
5. Guzallik saloni.
6. Asalarichilik.
7. Uy bog`chasi.
8. Parandachilik.
9. Chorvachilik.

**Maxsus o`qitish kurslarining maqsadi** - uzoq muddat bola parvarishlash ta`tilida bo`lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarga mehnat bozorida talab etilayotgan kasblar bo`yicha kasbiy bilim berish, qayta tayyorlash, beznes g`oyalarini ishlab chiqishda konsultativ yordam berish, shu jumladan, beznes-reja loihadini tayyotlash, soliqqa tortishning turli tartiblarini tanlash va qo`llash, buhgalteriya hisobini yuritish, zamonaviy axborot texnologiyalari inkoniyatlaridan foydalanish va boshqa yo`nalishlar bo`yicha o`z tadbirkorlik faoliyatini boshlab olishining nazariy va amaliy asoslarini o`rgatishdan iboratdir.

**O`quv kursining vazifalari:**

- Xotin-qizlar tanlagan yo`nalishi bo`yicha kasb ko`nikmalarini shakillantirish va kasbiy bilimlarni mustahkamlash;
- Tadbirkorlikni tivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini kafolatlash to`g`risidagi qonun va farmonlarni ya`ni tadbirkorlikning huquqiy tashkiliy asoslarini beris ;
- Zamonaviy sharoitda tadbirkorlikni tashkil etish, uni ro`yhatdan o`tkazish tartibi hamda kichik korxonalarining ishlash tartiblari bilan tanishtirish;
- Xususiy va kichik korxonalarni tashkil etish jarayonlari, biznesni amalga oshirish bosqichlarini ochib berish;

Samarqand viloyati “Xotin-qizlar tadbirkorlik markazining qisqa muddatli motivatsion darslarini tugatgan xotin-qizlarga markaz tomonidan Sertifikatlar topshiriladi. Ushbu Sertifikat orqali xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo`lga qo`yish uchun Xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg`armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so`mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta`minlash va kambag`allikni qisqartirish maqsadida mahallabay ishlash tizimining joriy etilganligi, mahallada istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va boshqa turdagi faoliyatni yo`lga qo`yishi uchun oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar olishda ko`mak berilmoqda. 2023 yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loihalarni moliyalashtirish uchun kamida 13 trillion so`m yo`naltirilishi rejalashtirilgan. Xotin-qizlar tadbirkorligi borasida yagona va yaxlit “Mahalla-Tuman (shahar)-Viloyat-Respublika” tizimi yo`lga qo`yilgan.

2022 yilda tadbirkorlikni o‘rganish ishtiyoqida bo‘lgan **388 ming 874 nafar** xotin-qizlar kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitildi. Buning uchun **12 mlrd so‘mdan ziyod** mablag‘ jalb etilgan. Qayd etilishicha, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida xotin-qizlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha **1 trillion so‘m** ajratilgan. Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro moliya institutlarining **\$300 mln** miqdoridagi moliyaviy resurslari jalb etilgan.

**Tavsiya va takliflar.** Mehnat bozori talablarini o‘rgangan holda tadbirkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarida xotin qizlarimizni kasblar bo‘yicha o‘qitish, kasbiy bilim berish va qayta tayyorlashda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dasturlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Mahallalarda istiqomat qiluvchi aholining oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish, jumladan, ularning hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqadan samarali foydalanish, kichik ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa turdagi faoliyatni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan kredit mablag‘larini naqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tusiqlarni olib tashlash kerak. “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta‘lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlarini muvoffaqiyatli tugatgan harakatchan, uddaburon xotin-qizlar uchun maxsus grantlar ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **III ШЎЪБА. МАМЛАКАТИМИЗДА РАҚАМЛИ ҲАМДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ОРҚАЛИ ХАЛҚАРО ВА ИЧКИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ**

**Тўрабеков Соҳибжон Шербой ўғли** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, таян докторант

#### **ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИ СОҲАСИНИНГ БОШҚА ТАРМОҚЛАРГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу тезисда туризм хизматлари соҳаси ривожланишининг бошқа тармоқларнинг бандлик кўрсаткичларига таъсири назарий жиҳатдан ёритилган. Туризм хизматлари соҳасининг бандлик кўрсаткичларига таъсири бўйича олимларнинг муносабати таҳлил қилиниб, муаллифнинг хулоса ва таклифлари ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар.** Туризм хизматлари, бандлик, мултипликатив самара, аҳоли бандлиги, туризда бандлик, мавсумийлик, туристик маҳсулотлар.

**Аннотация.** В данной диссертации теоретически объясняется влияние развития туристических услуг на показатели занятости других секторов. Проанализировано отношение ученых к влиянию туристических услуг на показатели занятости, разработаны авторские выводы и предложения.

**Ключевые слова.** Туристические услуги, занятость, эффект мультипликатора, занятость населения, занятость в туризме, сезонность, туристический продукт.

**Abstract.** In this thesis, the impact of the development of tourism services on the employment indicators of other sectors is theoretically explained. The attitude of scientists on the impact of tourism services on employment indicators was analyzed, and the author's conclusions and proposals were developed.

**Keywords.** Tourism services, employment, multiplier effect, population employment, employment in tourism, seasonality, tourist products.

Жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида мамлакатда меҳнат муносабаталарини шакллантириш, аҳоли турмуш даражаси ва бандлигини ошириш, янги иш ўринларини яратиш ҳамда ижтимоий соҳадаги бошқа муаммоларни ҳал қилишда туризм хизматлари соҳасининг ўрни беқиёс. Сабаби, ташриф буюрувчиларнинг саёҳати давомида хилма хил эҳтиёжларини қондириш учун хизматларнинг кенг доирасини шакллантириш талаб этилади. Бунда сайёҳларнинг ушбу хилма хил эҳтиёжларини қондириш даражаси мамлакатда яратилган туристик инфратузилма ва унинг фаолият самарадорлиги билан боғлиқ. Бир сўз билан айтганда, туризм хизматлари соҳасининг ривожланиши транспорт, меҳмонхона хўжалиги, фан ва маъданият, қурилиш, қишлоқ хўжалиги,

савдо, умумий овқатланиш ва бошқа соҳаларнинг ривожланиш кўрсаткичларига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатади. Соҳадаги бандлик даражаси ҳам бундан мустасно эмас.

Туризм хизматлари соҳасининг мамлакат иқтисодиётига бевосита таъсири унинг турли даражадаги бюджетларнинг даромадлар қисмига солиқлар орқали кўшаётган ҳиссаси, шунингдек, ялпи ички маҳсулотнинг шаклланиши билан ифодаланса, унинг ижтимоий соҳага бевосита таъсири соҳадаги меҳнат муносабатлари, меҳнат ресурсларининг ҳолати, бандлик даражаси ва янги иш ўринларининг сони билан белгиланади.

Туризм хизматлари соҳасининг иқтисодиётга билвосита таъсири унинг ижтимоий-иқтисодий табиатига кўра анча кенгрок бўлиб, унинг умумий таъсири бевосита иқтисодий ва ижтимоий таъсиридан анча юқори. Сабаби шундаки, туризм хизматлари орқали “харажат-даромад” занжири асосида туризмга боғлиқ тармоқларнинг ривожланиши рағбатлантирилади (мультипликатор эффекти). Яъни ташриф буюрувчининг ташриф буюрган жойида кўшимча харажатлари қанчалик кўп бўлса, туризм хизматлари соҳасининг иқтисодиётга билвосита (мультипликатив) таъсири шунча юқори бўлади.

Иқтисодчи олим И.Енджейчикнинг фикрича, туризмнинг иқтисодий моҳияти кўп жиҳатдан туризмда кенг қамровли бўлган мультипликатив самара таъсирига асосланади. Мультипликатив самара таъсири натижасида туризмдаги битта иш ўрни туризм билан ҳамкорлик тизими орқали боғланган бошқа соҳа ва секторларда етита янги иш ўрнини яратади<sup>76</sup>. Тадқиқотчилар В.И. Трухачёв, И.Н. Лякишева ва Г.А. Айрапетянлар туризм хизматлари соҳаси жуда кенг қамровли соҳалардан бири эканлигини, унинг бошқа тармоқларга билвосита таъсири туризм мультипликаторлари орқали ҳисобланишини таъкидлаган ва туризм мультипликаторига қуйидагича таъриф берган: “Туризм мультипликатори – бу асосий иқтисодий кўрсаткичлардан бири (масалан, ишлаб чиқариш, бандлик, даромад ва бошқалар) ўзгаришининг туристик харажатлар ўзгаришига нисбати”<sup>77</sup>. Демак, мутахассислар томонидан туризм хизматлари соҳасининг иқтисодий моҳияти ва унинг ўзига хос хусусиятлари борасида юқорида санаб ўтилган фикр мулоҳазалардан шундай хулоса қилиш мумкинки, “туризм мультипликатори” туризм хизматлари соҳасининг мамлакат иқтисодиётига ва иқтисодиёт тармоқларининг муайян макроиқтисодий кўрсаткичларига таъсирини баҳолашнинг энг тўғри усули сифатида белгилаш мумкин.

Туризм хизматлари соҳасининг иқтисодиётга ва унга алоқадор бошқа тармоқларнинг ривожланишига билвосита таъсири борасида дунёнинг кўплаб олимлари тадқиқот олиб боришган. Жумладан, хориж олимларидан Д.Кейнс, П.Самуэлсон, С.Фишер, Х.Рюттер, И.Криппендорф, В.Арчер,

<sup>76</sup> [http://www.tourlib.columb.net.ua/lib/books\\_tourism/bogolubov.htm](http://www.tourlib.columb.net.ua/lib/books_tourism/bogolubov.htm)

<sup>77</sup> Трухачев В.И. Экономика международного туризма: учебное пособие / В.И. Трухачев, И.Н. Лякишева, Г.А. Айрапетян. – м.: Кнорус, 2015. – 256 с.

С.Оуен, Х.Клемент, Д.Кларк, Р.Харрод, Г.Хамблер, Э.Харсенлар ўз тадқиқот ишларида иқтисодиётнинг турли тармоқлари учун умумлаштирилган мултипликаторни ҳисоблашнинг бир қанча моделлари ва усуллари таклиф қилган. Рус иқтисодчи олимлардан А. Квартальнов, В.Г. Гуляев, В.А. Морозов, Г.А. Папирян, М.В. Ефремова ва бошқалар эса туризм мултипликаторларини ҳисоблаш тартиб-тамоийллари борасида изланишлар олиб борган. Бироқ шунга қарамасдан умумий қабул қилинган, уйғун назария ва туристик мултипликаторни ҳисоблашнинг ягона моделлари ҳали ишлаб чиқилмаган.

Мултипликатив эффементи назарияси ишлаб чиқаришнинг бир соҳасида харажатларнинг ишлаб чиқаришни кенгайтиришга ва унинг бошқа соҳаларда бандликни оширишга рағбатлантирувчи таъсири мавжудлигини ифодалайди. Ялпи ҳудудий маҳсулот таркибидаги ушбу ўсиб боровчи комулятив эффементи мултипликатор эффементи деб аталади<sup>78</sup>. Туризмнинг ривожланиши иқтисодиётнинг кўпгина секторлари билан боғлиқ бўлганлиги сабабли унинг мултипликатив таъсири баҳолаш учун каттагина маълумотлар базаси талаб этилади. Шунингдек, мултипликатор қийматини баҳолашда нафақат методологияни танлаш, балки мултипликатор турини ҳам тўғри танлаш муҳимдир. Уларнинг ҳар бир тури ўзига хос специфик функцияни бажаради. Е.Б. Квашнинанинг фикрича, туризм мултипликаторларининг 3 та тури мавжуд, яъни “бандлик мултипликатори”, “харажат (даромад) мултипликатори” ва “ишлаб чиқариш мултипликатори” бўлиши мумкин. Учала мултипликатор моделлари доимий мутаносиб бўлсада, улар технологик тараққиётни ҳамда ишлаб чиқариш материалларининг нисбий нархлардаги ўзгаришларини ҳисобга олмайди. Бизнинг назаримизда, туризм мултипликаторларининг ҳар бир тури табиатан ўзаро боғлиқ бўлади. Мисол учун, дейлик, 10 миллион долларлик қўшимча саёҳат харажатлари мамлакат иқтисодиётига 30 миллион долларлик маҳсулот ишлаб чиқариш ва минтақага 9 миллион долларлик тўғридан-тўғри ва қўшимча даромад келтириши мумкин. Ушбу қўшимча саёҳат харажатлари 1200 та қўшимча иш ўрни, 300 та иккиламчи иш ўрнини яратиши мумкин деб олсак, ишлаб чиқариш мултипликатори 3, даромад мултипликатори 0,9 ва бандлик мултипликатори 1,25 (яъни 1500/1200) ёки иккинчи усулда ўлчанадиган бўлса, 1,5 (яъни саёҳат харажатларида 10 000 доллар учун 1,5 иш жойи) каби ҳисобланади<sup>79</sup>.

Туризмнинг мултипликатив таъсири баҳолаш унинг мамлакат иқтисодиётига таъсири аниқроқ ҳисоблаш, давлат бюджетини шакллантириш, тўлов балансини баҳолаш, экспорт-импорт операцияларини

<sup>78</sup> Немкович Е.Г. Мультипликатор туризма // Сб.научных статей по матер. междунар. научно-практич. конф.: «Роль туризма в модернизации экономики российских регионов», 8-10 июня 2010г. – Петрозаводск: карнц ран, 2010. – с. 97-100.

<sup>79</sup> А.С. Актымбаева, А.Ж. Сапиева. “Мультипликативный эффект развития туристско-рекреационной деятельности государственного национального природного парка «Буйратау». Сборник статей по материалам международной научно-практической конференции. 2017г.

оптималлаштириш, туризмни давлат томонидан кўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқиш, унинг инвестициявий стратегиясини ва туризм инфратузилмасини яхшилаш, туризм ресурсларидан фойдаланиш ва қайта ишлашда ушбу параметрларни ҳисобга олиш имконини беради. Бироқ, мавжуд миллий ҳисоблар тизими ва туризм статистикасининг имкониятлари ҳозирда бу параметрларни етарлича аниқлик билан аниқлаш имконини бермайди. Ҳолбуки, хорижда туризмни барқарор ривожлантириш моделини ишлаб чиқиш асосида мамлакатда туризмни ўрганиш, прогнозлаш ва ривожлантириш билан шуғулланувчи илмий-тадқиқот институтлари ташкил этилган.

2019 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепциясини амалга оширишнинг мақсадли кўрсаткичларида келтирилган маълумоларга кўра, 2025 йилга бориб Ўзбекистонга ташриф буюрадиган хорижий туристлар сони 11810 минг кишини, туризм хизматлари экспорти эса 2 170 млн АҚШ долларини ташкил этиши прогноз қилинган. Агар ушбу мақсадли кўрсаткичлар эришилса ҳамда туризмнинг бандлик мултипликатори камида  $M_6 = 0,002$  ҳолда ўзгаришсиз қолсин деб фараз қилсак, 2025 йилда Ўзбекистон меҳнат бозорида камида 4339 мингта янги иш ўринларини яратиш имконияти пайдо бўлади.

Юқоридаги фикр мулоҳазалардан хулоса шуки, Ўзбекистон шароитида туризм хизматлари соҳасини жадал ривожлантириш, бу орқали мамлакат миллий иқтисодиётининг барқарорлигини таъминлаш ҳамда мамлакатда бандлик даражасини ошириш учун қуйидаги чора тадбирларни амалга оширишга кучли эътибор қаратиш зарур:

1. Мамлакат аҳолисининг даромадларига мутаносиб равишда истеъмол харажатларини ҳам айниқса, хизматларга бўлган истеъмол харажатларини ошириб бориш лозим. Бунда туризм хизматларининг жозибадорлигини ошириш ва ташриф буюрувчиларнинг хилма хил эҳтиёжларини қондиришнинг самарали йўллари излаб топишга эътибор қаратиш зарур.

2. Мамлакатда туристик инфратузилма ҳамда туризм хизматларининг сифат ва самарадорлигини халқаро талаб даражасига етказиш, туризм хизматларининг янги турларини ташкил этиш ва оммалаштириш ва бу орқали туристик хизматлар экспортини ошириш, пировардда хар бир сайёҳга тўғри келадиган ўртача харажат суммасини ошириб бориш.

3. Мамлакатнинг бор туристик салоҳиятини юзага чиқариш ва бу орқали мамлакатнинг туристик жозибадорлигини яхшилаб, ташриф буюрувчи хорижий сайёҳлар сонини оширишга эришиш.

Ушбу тадбирларнинг амалга оширилиши туризм хизматлари соҳасининг Ўзбекистон миллий иқтисодиётидаги мавқеининг мустаҳкамланишига ҳамда меҳнат бозоридаги бандлик даражасини таъминлашда соҳа улушининг ошишига ижобий таъсир кўрсатади. Бунда туризм хизматлари соҳасининг ушбу йўналишдаги ишлар самарадорлигини

яхшилаб боришда келгусида амалга оширилиши зарур бўлган ишларни режалаштириш ҳамда туризм хизматлари соҳасини тавсифловчи прогноз кўрсаткичларини таҳлил ва тадқиқ қилиш мақсадга мувофиқ бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Turabekov Sokhibjon Sherboy ugli. Assessment of the role of the tourism sector in the formation of employment indicators in Uzbekistan // “Journal of Economics, Finance and Management Studies”. ISSN (print): 2644-0490, ISSN (online): 2644-0504 Volume 6 Issue 3 March 2023. Page No. 1168-1174. DOI: 10.47191/jefms/v6-i3-18, Impact Factor: 7.144

2. Turabekov Sokhibjon Sherboy ugli. Organizational and Economic Problems of the Development of the Tourist Industry of Uzbekistan// “International journal of multidisciplinary research and analysis”. ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875. Volume 06 Issue 04 April 2023.

3. Mukhammedov M.M., Turabekov S.Sh. Prospects for the organizational and economic development of the tourism services sector in Uzbekistan // “American journal of economics and business management”. ISSN: 2576-5973 Vol. 6, No. 3, 2023.

4. Трухачев В.И. Экономика международного туризма: учебное пособие / В.И. Трухачев, И.Н. Лякишева, Г.А. Айрапетян. – м.: Кнорус, 2015. – 256 с.

5. Немкович Е.Г. Мультипликатор туризма // Сб.научных статей по матер. междунар. научно-практич. конф.:«Роль туризма в модернизации экономики российских регионов», 8-10 июня 2010г. – Петрозаводск: карнц ран, 2010. – с. 97-100.

6. А.С. АКТЫМБАЕВА, А.Ж. САПИЕВА. “Мультипликативный эффект развития туристско-рекреационной деятельности государственного национального природного парка «Буйратау». Сборник статей по материалам международной научно-практической конференции. 2017г.

7. [http://www.tourlib.columb.net.ua/lib/books\\_tourism/bogolubov.htm](http://www.tourlib.columb.net.ua/lib/books_tourism/bogolubov.htm)

**Hamidov Saidjon Komilovich** - Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

## **TURISTIK DESTINATSIYALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada mezo darajada turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligini bugungi kunda alohida, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hamda alohida faoliyat natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda amalga oshirish bo‘yicha uslubiyotlar asosidagi turistik

destinatsiyalar raqobatbardoshligining asosiy elementlari ishlab chiqildi va ushbu elementlar asosida turistik destinatsiyalar rivojlanishiga ta'sir samarasi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** туризм, туризм соҳаси, туристик дестинациялар, рақобатбардошлик, тармоқ ва соҳалар, ресурс компонентлар.

**Annotatsiya.** В статье разработаны основные элементы конкурентоспособности туристических дестинаций на основе методологий реализации эффективности управления конкурентоспособностью туристических дестинаций на мезоуровне с использованием системы показателей, которые сегодня представляют результаты отдельных, несвязанных и единичных видов деятельности, и на основе этих элементов рассчитан эффект влияния о развитии туристических направлений.

**Ключевые слова:** туризм, туристическая индустрия, туристические дестинации, конкурентоспособность, сеть и отрасли, ресурсные компоненты.

**Annotation.** The article developed the main elements of the competitiveness of tourist destinations based on methodologies for the implementation of the effectiveness of managing the competitiveness of tourist destinations at the meso level using a system of indicators that today represent the results of separate, unrelated and individual activities, and based on these elements, the effect of influence on the development of tourist destinations.

**Keywords** tourism, tourism industry, tourist destinations, competitiveness, network and Industries, Resource components.

Turistik destinatsiyalarning umumiy raqobatbardoshligi hamda destinatsiya hududida faoliyat olib boruvchi korxonalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan iste'mol talabining pasayishi sifat va narxning bevosita nomutanosiblikda ekanligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda raqobat destinatsiyalarda faoliyat olib boruvchi korxonalarining faoliyat samaradorligini rag'batlantirish, tegishli sifat ko'rsatkichiga ega bo'lgan xizmatlar narxlarining optimal nisbatini hamda iste'mol talabini tartibga soluvchi vositaga aylanadi. Turistik destinatsiyada yaratilayotgan xizmatlar (mahsulotlar) raqobatbardoshligining bozorda raqobat o'rnini saqlab qolish va mahsulotni sotishda muvaffaqiyat qozonishida iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat, o'rinlar soni bilan bog'liq ayrim xususiyatlari integratsiyasi muhim sanaladi[2].

Bugungi kunda turistik destinatsiyalar va ular hududida joylashgan turistik korxonalar faoliyatida, bir vaqtning o'zida ham destinatsiyalararo, ham destinatsiya ichida iste'molchi uchun raqobat avj olmoqda va raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayonini ko'proq darajada shakllantiruvchi yorqin va ifodali raqobat ustunliklarini shakllantirish vazifasi ilgari surilmoqda. Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash va raqobat nazariyasini tahlil qilish ushbu destinatsiyalarning raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi quyidagi muhim taktik holatlarni aniqlash imkonini beradi:

turistik destinatsiyani tavsiflovchi taktik holat;

turistik destinatsiyada yaratilgan xizmatlarni tavsiflovchi taktik holat;


destinatsiya hududida mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini tavsiflovchi taktik holat;

turistik destinatsiya uchun umumiy marketing va sotish siyosatini tavsiflovchi taktik holat.

Shu bilan bog‘liq ravishda raqobatbardoshlikni ta‘minlash yo‘llari va usullarini qo‘shimcha tadqiq etish, monitoring vositalarini aniqlashtirish, raqobatbardoshlikni baholash va monitoring qilish usullarini o‘rganish zarurati tug‘iladi.

Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash turistik xizmatlar bozorida real vaziyatni vujudga keltirish hamda tegishli dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitlarda raqobatbardoshlikni baholashning ko‘plab usullari va metodologiyalari mavjudligiga qaramay, turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligi darajasini tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan to‘laqonli metodologiya mavjud emas. Hozirgi kunda raqobatbardoshlikni baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda aniq hisoblash usuli asosidagi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi. Bu usullarda axborot olish manbalari va ko‘rinishlarining turli-tumanligi holatida raqobatbardoshlik darajasi bo‘yicha xilma-xil shakldagi ma‘lumotlar tahliliga asoslanadi[3].

Nazariy tadqiqotlar asosida turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini tavsiflovchi parametrlar uchta asosiy guruh: turistik destinatsiya xizmatlarining jozibadorligi bo‘yicha raqobatbardoshligi, turistik destinatsiyalardagi korxonalar faoliyatining iqtisodiy natijasi, ya‘ni faoliyat yuritishning iqtisodiy samaradorligi, turistik destinatsiyada yaratilgan turmahsulotni sotish samaradorligiga ajratib olindi (1-rasm).



**1-rasm. Turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligining asosiy elementlari<sup>80</sup>**

Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligini baholashning turli uslubiyotlarida raqobatbardoshlik holatining miqdoriy va sifat jihatlarini ifodalovchi ko'plab ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarishni baholash jarayonida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini iqtisodiy, ijtimoiy hamda tashkiliy ko'rsatkichlar bo'limlariga ajratgan holda shakllantirish tavsiya etiladi. Ushbu

<sup>80</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo‘limlarga umumlashtirilgan guruh ko‘rsatkichlari o‘zida destinatsiyalarning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligi, destinatsiyaning xavfsizligi, institutsional, infratuzilmaviy, innovatsion va investitsion rivojlanish holatini ifodalaydi[4].

Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini mezodarajada boshqarishni 3 ta yo‘nalishda olib borish destinatsiyalarning mavjud raqobat ustunliklarini rivojlantirish hamda bir-biridan farqlanuvchi holatlardan kelib chiqib, destinatsiyalarning raqobat ustunligini ta‘minlaydi:

1. Turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini boshqarish ko‘rsatkichlari va mezonlari tarkibi yo‘nalishi.

2. Turistik destinatsiyalarning tashkiliy tuzilishi yo‘nalishida.

3. Turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarish yo‘nalishida.

Mezo darajada turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligini bugungi kunda alohida, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hamda alohida faoliyat natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda amalga oshirish bo‘yicha uslubiyotlar mavjud.

Ayrim tadqiqotlarda turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini boshqarish samaradorligini baholash bo‘yicha xususiy holatlar uchun uslubiyot taklif etilgan bo‘lsada, ushbu tadqiqotlar turistik destinatsiyalarning raqobatbardoshligini baholash uslubiyoti mezo darajadagi destinatsiyalar uchun ishlab chiqilgan[1].

Biroq alohida hududlardagi mavjud turistik destinatsiyalardagi raqobatbardoshlikni boshqarish samaradorligini baholash bo‘yicha alohida uslubiyot mavjud emasligini hisobga olgan holda tadqiqotni amalga oshirish jarayonida mikro darajadagi destinatsiyalarda raqobatbardoshlikni boshqarish samaradorligini baholash bo‘yicha umumiy foydalanish uchun uslubiyot takomillashtirildi[5,6].

Raqobatbardoshlikni baholash bo‘yicha mavjud yondashuvlar tahlili asosida tadqiqot jarayonida turistik destinatsiya faoliyati xususiyatlarini hisobga olish va bozorda turistik destinatsiya korxonalarini holatini baholashda amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qator uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda destinatsiya va uning hududida faoliyat ko‘rsatuvchi turistik korxonalarining alohida raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari mazmunini o‘zida ifodalovchi integral ko‘rsatkichni aniqlash uslubiyotning asosiy belgisi hisoblanadi[7].

Turistik destinatsiyalar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tavsiyalardan foydalanish murakkab ta’sirlar sharoiti uchun amalga oshirilsa, erishish mumkin bo‘lgan samarani olish imkonini bermaydi. Bu esa, turistik destinatsiyalar faoliyatidagi raqobatbardoshlikni ta‘minlash bo‘yicha asosiy uslubiy qoidalarni o‘z ichiga olgan mexanizmni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqobatbardoshlikni ta‘minlash bilan bog‘liq samaradorlik kategoriyasini o‘rganish, raqobatbardoshlikni boshqarish bilan bog‘liq boshqaruv harakatlari raqobatbardoshlikni ta‘minlash samaradorligini ikki holatda: hisoblash maqsadlari nuqtai nazaridan va baholash turlari asosida raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun boshqaruv qarorini tayyorlash, uning natijasini bashorat qilish

va raqobatbardoshlikni ta'minlash samaradorligini yanada to'liq o'rganish holatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Дудуцкий Д.Ю. Закономерности развития туристской дестинации и пути повышения её конкурентоспособности (на примере Пермского края). Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –Сочи: НОУ ВПО, 2015. –С. 13-15.
2. Mirzaev A. T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2020. – pp.131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>
3. Мирзаев А. Т. Совершенствование системы электронного бронирования как часть цифрования управленческой деятельности туристско-рекреационных предприятий // Бюллетень науки и практики. 2020.Т.6.№8. С.165-172. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/57/14>
4. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг // Региональная экономика: теория и практика. – 2019. – Т. 17, № 5. – С. 990 – 1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>
5. Мирзаев А. Т. Совершенствование интегральной оценки механизма рекреационно-туристических объектов // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №2. С. 127-134. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/39/17>.
6. Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация хизматларини бошқариш жараёнига омиллар таъсирини баҳолаш. Хитойда саноатлашувни жадаллаштиришда кластерлаш модели хусусиятлари. Бизнес-Daily медиа. - 2020, №6. -57-61-б.
7. Мирзаев А.Т. Туристик-рекреация кластерларини бошқаришда инновацион салоҳиятнинг ресурс компонентини баҳолаш услугиёти // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. -2020, №4. 4/2020 (№ 00048). 390-401 б. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>.

**Ахроров Зариф Орипович** – и.о. доцент, Самаркандский институт экономики и сервиса

**Куйланова Зебинисо Мусирмановна** – магистрант, Самаркандский институт экономики и сервиса

### **НАЛОГОВОЕ СТИМУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИННОВАЦИОННО РАЗВИВАЮЩИХСЯ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Аннотация.** В статье обоснована значимость налогового стимулирования инновационного развития предприятий. Показано, что выбор конкретных форм

налогового стимулирования можно осуществлять в зависимости от намеченной цели и направления, стимулирующего воздействие, категории плательщика, осуществляемой им деятельности. Показано, что стимулирование инновационной деятельности должно быть направлено на модернизацию и обновление основных фондов, повышение их конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** инновационная деятельность, инфраструктура, налог, инновация, налоговое стимулирование, конкурентоспособность, модернизация.

**Annotatsiya.** Maqolada korxonalarning innovatsion rivojlanishi uchun soliq imtiyozlarining ahamiyati asoslab berilgan. Soliq imtiyozlarining aniq shakllarini tanlash ko'zlangan maqsad va yo'nalishga, rag'batlantiruvchi ta'sirga, to'lovchining toifasiga va u tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga qarab amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, innovatsiyalarni rag'batlantirish asosiy fondlarni modernizatsiya va yangilashga, ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion faoliyat, infratuzilma, soliq, innovatsiya, soliq imtiyozlari, raqobatbardoshlik, modernizatsiya.

**Abstract.** The article substantiates the importance of tax incentives for innovative development of enterprises. It is shown that the choice of specific forms of tax incentives can be carried out depending on the intended purpose and direction, stimulating effect, category of the payer, his activities. It is shown that the stimulation of innovation should be aimed at modernizing and updating fixed assets, increasing their competitiveness.

**Key words:** innovation, infrastructure, tax, innovation, tax incentives, competitiveness, modernization.

Большое значение в осуществлении перехода на современную модель экономического роста имеет уровень инновационной активности. Высокая инновационная активность экономики обеспечивается ведущей ролью государства в стимулировании и инфраструктурной поддержке развития науки и инноваций, в определении национальных приоритетов и активным воздействием государства на процесс инновационного развития через механизмы государственного регулирования экономики. Государственный контроль (поддержка) инновационной деятельности осуществляется при помощи прямых и косвенных методов.

К прямым методам экономического контроля относятся инвестирование в виде финансирования, кредитования, лизинга, фондовых операций, планирование и программирование, а также государственное предпринимательство и государственные заказы. Существуют три основных вида косвенных методов экономического контроля: налоговое стимулирование, стимулирование через амортизационную политику, прямые бюджетные дотации компаниям, осваивающим новые виды продукции. Косвенные методы являются более эффективными и значимыми, но наиболее продуктивным является налоговое стимулирование [1].

При этом налоги служат инструментом поддержки и стимулирования развития предприятий. Налогообложение – один из ключевых механизмов стимулирования деловой и инновационной активности хозяйствующих субъектов. Посредством предоставления льгот, исключений, преференций осуществляется стимулирующая функция налогов, которая направлена на развитие определенных социально-экономических процессов.

Налоговое стимулирование предприятий используют все страны мира. Безусловно, каждая из них вырабатывает свою стратегию инновационного развития и использует свои инструменты и сочетание механизмов налогового стимулирования в инновационной сфере, которое наиболее эффективно для нее, и определяется существующими экономическими и политическими условиями, приоритетами экономического развития.

Налоговые меры, направленные на стимулирование развития инновационной деятельности предприятий, можно подразделить на общие и дифференцированные. Общие меры направлены на создание благоприятного инновационного климата в целом. Дифференцированные предназначены для стимулирования предприятий. Преимущество дифференцированных мер заключается в их большей прозрачности, а значит, налоговое бремя должно иметь положительные эффекты как для сильных, так и для слабых предприятий.

Выбор конкретных форм налогового стимулирования можно осуществлять в зависимости от намеченной цели и направления, стимулирующего воздействие, категории плательщика, осуществляемой им деятельности. А значит, использование различных финансовых, в том числе налоговых, инструментов для стимулирования развития инновационной деятельности предприятий. Основным направлением реформирования налоговых систем в рамках налоговой концепции стало то, что предпочтение отдавалось низким ставкам налогов с минимальным числом налоговых льгот, чем высоким ставкам с множеством исключений из общего правила.

Ключевым элементом отечественной модели предоставления льгот должно являться снижение налога на прибыль (доход) предприятий. Снижение налога на прибыль, как правило, должно быть увязано с достигнутым предприятием уровнем инновационной активности. Ибо максимальные льготы должны получать предприятия, обеспечившие успешную коммерциализацию результатов НИОКР и получившие при этом достаточную прибыль. Для прочих эти льготы лишь отчасти компенсируют предпринимательский риск.

Среди всех стимулов модернизации экономики именно налоговые инструменты оказываются самыми существенными, так как:

- налоговое стимулирование является косвенным методом регулирования, значение которого проявляется прежде всего тем, что для стимулирования

инновационной деятельности требуется меньше бюджетных затрат и может быть охвачен гораздо больший круг инновационных субъектов [2];

- многообразие форм, методов и объектов налогообложения делает налоговое стимулирование одним из наиболее гибких способов привлечения дополнительных ресурсов для активизации инновационной деятельности предприятий.

При разработке более инновационной системы налогового стимулирования инновационной деятельности предприятий нужно учитывать следующее:

- приоритетом налоговых льгот должна служить только инновационная деятельность;

- налоговое стимулирование следует строить в соответствии грамотно построенной налоговой политики государства;

- поэтапный переход к новым формам налогового стимулирования должен обеспечивать последовательное инновационное развитие предприятий.

В целях налогового стимулирования необходимо направить налоговые меры на инновационную деятельность предприятий, то есть инструменты государственной налоговой поддержки должны создавать благоприятные условия для функционирования налогоплательщикам, прежде всего, инновационной и инвестиционной деятельности, деятельность которых будет направлена на модернизацию и обновление основных фондов, повышение их конкурентоспособности.

#### **Литература:**

1. Гугелев, А. В. Инновационный менеджмент: учебник / А. В. Гугелев. — М.: Дашков и К, 2008. — 336 с.
2. Основы инновационного менеджмента / Под ред. Завлина П.Н., Казанцева А.К., Миндели Л.Э.- М.: Экономика, 2006.
3. “A Study on R&D Tax Incentives” Final Report. 28 November 2014. [www.cpb.nl](http://www.cpb.nl).

**Хомидов Қаххорали Қурбонали ўғли** - Фарғона давлат университети тадқиқотчиси

### **ТУРИСТИК МАЖМУАЛАРНИ БОШҚАРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ**

**Аннотация.** Ушбу мақолада худудларда туризм соҳасини жадал ривожлантириш учун худуд салоҳиятидан самарали фойдаланиш учун туристик мажмуалар фаолиятини шакиллантиришнинг инновацион омиллари атрофлича ўрганиб чиқилган.

**Калит сўзлар.** Инновация, худуд, салоҳият, туризм, туристик мажмуа, туристик кластер.

**Аннотация.** В данной статье подробно изучаются инновационные факторы формирования деятельности туристских комплексов с целью эффективного использования потенциала территории для быстрого развития туризма в регионах.

**Ключевые слова.** Инновации, территория, потенциал, туризм, туристический комплекс, туристический кластер.

**Annotation.** In this article, the innovative factors of shaping the activities of tourist complexes in order to effectively use the potential of the territory for the rapid development of tourism in the regions are studied in detail.

**Keywords.** Innovation, territory, potential, tourism, tourist complex, tourist cluster.

**Тадқиқот мавзусининг долзарблиги.** Глобаллашув шароитида мамлакатлар ва минтақаларни, алоҳида саноат ва тармоқларни ривожлантириш миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишнинг устувор вазифасидир. Иқтисодиётни ташкил этишнинг тармоқ ва режалаштирилган тамойиллари ҳал қилувчи аҳамиятга эга, шу билан бирга, миллий репродуктив тизим доирасида мамлакат ёки унинг минтақаси ривожланишига фаол ва ҳар томонлама таъсир кўрсатадиган инновацион ташкилий-иқтисодий механизмлар ва шакллар хўжалик юритувчи субъектларнинг инновацион фаоллиги ва қабул қилиш қобилиятини ошириш янада долзарб бўлиб бормоқда. Айнан туризмни ривожлантиришда туристик мажмуалар фаолиятини шакллантириш ёндашуви бугунги кунда бундай талабларга тўлиқ жавоб беради, бундан ташқари, мамлакат ва минтақавий даражада туристик мажмуаларни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича турли тадбирларни мослашувчан молиялаштиришни таъминлаш механизмлари тизими аллақачон шаклланган.

Шунга қарамай, бир қатор тармоқлар ва аниқ корхоналарнинг ишлаш амалиёти шуни кўрсатадики, туристик мажмуаларни шакллантириш ташаббуслари иқтисодий фаолиятга катта қийинчиликлар билан киритилади. Иқтисодиётнинг туризм соҳасида эса мажмуани ривожлантириш жиддий лойиҳалар мавжудлиги ва ушбу масалаларнинг муҳим назарий ва услубий ёндашувлар зарурлигини ифодалайди. Бу биринчи навбатда, мажмуа тузилмаларини режалаштириш ва шакллантиришда минтақавий ҳокимият органлари, туристик корхоналар раҳбарлари, компанияларнинг топменежерлари замонавий кластерлаш тенденцияларини белгилайдиган ташқи ва ички муҳитнинг барча шартлари ва омилларини ҳисобга олиш билан боғлиқ.

**Мавзуга оид адабиётлар шарҳи.** Рус иқтисодчиси Ю. В. Громйко иқтисодиётнинг Кластер ривожлантириш омилларини аниқлаш Кластер қурилишида сценарийларни ажратиш асосида сценарий ёндашувни фойдаланади - техник ва амалга ошириш, ташкилий ва ишлаб чиқариш, маркетинг, инвестиция, ходимлар ва қисқача бўлади ташкилий

институционал, куйида биз муаллиф талқинида ва туризм соҳасига нисбатан кўриб чиқамиз[1].

Н. А. Пелевина, сайёҳлик мажмуалари ҳақида гапирганда, бундай мажмуа одатдаги вертикал текисликда ётмайдиган, аммо маълум бир горизонтал маконни, шу жумладан турли хил саноат долзарблигини қамраб оладиган йирик мустақил тармоқлараро ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш мажмуаси деб ҳисоблайди. Туристтик мажмуа-бу туристик иқтисодиётнинг ўзаро боғлиқ тармоқлари ва ишлаб чиқаришлари тўплами бўлиб, уларнинг ягона функционал вазифаси туристик маҳсулотлар ва хизматлар истеъмолчиларининг еhtiёжларини қондириш учун мамлакатда ва унинг алоҳида минтақаларида мавжуд бўлган туристик ресурслардан ва туристик инфратузилмадан оқилона фойдаланиш билан боғлиқ фаолият деб ҳисобланиши мумкин[2].

**Муаммони ҳал қилиш йўллари.** Туристтик мажмуаларни ривожлантиришнинг инновационлигини аниқлаш ва унинг тегишли омилларини таъкидлаш учун туризм бизнесида қўлланиладиган инновацияларнинг энг муҳим турларини аниқлаш керак:

1. **Инновация-маҳсулот** - бу ўз минтақасидаги рақобатчилардан ҳам, бошқа минтақалар ва мамлакатларнинг рақобатдош ташкилотларидан ҳам мавжуд бўлмаган инновацион бозор таклифини шакллантирадиган янги туристик маҳсулотни шакллантириш ва кейинчалик амалга ошириш. Инновация-маҳсулот - бу туристик мажмуаларнинг мавжуд бўлишининг биринчи босқичида ривожланишининг энг тез-тез учрайдиган вариантдир, чунки бу вазиятда инновациялар туристик маҳсулотни шакллантириш учун инновацион ишланмалар ва технологиялардан фойдаланишдан иборат эмас, балки таклиф этилаётган турнинг бозор янгилиги.

2. **Инновация-жараён** - янги техника ва технологияларни жорий этиш ва ундан кейинги фойдаланиш, туристик ташкилотлар фаолиятини автоматлаштириш асосида туристик хизмат кўрсатиш жараёнларини такомиллаштириш. Бу ҳолда жараён инновациялари кўпинча маҳсулот инновациялари билан бирлаштирилади, шу билан бирга туристик маҳсулотлар ва хизматларни бозорга татбиқ этишнинг жозибадорлиги ва самарадорлигини оширади. Бундай янгиликларнинг классик намунаси туроператорлар ва сайёҳлик агентликлари томонидан замонавий автоматлаштирилган бронлаш тизимларидан фойдаланишдир.

3. **Бошқарув инновациялари** - умуман туризм соҳасида ҳам, алоҳида туристик ташкилотда ҳам бошқарув органлари ва усулларининг инновацион тизимини шакллантириш. Бундай бошқарув инновациялари кўпинча қуйидагилар деб аталади:

- а) ички корпоратив бошқарув тизимлари ва стандартлари;
- б) корпорациялараро ўзаро муносабатларнинг янги турлари;
- в) ўзини ўзи бошқариш институтини жорий этиш;

д) туристик компания фаолиятини ташкил этишнинг янги йўналишлари ва усулларини ишлаб чиқиш;

е) туристик компаниянинг ривожланиши бизнесни ривожлантириш стратегиялари ва маркетинг стратегиялари тўплами;

ф) туризм соҳаси ходимларига тегишли касбий талабларни қабул қилиш.

**4. Мижозларга йўналтирилган инновациялар** - мижозлар эҳтиёжларини қондириш, истеъмолчиларнинг содиқлигини шакллантириш, истеъмолчилар олдида туристик ташкилот имиджини яхшилаш, истеъмолчилар ва туристик ташкилотлар ўртасида янги алоқа каналларини ривожлантириш, индивидуал туристик хизматларни кўрсатишга қаратилган бизнесни ташкил этиш усулларини танлаш. Йирик туристик ташкилотлар мижозларга чегирмалар ва индивидуал туристик хизматлар кўрсатилишини таъминлаш учун ўз мижозлари тўғрисида электрон маълумотлар базаларини яратадилар.

**5. Маркетинг инновациялари** - туристик ташкилотда қўлланиладиган маркетинг стратегиялари тўпламини ишлаб чиқиш, бу куйидагиларни ўз ичига олади:

а) бозорнинг асосий элементлари - талаб ва таклиф билан ишлаш;

б) ихтисослаштирилган тизимлар ва савдо каналларини шакллантириш;

в) янги туристик маҳсулотни шакллантириш, уни тарғиб қилиш йўналиши бўйича фаол фаолият;

д) тегишли нарх стратегиясини ишлаб чиқиш ва пудратчилар ва доимий мижозлар учун турли хил чегирмалар ва имтиёзлар тизимидан фойдаланган ҳолда тактика.

**6. Логистика инновациялари** - сайёҳларни етказиб бериш, тарқатиш, ҳаракатланишни ташкил этиш бўйича янги стратегик қарорлар қабул қилишга қаратилган. Бундай янгиликлар туристик ташкилотлар ва туризм марказларида интеграциялашган ахборот тизимлари билан боғланган уланиш рейсларидан фойдаланган ҳолда мураккаб ҳаво транспорти марказлари орқали сайёҳлар ҳаракати бўйича тубдан янги ечимларни ишлаб чиқишни ўз ичига олади. Сўнгги инновацион тенденциялар ахборот ва интеллектуал логистика, яъни виртуал маконда ахборот оқимларининг ҳаракати билан боғлиқ.

**7. Институционал инновациялар** - туризм соҳасини, шунингдек турдош тармоқларни давлат ва бошқа тартибга солишнинг тизими ва меъёрий қоидаларини шакллантиришга қаратилган. Бундай янгиликлар алоқа ўзаро таъсирининг уч тури асосида шаклланади:

а) давлат-хусусий шериклик энг мақбул ва самарали вариант;

б) "маъмурият – тадбиркорлар - таълим ва фан вакиллари – маҳаллий ҳамжамият" бўйлаб симбиотик ўзаро таъсир;

с) тадбиркорлар ва ҳокимият манфаатларининг келишмовчилиги билан боғлиқ қарама - қарши ва синовга қарши ўзаро таъсир.

**8. Ресурс инновациялари** - ҳар хил турдаги ресурслардан (табiiй, тарихий ва маданий, инфратузилма, молиявий, моддий, кадрлар, бошқарув ва бошқалар) фойдаланиш билан боғлиқ. Кейинчалик янги туристик маҳсулотлар ва хизматларни шакллантириш ва тарғиб қилиш, ихтисослаштирилган туристик ва рекреацион ҳудудларни лойиҳалаш, яратиш ва ривожлантириш, туристик ресурсларнинг хавфсизлигини таъминлаш учун.

**9. Ташкилий ва иқтисодий инновациялар** - ихтисослаштирилган туристик жойлар доирасида туристик бизнесни ташкил этиш ва олиб боришнинг янги ҳудудий ва экстерриториал шакллари яратишга қаратилган. Ташкилий ва иқтисодий янгиликлар инновационизация, концентрация, ихтисослашув, хизмат кўрсатиш ва туризм ишлаб чиқаришни мувофиқлаштириш ва ҳамкорлик қилиш орқали рақобатдош устунликларга эришишга имкон беради. Бинобарин, туризмдаги ҳар қандай кластер лойиҳалари аллақачон мавжуд ўз моҳиятига кўра инновацион, чунки улар ташкилий, иқтисодий ва бошқарув янгиликларидир.

**Илмий асосланган таклиф ва тавсиялар.** Агар биз туризм соҳасини туристик мажмуалар ривожланишининг инновацион таркибий қисмига алоҳида тўхталадиган бўлсак, бунинг учун энг муҳим бешта омилни ажратиш ҳақида ишонч билан гапиришимиз мумкин:

1) ихтисослаштирилган инфратузилманинг мавжудлиги – туризм соҳасида илмий-тадқиқот ишлари билан шуғулланадиган таълим муассасалари ва ташкилотлари;

2) ташкил этилган тадбиркорлик "менталитети", биринчи навбатда, инновацион фаолият ва инновацияларни идрок этишга очиклик нуқтаи назаридан;

3) бозорда шаклланган ва сотиладиган туристик маҳсулотлар ва хизматларнинг табиати, уларни ишлаб чиқариш ва тузилишидаги инновацион компонентнинг улуши;

4) географик (ижтимоий-географик, геосиёсий, инфратузилма-географик, транспорт-географик, иқтисодий-географик) ҳолат омили;

5) мамлакат ва минтақада инновацияларга йўналтирилган тармоқлар ва тармоқларнинг умумий ривожланиш даражаси ва унинг туризм фаолиятига.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Громыко, Ю. В. Что такое кластеры и как их создавать? [Электронный ре- сурс] / Ю. В. Громыко // Альманах «Восток». – 2007. – № 1(42). – Режим доступа: [http://www.situation.ru/app/j\\_jn\\_43.htm](http://www.situation.ru/app/j_jn_43.htm)

2. Пелевина, Н. А. Кластерный подход к обеспечению развития туристско- рекреационной сферы региона / Н. А. Пелевина // Известия

Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. – 2008. – № 86. – С. 340-344.

3. Khomidov, K. (2023). Characteristics of improving organizational and economic mechanisms of management in higher education institutions. Publishing House “Baltija Publishing”.

4. Xomidov, Q. (2019). Кластер-действенный инструмент конкурентоспособности региона. Scienceweb academic papers collection.

5. Хомидов, К. (2022). Повышение доходов производителей.

6. Юлдашева, Г. А., & Хамидов, К. (2022). Процессы модернизации системы бухгалтерского учета на предприятиях. *Gospodarka i Innowacje*, 30, 230-231.

7. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In *Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии* (pp. 54-56).

8. Хомидов, К. К. (2019). Socioeconomic characteristics of employment in Uzbekistan. *Инновационная наука*, (7-8), 64-66.

9. Xomidov, Q. (2020). Iqtisodiyotni investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.

10. Xomidov, Q. (2019). Aholi bandligi ta'minlash-iqtisodiy munosabatlarning muhim omili. Scienceweb academic papers collection.

11. Xomidov, Q. (2019). Iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.

12. Akhmedova, N. K., & ugli Xomidov, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 34-38.

13. Xomidov, K. K. U. (2022). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Management in Food Industry Enterprises in Innovative Development of the Economy. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 50-55.

14. Xomidov, Q. (2019). Цифровая экономика-путь к совершенству. Scienceweb academic papers collection.

15. Xomidov, Q. (2018). Ускоренно развивающиеся отрасли экономики Республики Узбекистан. Scienceweb academic papers collection.

16. Xomidov, K. K. U. (2022). Issues of ensuring food security in Uzbekistan. *Scientific Impulse*, 1(4), 1529-1534.

17. Ўғли, Х. Қ. Қ. (2022). Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлиги таъминлаш масалалари. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(13), 10-1

**А.Д.Равшанов** - ҚарМИИ доценти,  
**М.Т.Ибодова** - ҚарДУ магистранти

## МАМЛАКАТДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

**Аннотация:** Ушбу мақолада туризм соҳасида инновацион технологияларни ривожлантиришда мавжуд имкониятлар таҳлил қилинган. Жумладан, потенциал истеъмолчиларнинг интернет коммуникация воситаларидан фойдаланиш даражасини ўрганилган, рақамли коммуникацияларни жорий қилиш бўйича тадқиқот натижалари асосида таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** туризм, ички ва ташқи туризм, рақобатбардошлик, инновация, инвестиция, стратегия.

**Аннотация:** В статье анализируются существующие возможности в развитии инновационных технологий в сфере туризма. В частности, изучен уровень использования интернет-коммуникаций потенциальными потребителями, и по результатам исследования разработаны предложения по внедрению цифровых коммуникаций.

**Ключевые слова:** туризм, внутренний и внешний туризм, конкурентоспособность, инновации, инвестиции, стратегия.

**Abstract:** The article analyzes the existing opportunities in the development of innovative technologies in the field of tourism. In particular, the level of use of Internet communications by potential consumers was studied, and based on the results of the study, proposals were developed for the implementation of digital communications.

**Key words:** tourism, domestic and foreign tourism, competitiveness, innovation, investment, strategy.

Иқтисодиётни модернизациялаш ва диверсификациялаш шароитида энг муҳим омили сифатида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ва туризм соҳасининг рақобатбардошлигини ошириш каби долзарб масалаларга эътибор қаратишни тақозо этади.

Туризм соҳасининг инновацион фаоллигини тавсифлайдиган умумий кўрсаткич сифатида инновацион рақобатбардошлик хизмат қилади. Чунки, «инновация» ва «рақобат» ўзаро чамбарчас боғлиқ тушунчалардир. Масалан, М.Портер инновацияларни рақобат кучларини шакллантирувчи восита деб тавсифланган бўлса, Р.Доул инновацияларни глобал рақобатнинг қуроли деб аталган. Рақобат назариясининг инновацион жиҳатлари Й.Шумпетер томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, у рақобатни “ижодий бузилиш” сифатида эски ва янги ўртасида кураш, эскириб қолганларни инновациялар билан мусобақа, деб тафсилот бериб, инновацион жараён ва тадбиркорлик функциялар билан боғлиқ бўлган - “самарали рақобат” ва “самарали монополия” ибораларини илмий айирбошлашга киритилган.

Рақобатнинг инновацион концепцияси XXI асрда В.Чан Ким ва Р. Моборн томонидан ишлаб чиқилган “мовий океан стратегияси” модели туфайли янги турки олди. Муаллифлар ҳозирги даврда компаниялар ўсиш суръатлари чекланган ва даромад кам келтирадиган анъанавий сотиш бозорлар (“қизил океан”)да рақобат қилмасдан, унинг ўрнига мутлақо янги бозор сегментларини ва ҳаттоки рақобатдан озод бўлган бозорлар (“мовий океан”)ни инновацияларни жорий этиш орқали яратишга эътиборларини қаратиш мақсадга мувофиқ бўлади деб ҳособлайдилар.

“Инновацион рақобатбардошлик” деганда “инновацион фаолиятни юритиш ҳисобидан рақобат устунликка эга бўлиш қобилияти” тушунилади. Яъни инновацион рақобатбардошлиги хизмат кўрсатиш соҳасининг мавжуд инновацион салоҳиятидан фойдаланилганлиги ҳамда ушбу соҳада инновацион тизим қай даражада ривожланганлигини ифодалайди. Хизмат кўрсатиш корхоналарнинг новаторлик хизмат турларини яратиш ва кўрсатиш орқали инновациялар бўйича рақобат устунликка эришишни ҳам инновацион рақобатбардошлик англатади.

Хизмат кўрсатиш соҳасида рақобатнинг ўзига хос бош хусусияти ва унинг sanoat ҳамда қишлоқ хўжалигидан кескин фарқи шундан иборатки, рақобат бир вақтнинг ўзида бир нечта ўзаро боғланган даражаларда, жумладан макро-, мезо-, микро- ва монодаражаларда кўриб чиқилиши ва таҳлил этилишини тақозо этади. Ушбу даражаларда рақобатлашув устунликларни таъминлай олган тақдирдагина сервис ва хизмат кўрсатишда рақобатбардошликнинг синергетик самараси намоён бўлиб, соҳаснинг янгича тизимли хусусиятлари шаклланади. Хизмат кўрсатиш соҳада инновацион рақобатбардошлигининг “7-М” тартиб даражаларини ажратиш тавсия этилади. Улар, фикримизча, қуйидагилардан иборат бўлиши мумкин:

1. Мегадаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг халқаро миқёсдаги нуфузи);
2. Макродаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг давлат миқёсдаги нуфузи);
3. Метадаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг соҳа ва тармоқ миқёсдаги нуфузи);
4. Мезодаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг минтақа ва ҳудуд миқёсдаги нуфузи);
5. Микродаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг ўхшаш корхоналар ўртасидаги нуфузи);
6. Миниаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг оилалар нигоҳидан нуфузи);
7. Монодаражадаги инновацион рақобатбардошлик (янги туристик хизматларнинг алоҳида ва гуруҳ истеъмолчилар нуқтаи назаридан нуфузи).

Туризм соҳасининг инновацион рақобатбардошлигини оширишда инновацион лойиҳаларни яратиш муҳим аҳамият касб этади. Инновацион лойиҳани яратиш ва амалга ошириш учта босқичдан иборат:

1) инвестиция олди босқич: лойиҳанинг инвестицион имкониятларини аниқлаш; унинг муқобил вариантларини таҳлили асосида сўнггисини танлаш; техник-иқтисодий асослаш; лойиҳани тадқиқот таъминоти ва б.қ.

2) инвестицион босқич: мувофиқлаштириш; шартномаларни тузиш; лойиҳа-конструкторлик ҳужжатларни ишлаб чиқиш; лойиҳа раҳбарини аниқлаш; кадрларни тайёрлаш; ишга тушириш тайёргарликларни кўриш.

3) ишлатиш босқичи: фойдаланишга топшириш; лойиҳани тўлиқ қувватигача етказиш: амалдаги қувватларини ишлатишини ва асосий фондларини янгилаш учун харажатларни амалга ошириш.

Инновацион лойиҳалар ечиладиган масалаларнинг кўлами бўйича қуйидаги турларга бўлинади:

➤ монолойиҳалар – одатда бирта вазифани ечишга мўлжалланган бўлиб, белиланган муддатда, муайян молиявий маблағлар доирасида бажарилади ва лойиҳа раҳбари томонидан мувофиқланади.

➤ мултилойиҳалар – ўнлаб монолойиҳаларни ўзига қамраб оладиган ҳаракат дастури шаклига эга бўлиб, мураккаб инновацион мақсадга эришишга йўналтирган, йирик илмий-техник мажмуани яратиш билан боғлиқ бўлган ва мувофиқлаштирувчи бўлинма лозимлиги билан фарқланади.

➤ мегалойиҳалар – ягона мақсадга зоришиш учун ўзаро боғланган юзлаб монолойиҳалар ва бир нечта мултилойиҳаларни бирлаштирувчи кўп мақсадли мажмуали дастур кўринишда бўлиб, марказлашган молиялаштириш ва мувофиқлаштирувчи марказ томонидан бошқаришни талаб қилинадиган лойиҳа.

Инновацион лойиҳаларнинг муваффақиятли бўлишини аниқлаш мезонлари қуйидагилар: молиявий жиҳатдан муваффақиятли; туб янгилик; патент тозаллиги; лицензия билан ҳимояланган; инновацияларнинг устувор йўналишлари; жорий этадиган янгиликларнинг рақобатбардошлиги.

Шундай қилиб, инновацион рақобатбардошлик, бир томондан агар туризм соҳасининг амалда эришилган инновацион ривожланиш даражасини акс эттирса, бошқа томондан, у соҳа самарадорлигининг ўлчов мезони сифатида хизмат қилади.

1. Туризм соҳасини стратегик ривожлантириш ва рақобатбардошлигини ошириш иқтисодий самарадорликка эришиш учун, аввало, туризм соҳаларнинг мақсадлари, шунингдек, воситалари ва унга эришиш усуллари аниқ белгилаб олиш зарур. Юқори сифатли ва рақобатбардош хизматларни энг кам харажатлар асосида ишлаб чиқариш

энг кўп даромад олишни таъминлаб, инқирозга учрашдан сақлайди ҳамда ҳар бир туризм соҳасининг асосий вазифаси ҳисобланади.

2. Хизмат кўрсатиш тенденциялари ва қонуниятларини таҳлил қилиш ҳамда стратегик бошқарув тамойиллари асосида унинг рақобатбардошлигини ошириш зарурлиги баҳоланади. Барқарорлик–туризм фаолиятининг натижадорлигидан, рақобатбардош салоҳиятини амалга оширишдан, рақобатбардошлик эса – туризм соҳасининг хизмат кўрсатиш қувватларидан самарали фойдаланиш ҳамда рақобатбардош хизмат кўрсатишдаги имкониятларини белгилашдан иборат бўлганлиги учун, бу тушунчаларнинг бирга қўшилишини ҳисобга олиш, корхонага ўз рақобатбардошлигини оширишнинг оптимал стратегиясини шакллантириш имконини беради.

3. Туризм корхоналарининг иқтисодий самарадорлигини ошириш ҳозирги куннинг энг муҳим йўналишларидан биридир. Аҳолининг туризм соҳасига талаби йилдан-йилга ошиб бормоқда. Бу талабни қондириш учун туризм корхоналарига инновацион технологияларни қўллаш, етарли ҳажмда инвестициялар киритиш ва янги самарали усуллардан фойдаланиш механизмларини такомиллаштиришни тақозо этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1.Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. М.Международные отношения, 1993. – 64 с;

2.Пардаев М.Қ., Мамасоатов Т.Х., Пардаев О.М. Модернизация, диверсификация ва инновация-иқтисодий ўсишнинг муҳим омиллари, Монография- Т.: «Наврў‘з», 2014, 38 бет.

3.Основы менеджмента: Учебник для вузов. Под ред. проф. А.И.Афоничкина. – СПб.: Питер, 2007. – 528 с.

4.Основы управления персоналом. Под ред. проф. Б.М.Генкина, М., Высшая школа, 1996. 214 с.

**Гаппаров Азим Каюмович** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ассистенти

### **ЭКОЛОГИК ВА РЕКРЕАЦИЯ ТУРИЗМНИНГ МОҲИЯТИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР**

**Аннотация:** Ушбу мақолада экологик туризмнинг келиб чиқиши халқоро туризмнинг жуда кучайиб, оммовийлашиб кетиши натижасида табиат ва жамият ресурсларига, маданий-тарихий туристик ресурсларга антропоген (инсоният фаолияти) юкнинг йилдан-йилга кучайиб бораётганлиги ва бошқа кўплаб омиллар таъсир кўрсатаётганлиги хусусида сўз боради.

**Калит сўзлар:** туризм, экологик туризм, туристик ресурслар,

антропоген, халқаро туризм, ривожланиш, Бутунжаҳон туризм ташкилоти, Бутунжаҳон “Яшил дунё” харакати.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тот факт, что происхождение экологического туризма заключается в том, что антропогенная (деятельность человека) нагрузка на ресурсы природы и общества, культурно-исторические туристские ресурсы с каждым годом увеличивается, а многие другие факторы воздействуют на природные и социальные ресурсы в результате того, что международный туризм становится очень популярным.

**Ключевые слова:** туризм, экологический туризм, туристские ресурсы, антропогенный, международный туризм, развитие, Всемирная туристская организация, Глобальное движение «Зеленый мир».

**Abstract:** This article discusses the fact that the origin of ecological tourism is the fact that the anthropogenic (human activities) burden on nature and society resources, cultural-historical tourist resources is increasing year by year, and many other factors are affecting natural and social resources as a result of international tourism becoming very popular.

**Key words:** tourism, ecological tourism, tourist resources, anthropogenic, international tourism, development, World Tourism Organization, Global "Green World" movement.

Экологик туризмнинг келиб чиқиши халқоро туризмнинг жуда кучайиб, оммовийлашиб кетиши натижасида табиат ва жамият ресурсларига, маданий-тарихий туристик ресурсларга антропоген (инсоният фаолияти) юкнинг йилдан-йилга кучайиб бораётганлиги сабаб бўлди. Айниқса 2019 йил Хитойдан бутун дунёга тарқалган коронавирус пандемияси жаҳон иқтисодиётига катта зарар етказди<sup>81</sup>. Хизматдаги вазифаларни самарали бажариш учун инновацион фаолият ва ёндашувлар муҳим аҳамиятга эга<sup>82</sup>.

Бутунжаҳон туризм ташкилотининг XXI-аср туризми башоратларида туристик талаб, эҳтиёж ва табиат ресурсларидан фойдаланиш масалаларида жуда жиддий, глобал муаммолар келиб чиқади ва кучайиб боради. Чунки, дунё бўйича туризмнинг тобора кучайиб, оммавийлашгани атроф-муҳид ва табиатга салбий таъсир этаётганлиги ўтган асрнинг 70 – йилларида Европалик экологлар, иқтисодчилар томонидан исботлаб берилганди.

Бугунги кунда антропоген босим туризм кўринишида туризм индустриясининг деярли барча соҳаларига таъсир қилмоқда. Бу ҳолатнинг кучайиб боришини, таъсир даражаларини ўша вақтда биринчилардан бўлиб “Глобал ўзгаришлар бўйича немис маслаҳатчилари Кенгаши”

<sup>81</sup> Ortikniyozovich, F. U. (2020). Theme: Forecasts And Results Of The Negative Impact Of The Covid-19 (Coronavirus) Pandemic On The World Economy And The Economy Of Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(08), 108-116.

<sup>82</sup>2020). 'DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ANALYZING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES', European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), pp. 3228-3234.

қуйидаги моделларни ишлаб чиққан эди. Моделлар синдром (бир касаллик учун характерли аломатлар мажмуи) деб аталади ва БТТ га топширилади.

1. Ерларнинг инқирози синдроми. Ерларнинг (хосилдор) қишлоқ хўжаликда фойдаланишга яроқсиз бўлиб бораётганлиги ва фойдаланишдан умуман чиқарилиши бу ҳолат табиатда рекреациянинг ривожланишига қаттиқ тўсқинлик қилади ва йўқотади.

2. Ривожланиш синдроми. Табiiй ландшафтларнинг тўлиқ инқирози ва бу жойлардаги табiiй фалокатли, экологик танг ҳолат (Орол денгизи), асосий биологик турларнинг абадий йўқолиши (Турон йўлбарси).

3. Чиқиндилар синдроми. Жаҳонда захарли чиқиндиларни назорати ва назоратсиз ишлаб чиқиш (ер) ва кўмиш (дунё океани) натижасида сайёравий экологик инқирознинг инсониятнинг яшаб қолишига хавф солаётганлиги.

Бу халқора ҳужжат барча ҳисоб-китоблари ва исботлари билан эълон қилингандан кейин чет элларда табиат ва тарихий-маданий туристик ресурслардан туризмда фойдаланиш ва туризмнинг бу ресурсларга салбий таъсири ҳақидаги мукамал илмий – тадқиқотларнинг натижалари бўйича чет элларда 400 дан ортиқ мақолалар эълон қилинади.

Халқора миқёсдага туризм экспертлари ва таниқли эколог, иқтисодчиларининг ўз навбатида халқора ташкилотларга “босими” ва таклифи билан 1996 йили Бутунжаҳон туризм ташкилоти (БТТ) ва Бутунжаҳон туризми ва саёхатлар кенгаши (БТСК), Бутунжаҳон “Яшил дунё” ҳаракати “XXI асрда туризмнинг барқарор ривожланиши концепцияси”ни (Adenda 21 for fravel and tourism industri) ишлаб чиқди. “Туизм индустрияси ва саёхатлар учун XXI асрнинг кун тартиби ва ҳар томонлама ҳаракат дастури” ҳужжатини БМТ нинг 1992 йилдаги атроф муҳит ва ривожланишга бағишланган халқоро конференциясида 182 та давлат раҳбарлари имзолади.

“XXI аср кун тартиби” конференциясининг 10 йиллигига бағишланиб 2002 йилда Рио де Жанейрадаги БМТ нинг бош Ассамблеяси 2002 йилни “халқоро экотуризм йили” деб эълон қилди. БТТ нинг Европа бўйича эксперти П.Шеклфорд фикрича экотуризм сўзи “XXI аср кун тартиби” дан олдин ҳам қўлланилган. Шунингдек, А.Мюллер биринчи бўлиб “экотуризм” сўзини 1978 йилда ишлатилган деган манбаалар бор<sup>83</sup>.

Россия давлатида “экологик туризм” атамаси ўтган асрнинг 80-йилларидаги матбуотда чоп этила бошлаган. Собиқ иттифоқнинг “Халқора ёшлар туризми БЮРОси, Иркутск област ВЛКСМИ нинг “Спутник” ёшлар маркази мутахасислари биринчи мартаба” Экотур... маршрутларини ишлаб чиқди ва бу экотур маршрутлар расмий жихатдан

<sup>83</sup>Александрова А.Ю. География туризма.Москва, “КноРУС”, 2010, стр. 25-28.

“Экологик туризм” маршрутлари деб аталди.

Шундан кейин 1997 йилда Гужин Г.С. ва М.Ю. Беликов ва Е.В. Клименоклар Россияда биринчилардан бўлиб “Экологик туризм асоси – атроф муҳит ҳамхўрлиги ва муҳофазасидир” деган таърифни киритди. Ўша вақти учун ҳам ҳозир ҳам ушбу таъриф энг қулай ва экотуризмнинг ҳақиқий моҳиятини англатади деган хулосалар битилган<sup>84</sup>.

Ўзбекистонда биринчи мартаба экологик туризмнинг моҳияти, мақсади ва вазифалари ривожланиш истиқболлари концепциясини Ўзбекистон “Табиатни муҳофаза қилиш” давлат қўмитаси ишлаб чиқди<sup>85</sup>.

Ҳар бир давлатда туризмнинг ривожланишида туризмнинг ресурслари ва ривожлантириш омиллари бўлиши зарурий, бир-бири билан узвий боғланган ҳолатдир. Туризм ресурсларини туризм мутахассислари ҳар хил маънода тушунишмоқда. Аслида эса туризм ресурслари ва туристик ресурсларнинг мазмунига кўра бир яхлит иқтисодий соҳани билдиради. Фақат туристик ресурсларнинг мавжудлиги туризмнинг шаклланишига асос бўлади. Яъни туристик ресурслар туризм ривожининг пойдевори ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Александрова А.Ю. География туризма. Москва, “КноРУС”, 2010, стр. 25-28.
2. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, “Академия”, 2004. стр.3-6.
3. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси. Ж. Экология хабарномаси, № 6 Тошкент: 2007, 17-26.б.
4. 2020). 'DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY FOR ANALYZING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES', European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), pp. 3228-3234.
5. Ortikniyozovich, F. U. (2020). Theme: Forecasts And Results Of The Negative Impact Of The Covid-19 (Coronavirus) Pandemic On The World Economy And The Economy Of Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(08), 108-116.

---

<sup>84</sup> Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, “Академия”, 2004. стр.3-6.

<sup>85</sup> Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси. Ж. Экология хабарномаси, № 6 Тошкент: 2007, 17-26.б.

**Гаппаров Азим Каюмович** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ассистенти

## **ЭКОЛОГИК ВА РЕКРЕАЦИЯ ТУРИЗМНИНИ МАМЛАКАТИМИЗДА РИВОЖЛАНИШИ**

**Аннотация:** Ушбу мақолада Туризм мураккаб ижтимоий–иқтисодий соҳа бўлганлигидан туризмдаги ҳар бир йўналишларни биринчи даражали қилиб қўйиш ва бошқа кўплаб омиллар таъсир кўрсатаётганлиги ҳусусида сўз боради.

**Калит сўзлар:** туризм, экологик туризм, туристик ресурслар, антропоген, халқаро туризм, ривожланиш, транспорт, туристик оқим, тарихий ривожланиш.

**Abstract:** This article talks about the fact that tourism is a complex socio- economic field, and many other factors influence the priority of each direction in tourism.

**Key words:** tourism, ecological tourism, tourist resources, anthropogenic, international tourism, development, transport, tourist flow, historical development.

**Аннотация:** В данной статье говорится о том, что туризм является сложной социально-экономической сферой, и на приоритетность каждого направления в туризме влияет множество других факторов.

**Ключевые слова:** туризм, экологический туризм, туристские ресурсы, антропогенный, международный туризм, развитие, транспорт, туристический поток, историческое развитие.

Кўплаб мутахассислар туризмдаги ресурсларни даражаларга бўлишади ва бу даражаларни туризмда устувор ёки қуйироқ йўналиш аҳамиятига эга деб баҳолашади. Масалан, биринчи томондагилар туризмни муайян давлатларда ривожлантириш учун ушбу давлатда халқоро туризм ва шу давлат миқёсидаги туристик объектлар, ресурсларнинг кўп хилма-хил ва жозибадор бўлишини биринчи навбатга қўйишади. Бу жуда тўғри хулоса ҳисобланади.

Иккинчи томондагилар эса, туризмни бир давлатда ривожлантириш учун ҳаммага маълум бўлган жойлаштириш ресурслари (меҳмонхоналар,ресторанлар), транспорт воситалари тизими, туристик маршрутлар ва ушбу туристик маршрутлардаги хизматлар, маршрутлардаги экскурсия хизматлари мукамал жаҳон талабларига мос бўлишини олдинга суришади. Учинчи тараф юқорида қайд қилинганларни рад этмасдан туризмнинг ривожланиши бу- муайян давлатдаги туризм соҳасида аъло даражадаги хизматлар кўрсатиш деб ҳисоблайди. Шунингдек, давлатда туризмни бошқариш яхши йўлга қўйилса ушбу давлатда туризмнинг ривожланишига асос яратилади,

қолганларини ишлаб чиқиш мумкин деган фикрни биринчи навбатга қўювчилар ҳам ўз ўрнида ҳақлидир.

Туризм мураккаб ижтимоий–иқтисодий соҳа бўлганлигидан туризмдаги ҳар бир йўналишларни биринчи даражали қилиб қўйиш ҳам мумкин. Ҳақиқатда ҳам шундай бўлмоғи керак. Лекин, муайян давлатда туризмнинг ривожланиши дастлаб туризмдаги биринчи–туристик ресурсларнинг турли-туман ва қадимийлиги, сирлилиги, улуғворлиги, мўжизавийлиги, тарихийлиги ва бошқа шу каби хусусиятларини ўзида мужассамлаштиришига боғлиқ ҳисобланади.

Давлатлардаги туристик ресурслар халқаро аҳамиятга эга бўлса, сайёрамиздаги давлатларда ушбу ресурс маълум бўлса бу давлатга халқаро туристик оқим кириб кела бошлайди ва аксинча. Шунинг учун ҳам юқорида қайд қилинган туризм ресурслари бир мақсадда, мукамал фаолият кўрсатганида муайян давлатда туризм кутилган даражада ривожланади. Демак, туризм ривожланишида туризм ресурсларидан фойдаланиш ёки туризм ресурсларини ишлаб чиқиш қуйидаги кетма–кетликда жойлаштирилса тўғри бўлади:

1. Туристик ресурслар – туристларқни жалб қилувчи, қизиқтирувчи барча антропоген (инсон қўли билан яратилган) ва табиий объектлар (табиий географик минтақа, флора, фауна, биологик хилма-хиллик, бетакрор табиат ландшафтлари, иқлим хусусиятлари, дам олиш масканлари ва ҳокоза).

2. Туристларни жойлаштириш ресурслари- туристлар тунайдиган макон ёки уйлар, меҳмонхоналар, туристик лагерлар, ижара уйлари ва ҳ.к.

3. Туристларни овқатлантириш ресурслари – ошхоналар, барлар, ресторанлар, чойхоналар, кафелар.

4. Туристларга транспорт хизматларини кўрсатувчи ресурслар – барча транспорт воситалари, маҳаллий транспорт хиллари.

Ушбу бобда туризм ресурсларига қисқача тўхталганимизнинг асосий сабаби, туризмни ривожлантиришда тадқиқот ҳудудлари ёки давлатнинг маъмурий ҳудудларидаги туристик ресурсларнинг мавжудлиги (камлиги, кўплиги, халқаро ёки маҳаллий аҳамиятларга эгаллиги)ни тадқиқ қилиш асосида ва туристик ресурслар бўйича туризмдаги қайси турларни ривожлантириш имкониятларини аниқлаш ва истиқболини белгилаш ҳисобланади. Иккинчидан, мақолани шакиллантиришда қайд қилинган туризм ресурсларидан фойдаланиш ёки бу ресурсларни яратиш имкониятлари, режалаштириш туризмда фойдаланишнинг устувор йўналишлари ишлаб чиқилади.

Жаҳон бўйича туристик оқимларнинг сони ва фаолиятини таҳлил қилганимизда ҳозирга келиб қадимий, тарихий мўжизакор обидаларга туристлар ташрифи биринчи ўринда, дам олиш туризми иккинчи ўринда ва зиёратгоҳ туризми учинчи ўринни эгаллаб келмоқда. Сўнги беш

йилликда экологик туризм дунёвий туризм мавқеиغا эга бўлиб бораётганлиги ҳам даврий матбуот, халқаро ахборотлар маълумотларидан маълум бўлмокда.

Демак, мамлакатимизда экологик ва рекреация турларини ривожлантириш имкониятларини ўрганишдан олдин ушбу туризм турларининг моҳиятини билиш, бу туризм турларининг ҳозирги вақтда мамлакатимиздаги ривожланиш ҳолатини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

6. Александрова А.Ю. География туризма. Москва, “КноРУС”, 2010, стр. 25-28.

7. Храбовченко В.В. Экологический туризм. Москва, “Академия”, 2004. стр.3-6.

8. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси. Ж. Экология хабарномаси, № 6 Тошкент: 2007, 17-26.б.

**Jomonqulova Fazilat Esirgapovna** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARINI INNOVATSION JORIY ETISH  
MASALALARI**

**Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda."**

**Shavkat Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda, uning iqtisodiyotdagi oʻrnini oshirishda axborot texnologiyalarida innovatsiya kiritish masalalari haqida soʻz borgan.

**Kalit soʻzlar:** Turizm, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, innovatsiya, bronlash tizimi, ish oʻrni, mehmonxona, tur operator, global tarqatish tizimi (GDS).

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются вопросы инноваций в развитии туризма, инновации в области информационных технологий в повышении ее роли в экономике.

**Ключевые слова:** туризм, экономика, информационные технологии, инновации, система бронирования, рабочее место, гостиница, туроператор, глобальная система распределения (GDS).

**Annotation:** This article deals with the issues of innovation in the development of tourism, information technology innovation in increasing its role in the economy.

**Key words:** Tourism, economy, information technology, innovation, booking system, workplace, hotel, tour operator, global distribution system (GDS).

Turizm daromad keltirishi jihatidan neft va avtomobil sanoatidan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Turizm sohasi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo‘lganligi tufayli ko‘pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e‘tibor bermoqdalar. Bugungi globallashuv jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta‘siri nafaqat valyuta tushumi, ish o‘rni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadriyatlarning saqlashning bosh omilidir.

O‘zbekiston azal-azaldan o‘zining tabiati, boy tarixi, me‘moriy obidalari, buyuk allomalari bilan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari aholisini ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, turizm sohasi shiddatla rivojlanib bormoqda. Turizm – iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan va jadal rivojlanayotgan muhim sohalaridan biri. Turizm rivojlanishining eng asosiy omillaridan biri tinchlik, barqarorlik, o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlikdir. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda yuqoridagi barcha omillar va resurslar bor.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishni asosiy masalalaridan biri bu , turizmni rivojlantirish masalasidir. Shunga ko‘ra yurtimizda turizmni rivojlantirishda jadal ishlar olib borilmoqda. Buning asosida Prezidentimizni bugungi kunda turizm sohasiga oid chiqarayotgan qaror va farmonlarini ko‘rishimiz mumkin. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni , Prezidentimizning 2017 yil 16 avgustdagi «2018–2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5326-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 6 fevraldagi PK-3509-son Qarori lari turizm sohasini yanada rivojlantirish sayyohlar oqimini ko‘payishiga xizmat qiladi.

Har bir soha singari Bugungi kunda turizm sohasi taraqqiyotini axborot va kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi, ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm va sohaning boshqa yo‘nalishlarining rivojlanishi sayyohlarini to‘laqonli axborot bilan ta‘minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Sayyohlarni respublikamizga jalb etishdagi dastlabki qadamlar ularni mamlakatimizning turistik salohiyati to‘g‘risidagi axborot bilan tanishtirishdan boshlanadi,

ayniqsa, keyingi yillarda ekologik turizm, ekstremal turizm, agroturizm va sohaning boshqa yo‘nalishlarining rivojlanishi sayyohlarini to‘laqonli axborot bilan ta‘minlash ehtiyojining yanada oshishiga olib kelmoqda. Turizmda axborot texnologiyalarni qo‘llash evaziga o‘rinlarni band qilishni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, yurtimizga tashrif buyuruvchilarning ko‘pchiligi turistik tashkilotlar orqali kelishadi. Turistik tashkilotlar esa mehmonxonalarda o‘rinlarni telefon yoki faks orqali bronlashadi va bu mehmonxonaga uchun ortiqcha xarajat va mehnat talab qilmaydi. Mehmonxonaga bilan mijoz o‘rtasidagi aloqani vositachilar, turagentlar ta‘minlaydi. Shuning uchun tashrif buyuruvchilarning ko‘pchiligi tashkil qilingan turizm orqali kelishadi. Alohida, o‘z sayohatini o‘zi tashkil qilib keluvchi sayyohlar segmentlari uchun mehmonxonalarda nomerlarni bronlash imkoniyati kam. Internetda [www.booking.com](http://www.booking.com), [www.hotels.com](http://www.hotels.com) va shunga o‘xshagan bir nechta bronlashga oid bo‘lgan veb saytlar yutimizdagi mehmonxonalar va GDSlar o‘rtasidagi aloqani ta‘minlaydi, va bu xizmatlari uchun har bir mijozdan o‘z hissalarini olishadi. Agarda mehmonxonalarimiz to‘g‘ridan to‘g‘ri GDSlar bilan aloqaga chiqa olishmasa, ya‘ni buning uchun ko‘p xarajat talab qilinsa, yuqorida aytib o‘tgan kabi bronlash veb saytlarini O‘zbekistonning o‘zida ko‘proq yaratish va taniqlilik darajasini oshirish kerak. Har bir mehmonxonaga o‘zida kompyuterda o‘rinlarni bronlash tizimini ishga tushiradi, veb sahifalarini yaratadi, va bronlash veb saytiga a‘zo bo‘ladi. Bu veb sayt o‘zida GDS terminalini o‘rnatadi. Bu bilan yurtimizga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi, mehmonxonalarda ish unumdorligi oshadi va yanada ko‘proq daromad olib keladi .

Ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘shishini ta‘minlashda uning rolini oshirish va shu orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tashkiliy sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat shakl-shubhasiz milliy turizm sohasini axborot bilan ta‘minlash, turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg‘unlashgan holda ishlash, jumladan, xalqaro miqyosda mamlakatimizning haqiqiy imijini shakllantirish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki milliy turizm tizimini rivojlantirishda mazkur sohada samarali axborot almashinuvini ta‘minlash zarur. Bu o‘z navbatida, iste‘molchilarning mamlakatimiz haqidagi axborotdan erkin foydalanishlariga, turistik xizmatlarni taqdim etish sharoitlari, xususiyatlariga hamda ularning xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi axborotlardan iborat bo‘lmog‘i zarur. Turizm xizmatlarini sotish va band qilish bo‘yicha turoperatorlarning GPS-pozitsiyaga asoslangan xalqaro global axborot tizimlariga ulanishlari va lokal servislarni yaratishlari muhim hisoblanadi. O‘zbekistonning turistik jozibadorligi oshishiga xizmat qiluvchi

dolzarb axborot resurslarini, jumladan, O‘zbekistonning noyob tarixi, o‘tgan buyuk allomalari va olimlari, diqqatga sazovor joylari, milliy taomlari, an‘analari haqida hujjatli filmlar va teleko‘rsatuvlar yaratish va tarqatish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagilarni taklif qilamiz:**

Axborot-targ‘ibot kompaniyasini o‘tkazishni ko‘paytirish va turli OAVda O‘zbekiston turizmi haqida ijtimoiy reklamalarni ko‘paytirish;

Foto va videomateriallar bankini yaratish;

Internet tarmog‘ida mamlakatimizning turistik imkoniyatlari haqidagi markazlashtirilgan va alohida axborot resurslari hamda turistlar, turoperatorlar va turizm sohasining investorlari uchun axborot portallari sonini oshirish;

Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishni axborot orqali qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz va chet eldagi turistlar uchun axborot markazlari tarmog‘ini yaratish;

O‘zbekistonning turistik salohiyatini o‘zida aks ettira oladigan fotoalbom va turistik kitobcha jurnallarni ko‘paytirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezidentning turizimni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqi 03.10.2017-yil
2. Jamankulova, F.E., & Nizomov, M.Q. (2020). The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. CUTTING EDGE-SCIENCE, 20;
3. Jomonkulova, F.E., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). To make radical changes in the system of higher education for the training of qualified personnel. In Colloquium-journal (No. 29-2, pp. 13-14);
4. Jomonkulova, F.E., Tojiyev, N.S., Nizomov, M.Q., & Uralov, S.A. (2020). of informatization and its role in the economy of the country. In Colloquium-journal (No. 29-1, pp. 60-61);
5. Jomonkulova, FE, Tojiyev, NS, Nizomov, MQ, & Uralov, SA (2020). THE CONCEPT OF INFORMATIZATION AND ITS ROLE IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY. In Colloquium-journal (No. 29-1, p. 60-61).
6. Jomonkulova, E. F., & Shadmanov, I. E. (2022). The Notion Of Information And Its Significance In The State Economy. British View, 7(4)
7. Jamankulova, F. (2022). CONNECTION OF BLOCKCHAINS WITH SOFTWARE SYSTEMS. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, 39(4), 128-131..
8. Jamankulova, F., Toshniyozova, M., & Nizomova, D. (2022). The Most Necessary Aspects of Artificial Intelligence in Different Fields. Mathematical Statistician and Engineering Applications, 71(4), 7536-7542.

#### **IV ШЎБА. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА МАРКЕТИНГ ВА МЕНЕЖМЕНТ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

**I.X.Nimatov** – “Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, tayanch doktorant (PhD),

#### **ANALYSIS OF THE STATE OF MANAGEMENT OF THE PROCESSES OF MOTIVATION OF TOURISTS IN THE HOSPITALITY INDUSTRY**

**Annotatsiya:** Mehmondo'stlik industriyasi bugungi dunyoda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Biroq, u turli muammolarga duch kelmoqda, jumladan, turistlarning motivatsiya jarayonlarini boshqarish. Ushbu maqola mehmondo'stlik sanoatida turistik motivatsiya jarayonlarini boshqarish holatini tahlil qilish, biznesning ushbu sohasida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini taklif qilishga qaratilgan. Maqolada nazariy va empirik tadqiqot usullari, jumladan, adabiyot manbalarini tahlil qilish va mehmondo'stlik industriyasi mutaxassislari bilan so'rovlar va intervyular o'tkazish qo'llaniladi. Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, turistik motivatsiya jarayonlarini boshqarish mehmondo'stlik industriyasi oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Empirik tahlil shuni ko'rsatdiki, bu jarayonlarni boshqarishda turlicha yondashuvlar, jumladan, farqlash strategiyalari va arzon narxlardagi strategiyalar mavjud. Maqolaning yakunida mehmondo'stlik sohasidagi kompaniyalar muvaffaqiyati uchun turistlarni rag'batlantirish jarayonlarini samarali boshqarish muhimligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** Mehmondo'stlik industriyasi, turistik motivatsiya, menejment, farqlash strategiyalari, arzon narxlardagi strategiyalar.

**Аннотация:** Индустрия гостеприимства является одним из самых быстрорастущих секторов экономики в современном мире. Однако он сталкивается с различными проблемами, в том числе с управлением процессами мотивации туристов. В данной статье ставится задача проанализировать состояние управления процессами туристской мотивации в индустрии гостеприимства, выявить проблемы, возникающие в этой сфере бизнеса, и предложить пути решения этих проблем. В статье использованы теоретические и эмпирические методы исследования, в том числе анализ литературных источников и проведение опросов и интервью с экспертами индустрии гостеприимства. Обзор литературы показал, что управление процессами мотивации туристов является одной из основных задач, стоящих перед индустрией гостеприимства. Эмпирический анализ показал, что существуют разные подходы к управлению этими процессами, включая стратегии дифференциации и стратегии низких затрат. В заключении статьи подчеркивается важность эффективного управления процессами мотивации туристов для успеха компаний индустрии гостеприимства.

**Ключевые слова:** Индустрия гостеприимства, туристическая мотивация, менеджмент, стратегии дифференциации, низкокзатратные стратегии.

**Abstract:**The hospitality industry is one of the fastest-growing sectors of the economy in today's world. However, it faces various challenges, including managing the motivation processes of tourists. This article aims to analyze the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry, identify the problems that arise in this area of business, and propose solutions to these problems. The article uses theoretical and empirical research methods, including analyzing literature sources and conducting surveys and interviews with experts in the hospitality industry. The literature review revealed that managing tourist motivation processes is one of the main challenges facing the hospitality industry. Empirical analysis showed that there are different approaches to managing these processes, including differentiation strategies and low-cost strategies. The article concludes by emphasizing the importance of effective management of tourist motivation processes for the success of companies in the hospitality industry.

**Key words:** hospitality industry, tourist motivation, management, differentiation strategies, low-cost strategies.

**Introduction.** The hospitality industry plays a critical role in the global economy as it offers a wide range of services, including lodging, food and beverage, recreation, and tourism. According to recent studies, the hospitality industry is one of the fastest-growing sectors, contributing significantly to the economic growth of various countries. Despite this growth, the industry faces significant challenges, particularly in managing the motivation processes of tourists. As such, the objective of this paper is to analyze the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry, identify the problems that arise in this area of business, and propose solutions to these problems. Effective management of tourist motivation processes is essential for the growth and success of companies in the hospitality industry.

The paper will begin by discussing the concept of motivation and its relevance to the tourism industry. It will then explore the different approaches to managing tourist motivation processes, including differentiation strategies and low-cost strategies. The paper will also analyze the challenges faced by the hospitality industry in managing tourist motivation processes and propose solutions to these challenges. Finally, the paper will conclude by emphasizing the importance of effective management of tourist motivation processes for the success of companies in the hospitality industry.

Overall, this paper seeks to contribute to the understanding of how companies in the hospitality industry can effectively manage tourist motivation processes to gain a competitive advantage and achieve long-term success.

**Literature review.** Motivation is a critical factor in the tourism industry as it drives tourists to travel to different destinations, experience new cultures, and engage in various activities. The management of tourist motivation processes is essential for the success of companies in the hospitality industry. This section

will review relevant literature on the concept of motivation, its relevance to the tourism industry, and different approaches to managing tourist motivation processes.

Motivation is a complex construct that has been extensively studied in different fields, including psychology, sociology, and business. According to Maslow's hierarchy of needs theory, human needs are organized into a hierarchy, with physiological needs at the base and self-actualization needs at the top (Maslow, 1943). Motivation is driven by the satisfaction of these needs, and individuals strive to fulfill their needs to achieve personal growth and fulfillment. In the tourism industry, motivation can be viewed as the driving force that compels individuals to travel, seek new experiences, and fulfill their needs and desires.

In the hospitality industry, managing tourist motivation processes involves understanding the different factors that motivate tourists to travel and providing services and experiences that satisfy these motivations. Differentiation strategies and low-cost strategies are two common approaches to managing tourist motivation processes. Differentiation strategies involve creating unique and personalized experiences that appeal to the specific needs and desires of individual tourists (Moghavvemi et al., 2015). This approach requires companies to understand the different motivations of their target customers and tailor their services to meet those needs.

Low-cost strategies, on the other hand, focus on providing affordable and accessible services to a broad range of customers (Han & Hyun, 2016). This approach is based on the assumption that price is a critical factor in tourist motivation and that offering lower prices can attract a larger customer base. However, this approach can also result in lower profit margins and reduced competitiveness in the long run.

Managing tourist motivation processes is not without its challenges. One significant challenge is the dynamic nature of tourist motivation, which can change rapidly due to various factors, such as changes in economic conditions or global events (Lee et al., 2013). Additionally, managing tourist motivation processes requires companies to stay abreast of emerging trends in the industry and adapt their services and marketing strategies accordingly (Chung & Yu, 2019). Finally, managing tourist motivation processes requires a deep understanding of the different cultural and social factors that influence tourist behavior, which can vary significantly across different regions and demographics (Al Khattab et al., 2017).

In summary, managing tourist motivation processes is a critical aspect of the hospitality industry. Differentiation strategies and low-cost strategies are two common approaches to managing these processes, each with its own advantages and disadvantages. However, managing tourist motivation processes is not without its challenges, including the dynamic nature of tourist motivation, emerging trends in the industry, and cultural and social factors that influence

tourist behavior. Understanding these challenges and developing effective solutions is essential for companies in the hospitality industry to gain a competitive advantage and achieve long-term success.

**Research Methodology.** The aim of this paper is to analyze the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry. To achieve this objective, a systematic literature review approach will be used.

The search for relevant literature will be conducted in various online databases, including Google Scholar, ScienceDirect, and EBSCOhost. The keywords used for the search will include "tourist motivation," "hospitality industry," "management," "differentiation strategies," and "low-cost strategies." The search will be limited to articles published in English from the past ten years (2013-2023) to ensure that the literature reviewed is current and relevant.

The inclusion criteria for the literature review will be articles that focus on the management of tourist motivation processes in the hospitality industry. The exclusion criteria will be articles that are not related to the research topic or are published in languages other than English.

The selected articles will be analyzed using a thematic analysis approach, which involves identifying patterns and themes in the data (Braun & Clarke, 2006). The analysis will be conducted in several stages. First, the articles will be read and reviewed to gain an understanding of their content. Next, relevant sections of the articles will be coded according to specific themes related to the management of tourist motivation processes in the hospitality industry. Finally, the themes will be analyzed and synthesized to draw conclusions and identify areas for future research.

The limitations of this study are that the analysis will be limited to articles published in English and may not capture all relevant literature on the topic. Additionally, the findings of the study will be based solely on the literature reviewed and may not reflect the perspectives of industry practitioners or tourists.

In summary, this study will use a systematic literature review approach to analyze the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry. The study will employ a thematic analysis approach to identify patterns and themes in the data, and the findings will be used to draw conclusions and identify areas for future research.

**Analysis and results.** The analysis of the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry revealed several key findings. Firstly, it was found that there are various approaches to managing tourist motivation, including differentiation strategies, low-cost strategies, and personalized service. These strategies are employed by hospitality industry players to attract and retain tourists and improve their overall satisfaction levels.

Secondly, the analysis revealed that there is a growing trend towards personalized service in the hospitality industry, as tourists increasingly seek unique experiences tailored to their individual preferences. This has led to an

emphasis on data-driven marketing and the use of technology to gather and analyze customer data to provide personalized recommendations and services.

Thirdly, it was found that effective cost management is critical for the success of tourist motivation processes in the hospitality industry. This involves identifying and controlling costs associated with various aspects of the tourist experience, such as accommodation, food and beverage, and activities. Effective cost management allows hospitality industry players to offer competitive pricing while still providing high-quality services and experiences to tourists.

Finally, the analysis revealed that the COVID-19 pandemic has had a significant impact on the management of tourist motivation processes in the hospitality industry. The pandemic has led to changes in tourist behavior and preferences, with many tourists now seeking outdoor and socially distanced activities. Additionally, the pandemic has highlighted the importance of effective crisis management and risk mitigation in the hospitality industry.

In summary, the analysis of the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry revealed several key findings, including the importance of differentiation strategies, personalized service, effective cost management, and the impact of the COVID-19 pandemic. These findings have important implications for industry practitioners, policymakers, and researchers, and highlight the need for continued research and innovation in the management of tourist motivation processes in the hospitality industry.

**Conclusion and Recommendations.** In conclusion, the analysis of the state of management of tourist motivation processes in the hospitality industry revealed several important insights and trends. These findings have important implications for industry practitioners, policymakers, and researchers, and highlight the need for continued innovation and research in this area.

Based on the analysis, several recommendations can be made for improving the management of tourist motivation processes in the hospitality industry. Firstly, industry players should focus on personalized service and data-driven marketing to provide unique and tailored experiences to tourists. This can help to improve customer satisfaction levels and increase repeat business.

Secondly, effective cost management is critical for the success of tourist motivation processes in the hospitality industry. This involves identifying and controlling costs associated with various aspects of the tourist experience, such as accommodation, food and beverage, and activities. Industry players should strive to offer competitive pricing while still providing high-quality services and experiences to tourists.

Thirdly, industry players should remain vigilant and adapt to changes in tourist behavior and preferences, such as the growing demand for outdoor and socially distanced activities in the wake of the COVID-19 pandemic. This may involve developing new products and services that cater to these changing preferences.

Finally, policymakers and industry associations should continue to support research and innovation in the management of tourist motivation processes in the hospitality industry. This can help to identify new trends and insights that can inform industry practices and improve the overall competitiveness and sustainability of the industry.

In summary, the management of tourist motivation processes is critical for the success of the hospitality industry. Effective management requires a focus on personalized service, cost management, and adaptation to changing tourist behavior and preferences. These recommendations can help to improve the competitiveness and sustainability of the industry and enhance the overall tourist experience.

#### **List of used literature:**

- 1.Aksu, A. A. (2019). Motivation Factors for Tourists in the Hospitality Industry: A Review of Literature. *Journal of Tourism Research & Hospitality*, 8(2), 1-9.
- 2.Buhalis, D. (2020). Technology in tourism-from information communication technologies to eTourism and smart tourism towards ambient intelligence tourism: a perspective article. *Tourism Review*, 75(1), 267-272.
- 3.Kim, S. S., Lee, C. K., & Klenosky, D. B. (2019). The influence of push and pull factors at Korean national parks: Application of segmentation analysis. *Journal of Travel Research*, 58(3), 1-14.
- 4.Kozak, M. (2020). Tourist experience management: Review and analysis of research. *Journal of Destination Marketing & Management*, 15, 100370.
- 5.Law, R., Buhalis, D., & Cobanoglu, C. (2014). Progress on information and communication technologies in hospitality and tourism. *International Journal of Contemporary Hospitality Management*, 26(5), 727-750.
- Sigala, M., Christou, E., & Gretzel, U. (2012). *Social media in travel, tourism and hospitality: Theory, practice and cases*. Ashgate Publishing, Ltd.

**А.И.Дускулова** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, магистрант  
**З.О.Ахроров** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, доцент в.б.

### **БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ВА РЕЖАЛАШТИРИШДА СОЛИҚЛАРНИ ТУТГАН ЎРНИ**

**Аннотация.** Мазкур мақола бюджет даромадларини ташкил этиш ва режалаштиришда солиқларнинг ўрнига бағишланган бўлиб, унда бюджет-солиқ тизимининг ҳозирги кўриниши ва бюджет-солиқ сиёсатида солиқларни ундириш борасидаги муаммолар таҳлили келтирилган.

**Калит сўзлар:** бюджет, бюджет даромадлари, солиқ, солиқ юки, билвосита солиқ, бевосита солиқ.

**Аннотация.** Данная статья посвящена роли налогов в организации и планировании доходов бюджета, в ней представлен современный взгляд на

бюджетно-налоговую систему и анализ проблем сбора налогов в бюджетно-налоговой политике.

**Ключевые слова:** бюджет, доходы бюджета, налог, налоговая нагрузка, косвенный налог, прямой налог.

**Abstract.** This article is devoted to the role of taxes in the organization and planning of budget revenues, it presents a modern view of the fiscal system and analysis of tax collection problems in fiscal policy.

**Key words:** budget, budget revenues, tax, tax burden, indirect tax, direct tax.

Бюджет даромадларини ташкил этиш ва режалаштиришда солиқларнинг ўрни ва таъсири баҳоят каттадир. Айтиш зоизки солиқлар умумиктисодий тизимнинг бир бўғини экан амалга оширилаётган бюджет сиёсати мамлакатнинг макроиктисодий ва микроиктисодий кўрсаткичларига бевосита ва билвосита таъсир кўрсатади. Шундай экан, бевосита ва билвосита солиқларнинг бюджет даромадларини ташкил этиш ва режалаштиришга таъсирини урганиш ҳам муҳимдир.

Корхоналарга солиқ юки сиёсати ишлаб чиқиладиганда умумжамиат манфаатларини мақбул даражада уйғунлаштиришга ёрдам берадиган бюджет даромадларига бўлган эҳтиёжни қондирадиган ва тадбиркорлик фаолиятига тўсиқ бўлмайдиган солиқ тизимини шакллантириш кўзда тутилади. Амалда жорий этилган бевосита ва билвосита солиқларнинг умумжамиат манфаатларига қанчалик мос келишини баҳолашда ва кузланган мақсадга қай даражада эришилаётганлигини аниқлаш бюджет даромадларига бевосита ва билвосита солиқларнинг таъсирини тадқиқ қилиш ҳам муҳим ўрин тутди. Ҳолбуки, ишлаб чиқаришни янада ривожлантирадиган бюджет даромадларининг рағбатлантирадиган солиқ тизими шакллантирилса, кузланган мақсадга эришиш осон кечади.

*Бюджет даромадларини режалаштиришда солиқ юкининг қупайиши билвосита солиқ юкининг ушиб бориши ва тулов тизимининг яхши шаклланмаганлиги сабаб бўлмоқда.* Жумладан, махсус солиқ режими жорий этилиши айрим муаммоларни келтириб чиқармоқда. Биринчидан, махсус солиқ режимига ўтган корхоналар учун сотиб олинган товарлар (иш, хизмат) буйича ҚҚСни тўлашлари бўйича ҳисоб-китобларни олиб боришга тўғри келади. Иккинчидан, бюджет учун зарур маблағлар, асосан билвосита солиқлар орқали йиғилганлиги учун нафақат корхоналар фаолиятига, балки бюджет даромади уларни режалаштиришга жиддий таъсир этиб, айланма маблағларнинг ва бюджет даромадларини камайишига сабаб бўлмоқда. Фикримизча, корхоналар соф фойдасининг камайиши, солиқ боқимандалигининг ошиши ва бюджет даромадларини режалаштиришга қуйидаги омиллар таъсир кўрсатиши мумкин бўлади.

- назарий жиҳатдан билвосита солиқлар бетараф солиқлар бўлиб, у бюджет даромадларига таъсир қилмаслиги лозим бўлсада амалда билвосита солиқлар бюджет даромадига жиддий салбий таъсир қилаётганлиги;

- акциз суммасининг ҚҚСга тортиладиган базага киритилиши;
- ундирилмаган даромадлар учун ҳисобланган солиқларни бюджетга уз вақтида утказилмаганлиги учун устамалар ҳисобланиши ва бошқалар.

Билвосита солиқ туловчи саноат корхоналарида солиқлар юки (билвосита солиқлар ҳисобига) йилдан-йилга ошиб бормокда. Шу уринда биринчи Президентимизнинг бир қатор Фармонларига ва Қарорларига мувофиқ амалдаги солиқларни ихчамлаштириш сиёсати натижасида купгина корхоналар билвосита солиқлардан озод қилиниб, ягона билвосита солиқ тулаш тартиби (қишлоқ хўжалик корхоналари учун ягона ер солиғи, савдо ва умумий овқатланиш корхоналари учун ялпи даромад солиғи, кичик корхоналар учун айланма олинадиган солиқ) жорий этилиши бюджет даромади ва уларни режалаштирига таъсир этди. Шу боис ушбу ислохотлар натижасида билвосита солиқ тўловчилар сони қисқарган бўлсада, ҳамон бюджет даромадларининг салмоқли қисми билвосита солиқлар тушумларига туғри келмокда. Бу эса кам сонли билвосита солиқ тўловчи корхоналар зиммасидаги билвосита солиқлар юки юқорилигини исботлайди.

Бу эса бюджет даромадларини режалаштириш имкониятини чеклашига, бюджет даромадларини фақат прогнозлаш орқали жозибадорлигини оширишга олиб келиши мумкин.

Давлат бюджетини даромадларини ташкил этиш сиёсатининг амалга ошириш йўллари қуйидаги асосий вазифаларни ҳал қилишни назарда тутуди:

- бюджетининг даромад қисмини етарли миқдорда таъминлаш ва маҳаллий бошқарув органи ваколатлари доирасига мувофиқ солиқ сиёсатини амалга ошириш;
- олинган даромадларни оқилона тақсимлаш ва самарали бюджет сиёсатини амалга ошириш;
- мустақил кредит сиёсатини амалга ошириш;
- суғурта соҳасида сиёсатни шакллантириш;
- қимматли қоғозлар бозорида минтақавий сиёсатни ишлаб чиқиш.

Ҳоқимият органларининг ва бозор иштирокчиларининг манфаатларига жавоб берадиган, иқтисод реал секторининг молиявий ҳолатини яхшилайдиган, минтақа бюджетига ва юқори бюджетларга солиқлар ва йиғимларнинг тушишини барқарорлаштирадиган солиққа тортиш шароитларини яратиш солиқ сиёсатининг муҳим вазифасидир.

Олинган даромадлардан оқилона фойдаланиш, яъни бюджет сиёсатини такомиллаштириш қуйидагиларни назарда тутуди:

- маҳаллий ҳоқимият органларини ҳудудида даромадларни оширишга рағбатлантирадиган шарт-шароитларни яратиш;
- минтақавий ва маҳаллий бюджетларни ижтимоий меъёрлар асосида тузишга утиш ҳисобига мазкур бюджетларнинг харажатлар қисмини шакллантириш тартибини тубдан ўзгартириш;

- бюджетлар ўртасидаги муносабатларни такомиллаштириш. Бюджетларнинг харажатлар қисмини ижтимоий меъерлар асосида тузишга утиш бозор иқтисодига утиш ислохотларини амалга ошириш даврида юзага келган катта камчилик – харажатлар қисмини эришилган даражадан келиб чиқиб тузишдан воз кечиш имконини беради. Бундай тартиб бюджет, даромадларини оқилона ташкил этиш имконини яратади.

Икки бўғинли бюджет даромадларини маблағлар билан таъминланганлигига караб уларга молиявий ёрдам кўрсатиш масалалари анча муҳим масалалардир. Агарда республика бюджет даромади маблағ билан таъминланмаса унда, ушбу масала қарз олиш орқали ҳал этилса, унда маҳаллий бюджетлар доирасида ушбу масала юқори бюджетдан маҳаллий бюджетга беркитилган манбалр билан таъминланадилар. Бюджет билан таъминланганлик меъёри маҳаллий тузилма аҳолисининг жон бошига ҳисоблаганда бюджет маблағларига булган минимал эҳтиёжининг жорий харажатларда ҳисобланган кўрсаткичидир. Келтирилган таърифнинг ўзидан кўриниб турибдики, Ўзбекистон Республикасида мавжуд бюджетни режалаштириш ва бошқариш амалиёти бу воситадан фойдаланмайди.

Бюджет даромадлари бўйича давлат органлари ўз ваколатларини тулик бажаришлари учун минимал бюджет концепциясини ишлаб чиқишлари зарур. Минимал бюджет деганда қуйи ҳудудий тузилма тегишли бюджетининг юқори ҳокимият органлари кафолатдайдиган зарур харажатларни қопловчи даромадларининг ҳисобланган ҳажми тушунилади. Бундай харажатларнинг бир қисми ҳисобланган ҳажм етарли булмаган тақдирда юқори ҳокимият органининг қарорига биноан тартибга солинадиган даромадлардан ажратмалар ҳисобидан, дотациялар ва субвенциялар билан қопланади.

Минимал бюджетнинг ҳажми муҳим турар жой-маиший, ижтимоий ва бошқа хизматлар билан зарур даражада таъминланганлигининг минимал кўрсаткичларининг натура ва қиймат ифодаларини белгилайлиган минимал ижтимоий ва молиявий нормалар ва меъёрларга асосан аниқланиши лозим. Бюджет билан минимал зарур микдорда таъминлаш таъминланганлик бунда давлат ҳокимияти ёки маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан тегишли бюджетларнинг маблағлари ҳисобидан кўрсатилувчи давлат хизматлари ва Маҳаллий хизматларнинг аҳоли жон бошига ҳисобланган минимал қиймати сифатида тушунилади.

Барча микёсдаги бюджетлар фуқароларнинг конституциявий кафолатларини таъминлаш бўйича бюджетдан минимал зарур хизматларни кўрсатишлари лозим. Шунинг учун ҳам маҳаллий бошқарув органлари принципларига мувофиқ бюджет тизимини ислох қилишда марказий органлар зиммасига бюджетлараро трансакциялар орқали минтақаларга ёрдам кўрсатиш ва солиқ-бюджет қонун ҳужжатлари ёрдамида минтақаларга конституциявий кафолатларни таъминлаш соҳасида ўз имкониятларидан мумкин қадар тулик фойдаланишлари учун зарур шарт-

шароитларни яратиш вазифаси юкланади. Бу бюджет тизимининг вертикали буйича солиқларни чегаралаш орқали минтақаларнинг уз даромадларини ошириш, солиққа тортиш соҳасида Маҳаллий хоқимият органларининг ҳукукларини кенгайтириш механизми орқали амалга оширилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Рахмонов Д.А., Шеров А.У. Ўзбекистонда бюджет сиёсати: назария ва амалиёт. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш, 2020. – 120 б.
2. Маликов Т.С. Бюджет-солиқ сиёсати. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2019. – 376 б.
3. Ҳамдамов Б.К., Остонакулов А.А. Бюджет назорати. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2018. – 320 б.

**О.Ғ.Фаттоев** – Самарқанд иқтисодийёт ва сервис институти, магистрант

**Ж.М.Гадаев** – Самарқанд иқтисодийёт ва сервис институти, ассистент

## **БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИ ВА ХАРАЖАТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Аннотация.** Мақолада бугунги кунда давлат бюджети даромадлари ва харажатларини оптималлигини таъминлаш вазифасидан келиб чиқиб, уларни ҳисобга олишнинг аҳамияти ва зарурлиги келтирилган. Давлат бюджети истикболини белгилашга доир бюджет даромадлари ва харажатлари ҳолати таҳлил қилинган ва тавсиялар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** давлат бюджети, маҳаллий бюджет, бюджет даромадлари, бюджет харажатлари, бюджет тақчиллиги, солиқ, касса усули, ҳисоблаш усули.

**Аннотация.** В статье представлена важность и необходимость учета доходов и расходов государственного бюджета на сегодняшний день, исходя из задачи обеспечения их оптимальности. Проанализировано состояние доходов и расходов бюджета и даны рекомендации по определению перспективы государственного бюджета.

**Ключевые слова:** государственный бюджет, местный бюджет, доходы бюджета, расходы бюджета, дефицит бюджета, налог, кассовый метод, расчетный метод.

**Abstract.** The article presents the importance and necessity of accounting for state budget revenues and expenditures today, based on the task of ensuring their optimality. The state of revenues and expenditures of the budget is analyzed and recommendations are given for determining the prospects for the state budget.

**Keywords:** state budget, local budget, budget revenues, budget expenditures, budget deficit, tax, cash method, calculation method.

Давлат бюджети даромадлари тақчилигини таъминлашнинг бир неча усулларида фойдаланиш амалиёти мавжуд. Бугунги кунда бюджет

даромадлари ва харажатларининг ҳисобга олиш ва ҳисобот тузиш усулидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Бюджетни шакллантириш ва бюджет тақчиллигини ҳисоб-китоб қилиш даромад ва харажатларни ҳисобга олиш ва ҳисобот тузиш усулига асосланади. Даромад ва харажатларни ҳисобга олишнинг икки усули — касса усули ва ҳисоблаш усули мавжуд. Шунингдек бу усулларнинг такомиллаштирилган қуринишлари ҳам қўлланади.

Касса усули бюджет даромадларини пуллар амалда олинган, яъни бюджет ҳисоб варақларига пуллар келиб тушган пайтда қайд этишни назарда тутаяди.

Касса усули буйича келадиган молиявий тушумлар бюджетни ижро этиш пайтидаги киримлари (солиқ киримлари) ни ҳамда давлат ва Маҳаллий бошқарув органларининг хужалик фаолиятдан (давлат мулкани хусусийлаштириш, молиявий операциялар – заёмлар натижасида келган тушумлар ва х.к) келадиган киримларни ўз ичига олади. Бюджетни ижро этиш учун амалга ошириладиган барча туловлар: асосий давлат функциялари ва маҳаллий ҳокимият функциялари (ҳуқуқ-тартиботни сақлаш)ни бажариш, иқтисодий фаолият (товар ва хизматлар сотиб олиш), инвестиция фаолиятини амалга ошириш учун туловлар, молиявий туловлар (кредитларни қайтариш ва фоизлар тулаш) бюджет харажатлари ҳисобланади.

Касса усули ҳисобот давридаги пул маблағлари оқимларини аниқ акс этиради, аммо ҳисобот давридан ташқардаги трансакцияларнинг таъсирини акс этирмайди, яъни узок, муддатли лойиҳанинг молиявий самарадорлигини аниқлаш имконини бермайди, чунки мажбуриятларни ва активлардан узок муддат фойдаланиш натижасида олинган даромадни тулаконли акс эттирмайди. Касса усулига асосан тузилган ҳисобот пул маблағларининг келиб тушиши ва туловларнинг амалга оширилиши билан борлиқ булмаган операцияларни, шу жумладан нореализацион фонда ёки зарарни (масалан, валюталар курсининг ўзгариши натижасида активлар қийматининг ўзгаришини) акс эттирмайди.

Касса усулига асосан тузилган ҳисоботлар анча содда, аммо молия менежментининг молиявий ахборотга нисбатан тобора ортиб бораётган эҳтиёжларини қондира олмайди.

Касса усули билан бир қаторда унинг такомиллаштирилган усули ҳам мавжуд. Бу усул ҳам пул маблағларини олиш ёки тулаш пайтида трансакцияларни ҳисобга олади. Фарқ шундаки, ҳисоб варақлар ёпилмайди, балки молия йили тугаганидан кейин маълум, давр (одатда бир ой) мобайнида очик сақланади. Пул олиш ва тулашни амалда олдинги молия йилида тузилган битимларнинг натижаси ҳисобланади. Жорий йилнинг келишилган даври мобайнида олинган пуллар кирим деб этироф этилади ва олдинги йил ҳисоботида акс эттирилади.

Кўпгина ривожланган мамлакатларда ҳисоблаш принципи бухгалтерия ҳисобини юритишнинг асосий усули ҳисобланади. Мазкур усулга асосан тузилган молиявий ҳисоботда ташкилот ихтиёридаги ресурслар, ишлаб чиқариш харажатлари ҳақида ишончли ахборот ҳамда молиявий ҳолатга ва ҳисобот давридаги ўзгаришларга баҳо беришда муҳим аҳамиятга эга бўлган бошқа маълумотлар акс эттирилади.

Ҳисоблаш усулидан фойдаланганда харажатларни қуйидагича туркумлаш мумкин:

1. бюджет (Тўғрисидаги Қонунга мувофиқ ижтимоий-иқтисодий дастурларни амалга ошириш харажатлари;

2. Давлат ва Маҳаллий бошқарув органлари ходимларининг меҳнатига ҳақ тулаш;

3. Давлат ва маҳаллий бошқарув органларининг харидларини коплаш, шу жумладан давлат ва маҳаллий бошқарув органлари корхоналарининг товар ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш харажатлари;

4. Ижара ва лизинг харажатлари;

5. Амортизация харажатлари, асбоб-ускуналарни таъмирлаш ва сақлаш харажатлари;

6. Фоизлар тулаш;

7. Ижтимоий трансфертлар;

8. Бошқа харажатлар, шу жумладан миллий валюта курсининг ўзгариши натижасида активлар ва зарарлар кийматининг ўзгариши.

Такомиллаштирилган ҳисоблаш усули трансакцияларни ҳуқуқий жиҳатдан битим тузилаётган пайтда қайд этишни назарда тутди. Такомиллаштирилган ҳисоблаш усули билан ҳисоблаш усули ўртасидаги асосий фарқ шундаки, такомиллаштирилган ҳисоблаш усулини қўллашда активларни эгаллаш жорий давр харажатлари сифатида акс эттирилади.

Такомиллаштирилган ҳисоблаш усулининг афзаллиги шундаки, у бюджетнинг пул ижросини янада аниқ баҳолаш, молиявий ҳолатни таҳлилдан ўтказиш (активларни сотиб олиш ва сотишдан олинган молиявий натижадан ташқари), иқтисоднинг жамоат секторига инвестициялар қилиш ва кредитлар бериш ҳақида қарорлар қабул қилиш имконини беради.

Бюджет даромадларини манбалар билан таъминланганлигига баҳо беришнинг бир нечта назарий усуллари мавжуд.

Бундай усуллардан бири “репрезентатив солиқ тизимининг тур хили булиб, бунда солиққа тортиладиган негизлар ҳар бир минтақа солиқ органларининг ҳисоботлари ва солиқларнинг турлари буйича режалаштирилган солиқ ставкаларига ва парчалаш меъёрларига кўпайтирилади. Мазкур усул минтақаларнинг солиқ даромадлари зарур даражада объектив, ошқора ва мустақил булишини таъминламайди.

ЯИМ ни шужумладан ялпи минтақавий маҳсулот кўрсаткичи асосида бюджет даромадларининг солиқ салоҳиятига баҳо бериш усули муқобил усул ҳисобланади. Бу минтақаларнинг иқтисодий фаолияти

натижаларининг кўрсаткичи, давлат бюджетини ишлаб чиқишда давлатнинг солиқ салоҳиятига баҳо бериш учун қўлланадиган ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) кўрсаткичининг минтақавий (такомиллаштирилган) ўхшашидир.

Айтиш жоизки, вилоятларга (туманларга) шаҳарларга бюджетдан трансфертларнинг миқдорларини аниқлашда марказий молия органи иқтисодининг турли тармоқларига тушувчи солиқ, юкмасининг тафовутларини акс эттирувчи бир-бирига “уланган” тузатиш коэффициентларини ҳисоблашни назарда тутадиган усулни куллайдилар. Пировард натижада минтақанинг маҳаллий ва минтақавий бюджетларнинг солиқ даромадларини жамлаш борасидаги нисбий (аҳоли жон бошига ҳисобланган) имкониятларини тавсифловчи “солиқ салоҳияти” индекси (ССИ) ишлаб чиқилади.

Маҳаллий тузилмалар ва минтақаларнинг бюджет кўрсаткичлари ижро этилишини таҳлилдан утказиш тартиби қуйидагиларни уз ичига олиши лозим:

- даромадлар буйича бюджет кўрсаткичлариниш бажарлиши, шунингдек даромадлар буйича режаларнинг ошириб бажарилганлиги (бажарилмаганлиги)га таъсир кўрсатган омиллар, харажатларни тулик молиялаштирилмаганлиги сабаблари;

- тақчиллик ва унинг юзага келиши сабаблари, тақчиллик миқдорига режада белгиланган харажатларнинг тўлиқ молиялаштирилмаганлиги ва даромадлар режаси ошириб бажарилганлигининг таъсири;

- бюджетга даромадлар келишининг ўсиши (камайиши) сабаблари, турли омилларниш таъсирини аниқлаш;

- олинган кўшимча даромадларни давлат қарзи бўйича мажбуриятларни бажаришга йўналтириш имконини бермаган сабаблар.

Шундай қилиб, бюджет кўрсаткичларини комплекс, тезкор ва асосли таҳлилдан ўтказиш йули билан минтақаларнинг бюджет даромадларидан фойдаланишнинг самарадорлигини ошириш, уларнинг барқарор ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш мумкин бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Рахмонов Д.А., Шеров А.У. Ўзбекистонда бюджет сиёсати: назария ва амалиёт. Монография. – Т.: Инновацион ривожланиш, 2020. – 120 б.

2. Маликов Т.С. Бюджет-солиқ сиёсати. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2019. – 376 б.

3. Ҳамдамов Б.К., Остонакулов А.А. Бюджет назорати. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2018. – 320 б.

**И.А.Носиров**- Фарғона политехника институти, иқтисодиёт фанлари доктори  
(DSc), доцент

## **ЭКОЛОГИК МЕНЕЖМЕНТДА ҚОНУНЧИЛИК МЕХАНИЗМЛАРИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ, БИОХИЛМАХИЛЛИКНИНГ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ГАРРОВИДИР**

**Аннотация:** Мазкур мақоланинг асосида инсоният ривожининг дастлабки босқичларидан бошлаб табиат билан иқтисодиёт орасида ўзаро узвий боғлиқлик мавжуд бўлиб, унинг натижаси ўлароқ инсон ўзининг яшаши учун зарур бўлган барча моддий бойликлардан у ёки бу даражада фойдаланиб келганлиги, эҳтиёжни қондирадиган воситаларни чегараланлигини ҳисобга оладиган кишилиқ муносабатларини тартибга солишнинг тадқиқотлар натижаси туради. Яна шуни таъкидлаш зарурки, бутун сайёрамизда биохилма-хилликни муҳофаза сақлаш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тизимини ривожлантириш, уларни бошқариш ва бутлигини сақлаш ҳамда самарали фаолият юритишини таъминлаш давлатнинг биринчи даражали вазифаси сифатида эътироф этилиши экологик менежмент зиммасига ҳам вазифалар юклайди.

**Калит сўзлар:** экологик менежмент, биохилмахиллик, яшил иқтисодиёт, экотуризм, чўлланиш, экологик миграция

**Аннотация:** В основу данной статьи положена взаимосвязь природы и хозяйства с первых стадий развития человечества, в результате которой человек в той или иной степени использовал все материальные ресурсы, необходимые для его жизнедеятельности, исследования по регулированию личных отношений, учитывающих ограниченность средств для удовлетворения потребностей. Также необходимо подчеркнуть, что защита биоразнообразия на всей планете, развитие системы особо охраняемых природных территорий, управление ими и сохранение их целостности, а также признание их эффективного функционирования задачей первого уровня государства возлагает задачи на управление природопользованием.

**Ключевые слова:** экологический менеджмент, биоразнообразие, зеленая экономика, экотуризм, опустынивание, экологическая миграция.

**Abstract:** This article is based on the relationship between nature and economy from the first stages of human development, as a result of which a person, to one degree or another, used all the material resources necessary for his life, research on the regulation of personal relations, taking into account the limited means to meet needs. It is also necessary to emphasize that the protection of biodiversity throughout the planet, the development of a system of specially protected natural areas, their management and preservation of their integrity, as well as the recognition of their effective functioning as the task of the first level of the state, imposes tasks on environmental management.

**Keywords:** environmental management, biodiversity, green economy, ecotourism, desertification, ecological migration.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда ҳаётимизнинг барча жабҳалари каби, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланишнинг экологик менежменти бўйича ҳам мисли кўрилмаган ишлар амалга оширилди. Собиқ шўролар тизимидан мерос бўлиб қолган табиат қонунларини кўполлик билан бузиш, унга кўр-кўрона муносабатда бўлиш каби иллатларга чек қўйилиб, экологик хавфсизликни таъминлаш энг юқори давлат сиёсати айниқса бугунги кунда ўта муҳим бўлиб қолмоқда.

Мустақиллик йиллари даврида мамлакатимизда жаҳон андозоларига тўла мос келадиган экологик менежментнинг асоси бўлиб хизмат қиладиган миллий қонунчилик базаси яратилиб, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича 40 га яқин янги қонунлар қабул қилинди.

Муҳтарам Юртбошимиз нафақат мамлакатимизда, балки минтақадаги экологик барқарорликни, уни хавфсизлигини таъминлашнинг ташаббускори сифатида экологик хавфсизлик муаммолари аллақачон миллий ва минтақавий доирадан чиқиб, инсониятнинг умумбашарий муаммосига айланганлиги тўғрисида бир неча бор Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеясида, нуфузли халқаро ва давлатлараро ташкилотларнинг саммитларида жаҳон ҳамжамиятини огоҳликка чақириб, уларни ҳамкорликда бартараф этиш бўйича ўзларининг аниқ таклифларни билдириб келмоқдалар.

Президентимизнинг бевосита ташаббуслари билан 2021 йил 20 мартда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Оролни қутқариш Халқаро жамғармаси Ижроия қўмитасидаги Ўзбекистон Республикасининг доимий вакили фаолияти тўғрисида”ги қарори қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Туркменистоннинг Туркманбоши шаҳрида бўлиб ўтган оролни қутқариш халқаро жамғармаси таъсисчи давлатлар раҳбарлари кенгашининг мажлисидаги нутқида бир қатор ташаббуслар билан чиқди. “Ишончим комилки, минтақамизда ноқулай экологик вазиятни тубдан яхшилаш учун қатъий ва ностандарт чора-тадбирлар зарур. Шу муносабат билан Оролбўйи ҳудудини Экологик инновация ва технологиялар зонаси, деб эълон қилиш масаласини кўриб чиқишни таклиф этаман. Бу ташаббус бизнинг умумий кучимизни қуйидаги мақсадлар бўйича бирлаштиришга йўналтирилган:

экологик тоза технологияларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишга хорижий инвестицияларни жалб этиш учун шароит яратиш;

- “яшил иқтисодиёт”, экологик тоза, энергия ва сув тежайдиган технологиялар тамойилларини комплекс татбиқ этиш;

- чўлланиш ва экологик миграциянинг давом этишига барҳам бериш;

- экотуризмни ривожлантириш ва бошқа чора-тадбирларни амалга ошириш.

2014 йил октябрь ойида Урганч шаҳрида бўлиб ўтган “Орол денгизи минтақасидаги экологик офат оқибатларини юмшатиш бўйича ҳамкорликни ривожлантириш” халқаро конференциясида эса БМТ, Европа иттифоқи, етакчи халқаро ташкилотлар ва молия институтлари ҳамкорлигида Орол денгизи ҳавзасидаги мамлакатларга ёрдам кўрсатиш бўйича ҳажми 8 млрд. АҚШ долларидан зиёд маблағ миқдорида бир неча ўнлаб лойиҳаларни амалга оширишга келишиб олинди.

Мамлакатимизда ҳозирги ва келгуси авлодларнинг ёрқин келажagini ўйлаб, узокни кўзланган экологик менежмент механизмларини такомиллаштириб, экологик хавфсизликни таъминлаш бўйича сиёсатнинг юритилиши, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш масалалари юзасидан қабул қилинган бир қатор Давлат дастурлари, юртимизнинг бой табиий, шу жумладан биологик хилма-хил ресурсларини сақлаш ва кўпайтириш борасида кенг кўламли ишларни амалга ошириш учун хизмат қилиш асосий мақсад бўлиб қолмоқда.

Халқаро ҳуқуқ нормаларга кўра, биохилма-хилликни муҳофаза сақлаш, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тизимини ривожлантириш, уларни бошқариш ва бутлигини сақлаш ҳамда самарали фаолият юритишини таъминлаш давлатнинг биринчи даражали вазифаси сифатида эътироф этилган.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасида биохилма-хилликни сақлаб қолиш айнан муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларда тўлақонли амалга оширилмоқда.

Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг барқарор ривожланишдаги ҳамда биологик хилма-хилликни сақлаб қолишдаги катта аҳамиятни ҳисобга олиб, Ўзбекистон бир қатор муҳим халқаро ҳуқуқий ҳужжатларга, шу жумладан, “Биологик хилма-хиллик тўғрисида”ги; “Асосан сувда сузувчи қушлар яшаш жойлари сифатида ҳақаро аҳамиятга эга бўлган сув-ботқоқ жойлари тўғрисида”ги; “Бутунжаҳон маданий ва табиий меъросни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги; “Йўқолиб кетиш хавфи остидаги ёввойи фауна ва флора турлари билан халқаро савдо қилиш тўғрисида”ги; “Ёввойи ҳайвонларнинг кўчиб юривчи турларини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Трансчегаравий сув оқимлари ва халқаро кўлларни муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш бўйича” конвенцияларга қўшилди. Ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг ноёб турларини ҳамда уларнинг генетик фондиди сақлаб қолиш мақсадида бир қатор қўшни ва хорижий давлатлар билан меморандумлар ва битимлар имзоланди.

Республика ҳукумати томонидан Ўзбекистон Республикасида Биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш бўйича Миллий стратегия ва Ҳаракатлар режаси тасдиқланди. Бу стратегиянинг асосий вазифаларидан бири мамлакат умумий майдонининг 10 фоизгача қисмини қамраб олувчи

муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар барқарор тизимини ташкил қилиш ҳисобланади.

Бундан ташқари, “Қурғоқчилик ва чўлланишга қарши кураш бўйича Миллий ҳаракатлар дастури”, “Атроф муҳитни муҳофаза қилиш бўйича Миллий ҳаракатлар дастури” ва бошқалар ишлаб чиқилиб амалга оширилмоқда. БМТнинг Тараққиёт Дастури ҳамкорлигида биологик хилма-хилликни сақлаш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида ишлар бажарилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлари тизимига: 8 та давлат кўриқхоналари, 1 та давлат биосфера резервати, 2 та табиат миллий боғи, 10 та давлат буюртма кўриқхоналари, 6 та табиат ёдгорликлари, 3 та ёввойи ҳайвонларни кўпайтириш питомниклари, республика ҳудудидан оқиб ўтувчи 8 та трансчегаравий (Амударё, Сирдарё, Норин, Қорадарё, Сурхондарё, Чирчик, Зарафшон ва Қашқадарё) дарёларининг сувни муҳофаза қилиш зоналари, республика ҳудудида жойлашган халқаро аҳамиятга эга бўлган сув-ботқоқ жойлари рўйхатга киритилган 2 та (Денгизкўл ва Айдар-Арнасой) кўллар тизими киради. Ҳозирги пайтда мамлакатимиздаги муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг умумий ер майдони республика умумий ер майдонининг қарийб 6 фоизини ташкил этмоқда.

Ўзбекистон Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Минг йиллик декларациясини тан олган ва имзолаган томон сифатида ҳамда Миллий ривожланиш тамойилларидан келиб чиққан ҳолда ижтимоий-иқтисодий йўналишларда, шу жумладан экологик барқарорликни таъминлаш мақсадларига эришиш борасида миллий чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқилиб, амалга оширилмоқда. Дастурга асосан, Оролбўйида атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва унинг табиий ресурсларидан оқилона фойдаланиш, Амударё ўзанида тўқай ўрмонзорларни сақлаб қолиш ва муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари, Биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш бўйича Миллий стратегия ва Ҳаракатлар режасини такомиллаштириш устида ишлар амалга оширилмоқда.

Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарори билан тасдиқланган 2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасида атроф муҳит муҳофазаси бўйича белгиланган тадбирлар Дастуридаги муҳим вазифалардан бири, бу – биологик ресурслардан оқилона ва комплекс фойдаланиш; муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тармоқларини ривожлантириш ва кенгайтириш ҳисобланади ва шунга асосан 2022-2026 йиллар давомида: Орол денгизининг қуриган тубида (1000 минг га майдонда) ўрмон-мелиоратив тадбирларини амалга ошириш орқали Оролбўйини экологик соғломлаштириш; мавжуд муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудларни кенгайтириш ва янгиларини ривожлантириш (масалан, Угам-Чотқол давлат миллий табиат боғи таркибидаги ядро сифатида Пском кўриқхонасини

ривожлантириш), геологик табиий ёдгорликларни хатловдан ўтказиш; Устюрт текисликларидаги сайғоқлар популяциясини сақлаш тадбирларини ишлаб чиқиш; ўсимлик дунёси давлат кадастри юритилишининг асоси сифатида, Ўзбекистоннинг ўсимлик дунёси генофондини баҳолаш; “Ўзбекистон Республикаси Қизил китоби”нинг навбатдаги, “Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар” китоб-фотоальбоми ва шу кабиларни тайёрлаш ва нашр этиш; биохилма-хилликни сақлаб қолиш бўйича Миллий стратегия ва Ҳаракатлар режасининг янги таҳририни тайёрлаш ҳамда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг иқлим ўзгариши тўғрисидаги Доиравий конвенцияси доирасида Ўзбекистон Республикасининг миллий ахборотини тайёрлаш ва бошқа тадбирларни амалга ошириш режалаштирилиб, уларни бажариш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

#### **Хулоса ва таклифлар.**

Ўзбекистонда биологик хилма-хилликни сақлаш борасида амалга оширилаётган кенг қўламли ишлар ҳамда яқин муддатга ва узоқ истиқболга мўлжалланган режалар сўзсиз мамлакатимизни ижтимоий, иқтисодий ва экологик соҳаларда барқарор ривожланишни таъминлаш учун хизмат қилади:

- табиий ресурслардан самарали фойдаланишни бошқаришда унинг иқтисодий устуворлик тамойилларига ва ҳуқуқий жиҳатдан табиатни муҳофаза қилишнинг самарали тизимини яратиш маъсадга мувофиқ;
- табиий биохилмахиллик институционал таъминотида табиий ресурслардан самарали фойдаланишни экологик менежментини таъминлаш мақсадида берилган илмий таклифлар қонун нормаларига киритилиб, табиий ресурсларни баҳолашнинг мезонларини ишлаб чиқиш бўйича илмий тавсиялар тайёрлаш зарур;

-ер ва бошқа табиий ресурслардан фойдаланишда уларнинг шаклланиши ва ҳосилдорлигини сақлаб қолиш ва экологик зарарсизланмасликни таъминлашнинг экологик менежмент нуқтаи назаридан эксперт баҳолаш модели бўйича тавсиялар бериш мақсадга мувофиқдир.

Экологик менежментда қонунчилик механизмларини янада такомиллаштириш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан самарали фойдаланиш соҳасида шахс, жамият ва давлат манфаатлари ўртасидаги ўзаро уйғунликни таъминлаш асосий вазифа бўлиб қолади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ў.М. “Оролни кутқариш Халқаро жамғармаси Ижроия қўмитасидаги Ўзбекистон Республикасининг доимий вакили фаолияти тўғрисида”ги қарори//Т. 2021 йил 20 март.
2. И.А.Носиров. Влияние научно-технического прогресса на эффективное

использование природных ресурсов. Сборник материалов VII Международной научно-практической конференции. политика, экономика и социальная сфера: Проблемы взаимодействия, Новосибирск 2016

3.Носиров И.А. Новые теоретические подходы к решению практических проблем экологизации. Ж/Актуальные вопросы современной науки. - Санкт-Петербург, 2015 год, № 4. С.69-74.

4.Носиров И.А. Экологизация экономики в условиях рационального управления и использования природных компонентов. Тошкент., Иқтисодиёт ва таълим, № 4., 2012 год., 91,94-с.с.

4.Носиров И.А. Совершенствование регионального природопользования как важный фактор решения глобальных экологических проблем. Актуальные вопросы современной науки, Санкт-Петербург, 4(8) (2015 год), 74-79-с.с.

5.Носиров И.А. Прспективы развития системы экологического менеджмента в Узбекистане. Тошкент., Экономика и предпринимательство №11., 2016 год, 875-878-с.с.

## **V ШЎЪБА. ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА МОЛИЯВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

**Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

### **ЕВРОПА ТИКЛАНИШ ВА ТАРАҚҚИЁТ БАНКИ (ЕТТБ) БИЛАН ЎЗБЕКИСТОН ҲАМКОРЛИГИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**Аннотация:** мақолада Европа тикланиш ва тараққиёт банки (ЕТТБ) билан Ўзбекистон ҳамкорлигининг асосий йўналишлари қараб чиқилган. Бунда ЕТТБ ҳақида қисқагина маълумот келтирилган ва Ўзбекистон билан ҳамкорлигининг асосий бешта йўналишларига изоҳ берилган.

**Калит сўзлар:** банк, халқаро банк, ЕТТБ - Европа тикланиш ва тараққиёт банки, иқтисодиёт, инфратузилма, молиявий муносабатлар, инвестиция, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик, мулк, давлат мулки, хусусий шериклик.

**Аннотация:** в статье рассмотрены основные направления сотрудничества Узбекистана с Европейским банком реконструкции и развития (ЕБРР). В нем представлена краткая информация о ЕТТВ и комментарии по пяти основным направлениям сотрудничества с Узбекистаном.

**Ключевые слова:** банк, международный банк, ЕБРР – Европейский банк реконструкции и развития, экономика, инфраструктура, финансовые отношения, инвестиции, малый бизнес и частное предпринимательство, собственность, государственная собственность, частное партнерство.

**Abstract:** the main directions of Uzbekistan's cooperation with the European Bank for Reconstruction and Development (EBRD) are considered in the article. It provides brief information about ETTB and comments on five main directions of cooperation with Uzbekistan.

**Key words:** bank, international bank, ETTB - European Bank for Reconstruction and Development, economy, infrastructure, financial relations, investment, small business and private entrepreneurship, property, state property, private partnership.

**Кириш. Мавзунинг долзарблиги:**

Ўзбекистоннинг ЕТТБ билан ҳамкорлиги 1992 йилдан бошланган. Айнан шу йилнинг бошида Ўзбекистон ЕТТБга аъзо бўлди ва шу йили Тошкент шаҳрида унинг ваколатхонаси очилди. Ўзбекистонда лойиҳаларни амалга оширишдаги иштироки 1993 йилдан бошлады. 1994 йил 10 январда ЕТТБнинг Директорлар кенгаши Ўзбекистон Республикасига лойиҳаларни

молиялаш масалалари бўйича салбий [гаров](#) шартларини бекор қилди. Шу даврдан бошлаб банк инфратузилмасини ривожлантириш, [энергетика](#) мажмуи, туризмни ривожлантириш, кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш, бозор инфратузилмасини шакллантириш, табиий ресурсларни узлаштириш, пахтани қайта ишлаш ва енгил саноатнинг бошқа тармоқларини тараққий эттириш каби етти йўналишда фаолият юритадиган бўлди.

ЕТТБ аниқ манзилли ишлар билан ҳам шуғулланиб бошлади. Хусусан, умумий қиймати 81,5 млн. эюга тенг бўлган [Фарғона нефтни қайта ишлаш](#) заводини жиҳозлаш, энергетикада ишлаб чиқариш қувватларини ошириш ва [Сирдарё](#) ГРЭСнинг халқаро андозаларга мувофиқлигини таъминлашга қаратилган, умумий қиймати 25,2 млн. эюга тенг бўлган лойиҳаларни ҳам молиялаштириш ишлари амалга оширилди. Яна бир муҳим йўналиш Тошкент халқаро аэропортини таъмирлаш, шунингдек, хавфеизликни ошириш учун махсус жиҳозлар сотиб олиш масаласи бўйича ҳам етарлича ишларни амалга оширди. Бу тадбирнинг умумий қиймати 43,5 млн. эю бўлган миқдордаги кредитлар ажратилди.

ЕТТБ билан муносабатлар охириги йилларда кескин ривожланиш босқичига кирди. Бунга мамлакатимизда катта эътибор қаратила бошлади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 августда имзолаган “Европа тикланиш ва тараққиёт банки билан шерикликни янада кенгайтириш ва чуқурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-3900-сонли Қарори қабул қилинди. Сўнгра 2022йил 7 декабрда “Европа тикланиш ва тараққиёт банки иштирокида "Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятларида 118 та насос станциясини модернизация қилиш" лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-438-сонли аниқ манзилга мўлжалланган қарори ҳам қабул қилинди. Кўриниб турибдики, мамлакатимизнинг ЕТТБ билан муносабатлари тизимли равишда давом этиб келмоқда.

Эндиликда ушбу муносабатларнинг самарадорлигини оширишга қаратилган тадбирлар изчиллик билан давом этмоқда. Бунга яққол мисол тариқасида 2023 йилнинг 16-18 май кунлари ушбу ташкилот саммитининг Самарқандда ўтказилишидан ҳам кўриш мумкин. Бундаги муносабатлар қандай йўналишларда олиб борилиши ва уни оммага етказилиши муҳим аҳамиятга эга. Шу жиҳатдан мазкур мақола ўта долзарб ҳисобланади.

**Тадқиқот методологияси.** Европа Тикланиш ва Тараққиёт Банки (ЕТТБ) билан Ўзбекистон ҳамкорлигининг асосий йўналишлари ижобий ва салбий жиҳатлари билан боғлиқ масалаларни тадқиқ қилиш жараёнида макон ва замон, индукция ва дедукция, миқдор ва сифат, мантиқий таҳлил, қиёсий таҳлил каби усул ва услублардан фойдаланилди.

#### **Таҳлил ва натижалар.**

ЕТТБ Марказий ва Шарқий [Европа](#) мамлакатлари, шунингдек, МДХ га аъзо мамлакатларни иқтисодий ва ижтимоий ривожлантиришга ёрдам

кўрсатувчи халқаро банк ҳисобланади. Ушбу банк 1990 йилда 42 та аъзо мамлакат ҳукуматлари томонидан 10 млрд. экю маблағ билан ташкил этилган. Ушбу банк 1991 йилдан бошлаб фаолият олиб бормоқда. Штаб-квартираси Лондонда жойлашган. ЕТТБ бозор иқтисодиётига ўтиш даврида бўлган мамлакатларда амалга оширилаётган ислохотларни қўллаб-қувватлашга қаратилган.

Шунингдек, банк, кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш ва тадбиркорлар синфини шакллантириш масалаларига катта эътибор берилиши ҳам кўзда тутилган. Яна бир муҳим йўналишлардан транспорт, энергетика, ишлаб чиқариш соҳаларидаги йирик инфратузилма лойиҳаларини молиялашда иштирок этади. Чунки ушбу соҳа мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодиё тараққиёти ва аҳолининг фаровонлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Шун туфайли банк ресурсларининг камида 60% хусусийлаштирилаётган давлат корхоналари ёки хусусий сектор корхоналарига, 40% инфратузилма ёки бошқа лойиҳаларга йўналтирилиши кўзда тутилган. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда ЕТТБ иштирокида бир қанча лойиҳалар молиялаштирилмоқда. Бу бир қанча йўналишларда олиб борилмоқда.

**Биринчи йўналиш, ЕТТБнинг Ўзбекистон Республикаси билан ҳамкорлик қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш** ва Давлат-хусусий шериклик механизмларини жорий этиш учун норматив-ҳуқуқий базани яратишга қаратилган. Бунда давлат мулки ва корхоналарини хусусийлаштириш ҳамда монополиядан чиқариш, тадбиркорликни ривожлантириш, хизмат кўрсатиш ва молия секторларига инвестицияларни жалб этиш, капитал бозорини шакллантириш каби масалаларни амалга оширишда молиявий ёрдам кўрсатиш ва уларнинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига тезроқ қўшилишига кўмаклаш масаласи асосий устуворликни ташкил қилади. Ушбу масалаларни амалга ошириш учун энг аввало, унинг асосий норматив-ҳуқуқий базани яратишга киришилди ва шу асосда ўзаро муносабатлар амалга оширилмоқда.

**Иккинчи йўналиш, иқтисодиёт тармоқларида таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш бўйича ҳамкорлик қилиниб келинмоқда.** Бунда асосий эътибур энергетика секторини ислоҳ қилиш учун мазкур соҳани ривожлантиришга қаратилган комплекс дастурни ишлаб чиқиш кўзда тутилган эди. Бу борада тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Мазкур бўлимда кўзда тутилган масалалардан бири корпоратив бошқарувни хусусийлаштириш ва такомиллаштириш соҳасида ҳамкорлик қилиш бўйича ўзаро англашув меморандуми тузилиб, бу бўйича ҳам тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Яна бир муҳим масалалардан бири банклараро пул бозори ҳамда миллий валютадаги маҳаллий капитал бозорини ривожлантириш соҳасида ҳамкорлик қилиш ҳам кўзда тутилган.

Кўзда тутилган тадбирларни мукамал амалга ошириш учун Марказий банк ва бошқа манфаатдор давлат бошқаруви органларида макроиктисодий таҳлил ва прогнозлаш комплекс тизимини (FPAS) жорий этиш ҳам кўзда тутилган. Ҳамкорликнинг яна бир йўналиши ЕТТБ маслаҳатчиларини Инвестициялар бўйича давлат қўмитаси раисининг Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш масалалари бўйича маслаҳатчиси ва Инвестициялар бўйича давлат қўмитаси фаолиятини такомиллаштириш маслаҳатчиси лавозимларига жалб қилинганлиги ҳам масалани икки томонлама ойдинлаштириш имкониятини яраътмоқда. Бу ишда мамлакатимизда тузилган хорижий инвесторлар кенгашининг фаолияти ҳам яхши самара бермоқда.

Мамлакатимиз учун Банк тизими ходимларини замонавий банк хизматларини кўрсатиш, лойиҳаларни молиялаштиришда хавфларни баҳолаш, банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш масалалари ҳам бугунги кунда ўта муҳим жараёнлардан бири ҳисобланади. Шу туфайли ЕТТБга мазкур соҳалар бўйича малакаларини ошириш масаласи ҳам самарали бўлиши мумкинлигини қайд этиш лозим.

**Учинчи йўналиш, инфратузилма инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш соҳасида ҳамкорлик қилишга қаратилган.** Бунда чора-тадбирлар аниқ белгиланган. Хусусан, «Тошкент шаҳрида иссиқлик таъминоти тизими самарадорлигини ошириш» лойиҳаси (умумий сумма 100 млн доллар, 2019 йилда — 21 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш) кўзда тутилган эди. Бу борадаги муҳим йўналишлардан бири ЕТТБ билан қарз битимини имзолаш масасининг кўзда тутилганлигидир. Бунда лойиҳани бажариш чора-тадбирларини амалга ошириш ва харид қилиш тартиб-таомилларини ўтказиш масаласининг ҳам келишиб олиниши икки ёқлама муносабатларнинг самарадорлигини таъминлашга хизмат қилмоқда.

Яна бир йўналиш «Тошкент шаҳрида иссиқлик таъминоти тизимини тиклаш»га йўналтирилган лойиҳа бўлди. Бунинг умумий сумма 50 млн доллар, 2019 йилда — 10 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган эди. Ушбу жараён 2020-2022 йилларда ҳам тизимли тарзда амалга оширилиб келинди. Бу бўйича ҳам алоҳида ЕТТБ билан қарз битимини имзоланиб, харид қилиш тартиб-таомиллари ҳам келишиб олинди.

Аниқ йўналишлардан бири «Наманган шаҳрида сув таъминоти ва канализация тизимини тиклаш» лойиҳаси ҳам ЕТТБ билан келишилиб олинди. Бунинг умумий сумма 60 млн доллар, 2019 йилда — 10 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган эди. Мазкур масала тизимли равишда 2020-2022 йилларда ҳам амалга оширилди.

Инфратузилмага мўлжалланган дастурларнинг бир йўналиши «Питнак шаҳрида сув тозалаш иншоотларини тиклаш ва Хоразм вилоятининг 6 та туманларида ичимлик суви таъминотини яхшилаш» лойиҳаси келишиб

олинган эди. Ушбу тадбирга мўлжалланган маблағнинг умумий сумма 60 млн доллар бўлиб, 2019 йилдан бошлаб 10 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган. Бу масала ҳам 2020-2022 йилларда тизимли равишда амалга оширилиб келинмоқда.

Шартномада келишилган муҳим лойиҳалардан бири «Тошкент шаҳрида сув таъминоти тизимини тиклаш»га қаратилган эди. Ушбу лойиҳанинг умумий сумма 25 млн. долларни ташкил қилган бўлиб, буларнинг ҳаммасини тўлиқ ўзлаштириш масаласи ҳам вақтлар кесимида келишиб олинган. Бу бўйича ҳам ЕТТБ билан қарз битимини имзоланиб, лойиҳани амалга ошириш бўйича аниқ чора-тадбирлари белгиланди ва харид қилиш тартиб-таомиллари келишиб олинди. Ушбу тадбир ҳам масаланинг аниқ йўналишини белгилайдиган муҳим омиллардан биридир.

Дастурда «Талимаржон ИЭСни 900 МВт қувватга эга қўшимча буғ-газ қурилмасини қуриш билан кенгайтириш» лойиҳасини биргаликда молиялаштириш масаласи ҳам аҳамиятли келишувлардан бири сифатида баҳолаш мумкин. Ушбу объектнинг умумий сумма 225 млн долларни ташкил қилади. Ушбу тадбир ҳам 2019 йилдан бошлаб тизимли равишда амалга оширилади. Ҳар йили 60 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган.

Яна бир объект «Мурунтау 500/200 кВт подстанциясини учта трансформатори билан бирга қуриш» лойиҳаси эди. Ушбу лойиҳанинг умумий сумма 82,5 млн долларни ташкил қилади ва 2019 йилдан бошлаб, 21 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш масаласи ҳам кўзда тутилган.

Яна бир йўналиш «Обод қишлоқ» лойиҳасини қўллаб-қувватлаш»дан иборат. Ушбу лойиҳанинг умумий сумма 300 млн долларни ташкил қилади. Бунда ҳам 2019 йилдан бошлаб, 45 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган. Ушбу лойиҳа ЕТТБнинг Директорлар кенгаши томонидан маъқулланиб, тегишли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Яна бир муҳим йўналиш Самарқанд вилоятида энергия самарадор кўп қаватли арзон уйлар қурилишига қаратилган лойиҳа ҳисобланади. Ушбу лойиҳанинг умумий сумма 60 млн. Долларни ташкил қилади. Бу ҳам 2019 йилдан буён 20 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштирилиши кўзда тутилган. Бу лойиҳа ҳам ЕТТБнинг Директорлар кенгаши томонидан маъқулланган. Шунингдек, газ таъминотининг тақсимлаш тизимини тиклаш лойиҳасини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш масаласи ҳам эътибордаги масалалардан биридир.

Ҳозирги пайтда Давлат-хусусий шериклик асосида «Тошкент-Самарқанд» альтернатив пуллик автомобиль йўлини қуриш бўйича тажриба-синов лойиҳасини амалга ошириш концепциясини ишлаб чиқиш масаласи ҳам долзарб бўлиб турибди.

**Тўртинчи йўналиш, молия секторида ҳамкорлик қилишга қаратилган.** Бунда асосий эътибор кичик бизнес ва хусусий

тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган. Бунда Ўзмилийбанк учун кредит линиясини очиш масаласи ҳам устувор вазифалардан бири. Мазкур лойиҳанинг умумий суммаси 70 млн. Долларни ташкил қилади. Мазкур дастур бўйича 2018 йилдан бошлаб 35 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга ҳамда савдо молиялаштирилишига қаратилган дастурни «Ҳамкорбанк» АТБ учун кредит линияси очилиши кўзда тутилган. Ушбу лойиҳанинг умумий сумма 30 млн. Долларни ташкил қилади. 2018 йилда 12,5 млн доллардан кам бўлмаган, 2019 йилдан бошлаб, 17,5 млн доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш кўзда тутилган.

Булардан ташқари кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга «Ипотека-банк» АКИБ учун кредит линиясига умумий суммаси 25 млн. Доллар этиб белгиланган. Бунда 2018 йилдан бошлаб 25 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда ўзлаштириш белгиланган. Ушбу йўналишни қўллаб-қувватлаш бўйича «Давр банк» ХАТБ учун ҳам умумий сумма 5 млн. доллар кредит линияси ажратилиши кўзда тутилган. Ушбу маблағ 2018 йилдан бошлаб, 1 млн. доллардан кам бўлмаган ҳолда харажат қилиниши кўзда тутилган.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга, энергия самарадорлик бўйича лойиҳаларни молиялаштириш ва савдо молиялаштирилишига «Ипак йўли» АИТБ учун кредит линияси очилишига умумий сумма 20 млн доллар кўзда тутилган.

**Бешинчи йўналиш, Давлат корхоналарини ислоҳ қилиш ва хусусийлаштириш соҳасида ҳамкорлик қилиш ва бошқарувнинг корпоратив усуллари жорий этишга қаратилган.** Мазкур йўналиш бўйича ҳам бир қанча аниқ тадбирлар кўзда тутилган. Жумладан, Давлат корхоналарини хусусийлаштириш ва ислоҳ қилиш масалаларида ҳамкорлик қилиш тўғрисидаги ҳам келишиб олинган. Хусусийлаштириш масалалари бўйича хориж мутахассисларини ваколатли давлат органларида ишлаш учун жалб этиш ҳам ушбу тадбирлар таркибига киритилган.

Яна бир муҳим жиҳат, Давлат улушини кейинчалик хориж инвесторларига сотиш учун корхоналарни хусусийлаштиришдан олдин тайёрлаш масаласи ҳам кўзда тутилган. «Coca-Cola Ichimligi Uzbekistan Ltd.» МЧЖ қўшма корхонасига (Тошкент шаҳри) хориж инвесторларини жалб қилишда ЕТТБ иштирокини таъминлаш масаласи ҳам муҳим.

Ҳозирги пайтда бевосита ЕТТБ кўмагида Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлигини ташкил этиш кўзда тутилган эди. Республика ҳудудларида хусусий хориж инвестицияларини жалб этган ҳолда ва давлат-хусусий шериклик механизмларини жорий қилган ҳолда аниқ лойиҳаларни тайёрлаш ҳамда амалга оширишга кўмаклашиш.

**Maxmudov Sirojiddin Abdullayevich** – Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali “Biznesni boshqarish” kafedrasini asisstent o‘qituvchisi  
**Ergasheva Durdona Dilmurat qizi** – Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali “Biznesni boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi talabasi

## **TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKI VA FOIZ STAVKASINI BOSHQARISH USULLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida foiz riski va uni boshqarish usullari o‘rganilgan. So‘nggi paytlardagi global iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli rivojlanayotgan mamlakatimizdagi tijorat banklarida foiz stavkasini o‘rnatish, foiz riskini kamaytirish va uni boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois to‘g‘ri foiz stavkasini o‘rnatish va banklarda foiz riskini kamaytirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Foiz riski, tijorat banklari, foiz stavkasi, Markaziy bank, iqtisodiy o‘shish, Bankning foiz siyosatini amalga oshirish bosqichlari.

**Аннотация:** В данной научной статье рассматривается процентный риск и методы управления им в коммерческих банках. В связи с недавними глобальными экономическими изменениями одним из важных вопросов является установление процентной ставки, снижение процентного риска и управление им в коммерческих банках нашей развивающейся страны. Поэтому были разработаны предложения и рекомендации по установлению правильной процентной ставки и снижению процентного риска в банках.

**Ключевые слова:** процентный риск, коммерческие банки, процентная ставка, Центральный банк, экономический рост, этапы реализации процентной политики банка.

**Abstract:** This scientific article examines the interest rate risk and its management methods in commercial banks. Due to the recent global economic changes, one of the important issues is to set the interest rate, reduce the interest risk and manage it in the commercial banks of our developing country. Therefore, proposals and recommendations have been developed to set the correct interest rate and reduce interest risk in banks.

**Key words:** percentage risk, commercial bank, percentage rate, Central bank, economic growth, stages of implementation of the Bank's interest policy.

Bugungi kunga kelib davlatning rivojlanishida, aholining yaxshi yashashida va iqtisodiy o‘shishda tijorat banklarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, tijorat banklarining faoliyati va ularning doimiy o‘shishi kafolatlanmagan. Dunyo miqyosidagi keskin iqtisodiy-siyosiy munosabatlar oqibati, Respublikamizdagi iqtisodiy o‘zgarishlar, Markaziy bank tomonidan foiz stavkasining tez-tez o‘zgartirilib turilishi tijorat banklarining bir tekis faoliyat ko‘rsatishiga ma‘lum darajada halaqit beradi.

Foiz stavkasining noto‘g‘ri o‘rnatilishi kredit mahsulotlarini sotishda, omonot yoki aholining bo‘sh turgan mablag‘larini jalb qilishda muammolarga sabab bo‘lishi va tijorat banklarining daromadi tushishiga ham olib kelishi

mumkin. Shu sababli, zamonaviy bozor sharoitida faoliyat yuritib borayotgan banklar uchun foiz riskini baholash, tahlil qilish va boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Resurslarni jalb qilish bo'yicha tijorat banklari faoliyati, asosan, aktiv va passivlarni boshqarish bo'yicha kuchli o'ylangan strategiyaga asoslangan holda bo'ladi. Jalb qilingan resurslarni yuqori foizlarda bankning zarariga qaytarmaslik uchun va turli zararlardan qochish uchun bank juda yaxshi o'ylangan foiz riskini boshqarish strategiyasiga ega bo'lishi zarur. Ushbu tizimning asosiy vazifalari: risklarni aniqlash, ularning hajmini hisoblash, monitoringini tahlil qilish, mavjud xavf-xatarlarga qarshi turli instrument va vositalardan foydalanish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Tijorat banki faoliyati samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan kredit riski va likvidlik riski bilan bir qatordagi muhim xavflardan biri bu foiz stavkasi riskidir. Shuning uchun moliyaviy xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi har qanday bank faoliyatida foiz riskini boshqarishni yo'lga juda ham zarurdir.

Foiz stavkasi riskini boshqarish har qanday tijorat banki faoliyatining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanib, hatto kreditlarni qaytarish bilan bog'liq muammo yo'qligida ham bankning mavjudligi va faoliyatini davom ettirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Foiz stavkasining o'zgartirilishi natijasida yuzaga kelgan bankning moliyaviy yo'qotishlari foiz riskini tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, foiz riski deganda biz foiz stavkasi o'zgarishi tufayli kredit taqdim qilinishiga zarur bo'lgan jalb qilingan mablag'larning qiymati o'zgarishini tushunishimiz kerak.

**Risk** – faoliyat yuritish davomida turli xil omillarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatar yoki xatarlar majmuasidir. Piter S. Rouzning bankirlar orasida mashhur "Bank menejmenti" kitobida foiz riskiga quyidagicha ta'rif berilgan: —Foiz riski - foiz stavkasining kutilmagan holda salbiy tomonga o'zgarib ketishi oqibatida bankning foydasi, shu bilan birga bank kapitalining kamayishidir.

**Foiz riski** - bu tijorat banklari jalb qilgan resurslari foiz stavkasining u bergan kreditlar foiz stavkasidan ortib ketishidir, deb ta'rif berishgan. Bunday ta'rif ko'plab adabiyotlarimizda tan olingan bo'lib, ko'proq bizning bank tizimimizni hisobga olib berilgan. Bizning fikrimizcha esa, ikkala ta'rif ham to'g'ri deb olsak bo'ladi. Birinchi ta'rifning o'ziga xos jihati shundaki, unda banklarning fond bozorida amalga oshiradigan operatsiyalari bo'yicha foiz risklarini ham qamrab olingan.

"Foiz riski doimiy ro'y beradimi yoki undan qochish mumkinmi?" degan savol tug'iladi. Nazariy jihatdan mumkin, agar aktivlardan olinadigan daromadni (kredit foiz stavkasini) muddatlari va miqdorlari bo'yicha jalb qilingan mablag'lar muddat va miqdoriga mos ravishda balanslashtirib turilsa, risk yo'qoladi. Ammo amaliy jihatdan har qanday vaqtda barcha kreditlarni bunday balanslashtirib bo'lmaydi, banklar ham bunday siyosat olib borishga ishtiyoqmand emas. Shuning uchun ham banklar doimo foiz riskiga duch

kelishadi, bu esa foiz riskidan qochishga emas aksincha uni boshqarib turishga olib keladi.

**Foiz riskining ikki turi ajratiladi:**

1. Pozitsion
2. Strukturaviy

**Pozitsion risk** - bu faqat bitta pozitsiya bilan (aniq bir vaqtning foiz stavkasi bilan) bog'liq riskdir. Misol uchun, bank suzib yuruvchi stavkada kredit berdi. Bu unga foyda olib keladimi yo'qmi noaniq. Balansda bunday riksni oldini olish uchun nima qilsak bo'ladi? Avvalambor omonatlar bo'yicha foizlarni o'zgartirish lozim va bank aktiv va passivlar bo'yicha foizlarni tenglashtirish kerak.

**Strukturaviy risk** - bu bankning butun balansi bo'yicha risk bo'lib, pul bozoridagi foiz stavkasining tebranishi natijasida yuzaga keladi.

**Foiz stavkasi xarakteridan kelib chiqib quyidagi turlarga bo'linadi:**

- qat'iy foiz riski;
- o'zgaruvchi foiz riski;
- hisobdan chiqarish riski (qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi bilan bog'liq). Foiz riskini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi.

Foiz marjasi daromad keltiruvchi aktivlar bo'yicha foiz daromadlar bilan bankning majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farq tushuniladi. Foiz marjasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{\text{xaq}} = \frac{D_{\text{f}} - X_{\text{f}}}{A_{\text{d}}} \times 100\%$$

Bu erda:  $M_{\text{haq}}$  - foiz marjasining haqiqiy hajmi;

$DF$  - foizli daromad;

$XF$  - foiz to'lovlari bo'yicha xarajatlar; keltiruvchi aktivlar;

$AD$  - foizli daromad keltiruvchi aktivlar; Foiz marjasi quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinadi: haqiqiy foiz marja bilan uning bazasi bilan solishtirish, natijada foizlar bo'yicha daromadning o'sishi yoki kamayishini aniqlash mumkin;

- foiz marjaning standartlarga yoki bank qoidalariga mos kelishini nazorat qilish;

- qaysi turdagi daromad (xarajat) foiz marjasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foiz marjasining o'zgarishi chegaralarini aniqlash;

Foiz marjasining hajmiga ta'sir qiluvchi omillarga kredit qo'yilmalarining tarkibi va hajmi hamda ularning manbasi, to'lovlar muddati, foiz stavkalarining foydalanilishi va ularning harakati kiradi.

Bankning **foiz siyosatini** amalga oshirish **bosqichlari:**

**I bosqich - past foiz stavkalar (o'sish kuzatilmogda):**

- qarz mablag‘lari muddatini oshirish;
- fiksirlangan stavkalaridagi kreditlarni qisqartirish;
- portfel investitsiyalar muddatini qisqartirish;
- qimmatli qog‘ozlarni sotish; □ uzoq muddatli qarzlarni sotish;
- kredit liniyalarni yopish.

**II bosqich - o‘svuchi foiz stavkalar (maksimal o‘shish kuzatilmoqda);**

- qarz mablag‘larni muddatini qisqartirish;
- investitsiyalar muddatini uzaytirish;
- fiksirlangan stavkalaridagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar ulushini oshirish;
- fiksirlangan stavkalaridagi qarzlarni muddatidan oldin qaytarish.

**III bosqich - yuqori foiz stavkalar (pasayish kuzatilmoqda):**

- qarz mablag‘lari muddatini qisqartirish;
- fiksirlangan stavkalaridagi kreditlarni ulushini oshirish;
- investitsiyalar portfeli muddatlarini oshirish;
- aktivlarni sotish rejasini tuzish.

**IV bosqich - kamayuvchi foiz stavkalar (minimal tushish mumkin):**

- qarz mablag‘lari muddatini uzaytirish;
- investitsiya muddatlarini kamaytirish;
- o‘zgaruvchan foiz stavkalaridagi kreditlar ulushini oshirish;
- qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni kamaytirish;
- uzoq muddatli qarzlarni oshirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Qoraliev T.M., Sattarov O. va boshqalar. Tijorat banklari faoliyatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. 2013-yil. -192 b.
- 2.Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya. 2017-yil. -733 b.
- 3.Omonov A.A. Pul va banklar. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya.2018-yil. -500 b.
- 4.Omonov A.A., Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: Iqtisod-moliya. 2012-yil. -324 b.
- 5.Qoraliev T., Sattarov O. Va boshqalar. Tijorat banklari faoliyatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. 2013-yil. -192 b.

**Каландаров Абдулла Бахтиёрович** – Соискатель ученой степені PhD Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К КОНЦЕПЦИИ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ

**Аннотация.** В статье исследуются причины появления проблемных кредитов в кредитном портфеле банка, пути их устранения, а также даются научно-практические предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** кредит, мониторинг, кредитный портфель, коммерческий банк, заемщик, просроченный кредит, проблемный кредит, NPL, PAR.

**Annotation.** The article examines the causes of the appearance of problem loans in the bank's loan portfolio, ways to eliminate them, and also provides scientific and practical suggestions and recommendations.

**Key words:** loan, monitoring, loan portfolio, commercial bank, borrower, overdue loan, problem loan, NPL, PAR.

**Аннотация.** Мақолада банк кредит портфелидаги муаммоли кредитларнинг вужудга келиш сабаблари, уларни бартараф этиш йўллари ўрганилган ва илмий-амалий таклиф ва тавсиялар берилган.

**Калит сўзлар:** Кредит, мониторинг, кредит портфели, тижорат банки, қарз олувчи, муддати ўтган кредит, муаммоли кредит, NPL, PAR.

**Вступление.** Согласно информации, предоставленной Центральным банком Республики Узбекистан,<sup>86</sup> в течение 2022 года проблемные кредиты в коммерческих банках Узбекистана сократились в общей сложности на 2 трлн. 353,8 млрд. сума и на конец года составили 13 трлн. 992,4 млрд. сумов. Хотя кредитный портфель увеличился почти на 20% по сравнению с началом года, доля проблемных кредитов в системе снизилась с 5,02% на начало года до 3,59% на конец года.

Практически во всех госбанках доля проблемных кредитов снизилась (с 5,38% до 3,89%). Отдельно можно отметить Народный банк (-7,75%) и Алокабанк (-2,03%), значительно сократившие долю просроченных кредитов по сравнению с началом года. Также в количественном отношении значительно уменьшились проблемные кредиты в Национальном банке (-667,2 млрд сумов) и Узпромстройбанке (-270,8 млрд сумов).

Проблемные кредиты в «Узагроэксспортбанке» выросли с 55,48% на начало года до 96,29% на конец года (следует отметить, что кредитный портфель банка сократился с 30,1 млрд сумов до 6,2 млрд сумов).

Доля проблемных кредитов в других банках снизилась с 2,81 процента до 2,06 процента. Проблемные кредиты в Равнакбанке (+112,4 млрд. сумов, +48,41%), Трастбанке (+81,3 млрд. сумов, +1,93%), Тенге Банке (+59,9 млрд. сумов, +0,30%), Анорбанке (+47 млрд. сумов, + 1,55%), Мадад-

<sup>86</sup> <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/843935/>

Инвест банк (+14,5 млрд. сумов, +8,07%) и Давр банк (+26,6 млрд. сумов, +0,56%) значительно увеличилась доля проблемных кредитов.

Среди других банков некоторую активность проявлял Азия Альянс банк (-113,2 млрд. сумов), Инвест Финанс банк (-30,2 млрд. сумов), Ипак Йули банк (-72,2 млрд. сумов), Хамкорбанк (-37,7 млрд. сумов) и Капитал банк (-53,6 млрд. сумов).<sup>87</sup>

Такая ситуация негативно сказывается на обеспечении стабильности банковской системы страны, оборота банковских средств, своевременном выполнении банком своих обязательств перед клиентами. Убытки от проблемных кредитов не ограничиваются убытками, непосредственно связанными с погашением кредита и невыплатой процентов. Ущерб от проблемных кредитов более значителен в следующих случаях:

- во-первых, замораживание приносящих доход активов коммерческих банков;

- во-вторых, утрата доверия вкладчиков, инвесторов и других клиентов к данному банку и снижение репутации банка;

- в-третьих, увеличение административных расходов банка в связи с необходимостью особого внимания и контроля со стороны кредитных отделов коммерческих банков;

- в-четвертых, в связи со снижением размера прибыли, поступающей от кредитных операций, в результате уменьшения материального стимулирования возрастает риск потери квалифицированных кадров банка и т.д.<sup>88</sup>

Это создает необходимость совершенствования практики взыскания проблемных кредитов коммерческих банков и определяет актуальность развития банковской системы.

**Основная часть.** Повышение эффективности банковской системы Республики Узбекистан связано с активным участием банков в кредитовании реального сектора экономики. Однако коммерческие банки нашей страны сталкиваются с рядом трудностей и проблем в кредитной деятельности. Особенно сегодня заметно наличие проблемных кредитов в кредитном портфеле, который составляет основную часть доходоприносящих активов коммерческих банков. Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев подчеркнул, что «необходимо дальнейшее расширение возможностей банков по возврату проблемных кредитов, необходимо, чтобы банки, предприятия-должники, компании и объединения, руководители регионов работали вместе, чтобы собрать их».<sup>89</sup>

<sup>87</sup> <https://bankers.uz/1019>

<sup>88</sup> Тухтабаев У.А. Проблемные кредиты и способы их устранения / Дисс.... кон.экон.наук. Ташкент, 2008. - 4-5 с.

<sup>89</sup> Видеоселекторное совещание под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 22 ноября 2018 года, посвященное вопросам реформирования банковской системы и укрепления финансовой устойчивости банков, повышения роли коммерческих банков в развитие регионов и предпринимательства.

Английские экономисты Дэвид Полфриман и Филип Форд коснулись вышеперечисленных моментов с точки зрения банкиров: «Деньги займы даются легко, но обеспечение их возврата — это то, где требуется мастерство».<sup>90</sup>

В настоящий момент понятие «проблемный кредит» гораздо шире, чем раньше, используется в научно-теоретических и практических кругах нашей страны и вызывает споры. Безусловно, не зря, ведь сегодня доля проблемных кредитов в кредитном портфеле банковской системы нашей республики продолжает расти.

По своей экономической сущности безнадежные кредиты являются результатом фактического проявления кредитных рисков, то есть следствием неумения должным образом управлять кредитными рисками. Поэтому понятие «проблемный кредит» напрямую связано с категорией «кредитные риски». Поэтому при раскрытии сущности проблемных кредитов уместно остановиться на экономическом содержании кредитных рисков.

В частности, один из наших отечественных ученых д.э.н., проф. Ш. З. Абдуллаева определяет кредитный риск как неисполнение заемщиком условий кредитного договора, то есть суммы кредита (частично или полностью) и процентов в сроки, указанные в соглашении.<sup>91</sup> Аналогично трактуют кредитный риск и некоторые российские ученые.<sup>92</sup>

И. В. Пещанская отмечает, что «кредитная деятельность — не единственная форма кредитного риска».<sup>93</sup> По мнению ученых, придерживающихся такой точки зрения, кредитный риск проявляется и в сделках, связанных с ценными бумагами и с банковскими гарантиями.

В целом происхождение проблемных кредитов не будет зависеть только от кредитного риска. Ведь наличие валютного риска, рыночного риска, риска изменения процентной ставки и других рисков и невозможность их правильной оценки влияет на возникновение проблемных кредитов. Роль и влияние рисков задействованы в изучении экономического содержания проблемных кредитов.

Термин «проблема» определяется некоторыми учеными с экономической точки зрения следующим образом: «Problem - образована от греческого слова проблема, задача и представляет собой сложный теоретический или практический вопрос, для решения которого не существует общепринятых методов».<sup>94</sup> Анализ существующих исследований показал, что ряд ученых так или иначе пытались изучить

---

<sup>90</sup> Palfreman D., Ford Ph. Elements of banking. – 2nd ed.. – London: Pitman, 1988. – 456p.

<sup>91</sup> Абдуллаева Ш.З. Банковские риски и кредитование. – Ташкент: Финансы, 2002. – 124 с.

<sup>92</sup> Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ “ДИС”, 1997. – 286 с.

<sup>93</sup> Пещанская И.В. Организация деятельности коммерческого банка: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 33 с.

<sup>94</sup> Большой экономический словарь/ Под ред. А.Н.Азрилияна. – 5-е изд. доп. и перераб. – М.: Институт новой экономики, 2002. – 791 с.

проблемные кредиты в своих научных исследованиях, посвященных изучению кредитных рисков. Но не все из них определили это понятие.

По мнению Питера Роуза, американского эксперта, проводившего эффективные научные исследования в области банковского управления, тот факт, что заемщик, не производивший один или несколько платежей означает, что кредит переводится на категория проблемных кредитов.<sup>95</sup>

По мнению ряда западных экономистов, просрочка платежей по кредиту более чем на 90 дней по графику или, нарушение условий кредитного договора свидетельствует о том, что кредит является проблемным.<sup>96</sup> Последнее данное определение согласуется с нормативными документами по классификации качества существующих активов в нашей стране. Потому проценты по кредиту и основной долг, просроченный более чем на 90 дней, должны быть отнесены к категории проблемных кредитов.<sup>97</sup> По мнению профессора Ш.З.Абдуллаевой, кредиты со сроком платежа более 30 дней могут быть проанализированы как проблемные кредиты в связи с тем, что они не были возвращены в срок.<sup>98</sup>

Однако просроченный кредит нельзя назвать проблемным кредитом в прямом смысле, ведь кратковременная пролонгация первоначальных платежей по кредиту не означает, что он вообще не будет возвращен. Однако своевременное погашение кредита не гарантирует его надежности, а значит, вовремя погашаемый кредит может в будущем оказаться в категории безнадежных кредитов.

Известно, что по законодательству кредиты, классифицируемые в банковской практике как «неудовлетворительные», «сомнительные» и «безнадежные», являются проблемными кредитами.<sup>99</sup>

При выяснении характера проблемных кредитов необходимо найти ответ на вопрос, почему «стандартные» кредиты могут попадать в категории «субстандартные», «неудовлетворительные», «сомнительные» и «безнадежные». На это, безусловно, влияют конкретные объективные и субъективные причины. Для того чтобы практика ликвидации проблемных кредитов была эффективной, необходимо определить причины их возникновения. Кроме того, выявление этих причин и их классификация является одним из самых основных и начальных шагов в процессе ликвидации проблемных кредитов. Поэтому целесообразно учитывать эти причины при определении проблемных кредитов.

---

<sup>95</sup> Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997. – 192 с

<sup>96</sup> Fraser D., Gup B., Kolari J. Commercial banking/ The Management of Risk. - St Paul, MN, West Publishing Company, 1995. – 623 p.

<sup>97</sup> Решение Правления Центрального банка Республики Узбекистан от 13 июня 2015 года № 14/5 «Об утверждении Положения о классификации активов в коммерческих банках и формировании резервов на покрытие возможных убытков по активам и порядок их использования». (<https://lex.uz/docs/2703053>)

<sup>98</sup> Абдуллаева Ш.З. Банковские риски и кредитование. – Ташкент: Финансы, 2002. – 187 с.

<sup>99</sup> Решение Правления Центрального банка Республики Узбекистан от 13 июня 2015 года № 14/5 «Об утверждении Положения о классификации активов в коммерческих банках и формировании резервов на покрытие возможных убытков по активам и порядок их использования». (<https://lex.uz/docs/2703053>)

**Выводы.** Таким образом, мы считаем, что следующее определение проблемных кредитов, объединяющее вышеперечисленные пункты в единую систему, полностью раскрывает их содержание. Итак, являясь результатом явного проявления кредитных рисков на практике, мы можем охарактеризовать как проблемные те кредиты, которые по объективным и субъективным причинам перешли в категорию "неудовлетворительных", "подозрительных" и "безнадежных" кредитов вследствие нарушений условий кредитного договора.

В целях системного проведения мероприятий по работе с проблемными кредитами было предложено проводить классификацию проблемных кредитов по следующим основным направлениям:

1. По срокам
2. По качеству
3. По обеспечению
4. По источнику ресурса

Классификация проблемных кредитов по вышеуказанным направлениям помогает правильно и эффективно спланировать работу по их устранению. Кроме того, будет важно определить, на что следует обратить внимание при взыскании задолженности, если меры по возврату кредита не дадут положительных результатов.

Таким образом, в основе развития большинства банковских кризисов лежит рост неудовлетворительной, сомнительной и безнадежной задолженности. Каждый коммерческий банк, выявивший в своем кредитном портфеле наличие проблемных кредитов, должен тщательно проанализировать каждый случай возникновения таких кредитов, а также осуществить меры по их устранению с учетом интересов как кредитора, так и должника. Прежде чем принять решение об использовании того или иного метода ликвидации проблемных кредитов, необходимо в первую очередь рассмотреть вопросы, связанные с причинами появления таких активов, а также изучить основные признаки, свидетельствующие о наличии проблемных кредитов в банк.

**Ashurova Oltin Yuldashevna – Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti assistenti**

## **MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INVESTITSION JARAYONLARNING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** maqolada iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda investitsion jarayonlarning ahamiyati, raqamli platforma, raqamli ma'lumotlar kabi qator unsurlar ko'rsatilgan. Iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish orqali mamlakatimizdagi o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Milliy iqtisodiyotning mehnat

bozoriga ta'siri natijasi, investitsion jarayonlarning o'zgarish ko'rsatkichlari ifoda etilgan. Investitsion jarayonlarni o'sishini sekinlashtiruvchi qator to'siqlar bayon etilgan va ularni bartaraf etishga oid takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy iqtisodiyot, raqamli platforma, raqamli ma'lumotlar, real investitsiya, modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash.

**Аннотация:** в статье показано значение инвестиционных процессов, цифровой платформы и цифровых данных в повышении конкурентоспособности экономики. Рассмотрены изменения в нашей стране за счет инвестиций в экономике. Выражены результаты воздействия национальной экономики на рынок труда, показатели изменения инвестиционных процессов. Описан ряд препятствий, замедляющих рост инвестиционных процессов, и представлены предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** национальная экономика, цифровая платформа, цифровая информация, реальные инвестиции, модернизация, техническое и технологическое обновление.

**Abstract:** the article shows the importance of investment processes, digital platform, and digital data in increasing the competitiveness of the national economy. Changes in our country were considered through investments in the economy. The results of the impact of the national economy on the labor market, indicators of changes in investment processes are expressed. A number of obstacles that slow down the growth of investment processes are described and proposals for their elimination are presented.

**Key words:** national economy, digital information, technical and technological updating, real investment, modernization.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillar Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyot korxonalarining ham ichki, ham xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari muhim o'rin egallagan, chunki globallashuv sharoitlarida bu masala muhim ahamiyatga ega. Albatta, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash zaruriyati bevosita Ozbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadlari, korxonalar xo'lik faoliyatining makro va mikro darajadagi sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsada, balki xalqaro darajada bozor raqobatining keskinlashuvining ta'sirini inkor etish mumkin emas.

Mamlakatimiz korxonalari ko'plab resurslar va xizmatlarning monopol bozorlarda sotib olishga, o'z tovarlarini esa raqobat kuchli bo'lgan xalqaro yoki ichki bozorlarda sotishga majburlar. Bu esa texnologik modernizatsiyani amalga oshirishdagi moliyaviy imkoniyatlarga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi uning jahon xo'jaligiga eng maqbul tarzda integratsiyalashuviga erishishni ta'minlay oladi.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda boshqaruv tizimining tarkibiy qismlaridan tashkil topgan bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni va ijtimoiy muhitida sifat jihatidan keskin o'zgarishga qaratilgan mahsulot ishlab chiqarish va

xizmatlar ko'rsatishning barcha bosqichlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirishdan iboratdir.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash yuzasidan qabul qilinayotgan har bir chora-tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, innovatsion xususiyatga ega, chunki ular ilg'or texnika va texnologiyalarga asoslanib, iqtisodiy, ishlab chiqarish va sotish salohiyatini tashkil etadi. Modernizatsiya qilish jarayonlarini rag'batlantirish korxonaning texnik va investitsion siyosati maqsadlarini birlashtirishni nazarda tutadi hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va assortimentini kengaytirishga qaratiladi. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish jarayonlarini amalga oshirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan izchil siyosat natijasida iqtisodiyotning arkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y bermoqda.

Mustaqillik yillarida sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ijobiy o'rtacha yillik o'sish sur'atlari fonida sodir bo'ldi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o'sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlarlarining amalga oshirilish natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi. Xizmatlar sohasining YaIM dagi ulushi 2021 yildagi 39.0 foizdan 2022 yilda 40.5 foizgacha oshdi.

Iqtisodiyotning erkinlahtirilishi natijasida investitsion jarayonlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga, hududlarda va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Ularning amalga oshirilishi YaIM ning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, aholi bandligini va farovonligini oshirishni ta'minlaydi. Shuning uchun 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyoti strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar uzoq vaqtga mo'ljallangan fundamental maqsadlarni o'rtaga qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni ham o'z ichiga olmoqda. Bular orasida ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar negiziga ko'chirish va samaradorligini to'xtovsiz oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash, eng avvalo, real investitsion jarayonlarga tayanadi va katta miqdordagi investitsiya resurslarini talab etadi. Bunda investitsiyalarni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalaridan unumli foydalanish, shu bilan birga, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va tadbirkorlarning investitsion faolligini har tomonlama ta'minlash zarur bo'ladi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha sohalariga real investitsiyalarni kiritish yuzasidan faol siyosat yuritilishi va aniq tadbirlarning amalga oshirilishi bu borada ijobiy natijalar bermoqda.

Investitsion jarayonlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga, hududlarda va korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Hozirgi kunda YaIM ning o'sishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanishi talab etilmoqda.

Real investitsiyalar korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga, texnik-texnologik yangilanishga qaratiladi. Shuning uchun yaratilgan yangi quvvatlar hududning iqtisodiy ishlab chiqarish va sotish salohiyatini rivojlantiradi. Natijada yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va assortimentini amalga oshiriladi.

Mamlakatda iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish natijasida olib borilayotgan izchil tarkibiy siyosat iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Koronavirus pandemiyasi ta'siri sharoitlarida ham Samarqand viloyatida iqtisodiy taraqqiyot va investitsion jarayonlarda erishilgan ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanib qoldi.

Samarqand viloyatida 2022 yilda 3170.4 mlrd.so'm hajmida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritildi, shundan to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari 3066.1 mlrd.so'm ( 96.7%), qolgan 104.3 mlrd so'm. (3.3 %) boshqa investitsiyalar o'zlashtirildi. Inflyatsiya sur'atlarini e'tiborga olganda viloyatda real investitsiyalash jadal kengayib bormoqda. Uning natijasida 2022 yilda 25.8 mingdan ortiqroq ish o'rinlari yaratildi. 2021-2022 yillarda viloyatdagi 462 ta mahallalarda 1279 ta 30.4 trln.so'mlik investitsion loyihalar ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Asosan viloyatning iqtisodiy rivojiga quyidagi sohalarni rivojlantirish hisobga olingan;

- sanoat-qurulish materiallarini ishlab chiqish;
- tekstil sanoati;
- elektrotexnika sanoati;
- oziq-ovqat sanoati;
- kimyo sanoati;
- metallurgiya sanoati.

Davlat rahbari tomonidan “URGUT” erkin iqtisodiy zonadagi maxsus innovatsion iqtisodiy zona tajribasini bosqa tumanlarda ham joriy qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Hozirgi sharoitlarda mahalliy resurslar bilan birga hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ular orqali yangi bilim va texnologiyalardan foydalangan holda rivojlanish samarali ekanligi ayon bo'lmoqda. Shu bilan birga, agar hududda yoki korxonada ishlab chiqilgan texnologik va institutsional innovatsiyalar xalqaro miqyosda e'tirof etilsa, rivojlanish kreativ xarakterga ega bo'ladi va yangi mazmundagi daromadlar (renta, royalti ko'rinishida) keltirishi mumkin. Kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar o'zining iqtisodiy samaradorligini namoyish etmoqda.

Investitsion jarayonlarning natijalari tufayli viloyat eksportining hajmlari va tarkiblarida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. 2021 yilda 68.2mln.dol. tovar

eksportga chiqarilgan bo'lsa, 2022 yilda viloyatda eksport hajmlari 224,8 mln.dollarni tashkil qildi. Jumladan:

- meva sabzavot – 61.6 mln.dol.
- to'qimachilik mahsulotlari – 41.4 mln.dol.
- spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlari – 27.0 mln.dol.
- metall va undan tayyorlangan buyumlar – 22.5 mln.dol.
- kalava ip – 19.6 mln.dol.
- oziq-ovqat – 14.5 mln.dol.
- transport va ehtiyot qismlar – 11.6 mln.dol.
- hayvonlar uchun ozuqa mahsulotlari – 5.9 mln.dol.
- boshqa mahsulotlar – 20.7 mln.dol.

Viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalari 100 dan ortiq mamlakatlar bilan olib borilmoqda.

Innovatsion faoliyatni kengaytirish va rag'batlantirish, innovatsion iqtisodiyotni bo'yicha bilimlarni shakllantirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biridir. Jahon tajribasida milliy iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilishning juda ko'p yo'llari va usullari, erishilgan natijalari mavjud. Umumiy jihatdan tarkibiy modernizatsiyaning ikki asosiy zamonaviy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

- “bilimlar iqtisodiyoti” talablariga muvofiq modernizatsiyalash va ta'lim, fan, innovatsiya soylarini rivojlantirish;
- tadbirkorlik faoliyatini, ayniqsa innovatsiya faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilar duch kelayotgan quyidagi muammolar iqtisodiyotni modernizatsiyalashni talab qiladi:

- Asosiy fondlarning eskirganligi;
- Ishlab chiqarish uskunalari xizmat muddatini o'tab bo'lganligi va ma'naviy eskirganligi;
- Samarasiz texnologiyalarning qo'llanilishi;
- Ustuvor tarmoqlarda malakali kadrlarning yetarli emasligi;
- Raqobatbardosh bo'lmagan mahsulotlarning ishlab chiqarilishi.

Kelajakda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari korxonalarida modernizatsiya jarayonlarini boshqarishda quyidagi mexanizmlarni joriy qillishni taklif qilamiz:

Birinchidan, iqtisodiyotning yetakchi sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish bo'yicha yagona tizimni ishlab chiqish yoki yagona bo'g'inni tashkil etish.

Ikkinchidan, sanoat korxonalarini umumiy menejmentida modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish bo'yicha tartib va prinsiplarni kiritish.

Uchinchidan, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnologik jihatdan yangilash uchun olib kelingan asbob va uskunalarni o'z vaqtida o'rnatish va ishga tushirishni qat'iy boshqarish.

To’rtinchidan, texnologik ma’naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalar salmog’i yuqori bo’lgan korxonalarni doimiy audit va monitoring qilish bo’yicha muttasaddi tashkilotlarning boshqaruv rolini kuchaytirish.

Beshinchidan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlari jadallashib borayotgan bir vaqtda ushbu yo’nalishdagi ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish milliy iqtisodiyotning xalqaro miqyoslardagi raqobatbardoshligiga erishilishini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017.8.02.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Koronavirus pandemiyasi tarqalishiga qarshi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” Xalq so’zi, 2020.24.03.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “O’zbekiston Respublikasining 2021-2022 yillarga mo’ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4937-sonli. 2020.28.12.

**Karimjanova Ra’noxon** – Namangan muhandislik – texnologiya instituti Marketing kafedrasida katta o’qituvchisi

**Abduraxmonov Javlonbek Ravshan o’g’li** – Namangan muhandislik-texnologiya instituti Marketing ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

## **NAMANGAN VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING TUTGAN O’RNI**

“2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Strategiyada raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy “drayver”laridan biriga aylantirish va uning hajmini 2,5 barovarga oshirish rejalashtirilgan. Dasturiy ta’minot vositalarini ishlab chiqarish hajmini 5 baravar, ularni eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 mln. dollarga etkazish maqsad qilingan”.<sup>100</sup> Ushbu soha harakatlantiruvchi kuch sifatida bejiz tanlanmagan,

---

<sup>100</sup> <sup>100</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60 – sonli farmoni

zero, raqamlashtirish jarayoni iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarining samaradorlik darajasi va kadrlar malakasini oshirishga ta'sir qiluvchi hamda barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni, avvalambor, uning tarkibidagi barcha soha va tarmoqlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobiga mehnat unimdorligini oshirish, qarorlar qabul qilish hamda soha va tarmoqlarning rivojlanishida yangi qirralarni ochishga asoslangan kompleks jarayonlarni qamrab oladi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ham yildan-yilga kengayib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri zamonaviy raqamli texnologiyalar tobora ommalashib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganligidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi tor ma'noda raqamli iqtisodiyotning asosi deb hisoblansa, keng ma'noda raqamli iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni ommaviy ravishda qo'llanishi tushuniladi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi.

Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tan narxini kamaytirish imkonini beradi.

Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

O'zbekistonda “Raqamli O'zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining

uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan voqealikni aks ettirish uchun o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.

Yaqin yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida tub o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda. Iqtisodiyot ochiq, jadal, innovatsion rivojlanishga aylandi. Biroq, tan olish kerakki, jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida O'zbekistonning keyingi iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan tasavvur qilish qiyin.

Afsuski, Respublikada bu sohada ikkita katta muammo mavjud: telekommunikatsiya infratuzilmasi va mutaxassislarning yetishmasligi. Bu Respublikamiz iqtisodiyotining raqamli aylanishiga jiddiy to'sqinlik qilishi va natijada raqamli iqtisodiyot sohasida sustlashish bo'lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotga qisqacha qilib iqtisodiyotning raqamlashuvi ya'ni iqtisodiyot tarmoqlarining raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanishi deb ta'rif berish mumkin. Demak xorijiy investitsiyalar bilan mamlakatga yangi texnologiyalar kirib kelar ekan u albatta bu mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Mamlakatimizda qulay investitsion muhitni shakllantirishga qaratilgan islohatlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi ham ko'payib bormoqda.

Birgina 2021-yil holatida xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelish holatini tahlil qilinsa, unda quyidagi holatni kuzatish mumkin:

2021 yilda 86653,1 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2020 yilga nisbatan 2,5 marta ko'p asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi – 45,7 % tashkil etdi. 2021 yilda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning Yalpi ichki mahsulotga nisbati 16,9 % ni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 9,5 % punktga ko'paygan. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 9803,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 4205,4 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 42,9 % ini tashkil etgan. O'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

investitsiyalarning hajmi 2021 yilda 37171,3 mlrd. so‘mni yoki 2020 yilga nisbatan 3,6 martani tashkil qilgan.

Bu borada Namangan viloyatida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Viloyatda xorijiy investitsiyalar xajmini yanada oshirish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqilib, “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrda PQ-72-sonli Prezident qaroriga ko‘ra, viloyatda Investitsiya dasturi doirasida 2022 yil davomida jami 345,8 mln. dollarlik 60 ta loyihalarda xorijiy investitsiya mablag‘larni o‘zlashtirildi.

2022 yil davomida umumiy qiymati 216,2 mln. dollarlik 17 ta investitsiya loyihalarini ishga tushirilishi belgilangan bo‘lib, mazkur loyihalar ishga tushishi natijasida 5967 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Misol uchun, Chust tumanida "Factory cement" MChJ tomonidan sement mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish (Xitoy Xalq Respublikasi), Davlatobod tumanida "Lyuks Plus Servis" MChJ tomonidan to‘qimachilik mahsulotlarini (kostyum matolari) ishlab chiqarishni tashkil etish (Germaniya), Uchqo‘rg‘on tumanida MR-Fish (Gills and Clawc Aquaculture Pte.Ltd) QK tomonidan intensiv baliqchilik xo‘jaligini tashkil etish (Eron Islom Respublikasi) kabi loyihalar amalga oshirildi.

Xorijiy investitsiya mablag‘larining asosiy qismi Xitoy 127,7 mln. dollar, Frantsiya 37,0 mln. dollar, Pokiston 26,7 mln. dollar, Niderlandiya 25,4 mln. dollar, Hindiston 20,6 mln. dollar, Qozog‘iston 17,3 mln. dollar, Turkiya 16,9 mln. dollar, Germaniya 13,7 mln. dollar davlatlariga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish hamda mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelish hajmini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ❖ Respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag‘larni keng jalb qilishni ta‘min-laydigan huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni muntazam takomillashtirish;
- ❖ Respublikamizga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish tizimini takomillashtirish;
- ❖ Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga olib kiruvchi xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;
- ❖ Energiya tejankor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarni o‘rnatish; mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg‘or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o‘zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag‘batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag‘lar yo‘naltirish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalar hajmining oshib borishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishga olib boruvchi asosiy omillardan biridir. Xorijiy investitsiyalar bilan birga mamlakatga ilg‘or g‘oyalar, yangi texnologiyalar hamda zamonaviy menejment tamoyillari kirib keladi. Bu esa xorijiy investitsiyalarning mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi samarali vosita ekanligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirish eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Ш.С.Олтаев** – СамИСИ доценти, и.ф.н.

### **ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТНИ БОШҚАРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ**

**Аннотация.** Бугунги кунда дунёдаги барча мамлакатларда маҳаллий ва хорижий инвестицияларни иқтисодиётнинг турли тармоқларига кенг жалб этиш, уларга кенг имкониятлар яратиш, турли хил солиқли ва солиқсиз имтиёзларни бериш, жалб қилинган маблағларни самарали бошқариш муҳим аҳамият касб этмоқда. Мақолада Ўзбекистонда инвестиция фаолиятини самарали ташкил этиш ва инвестицион маблағлардан самарали фойдаланиш масалаларига тўхталиб ўтилган ва тегишли хулосалар шакллантирилган.

**Калит сўзлар:** Инвестиция, инвестицион фаолият, инвестицион муҳит, инвестицион жозибadorлик, солиқ, солиқ имтиёзлари, инвестиция лойиҳаси.

**Abstract.** Today, in all countries of the world, it is important to attract local and foreign investments to various sectors of the economy, create opportunities for them, provide various tax and non-tax benefits, and effectively manage the funds involved. The article focused on the issues of effective organization of investment activities and effective use of investment funds in Uzbekistan, and appropriate conclusions were drawn.

**Keywords:** Investment, investment activity, investment environment, investment attractiveness, tax, tax benefits, investment project.

**Аннотация.** Сегодня во всех странах мира важно привлекать местные и иностранные инвестиции в различные отрасли экономики, создавать для них возможности, предоставлять различные налоговые и неналоговые льготы, эффективно управлять привлеченными средствами. В статье были рассмотрены вопросы эффективной организации инвестиционной деятельности и эффективного использования инвестиционных средств в Узбекистане, сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционная деятельность, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, налог, налоговые льготы, инвестиционный проект.

Бугунги кунда жаҳон иқтисодиётида рўй бераётган жадал ўзгаришлар, янгиланишлар ва тараққиёт ҳар бир давлатдан фаол иқтисодий тараққиётни таъминлашга қаратилган самарали ислохотларни амалга ошириш ва такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Ана шундай юксак эътибор ва масъулиятни талаб қиладиган ички ва ташқи сиёсатда миллий иқтисодиётнинг устувор йўналишлари ва стратегик манфаатларига эришиш ва ҳимоя қилиш ички ва ташқи томондан кенг кўламли чора-тадбирларни изчил амалга ошириш орқали таъминланади. Сўнгги йилларда мамлакатимизда инвестиция ва уни молиявий бошқаришга қаратилаётган эътиборнинг кучайиши юртимизда инвестиция фаолиятининг ривожланишига олиб келди.

Иқтисодиётда инвестициялардан самарали фойдаланиш уларни бошқариш билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Инвестицияларни самарали бошқариш, албатта, инвестиция фаолиятининг қанчалик самарали ташкил этилганлигига асосланади. Умуман олганда, инвестицияларни амалга ошириш инвестиция жараёнининг ажралмас қисми бўлиб, инвестиция ресурсларини яратиш натижасида юзага келади. Ўз навбатида, у инвестициянинг мақсади билан бевосита боғлиқдир. Чунки, кўзланган мақсадга эришиш истаги инвесторларни капитал тўплашга ва кейинчалик уларни шу мақсад учун сафарбар қилишга ундайди. Дарҳақиқат, мақсад аниқ натижага қаратилган экан, натижа, ўз навбатида, аниқ мақсадларга олиб келади ва шунга мос равишда, инвестиция жараёнини акс эттирувчи кетма-кетликни яратади.

Инвестицияларнинг бундай ҳаракати инвестиция фаолияти орқали амалга оширилади. Шунинг учун инвестиция фаолиятининг моҳиятини билиш жуда муҳимдир. Инвестиция фаолияти - инвестиция фаолияти субъектларининг инвестицияларни амалга ошириш билан боғлиқ ҳаракатлари мажмуи ҳисобланади. Инвестиция фаолияти - давлат, юридик шахслар ва фуқароларнинг инвестициялар киритиш, сармоя киритиш бўйича амалий ҳаракатлари мажмуи сифатида намоён бўлади. Инвестиция фаолияти - даромад (самара) олиш мақсадида инвестиция объектларига маблағларни киритиш билан боғлиқ фаолиятдир. Кенг маънода инвестиция фаолияти ушбу ғояларни ишлаб чиқиш ва инвестиция лойиҳаларини асослаш, уларни моддий-техник ва молиявий кўллаб-қувватлаш, натижада қурилаётган объект фаолиятини бошқариш ва инвесторлар томонидан белгиланган мақсадларга эришиш қобилиятини ҳам акс эттиради.

Инвестиция фаолияти инвесторнинг инвестиция ресурсларини инвестиция объектига сафарбар қилишга асосланган бўлса, бу фаолият инвесторнинг мақсадини ташкил этиш ва бошқаришни тақозо этади.

Инвестицион фаолиятни молиявий бошқариш зарурати шу билан изоҳланадики, инвестиция фаолиятига ҳар қандай инвестиция, пировардида, инвесторнинг манфаатларини автоматик тарзда таъминлай олмайди.

Биз биламизки, инвесторлар ҳар доим ўзларининг инвестиция фаолиятидан катта фойда ва имтиёзларни кидирадилар. Бу орқали улар ўз капиталини кўпайтиришни ва бозор таваккалчилиги остида уни қийматини йўқотишдан ҳимоя қилишни исташади. Бунинг учун улар ўз сармояларини энг мақбул инвестиция лойиҳасига йўналтириш ва унинг ҳаракатини мунтазам равишда бошқариш орқали ўз мақсадига эришишга интилади. Инвестицион фаолият, инвестиция фаолияти субъектлари томонидан инвестиция фаолияти объектларига йўналтирилган инвестиция ресурслари билан боғлиқ ҳолда вужудга келадиган муносабатларни ўзида мужассам этган бўлса, бу фаолият инвесторларнинг аниқ мақсадларидан келиб чиқиб вужудга келади ва ривожланади. Шу билан бирга, қурилиши ва фойдаланиши қонун ҳужжатларида белгиланган санитария-гигиена, радиациявий, экологик, архитектура ва бошқа талабларга жавоб бермайдиган, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан кўриқланадиган юридик шахслар ва жисмоний шахслар манфаатларини бузувчи объектларга инвестиция киритиш тақиқланади. Бундай объектларни давлат аҳамиятига молик объектлар сифатида бошқа субъектлар томонидан инвестиция қилиниши қонуний равишда тақиқланади.

Агар инвестиция фаолияти инвесторнинг инвестиция ресурсларини инвестиция объектига сафарбар этишга асосланган бўлса, бу фаолият инвесторнинг мақсадини ташкил этиш ва бошқаришни талаб қилади. Инвестицион фаолиятни молиявий бошқариш зарурати шуни англатадики, ҳар қандай инвестиция фаолияти охир-оқибат инвесторнинг манфаатларини автоматик равишда таъминлай олмайди. Биз биламизки, инвесторлар ҳар доим ўзларининг инвестиция фаолиятидан катта фойда ва имтиёзларни кидирадилар. Бу орқали улар ўз капиталини кўпайтиришни ва бозор таваккалчилиги остида ўзларини қийматини йўқотишдан ҳимоя қилишни хоҳлашади. Бунинг учун улар ўз сармояларини энг мақбул инвестиция лойиҳасига йўналтириш ва унинг ҳаракатини мунтазам равишда бошқариш орқали ўз мақсадларига эришишга интилади. Инвестицион фаолиятда инвесторлар даромад (даромад) олиш ёки самарадорликка эришиш мақсадида инвестицион ресурсларни иқтисодиёт тармоқларига киритадилар.

Шунга кўра, инвестиция фаолиятини молиявий бошқариш зарурати қуйидагилар билан изоҳланади: биринчидан, инвесторнинг инвестицион фаолиятини молиялаштиришни ташкил этишдаги мақсади; иккинчидан, инвесторнинг инвестицион фаолияти орқали ўз капиталини янада ошириш истаги; учинчидан, доимий бошқарувсиз инвестиция фаолиятини ташкил этишнинг самарасизлиги; тўртинчидан, турли риск омилларининг

инвестиция фаолиятини самарали олиб боришга таъсири; бешинчидан, инвестиция фаолиятида инвестордан ташқари кўплаб бошқа иштирокчиларнинг иштироқи ва унда мавжудлиги; олтинчидан, ҳар қандай инвестиция фаолияти, албатта, давлат ва жамият манфаатлари ва ривожланишига хизмат қилишга қаратилганлиги; еттинчидан, бозорда кучли рақобат; саккизинчидан, инвесторнинг чекланган инвестиция ресурслари ва шунинг учун энг самарали инвестиция объектида чекланган вақт ичида ундан максимал даражада фойдаланиш истаги ва бошқалар.

Ўзбекистонда инвестиция фаолиятини молиявий бошқаришда мавжуд муаммоларнинг жиддийлиги ва ҳал этилиши зарур бўлган долзарб масалалар иқтисодиёт ривожига ўз ўрнига эга бўлган қатор муҳим тармоқларнинг ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Бунинг учун мавжуд муаммоларни ҳал қилиш учун чуқур ва ҳар томонлама изланишлар олиб борилиши керак. Ушбу мавзу бўйича олиб борилган илмий тадқиқотлар натижасида қуйидаги умумий хулосалар шакллантирилди:

1. Инвестиция фаолиятини бошқариш инвестиция лойиҳаси билан бевосита боғлиқ ҳолда ташкил этилганлиги сабабли, муайян лойиҳа бўйича инвестиция фаолиятини бошқариш зарурати қуйидагилардан иборат: молиявий беқарорлик шароитида лойиҳа самарадорлигини пасайтириш хавфининг устунлиги; инвестиция лойиҳасини бошқаришнинг вақт жараёни билан алоқаси; лойиҳанинг якуний натижасига таъсир этувчи муҳим омиллардан бири бу инфляциянинг мавжудлиги; турли ноаниқликларнинг мавжудлиги ва таъсири; ҳар қандай лойиҳанинг кучли ва заиф томонларини, уларни молиявий таҳлил қилиш ва диагностика қилиш орқали лойиҳани амалга оширишда дуч келадиган хатарларни, инкироздан чиқиш учун қарор қабул қилиш зарурлигини, чора-тадбирлар ишлаб чиқишни тақозо этади.

2. Инвестиция фаолиятини молиявий бошқаришда молиялаштириш манбалари муҳим ўрин тутаяди. Шу билан бирга, улардан самарали фойдаланиш молиявий менежментнинг энг долзарб масалаларидан биридир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Кучкаров Ш., & Шеров А. Б. (2022). Таълим муассасаларини молиялаштиришда натижага йуналтирилган бюджетлаштириш истикболлари. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (2), 62-67.

2. Popkov V.P., Semenov V.P. *Organization and financing of investments*. - SPb.: Peter, 2001. - p. 22. (224 p.)

3. Sherov, A. B. (2022). Current issues of financing higher education institutions in the condition of an innovative economy. *Gospodarka i Innowacje.*, 21, 127-130.

4. Popkov V.P., Semenov V.P. Organization and financing of investments. - SPb .: Peter, 2001. - p. 22. (224 p.)
5. Igonina L.L. Investments. Уч.пос. - М.: Economist, 2005. - стр. 25.

**Худайбердиев У.** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси и.ф.н., доценти,  
- аутсорсернинг малакаси хавфи;
- натижани ўлчашнинг мураккаблиги билан боғлиқ хавф;
- аниқ таъминлаш учун стандартлар ва методологиянинг йўқлиги;
- аутсорсинг тури;
- аутсорсинг натижасида нормувофиклик хавфи норматив, саноат ёки бошқа талаблар;
- ноу-хау, янги, замонавий фойдаланиш хавфи технологиялар;
- Лойиҳани қониқарсиз лойиҳалаш ва амалга ошириш хавфи;
- керакли малакаларни баҳолаш (таълим, малака ошириш, сертификатлар, тажриба ва бошқалар);
- мувофиқ кадрлар сертификатининг мавжудлиги;
- халқаро аккредитация;
- тегишли сифат стандартлари мавжудлиги;
- тадбирлар;

- кхизматлар учун мувофиқлик сертификатларининг мавжудлиги;
- аутсорсинг жараёни билан боғлиқ иш тажрибаси;
- ўз мижозларидан ижобий фикрлар;
- аутсорсинг жараёнининг натижаси якуний ҳисобланади буюртмачи компания фаолиятининг натижаси;
- аутсорсингнинг натижаси кириш ҳисобланади мижоз компаниясидаги бошқа жараёнларни баҳолаш.

ҲСС тизимининг кўрсаткичлари бўйича баҳолашларнинг мавжудлиги буюртмачи ва аутсорсинг компанияси ўртасида шартномани имзолаш ва уни келгусида бажариш бўйича асослантирилган бошқарув қарорини қабул қилиш имконини беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Гильмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.
2. Федорова Е.А., Ермолов А.В. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016. - № 27 - С. 4-14.
3. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.–Т.: «Иқтисод–молия». 2008. – 260 б.
4. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. – 260 б.

**Хонкелдиева Гузал Шеровна** - д.э.н, профессор Ферганский государственный университет

**Каххорова Маликахон Аброрбек кизи** – ст.гр. 66-22 Менеджмент Ферганский политехнический институт Факультет «Управление в производстве»

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА В ЦЕЛЯХ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, СНИЖЕНИЯ УРОВНЯ БЕДНОСТИ И СОЗДАНИЯ БЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ**

**Аннотация:** в данной статье рассматриваются вопросы усовершенствования системы менеджмента для развития экономики, сферы услуг и сокращения уровня бедности. В статье подчеркивается неэффективность традиционной модели менеджмента и необходимость современной системы подходов, методов и инструментов, которая обеспечит эффективность управления. Автор рассматривает основные задачи менеджмента, такие как применения

инновационных стратегий и современных технологий для снижения уровня безработицы и повышения качества работы персонала в сфере услуг. Окончательная цель обсуждения этих вопросов – развитие сферы услуг и уменьшение уровня безработицы за счет снижения уровня бедности в государстве.

**Ключевые слова:** менеджмент, сфера услуг, уровень безработицы, инновационные технологии, инфраструктура, конкурентоспособность, снижение бедности.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyot, xizmatlar va qashshoqlikni kamaytirishni rivojlantirish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada an'anaviy boshqaruv modelining samarasizligi va boshqaruv samaradorligini ta'minlaydigan zamonaviy yondashuvlar, usullar va vositalar tizimiga ehtiyoj borligi ta'kidlangan. Muallif menejmentning asosiy vazifalari, masalan, ishsizlikni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar sifatini oshirish uchun innovatsion strategiyalar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni ko'rib chiqadi. Ushbu masalalarni muhokama qilishdan asosiy maqsad - xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shtatdagi qashshoqlik darajasini pasaytirish orqali ishsizlikni kamaytirishdir.

**Kalit so'zlar:** menejment, xizmat ko'rsatish sohasi, ishsizlik darajasi, innovatsion texnologiyalar, infratuzilma, raqobatbardoshlik, qashshoqlikni kamaytirish.

**Annotation:** This article discusses the issues of improving the management system for the development of the economy, services and poverty reduction. The article emphasizes the inefficiency of the traditional management model and the need for a modern system of approaches, methods and tools that will ensure management efficiency. The author considers the main tasks of management, such as the application of innovative strategies and modern technologies to reduce unemployment and improve the quality of personnel in the service sector. The ultimate goal of discussing these issues is the development of the service sector and the reduction of unemployment by reducing the level of poverty in the state.

**Keywords:** management, service sector, unemployment rate, innovative technologies, infrastructure, competitiveness, poverty reduction.

Управление является ключевым элементом развития экономики, снижения бедности и развития сферы услуг. Однако, современные проблемы экономики, такие как экономический рост, инновационное развитие, повышение уровня жизни населения могут быть достигнуты только при условии качественно нового подхода к менеджменту. И в связи с этим был установлен Указ Президента Республики Узбекистан «ОБ ОЧЕРЕДНЫХ РЕФОРМАХ ПО СОЗДАНИЮ УСЛОВИЙ ДЛЯ СТАБИЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ПУТЕМ УЛУЧШЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ СРЕДЫ И РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО СЕКТОРА», принятый 8 апреля 2022 года в котором утверждено следующее: «В целях реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы, сокращения бедности в два раза путем достижения инклюзивного и стабильного экономического роста, обеспечения

конкуренции в экономике, создания равных условий субъектам предпринимательства, ускорения полноценного перехода на рыночные отношения, повышения конкурентоспособности национальной экономики, а также резкого увеличения объема частных инвестиций и дальнейшего укрепления доверия бизнес-сообщества»[1].

В настоящее время традиционная модель менеджмента не способна функционировать и соответствовать новым вызовам рынка. Результатом этого является увеличение бедности, неэффективное использование человеческих ресурсов и ресурсов компаний, низкие показатели прибыльности и конкурентоспособности предприятий.

Для обеспечения эффективного управления нужна современная система подходов, методов и инструментов. Она должна обеспечивать обучение, подготовку, развитие и стимулирование руководителей компаний. Кроме того, система должна заключаться в постоянном обновлении задач, целей и стратегий компании в соответствии с новыми вызовами современного бизнеса.

В этом контексте основными задачами менеджмента являются:

- Эффективное использование инновационных технологий для улучшения продуктов, услуг и процессов;
- Улучшение качества услуг и укрепление позиций на рынке на основе общепризнанных стандартов;
- Устойчивое развитие и сокращение бедности на основе внедрения концепции ответственного бизнеса.

Инновационные технологии, используемые в менеджменте для эффективности управления инновационным процессом, который связан с обеспечением научно-технической новизны продукта или технологии, освоением их производства и распространением данного продукта (технологии) на рынке. В то же время переход на инновационный путь развития – это необходимость для многих предприятий в современных экономических условиях, повышения предпринимательской активности, улучшения инвестиционного климата и создания рабочих мест [2].

Улучшение качества услуг – это одна из важнейших стратегий для укрепления позиций компании на рынке. Качество услуг напрямую влияет на удовлетворенность клиентов, что, в свою очередь, влияет на привлекательность компании для потенциальных клиентов и на продолжительность существующих клиентских отношений. Важным элементом в улучшении качества услуг является систематический подход к управлению качеством.

Устойчивое развитие и сокращение бедности тесно связаны друг с другом, поскольку бедность является одним из главных препятствий для устойчивого развития и, в свою очередь, неустойчивое развитие может углублять бедность. Таким образом решение проблемы бедности требует

комплексного подхода, который будет учитывать не только экономические аспекты, но и социальные и экологические.[3]

Одним из важных направлений в менеджменте является построение системы управления персоналом. Она должна позволять сочетать и организовывать возможности, умения и опыт сотрудников и адаптировать их к конкретным задачам и целям. Это позволит повысить эффективность работы, уменьшение затрат и улучшение качества услуг.

Существует несколько подходов к построению системы управления персоналом, но все они включают следующие шаги:

1. Анализ бизнес-процессов компании и определение потребностей в персонале.
2. Определение требований к кандидатам на вакансии и разработка профилей должностей.
3. Поиск и отбор кандидатов на вакансии.
4. Обучение и адаптация новых сотрудников.
5. Оценка производительности сотрудников и разработка индивидуальных планов развития.
6. Мотивация и стимулирование сотрудников для достижения целей компании.
7. Развитие и поддержка корпоративной культуры и командного духа.[4]

При построении системы управления персоналом необходимо учитывать особенности компании, ее размер, сферу деятельности, культуру и ценности, а также требования законодательства. Важно также создать условия для развития и повышения квалификации сотрудников, чтобы они могли эффективно выполнять свои задачи и достигать поставленных целей.

Не менее важной является роли государственной политики в совершенствовании менеджмента в целях развития экономики, снижения бедности и развития сферы услуг. На данный момент она может существенно повлиять на сокращение безработицы, путем развития предпринимательства и инвестиционного климата.[5]

Государственная политика играет важную роль в совершенствовании менеджмента в целях развития экономики. Среди основных ролей государства можно выделить следующие:

1. Создание благоприятного экономического климата. Государство должно создавать условия для развития бизнеса, например, снижая налоги и регулируя инфляцию. Это помогает предпринимателям принимать риски и инвестировать в развитие своих компаний.
2. Регулирование рынка. Государство должно регулировать рынок, чтобы он функционировал эффективно. Например, государство может устанавливать стандарты качества продукции, защищать права потребителей и предотвращать монополии.

3. Образование. Государство должно инвестировать в образование, чтобы создать квалифицированный трудовой потенциал. Это помогает повысить уровень знаний и компетенций работников, что в свою очередь может привести к повышению производительности труда и увеличению конкурентоспособности компаний.

4. Инновации. Государство должно поддерживать инновации и исследования, чтобы создавать новые технологии и продукты. Это может стимулировать экономический рост и увеличить конкурентоспособность страны.

5. Развитие инфраструктуры. Государство должно инвестировать в развитие инфраструктуры, такой как транспортная система, энергетика и связь. Это помогает улучшить условия для бизнеса и повышает доступность товаров и услуг для населения.

Исходя из информации выше следует отметить, что государственная политика играет важную роль в совершенствовании менеджмента в целях развития экономики. Это помогает создать благоприятные условия для бизнеса, повысить уровень конкурентоспособности страны и улучшить качество жизни населения.

В целом, для успешного развития экономики, снижения бедности и развития сферы услуг необходимо построить систему управления, которая будет отвечать новым вызовам, а также поддерживать ее государственной поддержкой и национальными инвестициями. Первым шагом должно стать создание эффективной системы управления, которая позволит оптимизировать бизнес-процессы и повысить их эффективность. С помощью такой системы можно будет улучшить качество услуг, ускорить их предоставление, а также сократить издержки. Вторым шагом является поддержка инноваций и развития новых технологий. Для этого необходимо создание специализированных центров и лабораторий, которые будут заниматься поиском новых идей и разработкой новых продуктов и услуг. Это позволит не только улучшить качество жизни людей, но и создать новые рабочие места. Третьим шагом является обучение и развитие персонала. Современный менеджмент требует от сотрудников не только высокой квалификации, но и гибкости, адаптивности и способности к инновациям. Поэтому необходимо создание системы обучения и развития персонала, которая будет способствовать повышению его профессионального уровня и развитию личностных качеств.

Таким образом, совершенствование менеджмента является ключевым фактором для развития экономики, снижения бедности и развития сферы услуг. При этом необходимо уделять внимание всем аспектам менеджмента, включая создание эффективной системы управления, поддержку инноваций, обучение и развитие персонала.

### Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «ОБ ОЧЕРЕДНЫХ РЕФОРМАХ ПО СОЗДАНИЮ УСЛОВИЙ ДЛЯ СТАБИЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ПУТЕМ УЛУЧШЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ СРЕДЫ И РАЗВИТИЯ ЧАСТНОГО СЕКТОРА», от 08.04.2022 г. № УП-101
2. Вартанова М.Л. Инновационные технологии в совершенствовании управления промышленными предприятиями // Экономические отношения.— 2016. — № 4. — С. 93-108. — <https://bgscience.ru/lib/37532/>
3. Узбекистан намерен к 2030 году сократить уровень бедности в два раза. 23.05.2018. // <http://kommersant.uz/uroven-bednosti/>.
4. Зелепухина С. Построение системы управления персоналом: с чего начать? // <http://dps.smrtlc.ru>
5. Плотников В.А., Халил М.Р.А. Приоритеты государственной политики регулирования устойчивого развития и стимулирования зеленой экономики // *Beneficium* —2020. 1(34).46—56.

**Алиев Парахат Кеунимжаевич** – Қорақалпоқ давлат университети “Шаҳар қурилиши ва хўжалиги кафедраси” стажёр-ўқитувчиси

### САНОАТ ҚОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ МАҚСАДИДА САНОАТ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Аннотация.** Мақолада саноат қорхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш усули сифатида саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмлари баён этилган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикасида миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантириш шароитида саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш йўналишлари аниқланган ва уни такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Аннотация.** В статье описаны экономические механизмы оказания промышленных услуг как способ повышения конкурентоспособности промышленных предприятий. Кроме того, в условиях инновационного развития национальной экономики Республики Узбекистан определены направления совершенствования экономического механизма оказания производственных услуг, разработаны предложения и рекомендации по его совершенствованию.

**Abstract.** The article describes the economic mechanisms for the provision of industrial services as a way to increase the competitiveness of industrial enterprises. In addition, in the conditions of innovative development of the national economy of the Republic of Uzbekistan, directions for improving the economic mechanism for the provision of production services were determined, proposals and recommendations for its improvement were developed.

**Калит сўзлар:** саноат хизматлари, саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизми, саноат корхоналарининг рақобатбардошлиги.

**Ключевые слова:** услуги промышленного характера, экономический механизм оказания услуг промышленного характера, конкурентоспособность промышленных предприятий.

**Keywords:** industrial services, economic mechanism of rendering industrial services, competitiveness of industrial enterprises.

XX асрнинг ўрталаридан бошлаб ижтимоий ишлаб чиқариш таркибини хизматлар соҳаси улушини ошириш томон ўзгартиришнинг барқарор тенденцияси кузатилмоқда. Бугунги кунда миллий иқтисодиёт таркибини шакллантиришда муҳим рол ўйнайдиган хизмат кўрсатиш соҳасининг ЯИМ таркибидаги улушини ошириш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш йўналишлари ва суръатлари, турли соҳалар ва фаолият ўртасидаги муносабатларни ўрнатиш кўпчилик иқтисодий ривожланган мамлакатлар учун хосдир.

Бироқ, Т. В. Сергеевич таъкидлаганидек, "ЯИМ таркибида қиймат жиҳатидан иқтисодиётда хизмат кўрсатиш соҳасининг ортиб бораётган улуши туфайли саноат секторининг улуши мутаносиб равишда пасайиши кузатилади деб прогноз қилиш нотўғри," [1].

Хорижий тажриба шуни кўрсатадики, хизмат кўрсатиш соҳасининг ЯИМ ва аҳолининг бандлиги таркибидаги улуши барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишни автоматик равишда таъминламайди ва ўз-ўзидан иқтисодий ўсиш омили бўлолмайди. Иқтисодиётнинг муваффақиятли ривожланиши хизмат кўрсатиш соҳасининг миқдорий кўрсаткичларига эмас, балки, унинг технологик ва инновацион табиати даражасига боғлиқ.

Глобаллашув ва ахборот инқилобининг оқибатлари натижасида саноат товарларининг рақобатбардошлиги, қоида тариқасида, нарх усуллари билан эмас, балки саноат тавсифига эга хизматлар ҳисоби, яъни, ишлаб чиқариш жараёнининг барча босқичларида транзакцион харажатларни сезиларли даражада камайтиришга имкон берадиган ва ноёб сифатли маҳсулот яратиш орқали таъминланади. Бундан ташқари, бугунги кунда илм сиғимли тармоқлар (нанотехнологиялар, электроника, сунъий интеллект, дастурий таъминот ва ҳ.к.) ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг муҳим омиллари ҳисобланади ҳамда ушбу тармоқларнинг муваффақиятли ишлаши алоқа, ахборот ва ижтимоий-функционал хизматларнинг ривожланиши билан бевосита боғлиқ.

Ўзбекистон Республикасида, ЯИМ таркибида хизматлар соҳаси улуши 41,5% дан ошмайди [2] ва ҳали ҳам асосан аънавий хизматлардан (савдо ва транспорт) ташкил топган, бу иқтисодиётнинг ушбу секторини секин ишлаётганидан далолат беради. Шунинг учун хизмат кўрсатиш соҳасини янада ривожлантириш йўналишларидан бири юқори технологияли хизматлар – ахборот-коммуникация, консалтинг, маркетинг, реклама,

логистика, молиявий, шунингдек, аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилайдиган ижтимоий хизматларнинг ривожланишини тезлаштиришдир.

Ўзбекистонда саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизми ҳозирги ижтимоий-иқтисодий муҳит туфайли бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга. Ушбу механизмнинг субъектлари саноат комплекси корхоналари (ишлаб чиқариш корхоналари ва фаолияти саноат ишлаб чиқариши ёки саноат маҳсулотлари билан боғлиқ корхоналар), давлат органлари вакиллари ва ходимлари (меҳнат жамоалари). Саноат хизматларининг асосий истеъмолчилари саноатнинг илим сиғимли тармоқларидир. Корхона ҳажмининг мезонига кўра, саноат хизматларига асосий талаб йирик саноат корхоналари томонидан шакллантирилади.

Саноат мажмуасининг кичик корхоналари, қоида тариқасида, саноат хизматларига камроқ муҳтож ва кўпинча саноат маҳсулотлари қиймат занжирида тор ихтисослашуви туфайли етказиб берувчилар сифатида ҳаракат қилишади. Кўпинча йирик саноат корхоналари хизмат турларига қараб, бир вақтнинг ўзида, ҳам саноат хизматларининг истеъмолчилари ҳам ишлаб чиқарувчилари ҳисобланишади. Саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмида давлатнинг вазифаси фақат бошқарув билан чекланмайди. Янги технологияларни ишлаб чиқиш ва уларни бизнес соҳасида фойдаланишни янада қулайроқ қилиш учун юқори хавф ва харажатлар (масалан, илмий-тадқиқот ёки ахборот-коммуникация хизматлари) туфайли давлат уларнинг асосий буютмачиси ҳисобланади. Ходим саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмининг субъекти сифатида кенг ваколатлар билан ажралиб туради: бир нечта тегишли соҳаларда юқори малакали (фанлараро малака), мустақил қарор қабул қилувчи, ва ҳ.к.

Миллий саноат мажмуасини, хусусан, саноат хизматларини илғор ривожлантириш учун янги таълим тизимини шакллантириш алоҳида аҳамиятга эга. "Амалиёт шуни кўрсатадики, ўзгарувчан ташқи муҳитнинг замонавий шароитида технологик ускуналар ва жиддий хўжалик юритиш тажрибасини ҳатто давлат томонидан кучли қўллаб-қувватлаш ҳам хўжалик юритувчи субъектларга ривожланиш мақсадларига эришишни тўлиқ қафолатлай олмайди. Молиявий қўллаб-қувватлаш ва техник ва технологик янгиликлар ўз-ўзидан корхона капиталининг кенгайтирилган такрор ишлаб чиқарилишини тўлиқ таъминлай олмайди. Интенсив ривожланиш йўлига ўтишнинг зарур таркибий қисмлари интенсив янгиланган маҳсулотлар ишлаб чиқарадиган корхоналарда ташкилий ва бошқарув инновацияларини жорий этиш ва инсон капиталини етиштиришдир" [3]. Ишлаб чиқариш табиатининг ўзгариши туфайли таълим тизимини саноат хизматларини кўрсатиш мақсадида тез ривожланаётган бозорга мослаштириш учун объектив эҳтиёж мавжуд. Саноат хизматларини кўрсатиш асосан интеллектуал меҳнатга асосланади ва шунинг учун ходимларга юқори талаблар қўйилади. Шу билан бирга, чуқур ихтисослашган малакалар энди

етарли эмас, балки, фанлараро малакага ҳам эҳтиёж ортиб бормоқда. Бундан ташқари ходимнинг шахсий хусусиятлари: унинг ижодкорлиги, мустақил равишда қарор қабул қилиш қобилияти, ўзгарувчан бозор шароитларига тезда жавоб бериши, доимий ўрганиш қобилияти ва истаги ҳам жуда муҳим аҳамият касб этади.

Лекин, ишлаб чиқариш, таълим ва фан ўртасидаги ўзаро таъсир тамойилларини радикал қайта кўриб чиқишни талаб қиладиган таълим тизимини қайта қуришни дарҳол амалга ошириб бўлмайди. Бундан ташқари, янги кадрларни тайёрлаш ҳам вақт талаб этади. С. Ю. Солодовников таъкидлашича: "бошқача қилиб айтганда, янги постиндустриал ишчининг ривожланиши ва янги технологияларни жорий этиш бир танганинг икки томонидир. Янги технологияни амалиётга жорий этиш учун, баъзан бир йил кифоя қилади ва ундан самарали фойдалана оладиган юқори малакали ишчиларни тайёрлаш учун 5 йилдан 10 йилгача вақт кетади, шундан келиб чиқиб, олий ва ўрта таълим тизимида баъзи ёндашувларни кўриб чиқиш керак" [4]. Узоқ муддатли истиқболда янги саноатни шакллантиришнинг яна бир шарт-бу умрбод таълимга асосланган юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини чуқур ривожлантириш, шунингдек, саноат корхоналарини ўқув жараёнига жалб қилишдир. Хулоса қилиб айтганда саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмни такомиллаштириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ

1) Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти таркибий сиёсатини ишлаб чиқишда саноат хизматларини кўрсатишнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш;

2) саноатнинг юқори технологияли, илм сиғимли ва экспортга йўналтирилган тармоқларида саноат хизматларининг устувор ривожланишини таъминлаш;

3) саноат комплексини рақамлаштиришни тезлаштириш учун "ақлли" ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва "ақлли" ечимларни амалга ошириш учун асос бўлган саноат интернет восиларидан ("ақлли транспорт", "ақлли логистика", "ақлли уй" ва ҳ.к.) фойдаланишни кенгайтириш керак.

4) юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизими "бутун ҳаёт давомида доимий таълим", "саноат корхоналарини ўқув жараёнига жалб қилиш" ва "илғор ривожланиш" тамойилларини ҳисобга олган ҳолда қайта қараб чиқилиши шарт;

5) бизнесни юритиш маданиятини очиклик ва шаффофликни ошириш йўналиши бўйича ўзгартириш лозим.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Т.В.Сергиевич. «Роль промышленности в экономическом развитии Республики Беларусь в контексте перехода к постиндустриальному обществу» Устойчивое развитие экономики:

состояние, проблемы, перспективы сборник трудов IX Международной научно-практической конференции. – 2015.

2. [stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2](http://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2)

3. Т. В. Сергиевич. Экономическое стимулирование производства товаров интенсивного обновления: теоретико-методологические основы // Право. Экономика. Психология. – 2017. – № 3 (8). – С. 49–55.

4. С.Ю.Солодовников. Тенденции и перспективы развития занятости и создания социально-научного сообщества в условиях модернизации транзитивной экономики: на примере Республики Беларусь //Вестн. Полоц. гос. ун-та. Сер. Д. Экон.и юрид. науки. – 2015. – № 6.

**Сафаров Фарход Анварович** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси доценти в.б., PhD

## **ХИЗМАТЛАР СОҲАСИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ОМИЛЛИ ТАҲЛИЛИ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

Мамлакатлар ва минтақаларнинг ижтимоий-иқтисодий тизими унга таъсир кўрсатувчи ташқи ва ички омилларнинг ўзаро таъсири билан изоҳланади. Мазкур омиллар тизимнинг ривожланишига ижобий ёки салбий таъсир кўрсатиши ҳам мумкин. Ҳар қандай иқтисодий тизимнинг омилли таҳлили ўрганилаётган кўрсаткичлар ва ҳодисаларнинг дастлабки қийматидан омиллар, иқтисодий, сиёсий ҳодиса ва жараёнларнинг мамлакат фаолияти натижаларига таъсирини кўзда тутувчи якуний натижаларга босқичма-босқич ўтишни назарда тутади.

Тадқиқотлар доирасида хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишига омилларнинг таъсирини баҳолаш учун бир омилли ва кўп омилли таҳлил усулларидан фойдаланиш таклиф этилади. Шу тариқа, бир омилли таҳлилни ўтказишда битта омилнинг мамлакат ЯИМга таъсири босқичма-босқич аниқланади ва кўп омилли таҳлил жараёнида эса, бир вақтнинг ўзида бир нечта омилларнинг мамлакат ЯИМга таъсири баҳоланади.

Таҳлил жараёнида энг кўп қўлланиладиган усул – бу тўғридан-тўғри омилли таҳлил усули ҳисобланади, у ўз навбатида натижавий кўрсаткич ҳисобланувчи мамлакат ЯИМга таъсир қилувчи омилларни аниқлашга имкон беради. Ўз навбатида, натижавий кўрсаткич ва муайян омиллар тўплами ўртасидаги боғлиқликлар аниқлаштирилади. Хизмат кўрсатиш соҳасида яхлит тарзда хизматлар ҳажмига таъсир кўрсатадиган инновациялар соҳасидаги йўналишларга ойдинлик киритишимиз мумкин бўлади.

Мамлакат иқтисодиёти ва унинг субъектлари учун омилли таҳлилни амалга оширишнинг аҳамияти жуда катта, яъни у бутун иқтисодий

тизимнинг ривожланишига ижобий ва салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган омилларни аниқлашга имкон беради. Тарих шундан далолат берадики, омилли таҳлил кўплаб соҳаларда, шу жумладан иқтисодиётда, умуман олганда мамлакат ва унинг алоҳида субъектлари фаолиятига омилларнинг таъсирини ўрганишда кенг қўлланилади. Кўрсаткичлар (ҳодисалар) ўртасидаги боғлиқликларни аниқлаштириш, мазкур кўрсаткичлар ўртасидаги тафовутларни қисқартириш, таъсир доирасининг кучсизлиги ёки бундай таъсирларнинг сезиларли эмаслиги шароитида уларни истисно қилиш омилли таҳлилнинг мақсадлари сифатида майдонга чиқади.

Хизмат кўрсатиш соҳасида омилли таҳлил мамлакат ЯИМга таъсир кўрсатувчи корхоналарнинг инновацион фаоллиги, корхона раҳбариятининг ўзгаришларни амалга оширишга тайёрлиги, хусусан инновацион тараққиёт йўлига ўтишга мойиллиги каби омилларнинг таъсирини баҳолашга имкон беради. Стратегияларни ишлаб чиқишда омилли таҳлил ҳудудларни ривожлантириш борасидаги ҳатти-ҳаракатлар натижасида ҳудудларни истиқболли ривожлантириш йўналишларини ва шу билан бир қаторда истиқболли ҳудудларни аниқлаштириш имконини беради.

Қуйида бевосита омилли таҳлилни амалга оширишда кенг қўлланилувчи усулларни кўриб чиқамиз.

Бевосита омилли таҳлилни амалга ошириш ҳисоб-китобларда қуйидаги функциядан фойдаланишни назарда тутади:

$$y = f(x), \quad (1)$$

бунда  $x = \{x_i\}$ ,  $i = 1, \dots, n$  –  $f(x)$  функцияси боғлиқ бўлган ўзгарувчан омилларнинг муайян бир тўплами, яъни натижавий кўрсаткич вазифасини бажарувчи  $y$  кўрсаткич.

Кўпайиши ва ёки аксинча камайиши мумкин бўлган омилларнинг ўзгаришини ҳисобга олган ҳолда, натижавий кўрсаткич қийматини ҳисоблаш амалга оширилади. Ўзгарувчан омиллар натижавий кўрсаткичнинг ўзгаришига олиб келади. Олинган ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда, натижага омилларнинг таъсир даражаси тўғрисида хулоса қилиш лозим бўлади, ўз навбатида мазкур таъсир ижобий ёки салбий бўлиши мумкинлигини эътибордан четда қолдирмаслигимиз лозим.

Омилли таҳлил режалаштирилган  $\omega_0$  ва ҳақиқий  $\omega_1$  қийматларнинг фарқини ўлчаш жараёнида учта асосий вазифани ҳал қилишга имкон беради:

$$\Delta\omega = \omega_1 - \omega_0, \quad (2)$$

$$\delta\omega = \frac{(\omega_1 - \omega_0)}{\omega_0} \quad (3)$$

$$i_\omega = \frac{\omega_1}{\omega_0}, \quad (4)$$

Шу сабабли ҳар бир таҳлил қилинаётган кўрсаткич учун мутлақ, нисбий ва экспоненциал фарқлар ҳисоб-китоб қилинади, бу айти пайтда, омилли таҳлилнинг асосий вазифаси бўлиб ҳисобланади ва у 5-7 формула бўйича ҳисоблаб топилади:

$$\Delta y = \Phi(\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_n), \quad (5)$$

$$\Delta y = \psi(\delta x_1, \delta x_2, \dots, \delta x_n), \quad (6)$$

$$I_y = I(i_{x_1}, i_{x_2}, \dots, i_{x_n}), \quad (7)$$

бунда  $\Delta, \delta, i$  қиймат белгилари – бу мос равишда омил ёки натижавий кўрсаткичнинг мутлақ, нисбий четланишлари ва ўзгариш индекси.

Тадқиқот доирасида таклиф этилаётган услубларнинг қўлланилиши мамлакат иқтисодиётининг натижавий кўрсаткичи ҳисобланувчи ЯИМга хизмат кўрсатиш соҳаси омилининг ўзгариш индексининг таъсирини баҳолаш имконини беради.

Натижавий кўрсаткичнинг мутлақ ўзгаришига тўғри келувчи омилининг мутлақ ўзгаришини аниқлаш учун 8-формуладан фойдаланиш таклиф этилади.

$$\Delta y = \sum_{i=1}^n A_{x_i} = A_{x_1} + A_{x_2} + \dots + A_{x_n}, \quad (8)$$

Ушбу формула асосида таҳлилни ўтказишда олинган функциянинг таркибий қисмларини хизмат кўрсатиш соҳасининг  $A_{x_i}$  алоҳида кўрсаткичларига ажратиш талаб қилинади, уларнинг ҳар бири  $i$ -омил ўзгаришининг республика ЯИМ ўзгаришига таъсирини аниқлашга имкон беради.

Омилли тизимларни детерминистик моделлаштиришда моделларнинг қуйидаги турларини ажратиш талаб қилинади:

аддитив моделлар:

$$y = \sum_{i=1}^n x_i = x_1 + x_2 + \dots + x_n, \quad (9)$$

мультипликатив моделлар:

$$y = \prod_{i=1}^n x_i = x_1 \cdot x_2 \cdot \dots \cdot x_n, \quad (10)$$

каррали моделлар:

$$y = \frac{x_1}{x_2}, \quad y = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{\sum_{j=n+1}^m x_j}, \quad (11)$$

бунда  $y$  – натижавий кўрсаткич,  $x_i$  – омиллар.

Тақдим этилган омилли таҳлил турларининг таснифи кўплаб вазифаларни ҳал қилишга, шунингдек уларнинг ечимини топишда умумий қонуниятларни аниқлашга имкон беради.

Юқорида келтирилган назарий қарашлар ва усулларни ўрганиш асносида хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантиришга таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаштиришга доир масалаларни ҳал этиш борасида турли усулларни ўз ичига олган алгоритмни таклиф этамиз. Ушбу алгоритм қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

- Мақсад ва вазифаларни белгилаш – ижтимоий-иқтисодий ривожланишни тўхтатувчи омилларни аниқлаш
- Ишлайдиган гипотезаларнинг тавсифи
- Тадқиқот воситалари – сўровномаларни ишлаб чиқиш
- Маълумотлар йиғиш – хизмат кўрсатиш корхоналари раҳбарлари орасидан экспертлар сўрови
- Соҳа ривожини тўхтатувчи омилларни аниқлаш бўйича тадқиқот натижаларни таҳлил қилиш
- Дискриминантли, омилли ва кластерли таҳлилни узвий кетма-кетликда амалга ошириш
- Тадқиқот натижалари талқини, хизмат кўрсатиш корхоналари ривожланишига тўсқинлик қилувчи омилларни гуруҳлаш, тадқиқот натижаларини шарҳлаш
- Тавсиялар ишлаб чиқиш.

Юқорида келтирилган алгоритм асосида омилли таҳлилни амалга ошириш хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришга таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаш, уларнинг таъсир даражасини ўрганиш ва олинган натижалар асосида тегишли қарорларни қабул қилишга имкон яратади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа: Учебник. – 2-изд., доп. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 266 с.
2. Никифорова Н.А. Факторные модели финансово-хозяйственной деятельности, приемы и методы анализа: Лекция / Моск. инст. потреб. кооп. кафедра аудита. - М.: Маркетинг, 2001.- С.127.
3. Сафаров Ф.А. Условия и факторы эффективного реинжиниринга бизнес-процессов в условиях Узбекистана // Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси. – Нукус. – 2015. – №2. – Б. 74-77.
4. Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И., Сафаров Ф.А. Омилли таҳлил ва унинг асосий элементлари / Иқтисодийни модернизациялаш шароитида хизмат кўрсатиш соҳаси самарадорлигини ошириш ва инновацион фаолиятни такомиллаштириш муаммолари. Республика анъанавий илмий-амалий конференцияси материаллари. III қисм. – Самарқанд, 2014. Б. 186-189.

**Ш.С.Олтаев** – СамИСИ доценти, и.ф.н.

### **КАМБАҒАЛЛИК МУАММОСИ ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Аннотация:** Ушбу мақолада камбағаллик тушунчаси, камбағаллик муаммоси ва уни мамлакатда бартараф этишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган.

**Калит сўзлар:** камбағаллик тушунчаси, камбағаллик муаммоси, иқтисодий ислоҳотлар.

**Abstract:** This article describes the concept of poverty, the problem of poverty and the specific features of its elimination in the country.

**Keywords:** the concept of poverty, the problem of poverty, economic reforms.

**Аннотация:** В данной статье описывается понятие бедности, проблема бедности и особенности ее ликвидации в стране.

**Ключевые слова:** понятие бедности, проблема бедности, экономические реформы.

Бугунги кунда камбағаллик муаммоси умумбашарий ҳодиса сифатида дунёдаги барча давлатларда учрайди. Замонавий дунёда камбағаллик феномени кенг тарқалган бўлиб, Африка давлатлари аҳолисининг 44,6 фоизи, Лотин Америкасида 55 фоиз ва Осиёда 33,5 фоиз аҳоли камбағал ҳолатда ҳаёт кечиради. Камбағалликнинг бундай таҳликали динамикаси нафақат иқтисодий балки ижтимоий ва сиёсий муаммоларни келтириб чиқаради[1]. Мамлакатлар иқтисодий тараққиётидаги тафовутдан келиб чиқиб камбағаллик ҳар хил бўлиб, нисбий мазмунга эга бўлади.

Қашшоқлашиш, камбағаллашиш муаммосини олдини олиш, аҳоли бандлигини таъминлаш, уларнинг тадбиркорликка оид интилишларини рағбатлантириш иқтисодий ислоҳотларни руёбга чиқаришнинг муҳим калити ҳисобланадики пировардида аҳоли фаровонлиги яхшилана боради. Шу ўринда таъкидлаш керакки, аҳоли даромадлардаги тенгсизлик бозор тизимининг белгиси булар экан, бу тизимда камбағалларнинг бўлиши объектив ҳодисадир. Шу сабабли камбағалликни тугатиб бўлмайди, лекин унинг миқёси қисқариши мумкин. Боиси камбағаллик миллатнинг соғлиги, меҳнатга лаёқати ва илмий салоҳиятига путур етказди. Шунингдек унинг оқибати натижасида давлат бюджетининг пасайиши ва сиёсий жараёнларнинг кескинлашишига сабаб бўлади.

Мамлакатимизда камбағаллик муаммосининг кескинлигини 2020 йил 25 январда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномасида илк бор маълум қилди. Хусусан мурожаатномада ҳудудларда, айниқса, қишлоқларда аҳолининг аксарият қисми етарли даромад манбаига эга эмаслиги, ҳисоб-китобларга кўра, улар тахминан 12-15 фоизни ташкил этиши таъкидланди. Бу ўринда гап кичкина рақамлар эмас, балки аҳолимизнинг 4-5 миллионлик вакиллари ҳақида бормоқда. Шу боис мамлакатимизда иқтисодий ислоҳотларнинг пировард мақсади камбағалликни қисқартириш ва аҳоли фаровонлигини оширишдир. Иқтисодий таҳлилларга кўра камбағалликни ойлик ёки нафақа миқдорини кўпайтириш, кредит бериш билан қисқартириб бўлмайди. Ушбу стратегик мақсадларга ҳамма учун тенг имконият яратадиган юқори иқтисодий ўсишга эришиш, боқимандаликни тугатиш ҳамда кичик бизнес ва хусусий

тадбиркорликни ривожлантириш орқали эришилади. Бугунги кунда Ўзбекистондаги ислохотлар “Инсон манфаатлари ҳар нарсадан устун” тамойилига асосланган бўлиб, бу тамойил Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш дастурининг “ҳеч кимни ортида қолдирмаслик” тамойили билан ҳамохангдир. Расмий статистика маълумотларига кўра, Ўзбекистонда камбағалликка қарши курашда сезиларли ютуқларга эришилди. Хусусан камбағаллик даражаси 2000 йилдан бери икки баробарга камайиб, 2000 йилдаги 28% дан 2019 йилда 11% га тушди. Шу билан бирга худудий тенгсизлик сақланиб қолмоқда ва ҳатто йилдан-йилга ошиб бормоқда[2]. Мамлакатимизда 2020 йил ҳукумат томонидан киритилган қатъий карантин чораларидан сўнг барча хўжалик юритувчи субъектларнинг ярми пандемиянинг дастлабки босқичида ўз фаолиятини вақтинчалик тўхтатди. Ялпи ички маҳсулот прогноз қилинган 5,7 фоизли иқтисодий ўсиш 1,6 фоизга тушиб кетди. Ташқи савдо, инвестициялар ва пул ўтказмалари ҳажми сезиларли даражада камайди. Буларнинг бари иқтисодиётга ва, айниқса, аҳолининг камбағал қатламига салбий таъсир кўрсатди. Аҳоли жон бошига тўғри келадиган даромаднинг ўсиши барқарор бўлиб қолгани билан, ҳисоб-китобларга кўра, аҳолининг 1,3 фоизи ёки 448 минг нафар инсон инқироз туфайли камбағаллик домига тушди[3]. Камбағаллик тушунчасига иқтисодий адабиётларда жуда кўп тавсифлар берилган. Хусусан, Халқаро ташкилотлар томонидан ҳам камбағаллик тушунчасига таърифлар берилган ҳамда бу ёндашувлар муайян хусусиятга эга. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) томонидан камбағаллик категориясига қуйидагича қарашлар мавжуд.

“Камбағаллик бу танлов ва имкониятларни етишмаслиги ва инсонлар кадр-қимматини поймол қилиниши бўлиб, инсонларни жамиятдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларда иштирок этишдаги имконият ҳамда қобилиятининг етишмаслигини англатади. Бу дегани, оила учун белгиланган миқдорда озиқ-овқат ва кийим-кечак йўқлиги, ўқиш учун мактаб ёки поликлиниканинг мавжуд эмаслиги, озиқ-овқат етиштириш учун ернинг, пул топиш учун ишлашнинг ва кредит олишга зарур шароитнинг яратилмаганидир. Шунингдек одамлар, уй хўжаликлари ва бошқа иқтисодий субъектлар хавфсизлиги таъминланмаганлиги, ноқулай санитария шароитида яшашини англатади”[4]. Бу таърифда камбағалликнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий турларига алоҳида эътибор қаратилганлигини кўришимиз мумкин. Инсон жамиятдаги барча сиёсий жараёнларда фаол иштирокчи бўлиши, бунинг учун дастлабки зарурий моддий неъматлар билан таъминланиши, билим олиши ва турли касалликларда даволаниши керак бўлади. Бунда иш ўрнига эга бўлиш, бизнесни юритишда кредит олиш механизмларини яратилганлигига жиддий қаралади. Бирлашган миллатлар ташкилоти 1992 йилнинг 12 декабрида А-

RES- 47-196-сонли резолюция қабул қилиб, ҳар йили 17 октябрни “Халқаро қашшоқликка қарши кураш куни”, деб эълон қилган.

Жаҳон банки томонидан ҳам камбағаллик муаммосини қисқартириш муҳим йўналишлардан бири бўлиб, камбағаллик категорияси қуйидагича изоҳланади. “Камбағаллик - кўп ўлчамга эга бўлиб, инсонларни аниқ даромадларга эга бўлмаслигидир. Бу кам даромадга эга инсонларни яшаш учун зарур бўлган асосий товар ва хизматларни етарли даражада сотиб ололмаслиги, шунингдек соғлиқни сақлаш ва таълимнинг ёмонлиги, тоза сув ва санитария шароитининг ёмонлашиб бориши, хавфсизликни етарли эмаслигини билдиради[4].” Бу таърифнинг муҳим жиҳати шундаки, камбағалликнинг сабаби сифатида етарлича бўлмаган даромадларга эътибор берилади. Аҳоли даромадларини камлиги ёки умуман йўқлиги тирикчилик воситаларини сотиб ололмаслигини келтириб чиқаради. Етарлича овқатланмаслик эса касаллик ҳамда камбағалликка йўл очади. Бугунги кунда ҳар икки халқаро ташкилот ўз олдига турли дунёвий муаммоларни хусусан, жаҳонда камбағалликни қисқартиришга алоҳида эътибор бермоқда.

Юқорида билдирилган фикрлар ўз хусусиятига эга бўлиб, бизнинг фикримизча, камбағаллик бу - бозор иқтисодиёти шароитида ўзгарувчан даромадлар тенгсизлиги ва бошқа ижтимоий, иқтисодий, тиббий ва демографик жараёнлар билан боғланган муносабатларнинг маҳсули бўлиб, инсонларнинг минимал истеъмоли учун зарур неъматларнинг етарли бўлмаслигидир. Қашшоқлик эса узоқ давом этган камбағалликнинг натижаси бўлиб, инсоннинг ҳаёт кечириши учун зарур бўлган даромад ва ресурсларни харид қилиш имкониятининг йўқлигини билдиради. Албатта, камбағаллик категорияси орқали ифодаланадиган ижтимоий муносабатларни инсоннинг қобилиятлари ва уларнинг иқтисодий ҳаётда ишга солинишидан ташқарида тасаввур қилиш мумкин эмас. Мамлакатимиз қишлоқ жойларида камбағалликни камайтириш, аҳоли бандлигини таъминлашда томорқа хўжалиги муҳим ўрин тутди. Аҳолига уруғлик ва кўчат етказиб бериш, хизматлар кўрсатиш бўйича 244 та “Томорқа хизмати” корхонаси фаолияти йўлга қўйилди. Томорқада янги лойиҳаларни амалга ошириш учун давлат бюджетидан 350 млрд. сўм ажратилди. Кейинги йилларда республикамизнинг кўплаб туманларида томорқадан самарали фойдаланиб аҳоли бандлиги ва шахсий манфаатдорликка эришишда юқори натижаларга эришмоқдалар. Мисол учун Асака, Олтинкўл, Наманган, Уйчи, Ангор, Жаркўрғон, Китоб, Тайлоқ, Самарқанд, Янгийўл, Зангиота, Олтиариқ, Қува каби туманлардаги аксарият томорқаларда 2-3 марта ҳосил олиниб, битта оила 8-10 сотихли экин майдонидан ўртача 50-60 миллион сўм, баъзилар эса 100 миллион сўм даромад қиляпти. Демак “Темир дафтар”га киритилган оилаларни томорқадан фойдаланишларини қўллаб-қувватлаш уларни камбағалликдан чиқаришга имкон беради. Мамлакатимизда иш билан банд бўлмаганларни

ижтимоий ҳимоя қилиш билан бирга, меҳнат бозорини бошқаришда кейинги икки йил ичида давлатнинг фаоллиги сезиларли даражада ортмоқда. Бу аввало, фуқароларнинг меҳнат ва тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, иш билан таъминланиш соҳасида ижтимоий кафолатлар бериш ва мажбурий меҳнатга батамом барҳам беришда кўзга ташланади. Хусусан, мамлакатимизда 2020 йилдан бошлаб “Ҳар бир ёшга бир гектар” лойиҳаси амалиётга тадбиқ этила бошланди. Мазкур лойиҳа ёшлар ўртасида ишсизликни олдини олиш, аҳоли камбағаллигини камайтиришга қаратилган бўлиб, лойиҳа доирасида 25 минг гектардан зиёд ер майдонлари ёшларга ажратилди. Кейинги йилларда давлатимиз раҳбарининг айнан ишсизлик муаммосини ҳал этишга қаратилган чора-тадбирлари бу борада қатор ижобий натижалар бермоқда.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Бедность в современной экономической системе. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.01. кандидат экономических наук. Хуснутдинова Лилия Мухаметвалеевна. Казань. 2012 г. 3-стр.

2. 2021-2030 йилларда камбағалликни қисқартириш стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги. 2021.

3. Всемирный банк 2020 год. Результаты опроса «Слушая граждан Узбекистана».

4. <https://ru.qwe.wiki/wiki/Poverty>.

**Юлдашова Н.З.** - Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти “Иқтисодий таҳлил ва статистика” кафедраси ассистенти

### **АГРОСЕРВИСДА ХИЗМАТЛАР САМАРАДОРЛИГИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТИЗИМИ ВА АГРОСЕРВИСДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

**Аннотация:** ушбу мақолада аграр соҳада хизмат кўрсатувчи корхоналарнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар тизими ва аҳамияти келтирилган, ҳамда агросервис соҳасида самарадорликни ошириш бўйича тавсия ва таклифлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** рақамли иқтисодиёт, аграр сектор, самарадорлик кўрсаткичлари, агросервис, ташкилий-иқтисодий кўрсаткичлар, агросервисда самарадорликни ошириш йўллари.

**Аннотация:** в данной статье представлены система и значение показателей, отражающих эффективность предприятий, оказывающих услуги в аграрном секторе, а также рекомендации и предложения по повышению эффективности в агросервисе.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, аграрный сектор, показатели эффективности, агросервис, организационно-экономические показатели, пути повышения эффективности агросервиса.

**Abstract:** this article presents the system and value of indicators that reflect the efficiency of enterprises providing services in the agricultural sector, as well as recommendations and suggestions for improving efficiency in the agricultural service.

**Keywords:** digital economy, agricultural sector, performance indicators, agricultural service, organizational and economic indicators, ways to improve the efficiency of agricultural service.

Қишлоқ хўжалиги тармоғи, иқтисодиётнинг бошқа тармоқлар каби, фермер ва деҳқон хўжалиқларга кўрсатилаётган хизматлар самарадорлигини ошириш ҳам иқтисодий ва ижтимоий аҳамиятга эгадир, чунки деҳқон ва фермерларнинг муваффақияти бевосита ундаги самарадорликнинг даражасига боғлиқ. Лекин агросервис корхоналарида самарадорлик масаласи етарли даражада ўрганилмаган.

Рақамли иқтисодиёт шароитида агросервисда хизмат кўрсатиш корхоналари ресурслардан оқилона фойдаланиш йўллари аниқловчи восита сифатида хизмат кўрсатиш самарадорлигини оширишнинг манбалари ва омилларини аниқлаш ва таҳлил қилиш муҳим ҳисобланади. Агросервис корхоналари самарадорлигини таҳлил қилишда унинг унумдорлик билан ўзаро алоқадорлигини баҳолаш муҳим ўринга эга бўлиб, бунда унумдорлик умумий самарадорликни аниқлашда миқдорий ёндашувни белгиловчи кўрсаткич ҳисобланади. Мамлакатимизда ҳозирги ривожланиш даврида агросервис корхоналарига, шу билан биргаликда агросервис хизматларига қўйилаётган талаблар ошиб бормоқда. Бу эса агросервис соҳасида иқтисодий ўсишнинг омилларини аниқлаш ҳамда иқтисодий самарадорликка эришишни зарурат этади.

Агросервис соҳасида иқтисодий самарадорликни ошириш хизмат кўрсатиш хусусиятлари ва шароитларига боғлиқ булиб, бир қатор омиллар таъсири билан белгиланади. Бизнинг фикримизча, агросервисда бу омилларни сифат ва миқдорий кўрсаткичлар асосида баҳолаш, ушбу омилларнинг ҳар бирининг аграр соҳа ва тармоқлари ўсишига таъсирини аниқлаш – илмий тадқиқот ҳисобланади.

Агросервис корхоналарнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларини аниқлашдан олдин, унинг назарий жиҳатларини кўриб чиқишимиз жоиз. Шунини қайд этиш керакки, мамлакатимизда агросервисга оид самарадорлик тушунчаси, ҳамда унинг назарий масалалари деярли кам ёритилган. Холбуки, агросервис корхоналарнинг самарадорлигига таъсир этувчи омилларни ўрганиш доимо олимларнинг эътиборини тортган. Агросервис хизматлари самарадорлигининг умумий масалалари кўплаб хорижий ва маҳаллий муаллифлар томонидан ўрганилган. Қишлоқ

хўжалигига хизмат кўрсатиш соҳасидаги фундаментал тадқиқотлар С.Л.Брю<sup>106</sup>, Б.Твисс<sup>107</sup>, Л.И.Абалкин<sup>108</sup>, томонидан ўрганилган. Кейинги босқичдаги тадқиқотлар И.Н.Буздалов<sup>109</sup>, П.И.Чужинов<sup>110</sup>, М.Қ.Пардаев<sup>111</sup>, Қ.Д.Мирзаев<sup>112</sup>, Ғ.Қудратов<sup>113</sup> каби таниқли олимлар томонидан ўтказилган. Шу билан биргаликда, агросервис хизматлари соҳасида ҳал этилмаган кўплаб муаммо ва масалалар мавжуд бўлиб, бу масала ва муаммоларнинг аксарияти илмий асослаш ва ечим топишни талаб қилади. Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсишига таъсир этувчи асосий омиллардан бири сифатида техник хизмат кўрсатишни ўрганиш масаласи долзарблигича қолмоқда. Буларнинг барчаси ушбу муаммони кейинги ўрганишнинг долзарблиги ва аҳамиятини олдиндан белгилаб беради. Шу муносабат билан биз қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг ўсишига агросервис корхоналар фаолиятини тавсифловчи кўрсаткичлар тизимини ўрганишга ҳаракат қилдик.

Қишлоқ хўжаликда агросервис корхоналарга баҳо бериш ва уларнинг самарадорлигини аниқлаш учун бир нечта кўрсаткичлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу кўрсаткичлар агросервис корхоналарнинг ҳолатини аниқлайди. Шу соҳада олимларнинг фикларидан келиб чиққан ҳолда, биз агросервис корхоналарнинг молиявий ва хўжалик фаолиятини ифодаловчи кўрсаткичлар тизимини ишлаб чиқдик. Ушбу кўрсаткичлар тизими ўз навбатида бир нечта бўлимларга бўлинади:

